

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**BAKALAVRIATNING O‘ZBEK FILOLOGIYASI
YO‘NALISHI UCHUN**

**O‘ZBEK TILI TARIXI
FANIDAN**

MA`RUZALAR MATNI



Nukus -2014

Ma'ruzalar matni Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek filologiyasi kafedrasining 2014-yil _____ yig'ilishida (___-sonli bayonnoma) qayta ko'rib, tuzatishlar kiritilib ma'qullangan.

Kafedra mudiri: dots. F.Bobojonov

Tuzuvchi: f.f.n., dots. I.Kazakov

Taqrizchi: f.f.d., prof. Abdinazimov Sh.

1-mavzu: Kirish. Til tarixi fanining predmeti va mazmuni. Til tarixi fani bo'limlari

R E J A:

1. Til haqida tushuncha.
2. Til tarixi fan sifatida
3. O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari.
5. Til tarixi fani bo'limlari

Til tarixini o'rganar ekanmiz, milliy til, adabiy til va jonli til atamalarini tushunib olish kerak. Har bir til avvalo, tarixiy zarurat tufayli vujudga kelgan, fikrni fon bilan almashtiruvchi tovushli signal sistemasidir. Bu signal sistemasi ma'lum tartibga solingan yoki tabiiy ravishda rivojlanuvchi bo'ladi.

Umumiy me'yor darajasiga tushurilmagan, ma'lum xudud uchungina tushunarli bo'lgan lahja va shevalar-jonli til deb ataladi. Jonli til adabiy tildan yozuv shakliga ega emasligi, ma'lum me'yorga tushurilmaganligi, qo'llanish doirasining torligi bilan farqlanadi.

Adabiy til umumxalq tilining ya'ni butun sheva va lhjalar yig'indisining yuqori ko'rinishidir. Adabiy til yozma va og'zaki shaklga ega bo'lib, ma'lum me'yorlarga va koidalarga qat'iy bo'ysunadi. Shevalarda fonetik variantlilikka ega bo'lgan so'zlar adabiy tilda faqat bir xil shaklda qo'llaniladi. Masalan, *tuproq* (adabiy tilda) – *to'proq-to'rpoq*, *bo'yin* (adabiy tilda)-*bo'yin-mo'yin* (xorazm shevasida). Adabiy tilning qo'llanish doirasi ham juda kengdir. Ilmiy, badiiy, publitsistik hamda ommaviy axborot sohalarining barchasi uchun umumiy tushunarli bo'lgan til ko'rinishidir.

Milliy til esa millatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Millatning jonli tili va adabiy tili birgalikda milliy tilni tashkil qiladi.

Adabiy til va jonli tilni alohida-alohida ajratish mumkin emas. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bir-birini boyitib boradi. Adabiy tilni xalq shevalari hisobiga boyitishda ayniqsa so'z ustalari-yozuvchi va shoirlarning xizmati kattadir. Ular dialektizmlardan o'rinli foydalanib shevaga xos so'zlarni adabiy tilga qabul qilishadi. Bu sohada ayniqsa A.Qahhor, A.Qodiriy, Oybek, Chulpon, Fitrat va boshqalarning xizmatlari katta. Ma'lumki, ayrim narsa va hodisalarning adabiy til lug'atlarida uchramaydigan nomlari shevalarda mavjuddir. Bunday so'zlarni hech ikkilanmasdan adabiy tilga qabul qilish lozim.

Har bir til o'zining uzoq tarixiga ega. Til tarixi naqadar chuqur o'rganilar ekan, shu qadar murakkablashib boradi. Tilimizning hozirgi kunidan uzoq o'tmishiga qarab qanchalik uzoqlashsak, ma'lumotlar ham shunchalik xiralashadi. Aniq takitlar o'rnini taxmin va farazlar egallaydi. Keyinchalik esa ana shu taxminlarni faktlarga aylantirish uchun ma'lumotlar to'plana boshlanadi.

O'zbek tilining ham uzoq o'tmishi mana shunday taxmin va farazlar bilan belgilanadi.

O'zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo'lib, uning o'tmishi ham bu tillar bilan bog'liqdir. Hozirgi turkologlar butun turkiy tillarni yagona tildan kelib chiqqanligi haqidagi g'oyaga qo'shilmoqda. Bu g'oya etarli dalillar bilan isbotlangan.

Turkiy tillarning barchasi uchun umumiy tarixiy manba hisoblangan qadimgi turkiy til Oltoy nazariyasiga ko'ra mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys va yapon tillari bilan birgalikda Oltoy tillar oilasiga kiradi. Oltoy tillarini Ural tillari: ugor, fin va samodiy tillari bilan qarindosh deb hisoblovchilar ham bor. Biroq bu taxminlar asoslanmagan. Shunday bo'lsa ham olimlar Oltoy nazariyasi tarafdori.

Mazkur nazariyaga ko'ra turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining tarixi, Oltoy tillarining qadimda bir til bo'lgan Oltoy davridan boshlanadi. Tarixiy hujjatlarning yo'qligi sababli bu davrning vaqt chegarasi noma'lum. Oltoy bobo tili dastlab tungus-manchjur va turk-mo'g'ul tillariga; turk-mo'g'ul tili esa turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Shundan so'ng turkiy tillar tarixida Xun davri (miloddan avvalgi III asrdan milodning IV asrigacha) boshlanib, turkiy tillar ikki tarmoqqa: sharqiy xun tarmog'i va g'arbiy xun tarmog'iga bo'linadi. Turkiy tillar tarixida Xun davrining alohida ko'rsatilishiga o'sha davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy evropagacha bo'lgan hududni ishg'ol qilgan Xun xonligining vujudga kelib, keyinchalik uning ikkiga ajralishi asos qilib olinadi.

Xun davridan keyin Qadimgi turkiy til davri boshlanadi. Bu davr turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qadimgi turkiy tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Turkiy tillarga tegishli dastlabki yozma yodgorliklar ham shu davrga oid.

Turkiy tillar geneologik jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lgan guruh hisoblanib so'zlashuvchi aholi soni 300 million atrofida.

Turkiy tillar fonetik jihatdan singormanizm, morfologik jihatdan esa agglyutinatsiya bilan xarakterlanadi.

O'zbek adabiy tili tarixini o'rganishning asosiy manbalari quyidagilar: 1. yozma obidalar, tarixiy, ilmiy asarlarning matnlari; 2. sheva materiallari; 3. joy nomlari toponimlar, gidronimlar; 4. kishi ismlari; 5. hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari; 6. tarixiy-lingvistik lugatlar; 7. turkologiyaga oid o'zbek (yoki boshqa turkiy) rus va xorijiy olimlarning tadqiqotlari. Bu manbalarga suyanan holda til tarixini mukammal o'rganib to'g'ri xulosalar chiqarish mumkin. Demak, o'zbek tilining tarixiy ildizlari bizgacha yozma manbalar orqali ma'lum bo'lgan qadimgi turkiy til davriga, undan ham oldingi ildizlar esa, Oltoy nazariyasi taxminlariga asoslanadigan bo'lsak Oltoy tiliga borib taqaladi.

«Har bir xalq tilining shakllanishi shu tilda so'zlashuvchi xalqning kelib chiqish tarixi bilan bevosita bog'langan» degan edi G'.Abdiraxma'nov. Haqiqatdan ham til millatning, xalqning birlamchi belgisidir. Tilini yo'qotgan millatni xalq deyin qiyin.

Ikkinchi bir masala ma'lum bir xalq va uning tili turli xil davrlarda turli xil nomlanishi mumkin. Hatto xalq nomi bilan til nomi boshqa-boshqa nomlanishi ham mumkin.

O'zbek xalqi va uning tili ham turli xil davrlarda turli xil atamalar bilan nomlanib kelgan. O'zbek xalqining va uning tilining shakllanishi haqida tarixiy va lingvistik adabiyotlarda quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: Akademik A.Asqarov taxriri ostidagi «O'zbekiston xalqlari tarixi» Toshkent, 1992 yil. 6-bet. «Hozirgi kunda o'zbek deb ataluvchi millat aniq hududiy chegara doirasida, iqtisodiy, madaniy til birligida XI-XII asrlarga kelib xalq sifatida shakllandi». A.Aliev va Q.Sodiqov muallifligidagi «O'zbek adabiy tili tarixidan» kitobida ham shunga yaqin fikr ta'kidlanadi: XI asr oxiri va XII asrlarda qarluq qabila dialekti tarkibiga chegil, arg'u, tuxsiy, yag'mo kabi qabila dialektlari qo'shilib, karluq qabilalar uyushmasi va lahchasini tashkil qildi. Ana shu qarluq lahjasi negizida o'zbek elati va tili shakllangan. O'zbek elati tilining shakllanishida o'g'uz va qipchoq lahjalarining izlari ham sezilarli bo'lgan. Lekin bu davrda o'zbek atamasi elat va uning tili ma'nosida ommalashmagan edi». G'.Abdiraxma'nov o'zbek xalqining va o'zbek tilining shakllanish jarayonini XI-XIII asrlar oralig'i deb ko'rsatadi. G'.Abdiraxma'nov «O'TA» jurnali 1989 yil 2-sonidagi «O'zbek xalqining etnonegizi va o'zbek tilining shakllanishi haqida» maqolasida quyidagicha fikrlarni uchratamiz: shunday qilib, hozirgi o'zbek xalqi O'rta Osiyoning qadimgi so'g'd, sak, massaget, kango'y, xorazm va boshqa etnik guruhlariga keyingi davrda qo'shilgan turkiy urug' va qibilalarning birlashmasi asosida shakllandi. Bu xalkning shakllanishi XIII asrga kelib tugallandi. O'zbek tilining shakllanishi boshqa turkiy tillardan ajralib chiqish jarayoni XI-XIII asrlarni o'z ichiga oladi. Shakllangan bul xalq, avvalo turkiy xalq deb, tili turkiy til deb nomlanadi. Ammo boshqa turkiy xalq va tillardan farqlash uchun «O'rta Osiyo turkiysi», o'zbek yoki chag'atoy tili deb nomlanib kelingan. Aslida «o'zbek» etnonimi xalq shakllangandan keyinroq XV asrning I yarmida qo'llana boshladi.

Demak, bu fikrlarga asoslanib o'zbek xalqining va o'zbek tilining shakllanish jarayonini XI-XIII asrlar oralig'i deb belgilay olamiz. Endi bu xalqning va uning tilining nomlanishiga to'xtalsak. Yuqoridagilardan ma'lumki, o'zbek xalqi avvalo turkiy atamasi bilan nomlangan. Biroq bu atama etnonim sifatida o'zbek xalqi shakllanmasdan oldin ham qo'llanilgan. VII-VIII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yodnomalarini ham «Turk-bodun», «Ko'kturk» kabi birikmalarda xalq nomi sifatida qayd etiladi. Bu etnonim haqida adabiyotlarda quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: G.A.Xidoyatovning «Mening jonajon tarixim» Toshkent-1992, 13-14 bb. Kitobida quyidagi faktlar keltiriladi: turklarning kelib chikishi haqida turli fikrlar bor. Xitoylar turklarni xunlar avlodlari deb hisoblaganlar. Turklar Xun itifoqi shaxobchalaridan birining avlodlari bo'lgan, deb hisoblashga hozir asoslari bor. G'arb tarixchilari turklar skiflarga... qarindosh bo'lganligini taxmin qilishadi. Turk so'zning o'zi «kuch, qudrat» degan ma'nolarni anglatadi va u biron-bir ayrim qabila yoki knyaz` urugi nomi bilan bog'liq emas. Aftidan, «Turk» turk atamasi siyosiy ma'nodan ko'proq etnografik ma'noda ishlatilgan. G'.Abdiraxma'nov yuqorida qayd etilgan maqolasida turk etnonimi haqida quyidagilarni bayon qiladi:

... Shunday qilib, O'rta Osiyo va Qozog'iston xududida joylashgan turli turkiy urug'lar yagona xalq sifatida VI asrdayoq shakllangan edilar, bu xalq umumiy nom bilan turkiy xalq, tili turkiy deb nomlandi. Yuqorida nomi tilga olingan «O'zbekiston xalqlari tarixi» kitobining 1-jildi 62-63-betlarida «Turk» etnonimi haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: «VI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoda yirik ko'chmanchilar davlati-Turk xoqonligi tarkib topdi.

... «Turk» atamasi etnik mazmunni anglatmay bir necha qabila xalqlar birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama sanalgan S.Tolstoy «Turkiy» so'zi «yosh, o'ylanmagan jangchi» ma'nosini anglatishini isbotladi. So'ng bu so'z «qabila ayonlari» va nihoyat siyosiy jixatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan».

«O'zbek adabiy tili tarixi» darsligida turk atamasining etimologiyasiga kengroq to'xtab o'tilgan. Tarixchilardan V.V.Bartol'd, S.P.Tolstov, A.N.Bernshtamlar O'rxun-Enasoy bitiklaridagi turk atamasiga asoslanib, bu so'z qabilalar uyushmasi ma'nosini anglatgan degan fikrni ilgari surishadi. Xitoy

yilnomalarida bu soʻz aloxida jangchilar guruhi maʼnosida, qadim eron tilida askarlarning bosh kiyimi maʼnosida, Alisher Navoiy asarlarida «Oʻzbek xalqi» maʼnosida, «Boburnoma»da va kadimgi uygʻur yodgorliklarida «kuchli va qudratli» maʼnolarida qoʻllanilgan. G.Vanberin fikricha esa turk soʻzi sodda maʼnosini bildirgan.

Bu fikrlarni umumlashtirib xuosa chikaradigan boʻlsak, turk soʻzi VI asrda shakllangan, Markaziy Osiyoda yirik davlat barpo qilgan qabilalar uyushmasiga nisbatan qoʻllanilgan va keyinchalik shu xalqning va uning tilining nomini anglatgan. XI-XIII asrlarga kelib bu xalq parchalana boshlangan va uning negizida bir kancha millatlar paydo boʻlgan shundan keyin turk, turkiy atamaları yangi shakllangan eng katta etnik guruh oʻzbeklarga nisbatan qoʻllanilgan deyish mumkin. XVI asrdan boshlab esa turk atamasi oʻrni oʻzbek atamasi ola boshlagan. Hozirgi kunda turk atamasi etnonim sifatida XI asrda Oʻrta Osiyodan Anatoliyaga koʻchib ketgan saljuqiylarning avlodlari sanalgan hozirgi turk xalkiga nisbatan qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Tursunov U., Oʻrinboev B., Aliev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
 - 2.Muxtarov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1994.
 - 3.Abduraxmaʼnov Gʻ., Shukurov Sh. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent, 1973.
 - 4.Abduraxmaʼnov Gʻ. Oʻzbek xalqining etnogenizi va oʻzbek tilining kelib chikishi. OʻTA. 1989.
- 2-son.
- 5.Tursunov U., Muxtarov J., Raxmatullaev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992.

2-mavzu: Qadimgi turkiy til davri. Oltoy tillari oilasi haqida tushuncha

REJA:

1. Qadimgi turkiy til haqida soʻz.
2. Bitigdashlarning til xususiyatlari
 - a. fonetik xususiyati.
 - b. morfologik.
 - v. leksik
3. Fonema va leksemalarning asrlar davomida shakllanishi, oʻzgarishi va hozirgi holati.
4. Oltoy tillari oilasi.

Turkiy tillarning bizga maʼlum boʻlgan eng qadimgi yozma yodgorliklari eramizning V-X asrlarga oid boʻlib, turkshunoslikda bu davrga nisbatan qadimgi turkiy til atamasi qoʻllaniladi. Adabiy til meʼyorlarini belgilashda yozma yodgorliklar tili asos vazifasini oʻtaydi. Sababi, yozma til, birmuncha tartibga keltirilgan va meʼyorlashtirilgan boʻladi. Shuni inobatga olgan holda oʻzbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari maʼlum boʻlgan qadimgi turk davridan boshlanadi deya ayta olamiz.

Aytib oʻtishimiz joizki, koʻhna yodgorliklar tili har qanday fikrni ifodalashga qodir, taraqqiy qilgan, fonetik, grammatik, uslubiy jihatdan mukammal til boʻlgan. Bunday xulosa qilib aytishimiz mumkinki, turkiy til oʻsha davrga qadar ham ulkan rivojlanish bosqichini bosib oʻtgan. Afsuski, bularni tasdiqlashga oʻsha davrlarga mansub boʻlgan yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan.

Qadimgi turk davriga mansub yodgorliklar turk runiy (yaʼni Oʻrxun-enasoy), uygʻur, moniviy, soʻgʻd, braxma, sureniy yozuvlari boʻlib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda «turk-runiy», «Oʻrxun-enasoy» atamaları bilan yuritiluvchi yozuv turkiy xalqlarning bizga maʼlum boʻlgan eng koʻhna xatidir. Turk-runiy yodgorliklari XVII asrning ikkinchi yarmidan maʼlum boʻla boshlanganiga qaramay, ularni toʻliq oʻrganish ishlari birmuncha keyinroq amalga oshirildi. Bu jarayonda yodgorliklar oʻqilishi hamonoq tadqiqotlar avj oldi. Bu xatning kalitini topib, uni oʻqishga muvaffiq boʻlgan olim ulugʻ turkshunos, daniyalik Vilʼ gelm Tomson edi. U 1893 yili bu ishni amalga oshirdi. Yozuvdagi ilk soʻzlardan biri «täŋgri» (ollox, tangri) soʻzi edi. U xudo maʼnosini beradi. Keyinchalik bu ishlar rus turkshunoslari V.V.Radlov, Yadrintsevlar tomonidan davom ettirildi.

Turk-runiy yodgorliklarining eng yiriklari turk xoqon (amaldor)lari xotirasiga qoʻyilgan qabr toshlari hisoblanadi. Bu xatning toshlardan tashqari oltin, kumush, suyak, yogʻoch, sopol buyumlarga yozilgan namunalari ham bor: Sharqiy Turkistondan qogʻozga bitilgan yodgorliklar ham topilgan.

Til xususiyatlariga va joʻgʻrofiy oʻrinlarga qarab runiy yodgorliklar uch guruhga ajratiladi:

1. Enasoy yodgorliklari

2. Talas yodgorliklari

3. O'rxun yodgorliklari

Enasoy yodgorliklari tarkibiga Enasoy (Enisey) daryosi atroflari, Tuva, Oltoy, Xakasiya, Krasnoyarsk o'lkalaridan topilgan bitiglar kiritiladi. Ular asosan, toshlarga, qoyalarga bitilgan bo'lib, tanga, metall buyumlarga, oltin va kumushga yozganlari ham uchraydi. Bu guruh yodgorlari uncha yirik emas: eng yiriklari 10-15 yo'lli, kichiklari esa bir, ikki, uch yo'lli matnlardir. Runiy bitiglarining qadimiysi bo'lgan Enasoy yodgorliklari eramizning V-VII asrlariga to'g'ri keladi. Bu yodgorliklar hozirda qizil, Minisinsk, Abakan, Krasnoyarsk, Moskva, Xel'sinki va Sankt-Peteburg shaharlarining muzeylarida saqlanmoqda ularning soni 150 yaqin.

Talas yodgorliklari Talas vodiysidan topilgani uchun shu nomni olgan, ammo bu guruh yodgorliklarining soni 12 bitig. Ular asosan qoya toshlarga, tosh va tayoqchalarga yozilgan.

O'rxun guruhiga mansub bitiglar turk-runiy yodgorliklarining eng yiriklari hisoblanadi. Ular VII-VIII asrlarga mansub bo'lib, O'rxun va Salinga daryolari yaqinidan topilgan. Qutlug' xaqon (Ungin), Vilga xaqon, Kultegin, Tonyuquq, Kulichur, Mo'yunchur bitigtoshlari shular jumlasidandur.

Ushbu bitiglar mashhur turk xoqonlari sharafiga o'rnatilgan ular turkiy yozma adabiyotining ilk namunalaridir. Shuningdek, amaldorlar bilan bog'liq tarixiy voqealarni bayon qiluvchi yirik hajmli tarixiy-badiiy asardir.

Runiy so'zining asl ma'nosi «sirli, yashirin, tilsimli» demakdir (runik yozuvi).

Qadimgi turk davriga oid yodgorliklarning yana biri uyg'ur yozuvidir. Ushbu yozuv eramizning VI-VII asrlarida so'g'd xati asosida shakllangan va uzoq davr maboynida turkiy xalqlarning asosiy yozuvi vazifasini o'tab kelgan. Mashhur tilshunos olim Muxammad Qashg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida uni «turk yozuvi» deb yozadi va qadimligini ta'kidlaydi.

Uyg'ur yozuvi O'rta Osiyo turkiy xalklari orasida XV asr ohirlariga qadar arab xati bilan birga iste'molda bo'lgan. Bunday xulosa qilish mumkinki, Runiy xatidagi yodgorliklar qadimgi turk davrigagina oid bo'lsa, bizgacha saqlanib qolgan uyg'ur yozuvi yodgorliklar davri birmuncha keng: ular qadimgi turkiy (V-X), eski turkiy (XI-XIV) va hatto eski o'zbek tili (XV) davrlariga mansub hisoblanadi.

Bu xatdagi yodgorliklarning eng ko'hnalari VI-X asrlariga mansub ushbu davrga oid juda ko'pgina yozma yodgorliklar mavjud. Ular orasida esa Sharqiy turk madaniy muhitida yaratilgan obidalarining o'zni salmoqlidir.

Uyg'ur yozuvidagi qadimgi turk davriga oid diniy falsafiy asarlar uch guruhga ajratiladi: budda, moniviy va xristian yodgorliklari. Bularning ichida esa budda yodgorliklari ko'proq tarqalgani hisoblanadi.

Budda yodgorliklaridan biri sanskritcha «Suvarnaprabhasa» asarining xitoycha variantidan turkiy tilga tarjimasidir. Uning turkcha nomi «Altun o'ndug yaruq yalt'iq' qopda ko'trulmush nom eligi» (Oltin rangli nur tovlanadigan hammadan buyuk bo'lgan kitob tojdori) bo'lib turkshunosligimizda qisqacha «Oltin yoruq» deb atalgan. Ushbu asarni X asrda Beshbaliqda yashagan Singqu Soli tutung Xitoy tilida tarjima qilingan. Asarning o'nga yaqin qo'lyozmasi bor. Nisbatan to'liq bo'lgan qo'l yozmasi XVII asr ohirida ko'chirilgan. Xozirgi vaqtda Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda.

Yana bir budda yodgorligi «Maytri simit» (Maytri simit nom bitigi) deb ataladi. «Maytri»-bo'lg'usi budda, «simit»-uchrashuv ma'nolarini anglatadi. Eng mukammal qo'lyozmasi 1959 yilda Qumul shahri yaqinidan topilgan (Sharqiy Turkiston). Asar Partanakshit ismli shaxs tomonidan qadimgi turkiy tilga tarjima qilingan. Asar tilining O'rxun-enasoy tiliga yaqinligi mazkur yodgorlik turkiy tilga taxminan IX asrda o'g'irilgan degan imkonni beradi.

Budda yodgorliklari orasida Turfondan topilgan «Sekiz yukmak», «Gishastvistik» sutrasi, «Shahzodalar Qalyanamqara va Papamqara haqida qissa» va budda afsonalaridan parchalar ham mavjud.

Moniviy yodgorliklariga misol qilib «Xuastuanift» (moniviyar tavbanomasi) asarni ko'rsatish mumkin. Asar dastlab qadimgi eron tillaridan birida yaratilgan bo'lib, so'ngra qadimiy turkiy tiliga tarjima etilgan. Asarning tili O'rxun-enasoy tiliga yaqinligi uchun qadimgi turk davrida tarjima qilinganligini ko'rsatadi.

Xristian yodgorliklariga misol qilib (ular kim) «Xristianlikning sig'inish bitigi»ni ko'rsatish mumkin.

Qadimiy turkiy tilning hozirgi o'zbek tiliga bo'lgan ta'siri, tilimiz taraqqiyotida tutgan o'zni xususida gap ketganda, avvalo xuddi o'sha yodgorliklar tili xususiyatlariga to'xtashga to'g'ri keladi. Bu esa tabiiy holdir. Fonetik, morfologik, leksik o'zgarishlar tufayli fonemalarning, so'zlarning taraqqiyot bosqichlarini esa quyida ko'rib o'tamiz.

Fonetik o'zgarishlar. Ma'lumki, yozma yodgorliklar qadimgi turkiy tilda 8 ta unli bo'lganligini ko'rsatadi. Bular quyidagilar: a, a, ʔ, i, o, o', u, u. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra ular ikkiga bo'linadi: orqa qator va old qator unlilar.

Orqa qator unlilari: a, ʔ, o, u.

Old qator unlilari: a, i, o', u.

Lablarning ishtirokiga ko'ra:

Lablangan unlilar: a, a, ʔ, i.

Lablanmagan unlilar: o, o', u, u.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi a unlisi yodgorliklar tilida ikki mustaqil tovush sifatida farklanadi: old qator a va orqa qator a. Orqa qator a unlisi qattiq morfemalarda, a esa yumshoq fonemalarda keladi. Masalan, *bash* (besh), *sab* (so'z), *alp* (bahodir) singari. I va i ham mustaqil tovushdir. I qattiq morfemalarda, i esa yumshoq morfemalarda keladi: *yʔ* (yil), *boltʔ* (bo'ldi), *yinchga* (ingichka) shaklida.

Qadimgi turkiy tilda lablangan orqa qator Oltin Urda lablanmagan old qator o' ga qarama-qarshi qo'yilgan:

Ot (olov=o't, dori, tor (tuzoq)=to'r (uyning to'ri).

U va u unlilari ham mustaqil tovushdir:

Uchdi (o'ldi), toquz (to'qqiz).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida a, o, a, e, u, o' unlilari mavjud. Qadimgi turkiy tildagi a saqlangan, a va o' fonemalari hozirgi o'zbek adabiy tili va singormanizimsiz lahja hamda shevalarda o ning oldiga siljishi natijasida konvergensiyaga uchrab, bir fonemaga aylangan. Ya'ni o ga. U va u unlilari ham xuddi shu taxlitda bitta u ga aylangan, i va ʔ fonemalari bilan ham shu xodisani kuzatamiz.

Qadimgi turkiy tilda b (yabg'u), m (ardam), ʔ (qapʔg'), lab undoshlari mavjud. Sirg'iluvchi lab undoshi f yo'q. V undoshi uchun maxsus harf yo'q, o'rnida b ni bildiruvchi harf ishlatiladi. B harfi hozirgi o'zbek tilida ba'zi o'rinlarda i ga aylangan. Masalan, bung-mung, banmen; v ga o'tgan hollari sub-suv, ab-ov;

D ning z ga o'tishi: adzu-ezgu, adaq-ayaq.

Z ning y ga o'zgarishi: qazg'u-qayg'u, chazan-chaen, quzn-quyi

Y ning z ga o'tishi: eyimi-ezimin, ko'zg'ul-qo'yg'il.

Morfologik jihatdan o'zgarishlar. -tash, -tash, -dash qo'shimchalari –dash shaklida saqlangan.

Ko'plik ma'nosini ifodalovchi –lar, -lar variantlari hozirgi tilimizda saklangan: baglar (beklar), qunchuyar (xonimlar).

Egalik ma'nosini (-m shaxs birlikdagi) –m qo'shimchasi orqali aniqlangan. Hozirda ham shu holat mavjud: apa-apam (bobom), at-at'm (otim) kabilar.

Kelishiklar:

Qaratqich kelishigi: -n'ng, -ning, -nung, -nung hamda bag'n'ng, og'lan'n'ng.

Tushum kelishigi: -g', -g, -n, -nʔ, -ni shaklida: tashig' (toshni), ishig (ishni), kuchug (kuchni).

Jo'nalish kelishigi: -qaru, -g'aru, -karu, -qa, -ka: og'uzg'aru (o'g'uz tomonga), abgaru (uy tomonga).

Sifat turkumiga oid –li qo'shimchasi –l'g', -lig, -lug' holida mavjud. Masalan, qag'anl'g'-xoqonliq, ekinlig-ekinli, bodunlug'-xalqli. -s'z, -siz, -suz, -so'z, -siz. Yag'ʔz-duxmansiz, belgisiz-ilmsiz, yolsuz-yo'lsiz, og'suz-onasiz: -s'g', -sich, -simon: Quls'g'-qulsimon, bagsich-beksimon. Son turkumiga oid: Ag'u, agu: javlovchi –ov ni ifodalagan: altag'u-oltov, ikagu-ikov, uchegu-uchov. Olmoshga oid: Hamma o'rnida qamug', alqu iste'molda bo'lgan. Har o'rnida sayu bo'lgan. Hech urnida nang bo'lgan. Leksikaga oid: Qulon-qulon, yovvoyi eshak: Qaya (qoya)-katta tosh. Taqi-ham (hozir tag'in). Qishin-qishi bilan. Yovu-yomon. Qarlig'och-qaldirg'och. Tolug'-yoqimli. Tansuq-tansiq. Bazram-bayram. Tuli-do'l. Tagu-tevaragida. Og'i-dushman. Qazg'u-qayg'u. Sig'tamoq-yig'lab siqtamoq. Qulun-qulun (ikki yoshli toy).

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdurahma'nov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy tili. Toshkent, 1993.
2. Aliev A., Sadiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1988.
3. O'zbek adabiyoti. Toshkent, 1959. I jild.
4. Sovremennaya tyurkologiya. Jurnal. 1985. № 6.

3-mavzu: Qadimgi turkiy-run bitiklari. Run yozuvi yodgorliklari bilan bog'liq ilmiy-tarixiy ma'lumotlar

REJA:

1. O'rxun, Enasoy, Talas yodgorliklari.
2. Yodgorliklarning til xususiyatlari.
 - a) fonetik xususiyati; b) leksik xususiyati; v) morfologik xususiyati
3. Run yozuvi yodgorliklari haqida.

Turkiy xalqlarning ajdodlari qadimda oramey, so'g'd, Xorazm, moniy va oraxmey yozuvlaridan shuningdek, turkiy run va uyg'ur yozuvlaridan foydalangan. Oramey, Xorazm, so'g'd va shunga uxshash boshqa yodgorliklari bizgacha juda kam etib kelgan va juda qisqa matnlardan iborat. Asosiy manbalar turkiy run va uyg'ur yozuvlarida etib kelgan. Bu yozuv namunalari toshga, teriga, yog'ochga va qog'ozga bitilgandir.

Turkiy run yodgorliklarining eng yiriklari turk amaldorlari xotirasiga qo'yilgan qabr toshlaridir. Bu xatning toshlardan tashqari oltin, kumush, suyak, yog'och, sopal buyumlariga yozilgan namunalari ham bor. Shuningdek, Sharqiy Turkistondan qog'ozga bitilgan yodgorlik ham topilgan.

Turkiy run yozuvi. Bu yozuv yodgorliklari XVIII asrning oxirlarida topila boshlagan bo'lib, qariyb 100 yil davomida qaysi xalqqa tegishli ekanligi va qanday mazmunlardan iborat ekanligi noma'lum bo'lib keldi. XIX asrning oxirlarida aniqrog'i 1893 yilda avvalo doniyalik olim V.Tomsen shu bilan birga rus olimi Radlovlar bu yozuvni o'qishga muvofiq bo'lgan.

Matn mazmundan kelib chiqib yodgorliklar turkiy xalqlariga tegishli ekanligi aniqlangan. Ulardan yiriklari quyidagilardir:

1. Kultegin bitig toshi. (Shahzoda kun). Bu yozuvni 1889 yil rus ziyolisi Yadressev topgan. Yozuvning til xususiyatlari haqida Radlov keyinchalik Malov ilmiy ish olib borgan.

2. Bilga xoqon bitigtoshi.
3. To'nyuquq bitigtoshi.
4. Ungin bitigtoshi.
5. Kulichur bitigtoshi.
6. Mo'yunchur bitigtoshi.
7. Ark bitigtoshi.

Bu yozuv tilshunoslikka oid adabiyotlarda O'rxun-Enasoy, Enisey-O'rxun yozuvlari Sibir yozuvlari, turkiy run yozuvlari va sharqda dilbarjin yozuvlari nomlari bilan mashhurdir. Ibn Arabshohning ko'rsatishicha turkiy run yozuvining harflari 41 ta. Biroq Ibn Arabshoh alifboni keltirmagan. O'rxun yozuvi 41 ta harfdan iborat. Bu yozuv yodgorliklari zamon va makon faqliliklariga ko'ra 3 variantga ega.

1. Enasoy yodgorliklari.
2. Talas yodgorliklari.
3. O'rxun yodgorliklari.

Enasoy atroflari, Tuva, Oltoy, Kanasiya, Krasnoyarsk o'lkalaridan topilgan bitiglar Enasoy yodgorliklari guruhiga kiradi. Ular toshlarga, qoyalarga bitilgan bo'lib, orasida tanga metall buyumlar, oltin va kumushga yozilganlari ham uchraydi. Enasoy yodgorliklari u qadar yirik emas, eng yiriklari o'n-o'n besh yo'lli, kichiklari bir, ikki, uch yo'lli matnlardir. Enasoy yodgorliklari runiy bitiglarining qadimiyalaridan bo'lib, V-VII yuzliklariga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda Krasnoyarsk, Moskva, Xel'sinki hamda Sankt-Peterburg muzeylarida saqlanmoqda. Ularning yalshi soni 150 ga yaqinlashadi. Qirg'izistondan topilgan Talas yozuv yodgorliklari oltita toshda va bir cho'p tayoqqa bitilgan. Chizma xususiyatlari bilan Enasoy yodgorliklariga yaqin turadi.

D.S.Nasirov va Q.Paxratdinovning «Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri» kitabida Talas yodgorliklari haqida quyidagicha ma'lumotlarni beradi: «Talas yodgorliklariga Talas daryosi bo'ylaridan topilgan 12 ta yodgorlik kiradi. Talas daryosi bo'yidan Ayʼtam-oy deganlardan eng dastlabki yodgorlikni 1896 yil Avliyo ota uezdining boshlig'i V.A.Kallaur topdi. Bu yodgorlikni Radlov, Yu.Nemet, E.Malov, N.Orkun tarjima qildi.

Ikkinchi yodgorlik 1898 yil Talas daryosi bo'yida Dmitrievsk qal'asidan topilgan. Uchinchi, to'rtinchi, beshinchi va oltinchi yodgorliklarni ham shu yillari topgan, bular bilan Melioranskiy, Malov, Nemet, Orkun shug'ullandi».

O'rxun yodgorliklari. O'rxun yodgorliklariga kiruvchi bitiglar turkiy run yodgorliklarining eng yirikidir. Ular VII-VIII asrlarga mansub bo'lib, O'rxun va Selenga daryolari yaqinidan topilgan. Qutlug' Xoqon (Ungin), Bilga Xoqon, Kultigin, To'nyuquq, Kulichur, Mo'yunchur bitig toshlari shular jumlasidandur. Ushbu bitig toshlar mashhur turk Xoqon va amaldorlari sharafiga o'rnatilgan.

Yodgorliklarning til xususiyatlariga nazar tashlasak, unda fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini uchratamiz.

Qadimiy turkiy tilda birlamchi cho'ziq unlilar ham farqlangan, bunday chuziqlik turkiy run xatida maxsus uchun bilan ifoda etilgan. Jumladan O'rxun-Enasoy yodgorliklarida quyidagi so'zlarda cho'ziqlikni uchratamiz.

At «ism, ot», a: chs'q «och», a: rqada «orqada», ba: y «boy», ya: sh «yosh», ta: sh «tashqi» va boshqalar.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari tilida *p, t, s, sh, ch, q, k* undoshlari jarangli *b, d, z, g', g* undonlari *m, n, ŋ, r, l, y* sonorlari farqlangan. Qadimgi turkiy tilning quyidagi xususiyatlari mavjud, jumladan, so'z boshida *m* bilan bir qatorda *b* ham kela olgan. Bu xususiyat yodgorliklariga qarab bir-biridan farq qilgan: runiy bitiglarida *b* (*bān, buŋ, biŋ*), uyg'ur yozuvli yodgorliklarida *m* kelgan: (*mān, muŋ, miŋ*) har ikki guruh yodgorliklarining bir-biridan ayirib tiruvchi yana bir xususiyati bor: O'rxun-Enasoy yodgorliklaridan olingan quyidagi misollarni kuzating: *tabg'ach, tabar, ab, sub, sab, chab, bu* so'zlardagi *b* o'rnida uyg'ur yozuvli yodgorliklarda *v* kelgan: *tavg'ach, tavar, ev, sav, chav* kabi. O'rxun yodgorliklari tilida nazallashgan *n* ham uchraydi: *qon* «qo'y», *ch'g'an* «kambag'al». O'rxun-Enasoy yodgorliklarida «x» yo'q, uning o'rnida «q» keladi: «qag'an», «xoqon», *qal'q* «osmon», *qal'* «agar», *qatun* «xotin» kabi. Yozma yodgorliklar tilida old qator unlilar bilan yondosh kelgan uyg'unlik qonuniga muvofiq ularga moslanib yumshoq talaffuz etiladi. Jumladan, *bilig, ko'ŋül, täŋri* kabi so'zlarda old unlilar ta'sirida undoshlar ham yumshoq (*b, l, g, ŋ, t, r*) talaffuz etiladi. Yol, qag'an, at kabi so'zlarda orqa qator unlilar bilan faqat qattiq undoshlar (*y, l, q, g', n, t*) keladi. Ma'lumki, *q, g'* faqat qattiq so'z va shakllarda *k, g* esa yumshoqlarida keladi. Lekin qolgan undoshlarni ham quyidagi yumshoq va kattiq variantlariga ajratish mumkin: *b-b', d-d', n-n', r-r', s-s', t-t', ŋ-ŋ'* va boshqalar.

Runiy xatida turkiy tilning ana shu xususiyati juda o'ylab hisobga olingan edi. Bu yozuvda bir qator undoshlarning yumshoq va qattiq variantlariga alohida-alohida harflar bor. Shimoliy turkiy tiliga runiy O'rxun-Enasoy yozuvlari asosida vujudga kelgan til kiritiladi. Bu tilga xos xususiyatlardan biri so'z boshida va so'z oxirida jarangli undoshlar o'rnida ko'proq jarangsiz undoshlar kelishidir. Lekin bundan b undoshi istisiodir, chunki so'zning oxiri *n* va *ng* tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli *b* undoshi saqlanadi: *Ban-men, bing-ming, bin-min* kabi. Masalan, *Toniyo'quq banag aydi-To'nio'quq menga aytdi* (Tonyo'qoq). Bundan tashqari tovushi so'z boshida ko'p ishlatiladi. *Su bar'ñ tidi. Qo'shin bilan bor dedi.* (Tonyo'qoq).

Qadimgi turkiy til o'zining leksik xususiyati so'z boyligi jihatidan ham ajralib turadi. O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi bilan bitilgan yodnomalar qadimgi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida ham keng iste'molda bo'lgan. Ular ko'pgina hozirgi turkiy adabiy tillarda, jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanib kelmoqda: *taŋri, ata (ota), nan, apa, xatin, singil, q'z, og'ï (o'g'lon), elchi, suv, qoy, sigir, chichqon, kumush, ay, kun, yulduz, bag'ï, yal, uch, iki, yeti, to'nuz* kabi juda ko'p so'zlar shular jumlasidandur. Bu kabi so'zlar hozirgi barcha turkiy tillar lug'ot tarkibining asosiy umum turkiy qatlamini tashkil qiladi. *Bodun, o'g (ona), su (lashkar), qunchuy (xonim), sab (so'z), bo'gde (xanjar), yig (yaxshi), qamug', Quls'g (qul sing'ari), sungug' (nayza)* kabi.

O'rxun-Enasoy yodgorliklarida hozirgi turkiy tillarga xos so'zlar uchraydi. *a'l (el), ban (men), siz, ilig (qo'l), q'z, og'lan, yash, at, tangri, altm'zh* kabi. Lekin semantik xususiyatlari bilan iste'moldan chiqqan so'zlar ham mavjud: *budun (xalq), bag' (ittifoqchilik), su (qo'shin), sab'ñ (so'zi), ñ? (yubordi), tos'q (to'rgan), ukush (ko'p)* kabi. Yodgorliklarni kuzatar ekanmiz quyidagi morfologik xususiyatlarni uchratamiz. Tushum kelishish uchun asosan *-g', (-g),/-g', -ig', -ug', -ug* affiksli shakl qo'llangan: *sab'g' so'zni* (Tonyo'qoq), *yag'g' dushmanni* (Tonyo'qoq), *on erig o'n erni* (Kultagin) Qaratqich kelishish affiksi *-ñg/-ing* shaklida ishlatilgan: *Kulteginniñ altunun, kumushun* (Kultagin), *Qag'anñg sab' Xoqonning so'zi* (Kultegin), *bizning su-biznin askar*. O'rin-payt va iqish kelishiklari uchun *-da, -da, -ta, -ta* affiksli shakl qo'llangan: *turgesh qag'anta ko'rug kalti. Turgash xoqondan ayg'oqchi keldi* (Kultegin). *Q'g'zda yant'mz. Kirgizlardan qaytlik* (Tonyo'qoq). *Kultagin ol sunushda o'tuz yashuyur erti. Kultegin o'sha urush vaqtida o'ttiz yoshda edi. Iltebung yoq. Elda g'amginlik yo'q* (Ko'ltegin).

O'rxun-Enasoy yodgorliklarida o'tgan zamon fe'li ma'nosida *-d', -di, -t', -ti, -m'zh, -mish (-m'z, -mis)* affiksli shakllardan tashqari *-duq, -duk* affiksli shakl ham qo'llangan. *-duq, -duk* affiksli shakl o'tgan zamon fe'li ma'nosida shaxs-son ko'rsatkichimiz uchala shaxsning birligi va ko'pligi uchun ishlatilavergan.

Qiyoslang: *Qang'nga, isinga ar kalti, qarluq isinga kalmaduk. Xun xuzuriga va uning ittifoqiga odamlar kelishdi, lekin uning ittifoqiga qarluqlar ishlamadi (moyun chura). Bukagukda sakiz otuz toquz tatar qalmatuk, Bu'gukda sakkiz o'g'uz, to'qqiz tatar qolmadi. (monyun chura)* Qaralqich kelishigi *-nñg, -ning* affiksi bilan chiqish kelishigi *-dñ, -din, -tin, -tñ* affiksi bilan ifodalanadi. Fe'lining o'tgan

zamon shakli har bir shaxs va son uchun alohida affikslarga ega. Yodgorliklarda apas?, elchisi soʻzlarin quyidagi tartibda morpfemalarga boʻla olamiz. *Apa-s?, el-chi-si*. Chunki *apa, elchi* soʻzlarining maʼnosi maʼlum.

Bitiglarda turkiy qavmlarning duzmanga qarshi mustaqillik uchun oliy kurashi oʻz ifodasini topgan. Binobarin, yodnomalarning muqim gʻoyasi ham turkiy qavmlarin birlashtirish, dushmanga qarshi kurashdir.

Yodnomalarda madh etilgan sarkadarlar xalq mustaqillik uchun kurashadilar, uni tashqi dushmandan himoya qiladilar. Ular xalq ijodiga xos ruhla tasvirlanadi. Qarhramonlarning mardligi ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yurgan. Bular taʼsirida ogʻzaki ijod namunolari ham yuzaga kelgani ehtimoldan xash emas, shu boisdan boʻlsa kerak tadqiqotchilar hozirgi turkiy xalqlar toʻgʻrisidagi ayrim dostonlarning ildizlarini oʻsha davrlarga bogʻlik, Oʻrxun yodnomalari bilan ular orasida yaqinlik qidiradilar.

Oʻrxun yodnomalari qadimgi turklarning badiiy ijod namunasi sifatida katta oʻrin tutadi. Ular adabiyot tarixini oʻrganish uchun muhim manbadir.

Yana bir muhim tomoni yodnomalarda turklarning VI-VIII asrlar orasidagi sharxi, ijtimoiy hayoti, qoʻshni xalqlar bilan jangu, jadallari attiq maʼlumotlar bor shu jihatdan yodnomalarni qadimgi turklarning tarixiy xronikasi deyish mumkin. Ulardagi maʼlumotlar tarixchilar uchun qimmatlidir. Yodnomalarni bituvchilar, albatta, oddiy kishilardan boʻlmagan. Bu ishlarni oʻta bilimli, shoirtabiat, oʻz davrining fozil kishilari bajargan.

Ana shunday yodnomalardan biri ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltaris (Qutlugʻ) xoqonning maslahatchisi vasarkarda Toʻnyuquqqa atab taxminan 712-716 yillarida oʻrnatilgan bitigdoshdur. Toʻnyuquq ushbu bitigni tiriklik chogʻida yozdirgan, 62 satrdan iborat matn ikkita tosh ustunga oʻyib yozilgan. Undasarkarda Toʻnyuquqning oʻzi qatnashgan tarixiy voqealar hikoya qilinadi. Yodnomada yozilishicha, Toʻnyuqoʻq tabgʻach davlatida tahsil oldi. Yodnomalarning eng yirigi 732 yilda Kultigin sharafiga quyilgan yodgorliklar. Balandligi uch metr dan ortiqroq boʻlgan toshning yuz tomoniga 40 satr, oʻt va chap tomonlarida 13 satrdan, taroshlagan en qirralariga 4 ta turkiy yozuv bitilgan. 13 satrli matnni kichik bitig, 40 satrligini esa ulugʻ bitig deb ataydilar. Bitigning orqa tomoniga Xitoy tilida uning oʻrnatilish tarixi vayana 14 satr Xitoycha yozuv bitilgan. Xitoycha bitigning yonida ham ikki satr turkcha bitig bor.

Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichiga, yaʼni qadimgi turkiy davrdan turkiy urugʻ va qabilalar ularning tillariga oid juda koʻp yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urugʻlar va ularning tillari Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari orqali aniqlangan. Oʻrxun-eNasoy yodgorliklarining koʻpchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, Sibirlik oʻlkashunos N.M.Yadrintsev 1889-yilda Moʻgʻulstonda Oʻrxun daryosi boʻylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Enasoy daryosining yuqari qismidan va Qirgʻizstondagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal koʻli atroflari, Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari asosan toshlarga oʻyib bitilgan yozuvlardan, idish, tangalar kabi buyumlarda va qogʻozlarda yozilgan bitiglardan iborat boʻlib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun oʻqilishi jumboq boʻlib qoladi. Shunga koʻra, u qadimgi Skandinov-German tillariga oid run, runiy (runa-sirli, yashirin demakdir) yozuvi nomi bilan ham yuritiladi. Faqat XIX asrning 90-yillarida bu yozuvni dastlab daniyalik olim V.Tomsen va rus turkshunosi V.Radlov oʻqiydilar. Ular bu yodgorliklarning til xususiyatlari turkiy xalqlarga tegishli ekanligini aniqlab beradilar. Shundan keyin koʻp yillar davomida bu yozuvlarni tarjima qilish, til xususiyatlarini oʻrganish va nashr etish sohasida katta ishlar qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., Oʻrinboev B., Aliev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdin jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

4-mavzu: Oʻrxun-Enasoy bitiklarining kashf etilishi, tadqiq qilinishi. Oʻrxun-Enasoy yozuvi haqida

Reja:

1. Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va oʻrganilishi
2. Turkiy xalqlar yozuvi

3. O'rxun-Enasoy yozuvi haqida

Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari turk-runiy (O'rxun-Enasoy) va turk-uyg'ur yozuvi orqali bizgacha etib kelgan. Bu yozuvlar orqali etib kelgan yodgorliklarni turkiy tillarning birontasiga ham tegishli deb bo'lmaydi. Chunki ularda O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashovchi turkiy xalqlarga tegishli fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni uchratamiz. Malumki, yozma yodgorliklar bizga yozuv orqali etib kelgan. Shunday ekan, turkiy xalqlar qanday yozuvlardan foydalangan? – degan savol tug'iladi. Tarixiy va arxeologik manbalarining ko'rsatishicha, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy xalqlar oromey, so'g'diy, xorazmiy, o'rxun-enasoy yoki runiy, uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalanganlar.

Runiy yozuvi oromey yozuvi ta'sirida paydo bo'lgan so'g'diy va xorazmiy yozuvlari asosida shakllangan. Lekin bunga turkiy tillar tovushlarini ifodalovchi tamg'a shaklidagi harflar ham qo'shilgan. Avvalo, bu yozuv Enisey qirg'izlariga, so'ngra sharqiy turklarga o'tib tarqalgan. Sharqiy hoqonlikning markazi O'rxun daryosi vodiysida, g'arbiy hoqonlikning markazi Enasoyda bo'lgan. O'rxun daryosi vodiysidagi hoqonlik uyg'urlarning 745-yildagi hujumi bilan tugatiladi va uyg'ur yozuvi bilan almashadi. Enasoy vodiysidagi yozuv namunalarini IX asrlarda ham uchratamiz.

Bu yozuvlarning borligi fan olamiga XVIII asrdagina ma'lum bo'ladi. Ularning namunalari Enasoy daryosi bo'yida topiladi. XIX asr oxirida esa, rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev O'rxun daryosi bo'yidan shu xildagi yozuvlarni topadi. Ular O'rxun va Enasoy daryolari bo'yidan topilgani uchun shu daryolar nomi bilan atalgan. Tuzilishi jihatidan german runik yozuvlariga o'xshaganligi uchun runiy yozuv deb yuritiladi.

Runiy yozuvni 1893-yilda daniyalik professor V.Tomsen o'qishga muayassar bo'ladi. U bilan bir vaqtda bu yozuvni rus olimi V.V.Radlov ham o'qiydi. Shundan so'ng bu yozuvlarni o'rganish va topish, ularni o'qish ishiga P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, I.A.Batmanov, S.V.Kiselyov kabi turkologlar ham o'z ulushlarini qo'shadilar.

Umuman, runiy yozuvidagi yodgorliklar katta hududlarga tarqalgan bo'lib, ular feodal hukmdorlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo'yilgan toshlar, tayoqlar va qoyalarda saqlangan.

Runiy yozuv yodgorliklarini chizma va lingvistik belgilariga qarab, quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Enasoy yodgorliklari. Bu yodgorlik O'rxun yodgorliklaridan avval topilgan bo'lsa ham, keyinroq o'qildi. Ular Enasoy daryosining yuqori oqimida hozirgi Xakas va Tuva muxtor viloyatlari hududidadir. Enasoy yodgorliklaridan 50 dan ortiq matn o'qilgan va nashr qilingan. Bu yozuv eramizning V-VII asrlariga mansubdir.

2. Qirg'izistondan topilgan Talas yozuv yodgorliklari oltita toshda va bir cho'p tayoqda bitilgan. Chizma xususiyatlari bilan Enasoy yodgorligiga yaqin turadi.

3. O'rxun yodnomalari. U eramizning VII-VIII asrlariga tegishli bo'lib, O'rxun daryosining Selenga havzasi va unga yaqin joylardan topilgan. Ular Kultegin (731 yilda o'lgan) va uning akasi Mo'g'ulxon, ya'ni Bilgaxon (784 yilda o'lgan), Guduluxon (692 yilda o'lgan), Tonyuquq (716 yilda o'lgan), Kuli-chura qabrlaridagi toshlarga yozilgan xatlardir. Bu guruhga Ixe-Asxet, Xoyto-Tamir, Charish va boshqa joylardan topilgan yozuv yodgorliklari ham kiradi.

4. Boyqol ko'li atrofidan, Lena daryosi va Mo'g'ilistondan topilgan bir qancha tosh, tanga va idishlarga yozilgan namunalar ham runiy yozuvidadir.

Shunga qaramay, O'rxun-Enasoy yodgorliklari til xususiyatlariga ko'ra umumiy belgilarga egadir. Ular V-VIII asrlardagi turkiy tillarning xususiyatlarini o'rganish uchun qimmatli ma'lumot berdi. Malumki, VIII asrda uyg'urlar hujum qilganidan so'ng, runiy yozuvi uyg'ur yozuvi bilan almashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillarning jazba estetiklari. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

5-mavzu: Uyg'ur yozuvi tarixi haqida ma'lumot. Uyg'ur yozuvi yodgorliklari

REJA:

1. Uyg'ur yozuvi yodgorliklari haqida ma'lumotlar.
2. Yodgorliklarning til xususiyatlari.
3. Uyg'ur yozuvi yodgorliklarining turlari.

4. Uyg'ur yozuvi yodgorliklarining til taraqqiyotida tutgan o'rni.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni umuman, turkiy tillar qolaversa, o'zbek adabiy tili va shevalarga qiyos qilish muhim kasb etadi.

Uyg'ur yozuvi yangi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u keyinchalik mo'g'illarga va mo'g'illardan manjurlarga o'tgan. Uyg'ur yozuvi VI asrdan tortib XV asrgacha turkiy xalqlarda va buddachilar orasida hatto XVIII asrgacha ishlatilib kelgan.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida uni «turk yozuvi» deb ataydi va uning qadimiyligini ta'kidlab yozadi: «Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblar, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha Qashqardan Chingizgacha – hamma turk shaharlari shu yozuv bilan yuritilgan».

Ma'lumki, 960 yilda qorahoniylar davlatida islom rasman qabul qilindi. Shu munosabat bilan yozuvi ham ommalashdi. Ana shu kezlardan boshlab turklar har ikki yozuvni qo'lladilar. Uyg'ur xati keyinchalik ham turk dunyosida shuhrat topdi. XIII asrda undan mo'g'il xati, mo'g'il xatidan esa majur yozui ajralib chiqdi. Oltin O'rda davlatlari uyg'ur xatiga e'tibor kuchli bo'lgan. Temuriylar ham o'zlarining davlat ishlarida mazkur yozuvini keng qo'lladilar. Ayniqsa, XIV-XV asr Movarounnaxr va Xuroson madaniy muhitida ushbu yozuvning o'rni katta bo'ldi. Uyg'ur yozuvi O'rta Osiyoning turkiy xalqlari orasida XV asr oxiriga qadar arab xati bilan yonma-yon qo'llanildi. Keyingi asrdan boshlab uning tamoma arab yozuvi egalladi.

Uyg'ur yozuvdagi yodgorliklarning eng qadimgilari VI-X asrlarga mansub. Bu davrga oid juda ko'p yozma yodgorliklar ma'lum. Ayniqsa, ular orasida Sharqiy turk madaniy muhitida yaratilgan obidalarining o'rni katta. Ma'lumki, VIII asrning ikkinchi yarmida ikkinchi turk xoqonligining yemirilishi natijasida markazi avval Qoraqum keyinroq Turfonda bo'lgan uyg'ur xoqonligi tashkil topadi. Endi turkiy adabiyot va madaniyatning markazi ham shu yerga ko'chdi. Sharqiy turklarda Enasoy turklaridan farqli holda moniviylik buddizm va qisman Xristianlikka ham amal qilindi. Bu o'z navbatida, tarjima adabiyotning rivojlanuviga yo'l ochib berdi. Turklar bilan qo'shni yashagan xalqlar tilidan ana shu diniy qarashlarni aks ettiruvchi asarlar tarjima qilina boshladi. Budda, moniviy diniy g'oyalarni turklarga singdirishda bunday tarjimalar qulay vosita sifatida keng tarqaldi.

Uyg'ur alfaviti bilan yozilgan yodgorliklarni o'z xususiyati va mazmuniga qarab, quyidagilarga bo'lish mumkin.

1. Uyg'ur yodgorligi.
2. Moniviy yodnomasi.
3. Buddiy yodnoma.
4. Xristian yodnomasi.

Uyg'ur yozuviga tegishli yodgorlik Suji, Shins-Usu va Sharqiy Turkistondan topilib, ular tosh va qog'ozlarda saqlangan. Bu yozuv eramizning VIII asriga tegishlidir. Yag'laqarxon qabridan topilgan namunani Suji yodgorligi deb, Mo'yun-chura qabridan topilgan namunani Selenga yodgorligi deb yuritiladi. Qog'ozda topilganini Turfon yodgorligi deb ataydilar. Manixey madaniyati yodgorligi sifatida «Xuastuannift»ni ko'rsatish mumkin. Xristian madaniyati yodnomasi «Volxvlarning topilishi»dir. Uyg'urlarning ko'pchiligi budda diniga ham siginganlar va o'z yodgorliklarini yaratganlar. Bu yodgorliklarni «Suvarna» yoki «Oltin yorug'» deb yuritadilar.

Yozma adabiy til bilan xalq tili o'rtasidagi bir namuna sifatida uyg'ur yuridik hujjatlari saqlangan. Ular VI-X asrlarga va undan keyingi davrlarga tegishlidir.

Manixeylarga tegishli yodgorliklarni dastlab ingliz olimi A.Shteyn, nemis olimi A.Lekok, fransuz olimi P.Pelli topib, fan olamiga ma'lum qildi. Uyg'ur yozuvi asosida paydo bo'lgan boshqa yodgorliklarni topish va ularni nashr etishda Malov va Radlovlarning xizmati kattadir.

XI-XV asrlarga oid ko'pgina yirik asarlar turk uyg'ur yozuvida tartib qilingan. Masalan, «Me'rojnoma», «Tazkirai avliyo», «Baxtiyornoma» kabi bir qator asarlar shu yozuvda ko'chirilgan.

Uyg'ur yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. Bu tadqiqot ishlarida yodgorliklar til xususiyatlarining quyidagi tomonlari yoritildi: turkolog va sharqshunos olimlarning ko'pchiligini eski yodgorliklarni grammatik tasnifini yoritib berdilar. Boshqa bir xil ishlarda qadimgi yodgorliklarning ayrim morfologik, sintaktik va fonetik xususiyatlari tahlil qilindi.

Shu qatorda O'rxun, enasoy, talas estaliklari til xususiyatiga to'xtalib o'tsak. O'rxun estaliklariga Kultegin, Bilga xaqon, Tonjuquq, Kuli Chur, Moyun Chur, Sidja estaliklari kiradi.

Kultegin estaligi Mongoliyadagi, Nosho-Izaydam past tekisligidagi Erdeni Tszu budda monastrining yonidan N.M.Yadrinsev tomonidan topilgan. Estalik 732-yilda ikki tilda (turkiy va xitoy) yozilgan.

Bilga xoqon estaligi 1889 yili Mongoliyadagi Kosho-Tsaydam past tekisligidagi Erdeni Tszu monastrligi yonidan topilgan.

Enasoy estaligi S.E.Malov «Turkiy tillariga oid Enasoy yozma yodgorliklari» asarida quyidagicha yozadi. «Yozma yodgorliklar tilida qandaydir dialektal variantlar diqqatingni jalb etadi». Masalan, birinchi yozma yodgorliklarda jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi –a.

O'rxun-Enasoy bitigi haqidagi dastlabki ma'lumotlar jumladan Guduli (692-693) yilda vafot etadi. Uning sharafti bitilgan yozuv VII asr ohiriga borib taqaldi.

Turkiy so'zlashuv nutqi esa yozma yodgorliklarda ilgari chamasi xuknlarning Janubiy Baykal bo'yi va Shimoliy Mo'g'uliston terrotoriyasida yashagan qabila ittifoqi davri eramizda avval II-III asrlarga to'g'ri keladi.

Bu tilga xos xususiyatlardan biri so'z boshida va so'z oxirida jarangli undoshlar o'rnida ko'proq jarangsiz undoshlar kelishidir. Lekin bundan b undoshi istisiodir, chunki so'zning oxiri –n va –ng tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli –b undoshi saqlanadi: –ban, –man, –bing, –ming, –bin, –min kabi bundan tashqari, tili tovushi so'z boshida ko'p ishlatiladi:

- Su barʼn tidi.

- Qo'shni bilan bor dedi.

Tushum kelishigi uchun asosan –q' (gazeta), –ʒ', –ig', –ug', –uchun affiksli shakl qo'llangan. *Sabʼʒ*'-so'zni qaratqich kelishigi affiksi (–ʒg'/–ing). *Qag'anʒg sabʼ? Xoqning so'zi, bizing su-bizning askar*. O'rin payt va chiqish kelishiklari uchun –da (–da), –ta, –tilia affiksli shakl qo'llangan. *Turgesh qag'anta ko'rug kalti. –Turgash xaqondan ayg'oqchi keldi*.

O'rxun-enasoy yodgorliklarida o'tgan zamon fe'oi ma'nosida –d?, –di, –t?tilshunoslik, –mʒh, –mish, –mis affiksli shakllardan tashqari –duk, –duq affiksli shakl ham qo'llangan. *Durbekq/-duk* affiksli shakl o'tgan zamon fe'li ma'nosida shaxs son ko'rsatkichsiz uchala shaxsning birligi va ko'pligi uchun ishlatilaveradi. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida hozirgi turkiy tillarga xos so'zlar uchraydi, *al(el)*, *ban(men)*, *siz*, *ilig(qo'l)*, *qʒ og'lan*, *yash*, *at tangon*, *altmish* kabilar. Lekin semantik xususiyatlari bilan iste'moldan chiqqan so'zlar ham mavjud (*buddun halq*, *bag' (ittifiqchilik)*, *su (qo'shin)*, *sabʼm (so'zi)*, *ʒ?* (*yubordi*)). Qadimgi turkiy tilining janubiy guruh dialektik uyg'ur yozuvi asosida paydo bo'lgan. Bularga Selenga, Suxsh va Turfon yodgorliklari kiradi. Janubiy guruhdagi tillar fonetik jihatdan shimoliy guruhdagi tillardan oxiri n, ng bilan uchraydigan so'zlar boshidan b tovushining morfologik tovushiga o'zgarishi bilan farqlanadi. *bangu-mangu*, *ban-men*, –*bing-ming* kabi.

Qaratqich kelishigi –*nʒg/-ning* affiksi bilan ifodalanadi. Fe'ning affiksi alohida affikslarga ega.

Qadimgi turkiy tilining aralash dialektikada shimoliy dialektning ham, janubiy dialektning ham, xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bu dialekt uyg'ur yozuvi bilan bitilgan monixiy yodgorligi, Xuastuanift, budda yodgorligi «Suvarna» (Oltin yorug'), «Sehtarlarning ibodati» va yuridik hujjatlar kiradi. Aralash dialektning fonetik jihatdan o'ziga xos xususiyati d tovushining t tovushi bilan, ch tovushining e tovushi bilan almashib ishlatilishidir: *yog'* (*yo'q*), *qolmag'* (*qolmoq*), *tamqa-tamg'a* kabi. So'z o'rtasida va oxirida *g'*, *g* undoshlari keladi: *tag'ʒu*, *ag'ʒ* (*og'ir*), *ulug'*, *ilig (qo'li)* kabi. Otlarning o'rtasida, fe'llarining ohirida *d* tovushi keladi: *adaq (oyoq)*, *kidim (kiyim)*, *qod (qo'yil)* kabi. Umuman qadimgi turkiy tillar diffeksiya qilindi va *d/t* belgili tillar *s/z* belgili tillar *y* belgili tillar guruxiga bo'linadi. O'zbek tili taraqqiyotining ilk davrda *y* belgisi adabiy til shakllandi. Qadimgi yodgorliklar tilidagi fonetik jihatdan qaralsa, hozirgi adabiy tildagi *e(e)* unlisi *E* tarzida talaffuz etilishi *y* undoshi o'rnida *d* undoshi kelishi yaqqol ko'rinadi.

Talas estaliklariga Talas daryosi bo'ylaridagi 12 estalik kiradi. Talas daryosi bo'yida 1808-yili Dmitrevsk qishlog'ida tashkil qildi. Bu estalikda morfologik xususiyati jo'nalish kelishigi –*qarab/-qa*, –*ka*, –*g'a*, –*ga*, –*a*, –*a* affikslari uchraydi. O'rni payt kelishigi –*da/-davrdaa*, –*ta*, –*ta* affikslari bilan uchraydi.

Xulosa qilganda, uyg'ur yozuvi so'g'd yozuvidagi so'g'd yozuvi aromiy yozuvidan paydo bo'lgan degan taxminlar bor. Bu yozuv ham O'rxun va arab yozuviga o'xshab o'ngdan chapga tomon yoziladi. Uyg'ur yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga kelgan. Bu asarlar qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimizda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.

3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. *Türkiy tillerdiñ jazba estelikleri*. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. *O'zbek adabiy tili tarixidan*. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. *Jurnal*. 1992 yil, 2-son.

6-mavzu: Qadimgi turkiy til fonetik tizimi. Unli va undosh tovushlar tasnifi. Singarmonizm

Reja:

1. Qadimgi turkiy til fonetikasi haqida
2. Qadimgi turkiy tilda undosh va unli tovushlar
3. Tovush uyg'unligi (singarmonizm)

Qadimgi turkiy til o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hatto fonetik va morfologik xususiyatlari jihatidan turkiy tilning birinchi va ikkinchi bosqichlari (qadimgi turkiy til bosqichi va eski turkiy til bosqichi) o'zaro bir-biridan ajralib turadi.

Qadimgi turkiy tillarning fonetik qurilishiga xos xarakterli belgilaridan biri **d**-lanishdir. Bu davrda turkiy tillarda tarixiy jihatdan qadimgi **r-t/d-s/z** undoshlarining **y**-ga o'tish hodisasi paydo bo'ladi va rivojlanadi. Masalan, XI asrda **y-s/z** mosligi Mahmud Qoshg'ariyning devonida sanab o'tilgan tillardan faqat qarluq qabila ittifoqi tarkibiga kirgan chigil tilida saqlanib qolgan. Jumladan, chigil tilida *qarʼh toʻzi (qarʼh toydi), azaq (ayaq)* kabi so'zlar tarkibidagi «y» undoshi o'rnida «z» qo'llangan. Eng qadimgi **r** mosligi xunn davridan oldingi bosqich uchun xos bo'lib, hozirgi mo'g'ul tillarida va faqat hozirgi chuvash tilida saqlangan bo'lsa, ancha keyingi **t/d** va **s/z** mosligi xunn davrida rivojlanadi. Turkiy tillarning o'zida esa **t/d** va **s/z** mosligining **y** undoshiga o'tishi hodisasi qadimgi turkiy va ayniqsa eski turkiy davr uchun xarakterlidir. Xuddi shu davrlarda qadimgi **t/d** va **s/z** hodisasi ko'pgina turkiy tillarda asta-sekin **y** bilan almashadi. Mahmud Qoshg'ariy devonida keltirilgan faktlar X-XI asrlarda bir qator turkiy tillarda **d-z (t-s)** mosligi muvoziy holda ishlatilganligini, keyinchalik ular o'rnida **y** qo'llana boshlaganligini ko'rsatadi: *adaq – azaq – ayaq, adrʼt? – azrʼd? – ayrʼd? Turk bodun qanʼh bolmayʼh Tabgʼachda adrʼt? – turk xalqi xoni bilan boʻlmayin Tabgʼachda ayrildi* (To'nyuquq, 2, PDN); *azrʼd?* (MK, 1, 245 y) *olar ikki ayrʼhd?* (MK, 1, 268) *tidish (tizish) – tiyish* (MK, 1, 386), *azʼgʻ – ayigʻ (avchi necha al bilse, azʼgʻ ancha yol bilir – ovchi qancha hiyla bilsa, ayiq ham shuncha qochish yo'lini biladi.* (MK, 1, 94 b)), *sezrek – siyrak* (MK, 1, 442 b).

O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi yodgorliklarining ko'rsatishicha, qadimgi turkiy tillarda umumiy belgi sifatida so'zning o'rtasi va oxirida **s/z-y** mosligiga nisbatan **t/d** ning bo'lishi bilan bir qatorda, bu tillarni bir-biridan ajratuvchi belgi sifatida **N/N, ~y** mosligi ham bo'lgan. Masalan, o'rxun va uyg'ur yozuviga doir bitiktoshlarda ayrim bitiklarda *qanʼda, qonʼ, anʼgʻ (yaramas, yomon)*, boshqalarida esa *qayda, qoy, ayʼgʻ* tarzida qo'llanadi.

Qadimgi turkiy til fonetik xususiyatlari jihatidan yana quyidagilar bilan ajralib turadi: O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi yodgorliklarida **sakkizta** unli tovush qo'llangan: til oldi **e, o', u, i** tovushlari va til orqa **a, o, u, ?** tovushlari. So'z o'rtasi va so'z oxirida jarangli-jarangsiz va jarangsiz-jarangli undoshlarni (**dt** va **td, gk** va **kg, lt** va **tl, mt** va **tm, nt** va **tn** tarzida) yonma-yon qo'llash juda ko'p uchraydi: *Temir qapʼgʻqa tegi suledim – Temir qapiqqacha lashkar tortdim* (Kt, KB, 4). *Tabgʼach bodun birla tuzultum – Tabgʼach xalqi bilan kelishdim* (Kt, Kb, 4-5). *Øtuzumte tolu ogrunch – Jismimda shodlik to'lib* (O, Yo, 609, 10). *Men emti tolu – men endi to'liq* (O, Yo, 615, 20) kabi.

Tovushlar uyg'unligi – singarmonizmning ikki qonuni, ya'ni tanglay uyg'unligi va lab uyg'unligi qonuni to'la saqlangan: *sunushdumiz, qapʼgʻ, bo'gunup – o'ziga kelib, o'kush, sabʼgʻ – so'zni, qag'an – g'aru* kabi.

Qadimgi turkiy til yozma manbalarida singarmonizm qonunining qattiq-yumshoqlik ohangdoshligi to'la ustunlikka ega, lab garmoniyasi ham mavjud bo'lgan, undoshlar ohangdoshligi amalda bo'lgan.

Turk tillarida diaxron hamda sinxron holatda singarmonizm qonuni nazariy tomondan qanday asoslarga ega degan muammo mavjuddir. Singarmonizm qonuni qadimgi turkiy tillarda yozilgan yozma obidalarda qo'llangan qalin va ingichka xususiyatlarga ega grammatik ko'rsatkichlar orqali ham isbotlanadi.

Ikkinchidan, hozirgi turk tillarida so'z va tovushlar qalin va ingichka talaffuzga ega ekanligining o'zi turk tillarida singarmonizmning mavjudligini isbotlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ingichka talaffuzli so'zlarda ham singarmonizm qonuni ma'lum darajada saqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillarning jazba estetiklari. Toshkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

7-mavzu: Qadimgi turkiy til leksikasi. Yodgorliklarning lug'at tarkibi, sohalarga oid so'z va terminlar

Reja:

1. Qadimgi turkiy til leksikasining tematik qatlamlari.
2. Qadimgi turkiy til leksikasining umumturkiy qatlami
3. Turkiy obidalar tilida o'zlashgan so'zlar.

Qadimgi turkiy til o'zining leksik xususiyati, so'z boyligi jihatidan ham ajralib turadi. O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi bilan bitilgan yodnomalar qadimgi turkiy tilning leksikasi, lug'aviy qatlamlari ancha boy va shakllanganligidan, ma'lum qolipga kelganligidan guvohlik beradi. Qadimgi turkiy til lug'atida bo'lgan so'zlarning asosiy qismini o'sha davrdagi turkiy urug' va qabilalarning tillari uchun umumiy bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida ham keng istemolda bo'lgan. Ular ko'pgina hozirgi turkiy adabiy tillarda, jumladan, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanib kelmoqda. Qadimgi turkiy til leksikasi tematik jihatdan rang-barang bo'lib, har xil soha atamaları mavjud bo'lgan.

Qadimgi turkiy til leksikasining tematikasi

Leksika tilning eng o'zgaruvchan sohasidir. Jamiyatdagi o'zgarishlar avvalo tilning lug'at tarkibida aks etadi. Qadimgi yozma manbalar tilini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning leksik tarkibi o'sha davrda yashagan turkiy qabilalarning hayoti, turmush tarzi, urf-odatları ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Qadimgi turkiy tilning leksik tarkibi turli sohalarga oid so'zlardan tashkil topgan.

Qadimgi turkiy til leksikasining tematik qatlamlari

- Qavm-qarindoshlik atamaları: *qiz, og'il (oglan), ata, ana, apa, xatin, siqil* kabilar;
 - Tabiat hodisalarini ifodalovchi so'zlar: *yer, yo'l, qar, sub, tag, uguz (daryo), cho'l, ig'ach (yog'och)* kabi;
 - Inson azolari nomlari: *adag', bo'g'uz, bash, sach, sunguk (suyak), ud (ut), ilig (qo'l), til, tiz, azg' (milk)*;
 - Vaqt nomlari: *ay, yaz (bahor), yay (yoz), yil, kun, kuntuz, tang, tun* va boshqalar;
 - Qazilma boyliklar nomlari: *oltun, kumush, temir, ko'mur* kabilar;
 - Hayvon va qushlar nomlari: *adgir, at, bars, buqa, yilq, ingak (sigir), tabg'gan (quyon), tay, uchuq (qush), it, tag'qu (tovuq), qaz* kabi;
 - Harbiy terminlar: *su (qo'shin), yadag' (piyoda), o'q, cherig (lashkar), sungug (nayza), urush* kabi;
 - Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *qag'an, bodun, bay, bag', toru (hokimiyat, qonun, urf-odat), qul, kung (cho'ri)* kabilar;
 - Etnik terminlar: *az, argu, qarluq, qibchaq, uyg'uz, tatar, tabg'ach, tardush* kabilar;
 - Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar: *beduk (uzun), kichig, qalun, ulug', ag'ar, alp, ach, ablaq (yomon), yumchaq, semiz* kabi;
 - Harakat-holat ifodalovchi so'zlar: *atlan, yo'luq, yilq, yaril, ich, azgur (yo'ldan urmoq), abar (tinchitmoq), adar (aytar), qal, kel* va b.;
 - Miqdorni bildiruvchi so'zlar: *bir, iki, uch, alt, yeti, toquz, altmish, yuz, bing* kabi;
- Bulardan tashqari joy nomlari, kishi nomlari, mavhum tushunchalar nomi, yordamchi so'zlar ham mavjud.

Qadimgi turkiy til leksikasida umurturkiy so'zlar

Tarixiy etimologik jihatdan qaraganda, qadimgi turkiy til leksikasini asosan umurturkiy so'zlar tashkil qiladi. Ularning ko'pi hozir ham turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham qo'llanadi. Buni yuqorida keltirilgan misollardan ham ko'rishimiz mumkin. «Qultigin» bitigtoshining uchta satri (1-3)ni tahlil qilinganda, unda jami 59ta so'z qo'llangan bo'lib, shundan 42 tasi hozirgi o'zbek tilida aynan yoki ayrim o'zgarishlar bilan qo'llanadi, 17 ta so'z esa hozirgi tilimizda qo'llanmaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy til davrida ishlatilgan so'zlardan hech o'zgarishsiz aynan qo'llanayotgan so'zlarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *yer, oltin, kumush, temir, ko'z, bosh, tosh, til, yil, qiz, aka, kelin, qor, qum, bo'g'iz, qish, tun, kun, boy, qul, o'g'uz, tatar, alp, ulug', ot, ol, bor, qo'y, yur, kel, bir, uch, o'n, yuz, biz, oq, oz* va boshqalar.

Qadimgi turkiy tildagi ayrim so'zlar bizgacha bazi shakliy o'zgarishlarga uchragan holda yetib kelgan. Masalan: *qag'an-hoqon, yag'i-yov, adaq-oyoq, ab-ov, sub-suv, amti-endi, ban-men, yama-yana, yag'iq-yaqin, uza-yuqori, bag-bek* va b. Obidalar tilida *sa-sanamoq, se-so'zlamog, bandi-bog'lamoq* fellari mustaqil qo'llangan. Ular hozirgi *bog', son, so'zlamog* kabi so'zlar tarkibida saqlanib qolgan.

Ayrim so'zlar ma'no (semantik) jihatdan o'zgargan. Masalan: **Urq og'l^{ing} qul bolt?, q^z og'l^{ing} kung bolt?** Ko'rinadiki, qadimgi turkiy tilda **og'l** so'zi keng ma'noda, ya'ni «farzand» ma'nosida ishlatilgan. Jins ma'nosini anglatish uchun alohida so'zlar – **urq** va **q^z** so'zlari qo'llangan. Shuningdek, «tangri» so'zi **osmon** va **xudo** ma'nolarida ishlatilgan. Hozir esa faqat keyingi ma'nosi saqlanib qolgan, xolos. Masalan: *Uze kok tengri, asra yag'z yir q^lhtuqda* (Tepada *osmon, pastda qo'ng'ir er qilinganda...*). **Yoy** so'zi **yoz** ma'nosida, **yoz** so'zi **bahor** ma'nosida, **uchug** so'zi **qush** ma'nosida qo'llangan. Bu xususiyat to XVI asrgacha davom etgan.

Qadimgi turkiy tilda keng qo'llangan bir qator so'zlar keyinchalik istemoldan chiqib ketgan. Bunday so'zlarga: *qang (ota), o'g (ona), bodun (xalq), qunchuy (malika), bilga (dono), su (qo'shin), yish (o'rmon), qap'g' (darvoza), chig'an (kambag'al), o'kuz (daryo), kung (cho'ri), idi (xo'jayin), tagi (qadar), aring (ekan), taluy (dengiz)* kabi.

Lekin shuni ham ta'kidlash joizki, bu kabi so'zlar butunlay yo'q bo'lib ketgan emas. Ularning bazilari boshqa turkiy tillarda yoki ayrim o'zbek shevalarida saqlanib qolgan. Masalan, qadimgi turkiy manbalarda uchraydigan *tishi-xotin, urg'ochi, qap'g'-darvoza, eshik, al-qo'l* kabi so'zlar o'g'uz tillarida hozir ham ishlatiladi. *Bulung (tomon, burchak)* so'zi O'sh-O'zgan shevalarida uchraydi.

Toponim va antroponimlar

Qadimgi turkiy tilda qo'llangan ayrim so'zlar toponim va antroponimlar tarkibida saqlanib qolgan. Rishton tumanida **Bo'rbaliq** degan qishloq bor. Qadimgi turkiy tilda **bo'r - oq, baliq - shahar** ma'nolarini ifodalagan. Qadimgi **meng** so'zi **xol** ma'nosida qo'llangan. Hozir bu so'z Meliboy (mengli-boy) ismida saqlanib qolgan. **Yozyovon** toponimi **yozi** va **yobon** qismlaridan tashkil topgan bo'lib, **keng, cho'l, dasht, tekislik** ma'nolarini anglatadi.

Turkiy obidalar tilida o'zlashgan so'zlar

Qadimgi turkiy obidalar tilida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar juda oz miqdorda uchraydi. Bu jihatdan runik obidalar bilan uyg'ur yodgorliklari o'rtasida katta farq bor. Runik obidalar asosan epigrafik xarakterda bo'lib, **sof turkiy til va uslubda** bitilgan. Ularda deyarli o'zlashma so'zlar uchramaydi. Faqat ayrim etnik atamalar va titul nomlarigina uchraydi: **So'g'd, qitan, tangut, tuput, tezik (tojik), shad, shadaput** kabi.

Uyg'ur yozuvi manbalarida o'zlashma so'zlar nisbatan ko'proq uchraydi. Chunki bu manbalarining aksariyati sanskrit, hind, xitoy, fors, so'g'd va boshqa tillardan o'girilgan tarjimalardir. Shuning uchun ularda o'sha tillarga xos bazi so'z va atamalar ham ishlatilgan: *mudir* (sanskrit) – *pechat, muhr*; *futsi* (xitoy) – *olim*; *kansi* (xitoy) – *ism*; *dintar* (so'g'd) – *dindor*; *badir* (so'g'd) – *idish*; *shad* (so'g'd) – *harbiy unvon*; *shadaput* (so'g'd) – *unvon*; *nishon* (fors) – *belgi, muhr* kabi. Bulardan tashqari yana ayrim kishi ismlari ham uchraydi: *Bodistava, Mag'aradi, Mag'abali, Bidilxim* va b.

Nazorat savollari

1. Qadimgi turkiy til leksikasi tarkibi qanday?
2. Qadimgi turkiy til leksikasida umumturkiy so'zlar.
3. Qadimgi turkiy til leksikasining hozirgi o'zbek tiliga tasiri qanday bo'lgan?
4. Hozirgi o'zbek tilida aynan qo'llanilayotgan qadimgi turkiy tildagi so'zlar.
5. Shakliy o'zgarishga uchragan so'zlar
6. Semantik o'zgarishga uchragan so'zlar
7. Obidalar tilida qo'llangan o'zlashma so'zlar. Toponim, etnonim va antroponimlar.
8. O'zbek shevalari va boshqa turkiy tillarda qo'llanadigan so'zlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

8-mavzu: Qadimgi turkiy til morfologiyasi. Qadimgi turkiy tilning morfologik tuzilishi. So'z yasalishi. O'zak va qo'shimchalar

Reja:

1. Qadimgi turkiy til grammatik qurilishi
2. Qadimgi turkiy tilda kelishik qo'shimchalari
3. Qadimgi turkiy tilda ayrim so'z turkumlarining qo'llanishi

O'zbek tilining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida uning morfologik qurilishi ham rivojlanib, takomillashib keldi: yangi grammatik shakllarning vujudga kelishi natijasida qadimdan faol istemolda bo'lib kelgan shakllarning bir guruhi o'zining mavqeini yo'qota bordi, ayrimlari esa ma'lum davrlarga kelib istemoldan chiqib qoldi; yonma-yon qo'llanib kelgan grammatik shakllar vazifasi jihatdan o'zaro farqlana bordi; ayrim grammatik shakllar shaklan o'zgarib, takomillasha bordi va hokazo.

Yozma manbalarning ko'rsatishicha, o'zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotini uchta katta bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqichni XIV asrning oxirlarigacha bo'lgan davr tashkil etadi. Ikkinchi bosqich XIV asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotidagi uchinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda matbuot vujudga keldi va o'zbek tilida gazeta, jurnal, kitoblar nashr etila boshladi.

Qadimgi turkiy tilning grammatik qurilishidagi o'ziga xos belgilar quyidagilardan iborat:

Tushum kelishigining *-(?g, -(i)g* shakli keng qo'llangan: *elig y? isig, kuchug* bermis – ellik yil ishini, kuchini sarf qilibdi (Kt, K, 8). ...turk bodun ach erta, ul *y?q?g'* al?p egit (t) im – turk xalqi och edi, u otlarni olib boqdim (Bx, 38).

Qaratqich kelishigi affiksi *(-?ng/-ing)* shaklida ishlatilgan: *Qultegining* altunun, kumushun (Qultagin), *Qag'an?ng* sab? – Hoqonning so'zi (Qultegin), *bizing* su – bizning askar (Qultegin).

Jo'nalish kelishigi ko'pincha *-g'aru, -qaru, -geru, -keru* shaklida keladi: ...toquz og'uz bodun yerin sub?n ?d?n *Tabg'achg'aru* bard? (Bx, 35). Ol *yergeru* barsar, turuk bodun, o'ltechu – sen – u erga borsang, turk xalqi, o'lajakasan (Ktk, 8). Qurol-vosita, birgalik ma'nolarini ifodalovchi *-(? -i)n* affiksli shakllar (qurol-vosita kelishigi) ishlatiladi. Bu ma'no jihatdan bilan ko'makchili birikmaga yaqin turadi: Turk bodun *qan?n* bolmay?n Tabg'achda adr?t? – Turk xalqi xoni bilan bo'lmayin, Tabg'achdan ayrildi (Tun, 2). *Singirin, tam?n* yorgelmish songukler... - ko'z bilan ko'rmagan, quloq bilan eshitmagan xalqim (Bx, Xv, P).

O'rin-payt va chiqish kelishiklari uchun *-da/-da // -ta, -ta* affiksli shakl qo'llangan: Turgesh *qag'anta* ko'rug kalti – Turgash hoqondan ayg'oqchi keldi (Qultegin). *Q?q?da* yant?m?z – Qirig'izlardan qaytdik (Tonyuquq). Qultagin ol *sunushda* o'tuz yashuyur arti – Kultegin o'sha urush vaqtida o'ttiz yoshda edi (Kultagin). *Ilte* bung yoq - Elda g'amginlik yo'q (Qultegin).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

9-mavzu: So'z turkumlari. Morfologik struktura haqidagi turkologlarning qarashlari

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilda so'z turkumlari
2. Qadimgi turkiy tilda so'zlarning morfologik tarkibi

Adabiy til tarixida ham soʻz turkumlari dastavval ikki katta guruhga boʻlinadi: *mustaqil soʻzlar* va *yordamchi soʻzlar*.

Mustaqil soʻzlar quyidagi uch guruhga boʻlinadi: *ism, fel, ravish*. Ism guruhidagi soʻzlar oʻz navbatida quyidagi turkumlarga ajratiladi: *ot, sifat, son, olmosh*. Bu turkumlar uchun soʻz oʻzgartuvchi kategoriyalar (kelishik, egalik va shu kabilar) umumiy boʻlib, bu jihatdan ular bir guruhga – **ism guruhiga** birlashadi. Lekin ularning har biri uchun maxsus soʻz yasovchi qoʻshimchalari boʻlishi va maʼnosi jihatdan har qaysisi mustaqil soʻz turkumini tashkil etadi.

Yordamchi soʻzlar sintaktik vazifalariga koʻra quyidagi uch turkumga boʻlinadi: *koʻmakchilar, bogʻlovchilar, yuklamalar*. *Undovlarni* ham shartli ravishda yordamchi soʻzlar guruhiga kiritish mumkin.

Qadimgi turkiy tilda soʻz turkumlarining ishlatilishi ham oʻziga xos tarzda boʻlgan. Qadimgi turkiy tilda mustaqil soʻz turkumlari ishlatilgan. Narsa-predmetning nomini, belgi-xususiyatni, miqdorni, harkat va holatni ifodalovchi soʻzlar guruhi ajratilgan. Lekin yordamchi soʻzlar hozirgi tildan birmuncha farq qilgan.

Ot turkumiga oid soʻzlar: *al (el), ilig (qoʻl), qʻʻ, ogʻlan, at, tangri, budun, su, sab achun-azun (dunyo), tagʻʻqu, ab (ov), adash (oʻrtoq), azuq (ozuq), ar (er), adaq (oyoq)* kabi.

Ot soʻzlarning oʻrtasida **d** tovushi koʻproq qoʻllangan: *adaq (oyoq), kidim (kiyim)*.

Belgi-xususiyat ifodalovchi soʻzlar: *agʻʻ (ogʻir), ulugʻ, yash*.

Sonlar: *eki, altʻ, yeti, uch, altmʻsh, pash, bing (ming)* kabi.

Jamlovchi son –*agu, -egu* affiksi bilan yasaladi: *altagu, uchegu* kabi.

Felning shart mayli shakli –*sar, -ser* affiksi bilan, istak mayli shaklining koʻpligi –*alim, -elim* affiksi bilan yasaladi: *kelser, barsar (kelsa, borsa), bolmalʻm – boʻlmaylik; bir kisi yangʻʻsar, ogʻushʻ, bodunʻebi esukinge teg qʻʻmʻ – biror kishi adashsa, urugʻi, xalqi, uyi yopingʻichigacha qoʻymas ekan (Kt, 6). Biz yoqatquluq, emgenguluk bolmalʻm tep – biz mahrum boʻladigan, tashvishga qoladigan boʻlmaylik deb (Ol, yo., 608, 21-22).*

Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida oʻtgan zamon feli maʼnosida –*dʻʻ-di // -tʻʻ-ti, -mʻsh / -mish (-mʻs / -mis)* affiksli shakllardan tashqari –*duq / -duk* affiksli shakl ham qoʻllangan. –*duq / -duk* affiksli shakl oʻtgan zamon feli maʼnosida shaxs-son koʻrsatkichsiz uchala shaxsning birligi va koʻpligi uchun ishlatilavergan. Qiyoslang: *Qangʻʻnga, isinga ar kalti, qarluq isinga kalmaduk – Xun huzuriga va uning ittifoqiga odamlar kelishdi, lekin uning ittifoqiga qarluqlar kelmadi (Moyun Chura). Yagʻʻ bolʻʻ itin yaratunu umadug yana ichikmis. – Dushman boʻlib hech narsa qilolmadi, yana unga boʻysundi (Qultegin).*

Fellarning oxirida **d** tovushi faol ishlatilgan:

Sifatdoshning qadimgi turkiy til uchun xos –*duq, -duk (-tuq, -tuk) – borduk (borgan), teduk (degan); -tachʻ, -techi (-dachʻ, -dechi) – boldachi-boʻlajak, keldechi – kelajak; -gʻʻlʻ, -gli, barigʻʻlʻ – boradigan, keligli – keladigan; -(ʻʻgma, -(i)gme – barʻʻgma – borgan, boradigan, keligme – keladigan kabi affikslar orqali yasalgan shakllari koʻp qoʻllangan. Qagʻʻanladuk qagʻʻanʻʻ pituru ʻʻmʻ – Hoqonlik qilgan hoqonini yoʻqotib yubordi (Kt, 7). ...ichikigme ichikdi, bodun boltʻ, olugma olti – taslim boʻlgan, taslim boʻldi, xalq boʻldi, oʻladigan oʻldi (Bx, 37).*

Ravishlar: *ukush (koʻp), ancha (shuncha), ilgaru (ilgari), yarʻʻ (erta).*

Modal soʻzlar: *yogʻ (yoʻq), bar (bor).*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., Oʻrinboev B., Aliev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

10-mavzu: Sintaksis. Qadimgi turkiy tilda gap qurilishi, soʻz birikmasi

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishi
2. Qadimgi turkiy tilda sodda va qoʻshma gap
3. Qadimgi turkiy tilda soʻz birikmasining ifodalanishi

Hozirgi oʻzbek tilining soʻz birikmalari, gap boʻlaklari, gap tuzilishi uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qadimgi turkiy va soʻnggi davrlar tilining tuzilishi bilan hozirgi zamon tili tuzilishini qiyoslar ekanmiz, yozma adabiy til fonetik, morfologik jihatidagina emas, tuzilish tomondan ham takomillasha

borganini ko'ramiz. Shunisi muhimki, sintaksisdagi o'zgarishlar ko'pincha morfologiya va leksika tarkibida bo'lgan o'zgarishlar tufayli ro'y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste'moldan chiqishi so'zlarning boshqaruv munosabatini o'zgartiradi va hol doirasini kengaytiradi. Sifatdosh-predikat bilan subyekt orasida qaratqich-egallik aloqasi kelib chiqib, subyektning qaratqich kelishigi qo'shimchasini va sifatdoshning predikat egallik qo'shimchasini olishi bunday ergash gaplarning so'z birikmasiga o'tishiga sabab bo'ladi: *men kelganda, mening kelganimda* va boshqalar. Demak, sintaktik kategoriyalar tarixi o'rganilar ekan, morfologik kategoriyalar taraqqiyotiga ham e'tibor berish kerak. Shuningdek, yangi so'zlarning paydo bo'lishi yangi so'z birikmalarini keltirib chiqaradi. Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil – boshqa tillarning tasiridir. Tarixda o'zbek tiliga, ayniqsa, fors-tojik tilining tasiri sezilarli bo'lgan. Bu tilning tasiri bilan yangi so'z birikmalari (*guli rano, lali Badaxshan* kabi) va ergash gaplar [(*Yusuf Hojokim, musiqiyda mashhur*, *Andijāniydur* (BN); *yana bir jins o'rūk bo'lurkim, dānasini ālib, ichigā mag'iz salib quruturlar, subhāniy derlār, bisyār lazizdur*(BN))] vujudga keladi, bog'lovchilarning qabul qilinishi bilan (*yā:, yāki, ne* kabi) so'zlarni hamda gaplarni birlashtirishning yangi usuli kelib chiqdi.

Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishi ham ma'lum qolipga keltirilgan bo'lib, so'z birikmalarining turlicha ko'rinishlari, so'zlarning sintaktik aloqaga kirishi, gap bo'laklari, ularning ifodalanishi va tartibi jihatidan hozirgi turkiy tillarga ancha yaqin turadi. Shuningdek, unda sodda va qo'shma gapning har xil turlarini, ko'chirma va murakkab tipli qo'shma gaplarning keng ishlatilganligini ko'rish mumkin.

So'z birikmalari ikki turli bo'ladi: **tobe birikma** va **teng birikma**.

Qadimgi turkiy tilda ham so'z birikmalari ana shunday ikki turli bo'lgan. Tadrijiy taraqqiyot natijasida so'z birikmalarini tashkil etgan qismlarning shakllanishi va o'zaro bog'lanish usulidagina ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi.

Tobe birikmalar. Tobe so'z birikmalarini tashkil etgan qismlarning biri tobe, ikkinchisi hokim so'z bo'ladi. Bu xil birikmalar uch xil sintaktik usul bilan tuziladi: *bitishuv, boshqaruv, moslashuv*.

Bitishuv. Bitishuv munosabatiga kirishgan so'zlar o'zaro hech qanday grammatik vosita yordamisiz birikadi. Sifat, son, ko'rsatish olmoshi, sifatdosh bilan ot va ot bilan ot, shuningdek, ravish yoki ravishdosh bilan fel va ot yoki olmosh bilan fe'l bitishuv aloqasiga kirishadi.

Qadimgi turkiy tilda so'zlar, asosan, bitishuv munosabatiga kirishgan. Buning sababi so'zlarni o'zaro bog'lashda xizmat qilgan grammatik vositalarning kam bo'lishidir. Grammatik vositalarning qo'llanishi bilan so'zlarning o'zaro aloqaga kirish xususiyati ham o'zgaradi. Masalan, qadimgi turkiy tilda *turk* va *bodun* so'zlari bitishuv munosabatlariga kirishadi: *Turk bodun yoq bolmazun, - tayin* (KT). Hozirgi o'zbek tilida esa bunday so'zlar o'zaro izofali birikmani tashkil etadi (hokim so'zning tarkibida egallik affiksi bo'ladi: *turk xalqi*). O'zaro relyativ munosabatda bo'lgan ayrim birikmalarining taraqqiyotida ham tobe so'zning ma'lum vosita bilan shakllanishga tomon borganligini ko'ramiz: *Kular yuz isig so'z ula nāy tavar* (QB) – *Mol-u dunyoni ochiq yuz, issiq so'z bilan ula*. Bu jumlada bitishuv munosabatiga kirishgan so'zlar hozirgi o'zbek tilida ko'makchi yordamida boshqaruv yo'li bilan aloqaga kirishadi (*Ochiq yuz bilan ula, issiq so'z bilan ula*). *Yalavach barur er* (QB) – *Elchi bo'lib (elchilikka) boradigan odam. Qag'un buq yarga tushdi* (MK) – *Qovun biq etib yerga tushdi*.

Bitishuv munosabatiga kirishgan so'zlarning taraqqiyotidagi ikkinchi hodisa bunday birikmalarining qo'shma so'zga aylanishidir: *sakiz on, toqqiz on* (qad.tur.til) – *sakson, to'qson*. Bazi birikmalardagi so'zlarning ma'no vazifasidagi qisman yoki to'liq o'zgarish bunday birikmalarining ham qo'shma so'zga o'tishiga sabab bo'ldi: *Ulug' Turuknuj so'zūn y(a)qshi ko'rdi* (O'N); *yaxshi ko'rdi* – hozirgi zamon tilida qo'shma fe'l (*yoqtirdi*).

Boshqaruv. Hokim so'zning talabi bilan tobe so'z biror shaklda bo'lib, shu grammatik vosita orqali tobe so'z hokim so'zga bog'lanadi. Bunda tobe so'z ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'z bilan birikadi yoki kelishik qo'shimchasini oladi. Odatda, tobe so'z ot va ot ma'nosidagi so'zlardan, hokim so'z esa fe'l va bazan belgi bildiruvchi so'zlar yoki ko'makchilar bilan ifodalanadi. Til taraqqiyoti natijasida ana shu vositalar o'zgaradi, boshqa vositalar bilan almashadi, natijada tobe va hokim so'zning grammatik aloqa xususiyati ham o'zgara boshlaydi.

Ko'makchi orqali boshqarish qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan. Ko'makchili boshqarish sohasida bo'lgan taraqqiyot ayrim ko'makchi va shu vazifadagi so'zlarning ishlatilmay qolib ketishi va yangilarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, qadimgi va eski turkiy tildagi *tagu, ashnu, otru, taba, basa, uzu, tagra, ara, azin, qaru* ko'makchilari orqali boshqaruv eski o'zbek tilida kam ishlatiladi. Bundan tashqari, ko'makchilarning o'zlari ham ma'lum bir so'zlarni ma'lum kelishik shaklida boshqargan. Bunday boshqarish usulida va shaklida ham ma'lum o'zgarishlar bo'lganini ko'ramiz.

Bilan // *bila* ko'makchisi bosh kelishikdagi so'znigina emas, qaratqich kelishigidagi so'zni ham boshqargan. Hozirgi zamon tilida bu ko'makchi I, II shaxs olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shaklini boshqara oladi.

Naru (nari) va *kazin (>keyin)* ko'makchilari hozirgi zamon tilida chiqish kelishigidagi so'zni boshqarsa, eski turkiy tilda o'rin-payt kelishigi shaklidagi so'zni ham boshqara olgan: *Saniḡdā kāzin* (QB). *Bu yerdin naru* (QB).

Qadimgi va eski turkiy tilda hamda eski o'zbek tilida ko'makchi hisoblangan *tek* // *dek* hozirgi o'zbek tilida ravish yasovchi affiksga aylandi va so'zlarni boshqaruv munosabatiga kiritish vazifasini yo'qotdi.

Kelishik shakllari orqali boshqarish eng mahsuldor usuldir. Bu usul bilan boshqarish kelishik shakllarining taraqqiyoti va ularni boshqargan so'zlarning ma'no taraqqiyotiga bog'liqdir. Bosh va qaratqich kelishigidan boshqa kelishikdagi ot va ot ma'nosidagi so'zlar fe'l yoki belgi bildiruvchi so'z turkumlari tomonidan boshqariladi.

Kelishik affikslari orqali boshqarish usuli taraqqiyotida quyidagi hodisalarni ko'ramiz:

1. Vosita kelishigi *-n* // *-in* // *-ḡ* // *-un* // *-un* / yordami bilan boshqarish qadimgi turkiy tilda keng iste'molda bo'lgan. Bu kelishik shaklida bo'lgan ayrim so'zlarni (*qishin-yozin*, *ostin-ustin* va b.) hozirgi zamon tilida vosita kelishigida deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar ravish bo'lib, hokim so'z bilan bitishuv munosabatiga kirishadi.

2. Boshqarish munosabatini yuzaga chiqargan *-da* // *-ta* qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda va qisman O'rta Osiyo turkiy tilida (QB, MK, NN) o'rin-payt va chiqish kelishiklari mazmuni munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Qara kolta suḡüşdimiz* (KT). *Tubut qaq'anta bo'lo'n kalti* (KT). *Qut?kunda artt?(QB)*. *Bu at anda yig* (MK).

3. Tushum kelishigidagi ot yoki olmoshni hozirgi zamon tilida o'timli fe'llar boshqaradi. Qadimgi turkiy tilda bu kelishikdagi so'zlarni o'timsiz fe'llar ham, olmoshlar ham boshqara olgan: *O'tükän yärig qontım* (Toḡ). *Anı subug' baralıḡm – Anı suvi bo'ylab boraylik* (Toḡ). *Emdi an?kim yatar* (MK).

4. Ko'p yillik tarixiy taraqqiyot natijasida ayrim kelishik shakllarining qo'llanishida ham o'zgarish ro'y berdi.

Jo'nalish kelishigi o'rin kelishigi o'rnida va aksincha (bu hodisa hozirgi Samarqand va Buxoro shevalarida ham mavjuddir): *Kültägin qoḡ yilqa yäti yägirmigä uchd?* – *Kultegin qo'y yili o'n ettida o'ldi* (KT). *Tinasi og'li? yatḡ'ma tag'da tegmish – Tinasi o'g'li yotgan toqqa yetdi* (Toḡ). *Er ärdäimimdä bo'kmadim – Botirligimga to'ymadim* (Enasoy yodgorligi).

Jo'nalish kelishigining chiqish kelishigi o'rnida qo'llanishi. *Uyar bagimga adḡḡtḡm, uyar qadashḡnqa adḡḡtḡm – Dongdor begimdan ayrildim, mashhur do'stlarimdan ayrildim* (Enasoy yodgorligi). Bu xususiyatlar asta-sekin yo'qola bordi. Eski o'zbek tili davriga kelib, kelishiklarning qo'llanishi ma'lum darajada qat'iylasha bordi. Ko'p o'rinlarda tushum kelishigi qaratqich kelishigi vazifasini o'tagan: *biziḡ kishilärgä* (O'rx.-En.). Bu hol hozirgi zamon o'zbek shevalariga ham xosdir.

Moslashuv. Shaxsdagi moslik. Ma'lum bir shaxsdagi moslik ega bilan kesim o'rtasida bo'ladi: ega qaysi shaxsda bo'lsa, unga mos holda kesim ham ana shu shaxsni ko'rsatadi.

Kesimning qanday so'z turkumidan ifodalanishiga ko'ra ma'lum shaxsni ko'rsatuvchi shakllar ham har xil bo'ladi.

I. Kesimlar aniqlik fe'li orqali ifodalanganda, shaxs qo'shimchalari quyidagicha bo'ladi: I shaxs: *-(im)*, *-k*, *-(i)miz*; II shaxs: *-(i)ḡ*, *-(i)ḡiz*; III shaxs: *o* (*nol*), *-oo* (*nollar*).

Kesimlari aniqlik fe'llari orqali ifodalangan gaplarning ega bilan kesimlarining moslashuvida muhim bir o'zgarish ro'y bergan emas. Aslida, bu fe'l shakli sifatdosh bo'lib, qadimgi turkiy tildayoq fe'lga o'tgan edi. Uning sifatdoshlik xususiyati ba'zi aniqlovchilik vazifasidagina ko'rinadi: *amushd?er – shoshilgan kishi* (MK).

Ko'plikning birinchi shaxsi ikki xil shakl orqali ega bilan moslashgan: *-ka* va *-(i)miz*. Qadimgi turkiy tilda, asosan, *-(i)miz* shakli orqali moslashadi: *Qamug'? bash otuz suladimiz, uch yagirmi süñüşdimiz, äligig älsirätdimiz* (KT) – *hammasi bo'lib 25 marta yurish qildik, 13 marta jang qildik, elini oldik; aqtḡmḡ; bastḡmḡ* (MK).

Shart fe'li bilan ifodalangan kesim hamma vaqt ham ega bilan moslashavermagan. Qadimgi turk tilida shart fe'li affiksi *-sar* // *-sar* shaklida bo'lib, shaxs qo'shimchalarini olmaydi, binobarin, ega bilan shaklan moslashmaydi. Fe'l-kesimning qaysi shaxsga oidligini ko'rsatish zarur bo'lsa, I va II shaxs olmoshlarini qo'llaganlar: *kalsar man*, *kalsar san*. III shaxsda hech qanday ko'rsatkich bo'lgan emas.

II. Kesimlar ism turkumidagi soʻzlar, sifatdoshlar orqali ifodalanganda, shaxs qoʻshimchalari quyidagicha boʻladi: I shaxs: *-man, -miz*; II shaxs: *-san, -siz*; III shaxs: *turur* va *ol* elementlari vositasi bilan yoki belgisiz qoʻllanadi.

I va II shaxs kesimlarining ega bilan moslashuvida tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim bir oʻzgarish roʻy bergan emas. Bu taraqqiyot jarayonida kesimlarni shaxs qoʻshimchasi bilan qoʻllash tobora qatʼiylasha boradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Oʻrxun-Enasoy yodnomalarida *ol* III shaxsni koʻrsatuvchi grammatik vosita sifatida juda kam qoʻllanadi.

Sifatdosh kesimlar ega bilan ot-kesimlardagidek belgilar yordami bilan moslashadi. Sifatdosh kesim har vaqt ham ega bilan shaklan moslashavermagan. Sifatdoshning *-duq/-duk* shakli qadimgi turkiy tilida ham, eski turkiy tilida ham ega bilan moslashgan emas.

Sifatdoshning *-g /-gʻu* shakli qadimgi turkiy va eski turkiy tilda muntazam ravishda ega bilan moslashmaydi.

III. Kesimlar buyruq-istak mayli orqali ifodalanganda, ega bilan kesimning moslashishida oʻzgarish juda kam boʻlgan. Ega bilan kesim orasidagi moslashish tarixida xarakterli xususiyatlardan biri oʻz olmoshi hozirgi oʻzbek tilida, qaysi shaxsdagi egalik affiksini olishiga koʻra kesim bilan moslashadi (*oʻzim keldim, oʻzing kelding, oʻzi keldi, oʻzimiz keldik, oʻzingiz keldingiz, oʻzlari keldilar*).

Sondagi moslik. Ega bilan kesim orasida sondagi moslik koʻp oʻrinda shaklan ifodalanmaydi, ega koʻplikda boʻlsa ham, kesim birlik shaklida qoʻllanaveradi: *Toʻquz ogʻuz baglari bodun? bu sabʼmʼh ʼadguti eshid, qatigʻdi tıyla – Toʻqqiz oʻgʻiz beklari, xalqi, bu soʻzimni yaxshilab eshit, qattiq tingla* (KT).

Shu bilan birga, qadimgi yozma yodgorliklardayoq ega bilan kesimning shaklan moslashgan oʻrinlarini ham koʻramiz. Bu hol koʻproq ega shaxslarni bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalanganda roʻy beradi: *Kishilar bir-biriga igashdilar – Kishilar bir-biriga suyandilar* (MK).

Teng birikmalar. Teng birikmali soʻz birikmalari va gaplarni teng bogʻlovchilar va yuklamalar tashkil etadi. Teng bogʻlovchilarga biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor bogʻlovchilari va yuklamalar kiradi. Bu bogʻlovchi vositalar uyushiq boʻlaklarni va bogʻlangan qoʻshma gaplarni tashkil etgan qismlarni bogʻlaydi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida baʼzi teng bogʻlovchilar ishlatilmay qolib ketdi (*taqʼ, yema, ma, azu*), maʼlum davrlarda adabiy tilda boshqa bogʻlovchilar qoʻllana boshladi (*va, ham, yo, yoxud, goh* v.b.).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., Oʻrinboev B., Aliev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. Oʻzbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

11-mavzu: Gap turlari. Sodda gap. Qoʻshma gap koʻrinishlari

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilda gap va uning turlari haqida
2. Qadimgi turkiy tilda sodda gap turlari
3. Qadimgi turkiy tilda qoʻshma gap koʻrinishlari

Hozirgi zamon tilida darak, soʻroq, buyruq, undov gaplar keng qoʻllanadi. Yozma yodgorliklar tilida ham gaplar ana shu turlarga boʻlinadi. Qadimgi va Oʻrta Osiyo turkiy tillarida koʻproq darak gaplar uchraydi, ikkinchi oʻrinda soʻroq gaplar va buyruq gaplar qoʻllanadi: *oʻzi yaŋʼıt?, qaqʼan? oʻlti, bodun? kun qul bolt?* (KT) – *Oʻzi (yoʻlidan) adashdi, xoqoni oʻldi, xalqi qul boʻldi. Elta buŋ yoq* (KT) – *Elda kamchilik yoʻq. Bilga qaqʼan ermis, alp qaqʼan ermis* (KT) – *Bilimdon xoqon ekan, bahodir xoqon ekan*. Darak gaplarning kesimi koʻpincha ot, sifat, son, olmosh, ravish va sifatdosh hamda bazan ravishdosh bilan ifodlangan.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq feʼli bilan ifodalanadi: *Sabʼmʼh tugati esitgil* (KT) – *Soʻzimni tamom (toʻliq) eshiting. Ban yurdan-tayan tegayin, turk sir bodun yarinta idi yorumazun, usar idi yoq-qusalum* (Toŋ) – *Men sharqdan hujum qilay, sir turk xalqi yerida xoʻjayinlik qilmasin, bu xoʻjayinni iloji boricha yoʻqotaylik. Ani subugʻ barahm* (Toŋ) – *Ani suvi boʻylab boraylik*.

So‘roq gaplar qadimgi turkiy tilda so‘roq olmoshi orqali ifodalanadi: *Qag‘anʼm qan? (KT) – Xoqonim qani?* So‘roq yuklamasi orqali tuzilgan so‘roq gaplar kam uchraydi: *Bar mu nā (Toʻn) – Shunday bo‘lishi mumkinmi?*

Undov gaplar yozma yodgorliklar tilida kam uchraydi: *Esizim tiriklik, esizim tiriklik (QB) – Esiz tiriklik, esiz tiriklik!* Undov gaplarning turli ko‘rinishlari keyingi davrlarda vujudga keldi.

Bir tarkibli gaplar. *Noaniq shaxsli gaplar*da ma‘lum bir harakat yoki holatning bajaruvchisi noaniq bo‘ladi, bu xil gaplarla umuman bo‘ladigan voqea-hodisalar ustida fikr yuritiladi. Shuning uchun ham noaniq shaxsli gaplarning kesimi uchinchi shaxs ko‘plik shaklida bo‘ladi.

Bir tarkibli gaplarning bu turi qadimgi davrlardan beri qo‘llanib keladi: *kishi tab ayurlar qayu ol kishi (QB) – (Kimnidir) odam deb aytiladi, odam (o‘zi) kim.*

Hozirgi zamon tilida noaniq shaxsli gaplarning turli shakllari qo‘llana boshladi (so‘zlashuv tiliga xos shakllar, felning birgalik nisbati shakli orqali ifodalanagan kesimlar va boshqalar).

Shaxssiz gaplar. Egasi grammatik jihatdan ifodalanmagan shaxssiz gaplarning turli-tuman shakllari qadimgi davrdan boshlab qo‘llanib keladi.

Shaxssiz gaplarning kesimlari fe‘lning majhul shakli (kam uchraydi) orqali ifodalanadi: *Kudazilsa bu tʼ kudazlur o‘zuʼj (HH) – Tilingni tiysang, o‘zingni saqlaysan.*

Qadimgi va eski turkiy tilda sifatdoshning *–mish* shakli ham shaxssiz gaplarning kesimi bo‘lib kela olgan: *Talim ko‘rmishim bar (QB) – Ko‘p ko‘rganim bor.*

Shaxsi umumlashgan gaplar. Bir tarkibli gaplarning bu turida ish-harakat umumga oid bo‘ladi. Bu xil gaplarda grammatik ega ko‘pincha ifodalanmaydi. Bu holat yozma yodgorliklar tilida ko‘proq uchraydi. Eski turkiy tilda shaxsi umumlashgan gaplarning kesimlari ko‘proq uchinchi shaxs shaklida bo‘ladi: *Nagu yarga aksa yana ol olur (QB) – Nimani yerga eksang, yana o‘shani olasan.* Hozirgi zamon o‘zbek tilida shaxsi umumlashgan gaplar ikkinchi shaxsga oid bo‘ladi.

Atov gaplar. Yolg‘iz ega va bazan unga oid bo‘laklardan tarkib topgan bir tarkibli gaplar eski davrlardan boshlab badiiy va nazmiy asarlar tilida qo‘llanib kelgan. Hozirgi zamon o‘zbek tilida atov gaplarning turli ko‘rinishlari kelib chiqdi va qo‘llanish doirasi kengaydi.

To‘liqsiz gaplar – biror bo‘lagi shaklan ifodalanmagan o‘ziga xos gap turidir. Bunday gaplarning to‘liqsizligi shaklan bo‘lib, mazmunan ular to‘liq bo‘ladi, biror gap bo‘lagining yo‘qligi sezilmaydi. To‘liqsiz gaplar qadimgi yodgorliklar tilida keng qo‘llanadi, uning turli-tuman shakllari ko‘p uchraydi.

To‘liqsiz gaplar ikki xil vaziyatda: qo‘shma gap tarkibida va mustaqil shaklda uchraydi. Qo‘shma gap tarkibida qo‘llangan to‘liqsiz gaplar, odatda, ikkinchi qismni tashkil etadi va bu xil gaplar tarkibidagi u yoki bu bo‘lakning tushib qolgani qo‘shma gapning birinchi qismidan ayon bo‘lib turadi: *Osal yanluq og‘li o‘gush neʼj tārār // nāguge, tegār-mu – saqʼmaz bir (QB) – G‘ofil odam bolasi ko‘p narsa yig‘adi, (ammo bu narsalar) nima uchun (kerak), (o‘ziga ular) tegadimi – biror (marta kishi bu haqda) o‘ylamaydi.*

Kesimlari ifodalanmagan to‘liqsiz gaplar qadimgi turkiy tilda keng qo‘llanadi. Odatda *bar, karak, bol, turur* kabi mavjudlik ifodalovchi so‘zlardan ifodalanagan kesimlar yashirinadi: *Ko‘ru barsa tekma ishinde xatar (QB) – Qarasang, hamma ishda ham xatar (bor).*

Dialog turidagi to‘liqsiz gaplar qadimgi turkiy va O‘rta Osiyo turkiy tilda kam uchraydi, bu xil gaplarning ba‘zi sodda shakllari eski o‘zbek tilida qo‘llanadi.

Qo‘shma gaplar. Qo‘shma gaplar ikki xil yo‘l bilan kelib chiqadi (A.Riftin):

1) ikki sodda gapning birikish yo‘li bilan (bu yo‘l bilan *bog‘langan qo‘shma gap* tuziladi; bunday bog‘langan qo‘shma gaplardan *ergash gapli qo‘shma gaplar* ham ajralib chiqadi);

2) sodda gap tarkibidagi sifatdosh, ravishdosh yoki shart fe‘li boshqargan birikmalar kengayib, alohida gap tashkil etish yo‘li bilan. A.Riftinning fikriga ko‘ra, flektiv tillar uchun birinchi yo‘l asos bo‘lsa, agglyutinativ tillar uchun ikkinchi yo‘l asosdir. Ayrim olimlar turkiy tillarda qo‘shma gaplar sodda gaplarning birikishi yo‘li bilan shakllangan desalar (M.Shiraliyev, N.T.Sauranbaev), ayrim olimlar qo‘shma gap taraqqiyotining ikkinchi yo‘lini tan oladilar (S.Jienbaev, E.A.Grunina). Ko‘p olimlar A.Riftinning fikriga shubha bilan qaraydilar va qo‘shma gap taraqqiyotida har ikki yo‘l ham bo‘lishi mumkin ekanini ko‘rsatadilar (K.Sartbaev, N.Gajieva).

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Bu gaplar qo‘shma gaplarning ibtidoiy shaklidir. Buning sababi, bog‘lovchi ishtirokisiz, faqat ohang yordami bilan bog‘lanish qo‘shma gap tuzishning eng oddiy usulidir.

Hali teng va tobe bog‘lovchilar bo‘lmagan yoki juda kam bo‘lgan davrlarga oid o‘rxun yozuvlari va XI asr yodnomalarida murakkab fikr sodda gaplarni yonma-yon keltirish hamda gaplarni ma‘lum ohang va boshqa vositalar bilan biriktirish orqali ifodalanagan.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ba‘zilari hozirgi bog‘langan qo‘shma gaplar uchun, ba‘zilari hozirgi ergash gaplar uchun asos bo‘lgan, ayrimlari esa ma‘lum o‘zgarishlar bilan hozir ham qo‘llanadi.

Bog'lovchisiz QG o'z xususiyatlariga, o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan maxsus birikmadir, bu birikma tarixiy taraqqiyot jarayonida yanada takomillashgan va hozirgi zamon tilida qo'shma gapning boshqa turlari bilan barobar qo'llanadi, hatto uning ba'zi turlari keyingi davrda vujudga kelgan.

Qadimgi yodnomalarda bog'lovchisiz QGni tashkil etgan qismlar orasidagi ma'no munosabatlar ham ko'p o'rinlarda, hozirgi zamon tiliga yaqin turadi.

1. Bog'lovchisiz QGni tashkil etgan qismlar ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea, hodisa, xususiyatlarini ifodalaydi.

Ma'lum payt munosabatida bo'lgan qo'shma gap qismlarini bir-biriga bog'lash uchun ayrim leksik unsurlar ishlatilgan. O'rxun yodnomalarida QG qismlarini biriktirish uchun quyidagi leksik unsurlar qo'llanadi: *anta kiswa* (*anta* – unda, *kiswa* - keyin): *Ancha saqintum. Anta kiswa tãñri bilig bãrtük uchun o'züm oq qag'an qusdum (Ton).* – *Undan keyin shunday o'yladim: tangri (menga) bilim bergani uchun (uning xon bo'lishini) o'zim istadim.*

2. Bog'lovchisiz QG qismlaridan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslash orqali voqea, hodisa, predmetlar o'rtasidagi farqlar, ular orasidagi qarama-qarshilik, nomuvofiqlik ochiladi: *Tag' tag'qa qavushmas, kishi kishiga qavushur* (MK). Bunday munosabatni ifodalovchi QGlar keyingi asrlarga oid yodnomalarda keng qo'llanadi va ular yanada aniqlashadi.

3. Ma'no jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'lgan, biri ikkinchi qismini aniqlagan, to'ldirgan QGlar ham qo'llangan. Bunday gaplar asosan eski turkiy til davrida keng istemolda bo'lgan.

QG qismlaridan biri ikkinchisining mazmunini to'ldiradi. To'ldirish vazifasida bo'lgan qism ikkinchi o'rinda bo'ladi. Bu holda to'ldirish vazifasidagi gap, asosan, ko'chirma gap shaklida bo'ladi: *Saq'it'm turuq buqal? semiz buqal? arqada bilsar, - semiz buqa, turuq buqa, - bilmãz ermis (Ton).* – *O'yladim: orqadan (xon) oriq buqa, semiz buqani bilsa ham, (qaysi) semiz buqa, (qaysi) oriq buqa, bilmaydi.* Biror qismi to'ldirish vazifasida bo'lgan qo'shma gaplar so'nggi davr adabiyotlarida ham keng qo'llanadi. Hozirgi tilda biroz o'zgargan shaklda ishlatilmoqda.

Bog'langan qo'shma gaplar. Bog'langan QGni tashkil etishda teng bog'lovchilar bilan birga ayrim yuklamalarning ham ishtiroki kattadir. HO'ATda teng bog'lovchilarning barcha turlari va yuklamalar keng qo'llanadi. Ammo til taraqqiyotining ilk davrlarida yordamchi so'zlar juda kam bo'lib, borlari ham o'ziga xos vazifaga ega bo'lgan.

Qadimgi yozma yodgorliklarda (birinchi navbatda, o'rxun yodnomalarida) teng bog'lovchilar bo'lmagan. Bu vazifada *yema, yana, taq?, dag'?* kabi leksik unsurlar qo'llangan. Bu unsurlar qo'shma gap qismlarini bir-biriga mazmunan bog'lagan va bog'langan QGga yaqin, ammo o'z ma'no mustaqilligi ancha kuchli bo'lgan birikmalarni yaratgan. Keyinchalik bu unsurlar o'z leksik ma'nolaridan tobora uzoqlashadi va QG qismlarini biriktiruvchi vositaga aylanadi, shu o'rindagina ular haqiqiy bog'langan QGni tashkil qiladi.

Yema, yana. O'rxun yodnomalarida bog'langan QGni tashkil etishda faqat *yema* yordamchisi uchraydi. *Yema* so'zi *yana, ham* yordamchilariga yaqin vazifada qo'llangan. Uning ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasi bo'lgan: *yema* bir-biriga mazmunan qo'shiluvchi voqea, hodisa, xususiyatlarni takidlab ko'rsatadi: *Türk bodun yemä bulg'anch..., og'uzı yemä tarqanch... (Ton).* – *Türk xalqi ham qo'zg'algan, o'g'uz (xalqi) ham tarqalgan.*

Yana yordamchisi ham ma'lum ma'no munosabatida bo'lgan gaplarni biriktirib, QG hosil qilishda xizmat qiladi. Bu yordamchi yolg'iz qo'llanadi, QGning ikkinchi qismi boshida keladi va so'nggi qismdan anglashilgan mazmunning oldingi qismdan anglashilgan mazmunga qo'shilishini ko'rsatadi: *yana* yordamchisi «DLT» va «QB»da uchraydi. Qadimgi turkiy tilda uchramaydi. Hozirgi o'zbek tilida *yana* yordamchisining QG tuzishdagi vazifasi chegaralangan.

Taq?(dag'?, tag'?) unsuri, va bog'lovchisi, *ham* yordamchisi hamda zidlovchi bog'lovchilar bo'lgan *lekin, amma, balki, ya* bog'lovchisi, *ne* yordamchisi kabilar qadimgi turkiy tilda uchramaydi. Ular asosan eski turkiy til yodgorliklarida va undan keyingi yodnomalarda keng qo'llangan. äñü

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nas'rov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

12-mavzu: Eski o'zbek tili va yozuvi. Eski o'zbek tili va yozuvining shakllanishida qadimgi turkiy til va eski turkiy tilning o'rni

REJA:

1. XIII asrda XIV asr boshlarida adabiy til taraqqiyoti.
2. Eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida qadimgi turkiy tilning o'rni.
3. Eski o'zbek adabiy tilining rivojlanishida eski turkiy tilning o'rni

XIII asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi adabiy til eski o'zbek adabiy tili atamasi bilan yuritildi.

Ko'pchilik g'arb turkologlari o'sha davr kitobiy adabiy tilga nisbatan «chig'atoy tili» xalqning jonli adabiy tiliga nisbatan esa o'zbek adabiy tili atamalarini qo'llashadi.

V.V.Radlov, A.M.Shcherbak, A.Bahodirxon chig'atoy tilini sun'iy til deb ta'kidlashadi. Bu fikrga to'la qo'shilish mumkin bo'lmasa ham, ma'lum darajada asosli fikr ekanligini qayd qilish lozim.

Bu davrda o'zbek tili o'zbek elatining umumxalq adabiy tili sifatida faoliyat ko'rstadi. Tarixiy rivojlanishning katta bir qismini tashkil qilgan bu davrda mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealar va iqtisodiy-madaniy munosabatlar bilan bog'liq ravishda eski o'zbek adabiy tili bir qator o'zgarishlarga uchraydi. Uning lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi takomillashadi, silliqlashadi, yangi qonun-qoidalar kasb etadi. Adabiy tilning fonetik tizimida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lib, adabiy til me'yorlari qat'iylashadi, yana ham rivojlanadi.

O'rta Osiyo xalqlarining XIII asrdagi ijtimoiy-madaniy hayoti bevosita mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlarini bilan bog'liq bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, bu bosqinchilik urushlari natijasida gullab turgan shaharlar xarobaga aylandi, boy madaniyat va san'at yo'q qilindi, mamlakat xalq xo'jaligi, iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti juda katta talofat ko'rdi, adabiyotning rivojlanishiga ulkan putur etdi.

Mahalliy olimlar, yozuvchilar boshpana izlab, boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'ladilar.

Bu voqealar o'sha davr adabiyotida, tilida ham, jumladan eski o'zbek adabiy tilida yozilgan asarlarda ham o'z izlarini qoldirdi. Mo'g'ul istilosi adabiy tilning taraqqiyotiga sezilarli salbiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishini, qo'llanish doirasi kengayishini to'xtata olmadi.

Umuman, turkiy xalqlar va turkiy tillar tarixida XIII-XIV asrlar alohida murakkab bir davrni tashkil qiladi.

Bu davrlarda Movarounnahr, Xorazm va Oltin O'rdada maydonga kelgan asarlar o'zining til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bu hodisaga ularning ikki madaniy markazda-sharqiy turkiy va g'arbiy turkiy davlatlar xududida yaratilganligi sabab bo'lgan. Ammo shunga qaramay, bu asarlarning hammasida qarluq-chig'il-uyg'ur va o'g'uz-qipchoq til birliklarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

Bu esa o'sha davrda juda katta hududda yashagan turkiy qabila va elatlarning bir-biri bilan yaqin munosabatda bo'lganligini, iqtisodiy-madaniy aloqalari rivojlanganligini ko'rsatadi. Buning natijasida turli o'lkalarda turkiy tilning ta'siri, uni o'rganishga qiziqish kuchayib bordi. Jumladan, mashhur olim Abu Xayyom XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida o'zining «Kitob-ul idrok-lison-ul atrok», «Kitob-ul af'ol fi lisonit turk» kabi mashhur asarlarini yaratdi. Shuni ham eslatish kerakki, mo'g'ullar xujumi natijasida Movarounnahrda tuzilgan davlat-Chig'atoy ulusining tili turkiy til, ya'ni eski o'zbek adabiy tili edi.

Eski o'zbek adabiy tili tashkil topgan dastlabki davrlardan boshlab, fonetik, leksik va grammatik jihatidan Qoraxoniylar davrida qarluq-chig'il-uyg'ur dialekt guruhi asosida shakllangan asosiy xususiyatlarni o'ziga singdirib olgan edi. Ayni vaqtda bu xususiyatlar esa o'zbek tilida takomilga erishgan, bir qator o'zgarishlarga ham uchragan. Bu o'zgarishlar avvalo adabiy tilda so'z qo'llash jarayonida ochiq ko'rindi. Jonli xalq tiliga xos juda ko'p so'z va iboralar adabiy tilga kirib qoldi, ular asosida ko'plab yangi so'z va turlar, badiiy asarlarda tilning soddaligiga, uning ixcham, ravonligiga katta e'tibor berish bilan birga xalq tiliga xos quyma iboralar, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalanish asosida obrazlilikka, badiiy pishiqdilikka erishildi. O'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan o'zaro munosabati yana ham rivojlandi. Shu asosda o'zbek adabiy tilining umumxalq xususiyati kuchayib bordi.

Bu davrda eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan eng muhim yodgorliklarga «O'g'uznoma», «Qissai Rabg'o'ziy», «Yusuf va Zulayxo» kabi asarlarni kiritish mumkin.

Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida A.Navoiyning ijodiy faoliyati til tarixida katta ahamiyatga ega. Biroq Navoiydan oldin ham turk tilida ijod qiluvchi shoirlar oz miqdorda bo'lsa ham bor edi. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Xorazmiy kabilar shular jumlasidandir. Navoiydan oldingi turkiygo'ylik keng tarqalmagan va turkiy adabiy til yuksak darajada ishlanib, rivojlantirilmagan edi. A.Navoiy o'zining «Majolisun nafoyis» asarida o'zi so'z yuritayotgan 90 shoirdan faqat 16 tasigina «turkiygo'y» ya'ni turkiy tilda ham ijod qilishini ta'kidlab o'tadi. Shulardan biri «nazm dengizining tubiga sho'ng'ib, she'riy

durlar» yaratishga intilgan Atoiy o'zbek dunyoviy adabiyotning Navoiyga qadar yetishgan atoqli namoyandalaridir. A.Navoiy Atoiy haqida: «Mavlon o'zbek bo'lur erdi... davr shu va xushxulq, munbasit kishi erdi»-deydi.

Atoiy xalq tili boyligidan ustalik bilan foydalanib, original o'xshatish, kinoya, mubolag'a, tajoxuli orifona, lof kabi badiiy tasvir vositalarini yaratadi.

Shoir omonim so'zlar va turli birikmalar vositasi bilan chiroyli so'z o'yinlari yasaydi va go'zal mumtoz tuyuqlar namunasini yaratadi.

Desang kim: «Jan sipar qilg'ul Atayim»

Turubmen ushmunaq uldur, at ayim...

Yuzungi, ey malahat xan? bir ach,

Bo'ya ko'rsun sani bu mustahiq ach.

Atoiy asarlarining tili Oltin O'rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Chunki Atoiydan qipchoq tili unsurlari ustun darajada edi.

Atoiy g'azallarida quyidagi til xususiyatlarini uchratish mumkin.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga, -g'a, -ka, -qa* affikslari bilan birga *-a* shaklida ham uchraydi: *ko'ngluma, yo'zuma, yo'zina, biza, siza* kabi.

Mim ag'z?bila zulfi qaddi lam-alifdin

Ey vay, netay xasta ko'ngul qald?alamg'a.

Nazm bahrina cho'm xasu xashak qa'rna yet durdek, Atoiy,

Darya yo'zini zasu xashak keraktur.

Jo'nalish kelishigining *-a, -na, -ma* kabi qo'shimchalari hozirgi j-lovchi o'zbek shevalarida ham uchraydi. Lekin bu shakl o'g'uz tiliga xos xususiyatdir.

O'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchalaridan oldin bir *n* tovushi orttirildi.

Garchi ohuyi Xutandir bexato bilmon nedin,

Chinu Mochin lolazorinda qilur sayron ko'zing.

Ul sanamkim suv yaqasnda paritek o'lturur,

G'ayati nozuklikdindin suv bila yutsa bo'lur.

Sifatdosh yasovchi qo'shimcha *-gan* shaklida ham, *-an* shaklida ham uchraydi. Masalan: *qilan-qilg'an, alan-alg'an* kabi.

Buyruq fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga *-aling* affiksini qo'shish orqali yasaladi: *boraling, kelaling, alaling* kabi.

Umuman, Atoiy g'azallari tilida XV asr boshidagi o'zbek adabiy tiliga xos xususiyatlar uchraydi. Shoir o'z asarlari bilan XV asr o'zbek dunyoviy adabiyotigagina emas, balki o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

A.Navoiy ta'biri bilan aytganda, Movarounnahrda shuhrat topgan shoirlardan biri Sakkokiydir. U Ulug'bek zomonida yashab ijod etgan. Shoir g'azallar va qasidalar bitgan. Shu davr an'anasiga ko'ra Sakkokiyning barcha asarlari xalq tilida sodda, ravon uslub bilan bitilgan. U jonli xalq tiliga xos boy lug'aviy birliklar, shakl va iboralar, xilma-xil tasviriy vositalardan keng va mohirona foydalanadi, zidlash, o'xshatish, mubolag'a singari ajoyib badiiy-tasviriy usullar yaratdi.

Buyungtek butmadi bo'ston aro sarvi ravon, ey jon,

Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.

Atoiy singari Sakkokiy ham xalq maqollari, hikmatli so'z va iboralarni mohirlik bilan qo'llash asosida o'z asarlarining tilini boyitadi, uning badiylikini, mazmunini kuchaytiradi.

Sakkokiy asarlari tilida shu davr o'zbek tili uchun xos yangi shakllar bilan birga eski adabiy tili unsurlari ham qo'llangan. Bunday til xususiyatlariga yana quyidagilarni kiritish mumkin: leksik jihatdan *qamug' (hamma), tikin-tekin (gacha), bitik, bikin, tabug', ezuq* kabi so'zlar ishlatilgan. Shuningdek, *to'lg'anu (to'lg'anib), ko'radurg'on, yiglayu* kabi fe'l shakllari qo'llangan, *-gan* affiksi sifatdosh va uning otlashgan holda kelishi ko'p uchraydi, ammo uning tuslangan kelishi ko'rinmaydi. Hozirgi kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli *-man, -mon* orqali beriladi: *ne qilg'usi, bilmon bu makkora* kabi.

Demak, Sakkokiy o'zbek adabiyoti, o'zbek adabiy tilining rivojlanishida, uni boyitish va jonli xalq tiliga yakinlashtirishda munosib hissa qo'shgan.

O'z davrining «malikul kalomi» bo'lgan Lutfiy o'zining butun hayoti va ijodiy faoliyati davomida o'zbek adabiyotini va o'zbek adabiy tilini rivojlantirish uchun, uning boyligi va qudratini ko'rsatish uchun harakat qildi, o'zbek tilida juda ko'p lirik she'rlar, g'azallar va tuyuqlar bitdi, bunda xalq og'zaki ijodi va yozma adabiy an'alaridan ijodiy foydalandi.

Lutfiy asarlarining tili XVI-XV asrlardagi o'zbek tilini aks ettiradi, uning qo'llanish va xizmat doirasi kengayganligi, lug'at tarkibi juda ko'p yangi so'z va iboralar bilan boyiganligini ko'rsatadi,

o'zbek adabiy tilining fonetik tizimi va grammatik qo'rilishi ma'lum me'yorga kelib qat'iylashganligini aks ettiradi.

Bevosita Lutfiy asarlariga xos til xususiyatlari haqida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Shu davr tili uchun xos unli va undoshlar uyg'unligi saqlangan: *ayoqing'a, boshingg'a, yuzungnung orzusi* kabilar.

Shunday qilib, Lutfiy o'zbek adabiytilining taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi, o'zidan keyin yashagan shoirlarning ijodiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'zbek adabiy tilini rivojlantirishda, uni ma'lum me'yorga keltirish va jonli xalq tiliga yaqinlashtirishda ulkan hissa qo'shdi.

Turkiy tilning nufuzi va taraqqiyoti uchun A.Navoiy va uning zamondoshlari Lutfiy, Atoiy va Sakkokiylar bilan birgalikda Amiriy, Ahmadiy, Xo'jandiy, Mir Haydar, Gadoiy, Bobur, M.Solihlar ham munosib hissa qo'shdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Muxtorov., U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. U.Tursunov., B.O'rinboev., A.Aliev. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1982.
3. A.Aliev., Q.Sadiqov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1992.

13-mavzu: Fonetika. Eski o'zbek tilida unli va undoshlar. Eski o'zbek tilida tovushlar (lab va tanglay) uyg'unligi hodisasi

REJA:

1. Eski o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Eski o'zbek tilida unli va undoshlar
3. Eski o'zbek tilida tovush uyg'unligi

Eski o'zbek adabiy tili tashkil topgan dastlabki davrlardan boshlab, fonetik, leksik va grammatik jihatidan Qoraxoniylar davrida qarluq-chig'il-uyg'ur dialekt guruhi asosida shakllangan asosiy xususiyatlarni o'ziga singdirib olgan edi. Ayni vaqtda bu xususiyatlar esa o'zbek tilida takomilga erishgan, bir qator o'zgarishlarga ham uchragan. Bu o'zgarishlar avvalo adabiy tilda so'z qo'llash jarayonida ochiq ko'rindi. Jonli xalq tiliga xos juda ko'p so'z va iboralar adabiy tilga kirib qoldi, ular asosida ko'plab yangi so'z va turlar, badiiy asarlarda tilning soddaligiga, uning ixcham, ravonligiga katta e'tibor berish bilan birga xalq tiliga xos quyma iboralar, maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalanish asosida obrazlilikka, badiiy pishiqdilikka erishildi. O'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan o'zaro munosabati yana ham rivojlandi. Shu asosda o'zbek adabiy tilining umumxalq xususiyati kuchayib bordi.

Bu davrda eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan eng muhim yodgorliklarga «O'g'uznoma», «Qissai Rabg'o'ziy», «Yusuf va Zulayho» kabi asarlarni kiritish mumkin.

Eski o'zbek tili yozma manbalarida (XV-XIX asrlar) o'nta unli tovush *a, ā(o), ä, e, o, ö, u, ü, ? i* mavjud bo'lgan. Eski o'zbek tilida qo'llangan undoshlar quyidagilar: *b, v, d, g, z, d, k, q, g', m, n, η, j, p, l, r, y, s, t, ş, ch, j, h, x, f* kabi. Ko'rsatilgan yozma manbalar tiliga arab, fors-tojik so'zlari o'zlashgan, bu so'zlar tarkibidagi undosh tovushlar turkiy til qonunlariga moslashgan.

Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida A.Navoiyning ijodiy faoliyati til tarixida katta ahamiyatga ega. Navoiydan oldingi turkiygo'ylik keng tarqalmagan va turkiy adabiy til yuksak darajada ishlanib, rivojlantirilmagan edi. Mana shulardan biri Atoiy edi.

Atoiy xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanib, original o'xshatish, kinoya, mubolag'a, tajoxuli orifona, lof kabi badiiy tasvir vositalarini yaratadi.

Atoiy asarlarining tili Oltin O'rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Chunki Atoiydan qipchoq tili unsurlari ustun darajada edi.

Umuman, Atoiy g'azallari tilida XV asr boshidagi o'zbek adabiy tiliga xos xususiyatlar uchraydi. Shoir o'z asarlari bilan XV asr o'zbek dunyoviy adabiyotigagina emas, balki o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

A.Navoiy ta'biri bilan aytganda, Movarounnahrda shuhrat topgan shoirlardan biri Sakkokiylardir. U Ulug'bek zamonida yashab ijod etgan. Shoir g'azallar va qasidalar bitgan. Shu davr an'anasiga ko'ra Sakkokiyning barcha asarlari xalq tilida soddah, ravon uslub bilan bitilgan. U jonli xalq tiliga xos boy lug'aviy birliklar, shakl va iboralar, xilma-xil tasviriy vositalardan keng va mohirona foydalanadi, zidlash, o'xshatish, mubolag'a singari ajoyib badiiy-tasviriy usullar yaratdi.

Buyungtek butmadi bo'ston aro sarvi ravon, ey jon,

Yuzungtek ham ochilmadi chamanda guliston, ey jon.

Atoiy singari Sakkokiy ham xalq maqollari, hikmatli soʻz va iboralarni mohirlik bilan qoʻllash asosida oʻz asarlarining tilini boyitadi, uning badiyligini, mazmunini kuchaytiradi.

Sakkokiy asarlari tilida shu davr oʻzbek tili uchun xos yangi shakllar bilan birga eski adabiy tili unsurlari ham qoʻllangan. Bunday til xususiyatlariga yana quyidagilarni kiritish mumkin: leksik jihatdan *qamugʻ (hamma)*, *tikin-tekin (gacha)*, *bitik, bikin, tabugʻ, ezuq* kabi soʻzlar ishlatilgan. Shuningdek, *toʻlgʻanu (toʻlgʻanib)*, *koʻradurgʻon, yiglayu* kabi feʼl shakllari qoʻllangan, *-gan* affiksi sifatdash va uning otlashgan holda kelishi koʻp uchraydi, ammo uning tuslangan kelishi koʻrinmaydi. Hozirgi kelasi zamon feʼlining boʻlishsiz shakli *-man, -mon* orqali beriladi: *ne qilgʻusi, bilmon bu makkora* kabi.

Demak, Sakkokiy oʻzbek adabiyoti, oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida, uni boyitish va jonli xalq tiliga yaqinlashtirishda munosib hissa qoʻshgan.

Oʻz davrining «malikul kalomi» boʻlgan Lutfiy oʻzining butun hayoti va ijodiy faoliyati davomida oʻzbek adabiyotini va oʻzbek adabiy tilini rivojlantirish uchun, uning boyligi va qudratini koʻrsatish uchun harakat qildi, oʻzbek tilida juda koʻp lirik sheʼrlar, gʻazallar va tuyuqlar bitdi, bunda xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiy anʼanalaridan ijodiy foydalandi.

Lutfiy asarlarining tili XVI-XV asrlardagi oʻzbek tilini aks ettiradi, uning qoʻllanish va xizmat doirasi kengayganligi, lugʻat tarkibi juda koʻp yangi soʻz va iboralar bilan boyiganligini koʻrsatadi, oʻzbek adabiy tilining fonetik tizimi va grammatik qoʻrilishi maʼlum meʼyorga kelib qatʼiylashganligini aks ettiradi.

Bevosita Lutfiy asarlariga xos til xususiyatlari haqida quyidagilarni koʻrsatish mumkin. Shu davr tili uchun xos unli va undoshlar uygʻunligi saqlangan: *ayoqingʻa, boshinggʻa, yuzungnung orzusi* kabilar.

A.Navoiy yirik olim sifatida oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi. Uning tilshunos olim sifatida qilgan koʻp qirrali ishlari, ilmiy nazariy mulohazalari nodir asarlarida bayon etilgan.

Navoiygacha uzoq davrlar davomida shakllangan va taraqqi etgan oʻzbek adabiy tili Navoiy ijodi «Xamsa» ning yaratilishi bilan XV asr oʻzbek adabiy tili bekiyos ravnaq topdi va oʻzining yuqori choʻqqisiga etib oldi. Arabcha, forsha leksik unsurlarining koʻpligi A.Navoiy asarlari tili birmuncha murakkablashtirdi. Bundan tashqari oʻsha davr taomiliga koʻra sheʼriy asarlar koʻtarinki, dabdabali uslub bilan bitilishi kerak edi. Shuning uchun u asarlari tiliga va uslubiga dabdabali ruh berishga harakat qildi. Navoiy oʻz asarlarida albatta «grammatika» yoki «fonetika» soʻzini qoʻllagan emas, lekin tilning grammatik va fonetik qonuniyatlarini yaxshi bilsang, ularni bir-biridan yaxshi farqlagan va oʻziga xos arabcha, forsha va turkcha, oʻzbekcha atamalar bilan nomlangan: *amr, harf, harakat, hamza, tajnis va ihom* koʻp maʼnoli soʻz: *alam-ism, ot; almutakallum-soʻzlovchi; lafz, kalom, alfoz* kabilar hamda ular haqida oʻz davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilingan.

A.Navoiy sheʼriyatining fonetikasiga yondashadigan boʻlsak, quyidagi misollarga murojaat qilaylik, hozirgi yozuvimizda qoʻllanayotgan u harfi amalda ikki mustaqil tovushni ifodalashga xizmat qilib kelmoqda. Aslida tillarning eng kichik boʻlagi boʻlgan tovushlarning eng kichik boʻlagi boʻlgan tovushlarning xarakteridan kelib chiqadigan bu holat tilning 3 ta katta sohasini birlashtiradi va ularni toʻgʻri boshqarishga xizmat qiladi. Bu 3 ta soha: *talaffuz, maʼno* va *affikslar*, yaʼni grammatik koʻrsatkichlaridir. A.Navoiyning juft unlilar tabiatni yaxshi anglash va affikslarni shularga muofiqlashtirib qoʻllashi quyidagi misolda ham koʻrinadi:

Ki boʻlgʻay har uchun oy bir ravzada toʻy,

Ki oʻlgʻay har kuni yuz otu ming quy.

Ulugʻ shoirimiz birinchi misraning boʻlgʻay soʻzidagi qattiq oʻ unlisining tabiatiga moslab *-gʻay* affiksin qoʻllagan boʻlsa, ikkinchi misrda *oʻlgay* soʻzidagi yumshoq oʻ ning ish talabiga koʻra *-gay* affiksini qoʻllagan. Zotan *oʻlgay* soʻzida yumshoq oʻ ning ishlatilganligini tufayli bu soʻz *boʻldi* maʼnosiga emas, balki *oʻldi* degan maʼnoni anglatib kelmoqda. Xuddi shuningdek Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi baytda ham *toʻlgay* va *boʻlgʻay* soʻzlaridagi oʻ unlisining qattiq tillar orqa varianti talabi bilan *-gʻay* affiksi qoʻllanilgan:

Ki shuhrati uchun jahon toʻlgay,

Turk eliga dogʻi bahra boʻlgʻay.

Umuman, A.Navoiy asarlari tilida ayrim soʻzlarning leksik, fonetik variantlari ikki, uch va undan ham koʻproq shakllarda uchraydi. A.Navoiy asarlarining izohli lugʻatida koʻrsatilgan *ajdar/ajdaho, gavhar/guhar, goh/gohi/goha, emdi/emdo;endi* soʻzlari hozirgi adabiy tilda qoʻllanilmaydi. A.Navoiy asarlarida romantik tasvir oʻrinlari ham uchraydi. U bilan bogʻliq boʻlgan morfologik, romantik leksikaga ham duch kelamiz. Bundan tashqari Navoiy sheʼriyatida koʻtarinki ruh, dabdabali uslub bilan tasvirlash oʻrinlari uchraydiki, unday oʻrinlarda shoir koʻtarinki ohanglarda ifodolovchi leksikaga murojaat etadi.

Navoiy asarlarida *to‘qay, o‘rmon, ahvol/g‘ilay, aqron/tengdosh, guft/nutq* kabi forscha-tojikcha so‘zlar uchraydi.

Navoiy badiiy-leksik vositalardan tashqari, fonetik va grammatik uslubiy vositalardan ham keng foydalanadi. Masalan, fe‘l shakllaridan keyin birgina *–lo* yuklamasini keltirish orqali *so‘roq-taajub, ajablanish, afsuslanish* kabi his-tuyg‘ularni bayon etadi:

*Ko‘nglum olg‘och ul pari majnun shaydo qildilo,
Aqlu hushumni tushun dashtida yag‘lo qildilo.*

Ko‘plik qo‘shimchasi *–lar* vositasidan noaniq ko‘plikdan tashqari, hurmat, kuchaytirish, ta‘kid, mubolag‘a, noaniqlik, hurmatsizlik kabi ma’nolarni ifodalashda ham A.Navoiy asarlarida ma‘lum grammatik shaklning turlicha uslubiy maqsadlar uchun ishlatilganini ko‘rish mumkin:

*Anda Majnun men, buyon Layli sen etkach ijtimoi‘
Bir taraf devonlar, bir en pari rux soralar.*

Bu kabi leksik va grammatik uslubiy vositalar Navoiyning «Xamsa», «Lison-uttayr» asarlarida ham katta san‘atkorlik bilan qo‘llangan. Shoir «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» va boshqa dostonlarining har birida o‘ziga xos adabiy-badiiy uslublar ishlatadi, bayon etilayotgan voqea-hodisalarning xususiyatiga mos ravishda tasviriy shakllarni yuzaga keltirdi.

Asarlari tillar va uslub jixatidan ma‘lum darajada xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun harakat qildi. A.Navoiyning o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotidagi ahamiyatini va bu sohada xizmatlarini o‘z she‘riy parchalari orqali ham ifodalash mumkin:

*Chun forsi erdi nuqta shavvqi,
Ozroq edi anda turki zavqi.
Men turkcha bosilaon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.*

«Muhokamatul-lug‘atayn»da eski o‘zbek tili bilan fors-tojik tili bir-biriga chog‘ishtiriladi. Bu bilan A.Navoiy noqardosh tillarni qiyosiy o‘rganish usulini boshlab berdi. U o‘zbek tilini fors-tojik tili bilan chog‘ishtirar ekan, o‘zbek tilining ham boy imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Navoiy bu asarida tillarni qiyosiy o‘rganish bilan umumiy tilshunoslikka doir fikr va mulohazalar bildiradi. «Muhokamatul-lug‘atayn»da til va tafakkur, tillarning kelib chiqishi haqida mulohaza yuritadi.

Navoiyning «Muhokamatul-lug‘atayn» asarida olg‘a surilgan va o‘zbek tili tarixi uchun qimmatli bo‘lgan o‘zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir original fikrlar mavjuddir. Navoiy u, v va i, e tovushlarining turlicha talaffuz etilishlari natijasida so‘z ma’nolarining o‘zgarishini quyidagicha ifodalaydi: «Va ko‘k lafzin ham necha ma’ni bilan iste‘mol q‘lurlar. Biri ko‘k-asman? deyarlar, yana ko‘k ahangdur, yana ko‘ktegrada ko‘klamdur, yana ko‘k sabza va alangn? dag? derlar».

Umuman, A.Navoiy tilining tovush tarkibini aniqlashda birdan-bir manba uning o‘z so‘zlaridir. U o‘zining «Muhokamatul-lug‘atayn» asarida tovushlar tavsifini berishda qiziq bir usulda foydalangan. A.Navoiy unli tovushlarning turlicha talaffuz haqida gapirib, yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo‘lgan so‘zlardan bir nechtasini misol keltiradi va ularga yetarli izoh beradi.

Navoiyning ko‘rsatishicha, *u, v, i, e (ey)* harflari fors tilida qofiyadosh so‘zlarning faqat ikkitasida kelishi mumkin. Masalan: *dud-xud, nur-zo‘r, shir-bir* kabilar.

Turkiy tilda esa bu harflarning har biri uch-to‘rttadan qofiyadosh so‘zlarda kela oladi. Masalan, *u* (*vov*) harfi to‘rtta qofiyadosh omonimda kela oladi: *ut (moling tukini olovda kuydirish), ut (yutmoq), ut (olov), ut (o‘tmoq).*

Navoiy yashagan davrda o‘zbek adabiyoti, o‘zbek adabiy tili yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tariladi.

Navoiy «Muhokamatul-lug‘atayn»da boshqa-boshqa oilaga mansub bo‘lgan ikki tilni bir-biriga qiyoslab o‘rganish orqali o‘zbek tilining ham boy tillardan bo‘lib, g‘oyaviy-badiiy yuksak asarlar yaratishda u katta imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlaydi.

«Muhokamatul-lug‘atayn» da muallif tilning lug‘at boyligi, fonetik, tuzilishi va grammatik shakllari bilan birga so‘z va iboralarning uslub xususiyatlarini, predmet, belgi, harakat kabilarni turli tomondan ixcham, qisqa va aniqroq ifodalashda ularning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Muxtorov., U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. U.Tursunov., B.O‘rinboev., A.Aliev. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1982.
2. O‘zbek adabiyoti. Toshkent, 1959.
3. O‘TA. 1991. №1. №4.
4. P.Shalkiev., S.Ibrohimov. O‘zbek klassik asarlari uchun qisqacha lug‘at.Toshkent, 1953.

14-mavzu: Leksika. Eski o'zbek tili so'z boyligi, undagi o'z va o'zlashgan qatlam

Reja:

1. Eski o'zbek tili leksik tizimi haqida
2. Eski o'zbek tilida umumturkiy so'zlar
3. Eski o'zbek tilida o'z va o'zlashgan qatlam so'zlar

O'zbek adabiy tili tabiati, o'ziga xosligi va uni tarixiy o'rganish tamoyillariga taalluqli jihatlar o'zaro chambarchas munosabatlarga ega bo'lib, ularni bir-biridan ajragan holda alohida tadqiq etish adabiy tilning shakllanish, taraqqiy etish dinamikasi haqida obyektiv mulohaza yuritishga to'sqinlik qiladi. Taraqqiyotning yetakchi hamda zaruriy unsurlaridan biri hisoblanmish yozuvning roli ota-bobolar turmushida o'ziga xos «lokomotiv» vazifasini o'tadi.

Turk-run alifbosida bitilgan O'rxun-Enasoy bitiklari, sanskrit, so'g'd tillaridan qilingan tarjima asarlar VII-X asrlarda o'zbek millati vakillari ajdodlari yashagan ulkan mintaqadagi lisoniy vaziyat xususida, adabiy til va xalq so'zlashuv tili haqida ma'lum xulosaga kelish imkonini yaratadi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'zbek millati tili qaror topishining yangi bosqichiga qadam qo'yadi. Adabiy til milliy o'zbek tilining me'yoriy shakli sifatida boy va ko'p qatlamli leksik tizimga ega bo'lgan. Til sathlari ichida tarixiylik jihatdan tez o'zgaruvchan, jamiyatdagi voqea-hodisalarni zum o'tmay o'zida aks ettiruvchan leksik tizim birinchidan, so'zlarning leksik-grammatik sinflar (so'z turkumlari)ga ajratilishida, ularning o'z navbatida leksik-semantik (sinonimiya, antonimiya qatorlari) guruhlariga kirishida, ikkinchidan, so'zlarning so'z yasash munosabatlarida, uchinchidan, so'zlarning semantik, distributiv va stilistik aloqalarida namoyon bo'ladi.

XIV asr ikkinchi yarmi – XX asr boshi o'zbek adabiy tili leksikasi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil va tadqiq etishda turli leksik, genetik-stilistik qatlamlar, ularning o'zaro munosabatlari masalalariga alohida diqqat qaratishni talab etadi. Bu qatlamlar tarixi bilan o'zbek adabiy tili leksikasi umumiy rivojlanish ananalari, leksik tarkibning boyish yo'llari uzviy bog'liqlikka ega. Zikr etilgan o'zbek adabiy tili leksik qatlami asosan quyidagi birliklardan iborat bo'lgan:

1. Umumturkiy leksika. 2. Sof (asl) o'zbek tili leksikasi. 3. O'zlashgan leksika. 4. Umumxalq leksik fondidan hamda hududiy, kasbiy, sotsial dialektlardan kirgan leksika.

Umuturkiy xarakterdagi leksika sirasiga nafaqat o'zbek adabiy tili, shuningdek, boshqa qardosh turkiy tillar lug'at tarkibidan o'rin egallagan, bir necha yuz yillar davomida faol qo'llanishda bo'lgan leksik birliklar kiradi. O'rganilayotgan davr davomida umuturkiy xarakterdagi leksika o'zining funksional ahamiyatini aksariyat holda saqlab qolishga erishgan.

O'zbek adabiy tili va unga xos leksik tarkibning shakllanishi hamda rivojlanishida XIV asr ikkinchi yarmi – XV asr birinchi yarmi alohida ahamiyatga ega. Zero, bu davr adabiy tilidagi rang-barang uslub hamda janrlarning shiddatli taraqqiy etishi bilan xarakterlanadi. O'zbek adabiy tili leksikasining keyingi taraqqiyotida bu davr alohida o'ringa ega bo'ldi. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksik tizimida mavjud birliklarning muayyan qismi ayni qayd etilgan davrga mansubdir.

Tadqiq etilayotgan davr manbalari tilida eski o'zbek adabiy tili leksikasi tarkibida ma'lum ma'noda bir-biriga zid turuvchi umuturkiy hamda faqat eski o'zbek adabiy tili uchungina mansub bo'lgan leksikani farqlash lozim bo'ladi.

XIV asr ikkinchi yarmidan etiboran oldingi lisoniy uzusning o'zgara boshlashi kuzatiladi. Leksikada umuturkiy va eski o'zbek adabiy tiliga xos qatlamlar yaqqol farqlana boshlaydi. Ayni chog'da endigina o'z o'rnini egallashga jiddiy kirishgan o'zbek adabiy tili xos leksemalari qatori hali ancha mustahkam mavqega ega bo'lgan umuturkiy leksika o'rtasida lug'at tarkibida saqlanib qolish uchun o'ziga xos qarama-qarshilik, ifodali qilib aytganda, musobaqa yuzaga chiqadi. Bu musobaqada har ikki taraf o'z mavqeini imkoni boricha susaytirmaslik tadorikida bo'lgan.

XIV asrning ikkinchi yarmida eski o'zbek adabiy tili leksikasida qadimgi turkiy (VII-X) til hamda eski turkiy til ilk davriga (X-XII) tegishli umuturkiy so'z boylikning son jihatidan ko'pligi, qo'llanish jihatdan esa ancha faolligi ko'zga tashlanadi.

Dalil sifatida Qutbning Berke Fakih tomonidan 1383-yili Misrning Aleksandriya shahrida ko'chirilgan, hozirgi kunda Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan «Xusrav va Shirin» asari yagona nusxasi matnida 2500 leksema ishlatilganligi prof. A.Najib tomonidan aniqlanganligini ta'kidlash lozim. Asar leksikasining dialektal belgisiga ko'ra tasnifi manba tilida ishlatilgan so'z boyligining 38% umuturkiy xarakterdagi leksemalardan tashkil topganligini ko'rsatadi. Qolgan asosiy qismni esa o'g'uz hamda qipchoq elementlari tashkil qiladi.

Oltin O'rda va Xorazm tili xususiyatlarini o'zida mujassam etgan mazkur yodnoma tilidagi leksik birliklar Sayfi Saroyining «Gulistoni bit-turkiy», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarlari so'z boyligidan sezilarli farqlansa, ikkinchi tomondan 1310-yili Xorazmning Raboto'g'uz mavzeida Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy tomonidan bitilgan «Qisasi Rabg'uziy», Mahmud ibn As-Saroyining «Nahjul-farodis», muallifi noma'lum «Tafsir» leksikasiga juda yaqin turadi.

Umumturkiy xarakterdagi leksikaning muayyan qismi Navoiygacha bo'lgan eski o'zbek adabiy tilida o'z faolligini saqlab qolgan holda, boshqa bir qismi esa ma'lum darajada arxaiklashgan. Arxaik leksemalar aksariyat Qoraxoniylar davri badiiy-lisoniy ananalarini o'zida saqlab qolgan obidalar tilida ko'rinadi.

Struktur jihatdan arxaizmlarni tub hamda yasamalarga taqsimlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, bu davr o'zbek adabiy tili leksikasida oldin qo'llanishda kuzatilmagan, o'zbek adabiy tili boshqa qardosh turkiy adabiy tillar qatori o'z taraqqiyot bosqichiga kirgan pallada uning bazasida vujudga kelgan leksik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda rasmiy hujjatlar tili muhim o'rin egallaydi.

O'rganilayotgan davrga taalluqli ko'pgina rasmiy hujjatlar asosan fors-tojik tilida bitilganligi sababli amaliy til leksikasi xususida batafsil mulohaza bildirishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga chiqadi. Ba'zi bir xon yorliqlari bunga misol byaladi. Yorliqlar leksikasidagi sof turkiy qatlam tarkibiga nazar tashlanar ekan, unda eski turkiy tilda mavjud bo'lmagan, faqat eski o'zbek adabiy tili so'z boyligida faol qo'llanishda kuzatilgan bir qator leksik birliklarni ko'rish mumkin. Masalan: *yarg'uch?* (*sudya, qozi*), *tuman begi* (*tuman hokimi*), *shahar begi* (*shahar hokimi*), *tartnaqch?* (*taroziyon*), *bukavul* (*narxchi*), *yamch?* (*pochtachi, aloqachi*), *anbarch?* (*omborchi*), *yasaqch?* (*bojmon, soliqchi*), *aqtach?* (*otboqar*) kabi turli mansab, rutba nomlari, *sal'g'//sal'g'* (*jon solig'i*), *tartnaq* (*tarozi haqi solig'i*), *qaraulluq* (*soqchi haqi, soqchilik solig'i*), *yol haq?* (*yo'l solig'i*) kabi soliq va o'lpon ma'nolarini ifodalovchi terminlar shular jumlasidandir.

E'tirof etish joizki, faqat eski o'zbek adabiy tiliga mansub yangi leksemalar nafaqat rasmiy hujjatlar, yorliqlar, shuningdek, badiiy adabiyot tilida ham keng ko'lamda ishlatila boshlagan. Ushbu lingvistik holatni XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrda eski o'zbek tiliga oid, jumladan, Movarounnahr hududida *d/z* tilda yozilgan so'nggi asar, ya'ni «Qissasi Rabg'uziy» dan keyin *y*-tilda bitilgan Durbek qalamiga mansub «Yusuf va Zulayho» asaridan kuzatish mumkin. Poetik tilning jonli xalq so'zlashuv tiliga yaqinligi bilan muhim ahamiyatga molik bu dostonda qadimgi turkiy va eski turkiy til manbalarida qayd etilmagan tub hamda o'zlashma leksik birliklar, izofalar, izofali birikmalar, qorishiq leksemalar qo'llangan. Bunday leksik birliklar sirasiga *qachqaq* (*qochoq*), *ataka//atka* (*tarbiyachi, murabbiy*), *enaga, uy q'z?* (*kanizak, joriya*) va boshqa birliklarni kiritish mumkin.

Mazkur davr adabiy tiliga xalq tiliga oid so'zlar shiddat bilan kirib kela boshlaydi. Bu hodisa asosan turli janrlarda maydonga chiqqan badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi. Ularda *avunchaq* (*ovunchoq, ermak*), *yaratqan* (*Alloh*), *kork* (*jamol, husn*), *kozgu* (*ko'zgu, oyna*), *ch'raq* (*chiroq*), *yag'?* (*dushman, g'anim*), *urug'* (*nasl*), *og'ul-qiz* (*farzand*), *bosag'a* (*ostona*), *ayaq tutquch?* (*soqiy*) kabi leksemalar istemolda bo'lgan.

Bu davr leksik tarkibi bir qancha yangi so'zlar hisobiga kengaydi. Leksik tarkibning boyishi asosan, ikki yo'l, ya'ni o'zbek tili asosida so'z *yasash* hamda boshqa tillar leksikasini *o'zlashtirish* orqali ro'yobga chiqdi.

Leksik tarkibning o'zlashmalar hisobiga boyishi. Navoiygacha bo'lgan davr o'zbek adabiy tili davrida chet tillardan so'z o'zlashtirish asosiy lisoniy jarayonlardan biri edi. O'zlashmalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, harbiy sohalarida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Qator ilmiy, texnikaviy, harbiy va maishiy terminlar bu davrda ommalashadi hamda tilning lug'at tarkibidan o'rin egallaydi. XIV asrga oid o'zlashmalarining o'zbek adabiy tiliga kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan turkiyga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarli edi. Fors-tojik tili bu davrda mamuriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so'zlarining o'zbek adabiy tiliga o'zlashishida vositachi vazifasini bajaradi. O'zlashmalarining turli soha leksikasi tarkibiga kirishi, tabiiy, keskin farqlangan. Xususan, harbiy terminologiya sezilarli ravishda mo'g'ulcha o'zlashmalar hisobiga kengaygan bo'lsa, mamuriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa asosan arabcha, fors-tojikcha o'zlashmalar hisobiga boyigan.

Sanskritcha o'zlashmalar. Navoiygacha davrda sanskritcha o'zlashmalar juda oz bo'lgan. Ta'kidlash joizki, izlanishlar o'rganilayotgan eski o'zbek adabiy tili obidalarida «*qo'shin, lashkar*» ma'nosini ifodalovchi *cherig//cherik* o'zlashmasining faol qo'llanishda bo'lganligini tasdiqlaydi. Birinchi bor qadimgi turkiy runik bitiklar sirasiga qarashli «Kuli Chur» va «Mo'yun Chur» yodnomalarida

ishlatilgan bu sanskritcha (Ksatrika DTS, 144) termin deyarli barcha manbalarda iste'mol qilinganligi bilan diqqatni tortadi:

G'azat q'amaqqa Ruma navjavane,

Cherik tartd'ki bolsa qahramane (Haqiqatnoma, 162-7).

«Gul va Navro'z» dostonida termindan turkiycha *-la/-la* affiksi bilan «lashkar tortmoq» ma'nosini anglatuvchi *cherikla*= fe'li yasaladi: *Adan padshah? Yaman xan'g'a cheriklagani* (45). Shuningdek, *-maq/-mak* affiksi ishtirokida «qo'shin tortish, lashkar bilan yurishga chiqish» sememasini ifodalovchi *cheriklamak* harakat nomi leksemasi hosil qilinadi. *Cherik y'g'maq* – *lashkar jamlash, to'plash, cherik bashlat* – *qo'shinga qo'mondon etib tayinlamoq, cherik ixtiyar?* – *lashkar qo'mondonligi, cherik yasa* – *lashkarni jangovar safga tizmoq, cherik ald?* (*all?* – *qo'shin lashkar avangardi (ilg'or qismi), cherikni chena* – *lashkarning sonini chamalamoq* kabi so'zlar istemolda bo'lgan. *Cherik* leksemasi tub turkiy so' leksemasini iste'moldan butunlay siqib chiqaradi.

So'g'dcha o'zlashmalar. Davr obidalari matnida so'g'd tilidan o'zlashgan elementlar son jihatidan sanskritcha o'zlashmalardan bir oz ortiqligi bilan farqlanadi.

Achun//ajun (olam, dunyo, jahon) leksemasi eski o'zbek adabiy tilining XIV asr ikkinchi yarmi XV asr boshida bunyod etilgan manbalari tilida ikkala fonetik variantla qo'llanavergan. Shu bilan birga *xatun* leksemasi ham «malika, hukmdor zavjasi, beka, xonim» ma'no ottenkalarida ishlatilgan.

Xitoycha o'zlashmalar. Xitoy va turkiy xalqlar o'rtasidagi qadimiy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar oqibatida turkiy tillarda ma'lum miqdorda xitoy tiliga xos leksik elementlar o'zlashishga mavaffaq bo'lgan. Eski o'zbek adabiy tili manbalarida quyidagi xitoycha o'zlashmalar o'z ifodasini topgan: *xaqan* «xonlar xoni, oliy hukmdor; *Chin podshosi*», *faq'fur* «*Xitoy imperatori*», *injo'* (*chjenchju, chinchu*) «*dur, marvarid*» kabilar.

Mo'g'ulcha o'zlashmalar. Bir necha yuz yilliklar mobaynida turkiy va mo'g'ul xalqlari ajdodlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy munosabatda bo'lishi oqibatida turkiy tillar so'z boyligida mo'g'ulcha elementlar va aksincha ikki til uchun mushtarak hisoblangan leksik qatlam tarkib topgan. Mo'g'ul tilidan o'zlashgan bazi o'zlashmalar quyidagilar: *j'da* «*nayza*», *mo'ran* «*daryo*», *chaq//chag'* «*vaqt, lahza*», *am'raq* «*do'st, o'rtoq*», *uran* «*parol*», *no'kar* «*navkar, jangchi*», *qur'atay* «*qurultoy, yig'in*», *sh'ra* «*ziyofat*». Shuningdek, *-vul, -l* affikslari bilan yasalgan *yasavul* «*intizom saqlovchi, soqchi*», *qaravul* «*soqchi harbiy guruh*», *bakavul* «*saroy oshpazi*», *sh'g'avul* «*hukmdor qabuli, saroyida o'tadigan rasmiy tadbirlarni uyushtiruvchi mutasaddi*», *qumbul* «*markazni o'ramoq, qurshamoq*», *yasaq* «*jangovar tartib, intizom*», *qaba=//qapa=* «*yopmoq, berkitmoq*», *qabal* «*muhosara, qurshov, qamal*», *sudar//savdar* «*mulozim, xizmatkor*», *boljar* «*yurish oldidan qo'shin to'planadigan joy*», *juvang'ar* «*qo'shinning so'l qanoti*», *g'ol* «*qo'shinning markazi*», *manqlai, manglai* yoki *manglay* «*peshona, qo'shinning ilg'or qismi (avangard)*», *shilan* «*hukmdor tomonidan uyushtiriladigan ziyofat*», *qoshun* «*harbiy qism, qala boshlig'i*», *darug'a* «*qala boshlig'i*», *sadaq* «*o'q-yoy to'rvasi, xaltasi, o'qdon*» kabi.

Arab va fors-tojikcha o'zlashmalar. Arab tili din hamda fan tili sifatida o'zbek tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Arab tili qatorida o'zbek tili rivojiga bir necha asrlar davomida fors-tojik tili ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy aspektidagi kuzatishlar arabcha va fors-tojikcha o'zlashmalarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy va h.k. hayotning turli jabhalarida mavjud tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilganligini ko'rsatadi. O'zlashmalarning ko'lamini aniqlash ularni mavzuviy guruhlar bo'yicha tasnif qilinganda namoyon bo'ladi. 1. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *kabir* (*ulug'lar, zodagonlar*), *g'ulam* (*xizmatkor*), *sag'ir* (*kichiklar, omma, avom*), *ajiz* (*bechora, nochor*), *munshiy* (*kotib, mirza*), *mahbus* (*bandi, hibsga olingan*), *irsal* (*xabar, noma*) kabi arabcha; *bazindan* (*zindoniya*), *ijam* (*tuhfa*), *pishva* (*yo'lboshchi*), *rahbar* (*rahnoma*), *payam* (*xabar, mujda*), *pishkash* (*inom, tortiq*), *mard* (*erkak*), *rahzan* (*qaroqchi, yo'lto'sar*), *zan* (*ayol kishi*), *kadxuda* (*er, erkak*), *darban* (*darbozabon, soqchi*), *hamkasa, hamtabaq* (*ulfat*) kabi fors-tojikcha o'zlashmalar. 2. Harbiy terminlar: *maraka* (*jang, muhoraba*), *g'anin* (*yov, dushman*), *mig'* (*qalqon, sipar*), *adavat* (*dushmanlik, yovlik*), *suvar* (*otliq askar*), *sad* (*yuzlik*), *miad* (*kelishilgan vaqt, muddat*) singari arabcha; *tir* (*o'q*), *shamshir* (*qilich, tig'*), *kamin* (*pistirma*), *xirgah* (*chodir*), *saraparda* (*oliy bosh qo'mondon chodiri*), *xalq-i sipah* (*lashkar, qo'shin*) kabi for-tojikcha; 3. diniy terminlar: *jannat* (*jannat*), *qahhar* (*qahr qiluvchi, g'azab qiluvchi (Allohning sifati)*), *bir-u bar* (*Xudo, Allah*), *Ruhul-amin* (*Jabrail*), *razzaq* (*Allohning sifati*) kabi arabcha, *bihisht* (*jannat*), *xuld-i barin* (*jannat, firdavs*), *ravza-yi rizvan* (*jannat*), *nabizada* (*payg'ambarzoda*) kabi fors-tojikcha; 4. Musiqa asboblari nomlari: *rubab* (*rubob*), *ko's* (*tabl, do'mbira*), *duhul* (*nog'ora*), *naqqara* (*nog'ora*), *nafir* (*karnay*), *tarana* (*kuy, ashula*) kabi fors-tojikcha va arabcha o'zlashmalar. 5. Yulduz ilmi (astrologiya)ga oid astroponimlar: *nujum* (*astronomiya, astrologiya*), *nujum ilmi va yulduz ilmi, nujum* (*yulduzlar*), *kok*

(osmon, falak), yulduz (sayyora, planeta), kavakib (yulduz, yoritqich), topraq yulduz (saturn), yig'ach yulduz f-t. - mushtariy ar. (yupiter), baqar soqra yultuz tur. – ot yulduz (mars), shams ar. – xurshid f-t. (quyosh), zuhra (Venera), atarid//utarid ar. (Merkuriy), qamar, mahf-t., ay tur. (oy) kabi; 6. Ziroatchilik bilan bog'liq leksik birliklar: xirman f-t. (xirmon), dehqan, bag', bag'ban, gulzar, gulshan, paliz, saman (oq, sariq rangli xush is gul, yosmin), lalazar kabi fors-tojikcha; g'alla, ziraat (yerga ekin ekib, mahsulotlar yetishtirish, ya'ni dehqonchilik), shudgar (yerni haydash), mal (mulk, boylik) kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. -Tashkent, 2007.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

15-mavzu: Eski o'zbek tilida ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar. Leksemalarning ma'no nozikliklari

Reja:

1. Eski o'zbek tilida so'z ma'nolari va ularning turlari
2. Eski o'zbek tilida ma'nodosh so'zlar
3. Eski o'zbek tilida shakldosh va antonim so'zlar

Til taraqqiyotining har bir bosqichida lug'at tarkibida o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlari hamda ularning turlari mavjud bo'ladi.

Aksariyat hollarda o'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlari parallel holda, shakldosh holda va zid ma'nolarda ham ishlatiladi.

Ma'nodosh so'zlar. Eski o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichida quyidagi ma'nodosh so'zlar ko'rinishlari qo'llangan:

1. Turkiy so'zlar o'zaro ma'nodosh sifatida qo'llangan: *yan=-qayt=; yaraq-uzaq; ushaq-mayda-kichik; burun-burnag'zilgari; saqla=-asra=; tuy=-sez=; o'n-tavush.*

2. Turkiy so'zlar fors-tojik so'zlari bilan sinonim holda ishlatilgan: *bash-kalla; yel-bad; yaman-bad; boyin-gardan; yafraq-barg; ildiz-rag; yig'ach-daraxt; yaroq-dur; muz-yax; kok-asman; quyash-afab; yulduz-sitara; savuq-sard; suv-ab; sojak-ustixan; yol-rah.*

3. Turkiy so'zlar arab tilidan o'zlashgan leksemalar bilan ma'nodoshlik qatorini hosil qilgan: *isitma-hararat; kenash-maslahat; anna-valida; yashar-in-maxfiy; sag'-salamat; ken-vasi.*

4. Turkiy-fors-tojik-arabcha so'zlar o'zaro ma'nodosh sifatida qo'llangan: *tutqun-bandi-asir; yalg'iz-yakka-fard; yosun-ravish-nav; tartar-pishkash-inam; tejri-xuda-haq; soz-suxan-kalima; kishi-mardum-adam; yat-bigana-g'ayr; av-shikar-sayd.*

5. O'zlashma so'zlar o'zaro sinonim tarzda qo'llangan: *miva-samar; ravshan-ayan; dasht-sahra; jahan-alam; dard-maraz; xizmatkar-mulazim; shah-sultan; pushayman-taassuf; xush-aql; avaza-shuhrat; darman-dava; nishan-alamat.*

6. O'zlashma leksemalarning ma'nodoshlari bilan birga iste'molga kirib kelish hollari kam uchraydi. Bunda har ikki (yoki uch) leksemani bir vaqtning o'zida o'zlashgan, deb bo'lmaydi. Masalan, forsha-tojikcha: *bihad-basi-bisyar; parcha-rishva; pishkash-savg'at; badiya-dasht-biyaban; xizmatkar-chakar; namayan-ashkara;* arabcha: *atraf-javanib; qita-shuba; vaqt-asna; mahal-ayyam; muxalif-g'anim-ada; jami-tamam; kalima-qavl-lafz; haq-rab; alamat-asar; dava-mualaja; rasm-adat* kabi leksemalar o'zaro bir tilga mansub ma'nodosh bo'lgani holda, ifoda imkoniyatlari, uslubiy-semantik xususiyatlariga ko'ra muayyan farqqa ega.

7. O'zlashma so'zlar faqat lug'aviy ma'nosiga ko'ra emas, balki ma'lum bir semasiga asosan iste'molga kirib kelgan. Arab tilidan o'zlashgan *mihnat, maraz* so'zlarining lug'aviy ma'nosi bilan eski o'zbek tilidagi ma'nosi farq qiladi. Leksemalarning semantik imkoniyatlari matnda reallashadi. Ya'ni, muayyan leksema ma'lum bir semasi bilan ma'nodoshlik hosil etadi. Polisemantizm bilan izohlanuvchi bu hodisa eski o'zbek tilida qo'llangan turkiy leksemalarga ham xos. Masalan, *azurda bol=-ranjida bol=-ag'r? Azurda bol=* «ozorlanish» tushunchasini ifodalaydi: *Sulton Masud mirzaning bek va ichkisi va yigitlari azurda bolib edilar* (BN). *Ranjida bol=* fors-tojikcha «mashaqqat, qiynalish, og'riq» ma'nosidagi ranj leksemasidan hosil qilingan qo'shma fe'l. *Ranj* ham aslida jismoniy og'riq, kasallikni bildirgan. Ko'chma ma'noda ruhiy ozorni anglatib, ma'nodosh paradigmada ishtirok etgan: *Bu nav zulm*

va *fişqdin bajan-u dil azurda va ranjida boldilar* (BN). *Agʻrʻ* - aslida tananing yoki biror aʻzoning holati bilan bogʻliq tushunchani bildiradigan leksema. Koʻchma maʼnoda qoʻllanib, ruhiy ozorlanishni ifodalagan: *Uzun Hasan va Tanbal zalim va fasiq va kafirvash ellar edi, raiyat va vilayat ellari bulardın bisyar agʻrʻ edilar* (BN).

Omonim (shakldosh) soʻzlar. Eski oʻzbek adabiy tilida polisemiya yondosh boʻlgan omonimiya hodisasi ham kuzatiladi. Omonimlik tilning fonetik, leksik, grammatik sathlarida namoyon boʻladi. Shakldoshlik turkiy til tabiatigagina xos hodisa. Shakldosh (omonim) soʻzlar maʼnosiga asoslangan tuyuq janri ham turkiy xalqlarning «xos ashori» (Navoiy tabiri) hisoblanadi. Tuyuq, dastlab, Yu.H.Hojibning «Qutadgʻu biligʻida janr sifatida koʻzga tashlanadi. Ammo bu janr taraqqiyotining asosiy bosqichi eski oʻzbek adabiy tilining XIV-XVI asrlariga toʻgʻri keladi. XV-XVI asrlarga kelib, faqat turkiy soʻzlar emas, balki oʻzlashgan soʻzlar shakldoshligi asosida tajnis sanʼati shakllandi. Bu holatni oʻzlashgan soʻzlarning turkiy til qonuniyatlariga moslashuvi bilan izohlash mumkin:

Sahibi jilvada bustan ichida,

Qan yutub sahibi qorgʻan ichida (ShN).

Birinchi misradagi *sahib* uzumning turini, ikkinchi misradagi *sahib* «ega» maʼnosini anglatmoqda.

Eski oʻzbek adabiy tili manbalaridagi omonimlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Bir turkumga mansub leksemalar oʻrtasidagi omonimlik:** a) ot turkumiga mansub omonimlar: *ichki* 1 «ichki majlis, xos oʻtirish»; *ichki* 2 «podshoh saroyiga xos amaldor», *sachʻq* 1 «toʻy va ziyofatlarda tortiladigan noz-nematlar»; *sachʻq* 2 «kelin-kuyov va boshqa hurmatlangan kishilar boshidan sochiladigan tanga, chochqi»; *sachʻq* 3 «tortiq, tuhfa», *tash* 1 «toʻp, zambarak snaryadi»; *tash* 2 «jism»; *tash* 3 «ichimlik, chogʻir navi» kabi; b) feʼl turkumiga mansub omonimlar: *riyat qʻl* = 1 «hurmatlamoq», *riyat qʻl* = 2 «amal qilmoq» kabi.

2. **Bir necha turkumlik ichidagi omonimlik.** *Ot* 1; *ot* 2; *ravish* 3: *pul* 1 «koʻprik», *pul* 2 «vaqt birligi», *pul* 3 «bir toʻda, bir talay, allaqancha».

Ot 1; *sifat* 2; *sifat* 3: *sabit*-a 1. «bir joyda qimirlamay turuvchi yulduz», *sabit* a. 2 «bir joyda qimirlamay turuvchi, barqaror, tebranmas», *sabit* a. 3 «isbotlangan, hujjatlangan».

Eski oʻzbek adabiy tilida omonimlikni genetik jihatdan *bir tilga mansub omonimlar, turli tillar oʻrtasida sodir boʻlgan omonimlar* deb ajratish mumkin. 1. turkiy soʻz 1, turkiy soʻz 2, turkiy soʻz 3: tora 1 «qoida, qonun, intizom, odat»; tora 2 «xonzoda, podshohzoda»; tora 3 «qism, azo» kabi. Shuningdek, arab soʻzlar hamda fors-tojikcha soʻzlarda ham omonimlik mavjud. 2. turli tillar oʻrtasidagi omonimlik: arabcha 1, arabcha 2, fors-tojikcha 3: sur 1 «shohdan ishlangan karnay»; sur 2 «qoʻrgʻon, qala»; sur 3 «toʻy, bazm, shodlik yigʻini» kabi.

Eski oʻzbek tilida maʼnodoshlik, shakldoshlik, koʻp maʼnolilik hodisalari qatorida zad maʼnolilik hodisasi ham mavjud boʻlgan. Zid maʼnoli (antonim) soʻzlar bu davr manbalarida unchalik koʻp miqdorda uchramaydi. Ammo bu davr manbalaridagi antonim soʻzlar hozirgi kundagi variantlari bilan baʼzilari mos boʻlsa, ayrimlari esa unchalik mos kelavermaydi. Bu esa til taraqqiyotining turli davrlardagi bosqichlari bilan bogʻliqdir. Masalan, aq (rang)- qara (rang), kun – tun, qalʼn – yuqa kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., Oʻrinboev B., Aliev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. Oʻzbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

16-mavzu: Oʻrta Osiyo xalqlari yozuvi tarixi. Arab yozuvi tarixi va uning Oʻrta Osiyoda joriy qilinishi

Reja:

1. Yozuv tarixi haqida
2. Oʻrta Osiyo xalqlari yozuvi
3. Arab yozuvi va uning joriy qilinishi

Yozuv fikrning tashqi ifodasidir. Yozuv orqali kishilar oʻz fikrlarini bir-birlariga bildiradilar, avlodlarga qoldiradilar. Yozuv orqali biz minglab yillar oldin oʻtgan voqealar, shaxslar, ilm va odatlar toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlamiz, til, madaniyat, fan, ijtimoiy hayotda boʻlgan voqealardan xabardor

bo'lamiz. Ana shunday qimmatga ega bo'lgan yozuv birdan paydo bo'lmadi, hatto hozirgacha o'z yozuviga ega bo'lmagan xalqlar bor. Masalan, Amerikadagi bazi mahalliy qabila va urug'lar hozirgacha o'z yozuviga ega emas.

Dastlabki yozuv rasmlar orqali (bu xil yozuv «piktografik»: piktus – «chizilgan», graphe – «yozaman» deyiladi) ifodalangan. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror ma'no anglatgan (quyosh-kunduzni, oy-tunni, toshbaqa-baxtni kabi).

Yozuvning keyingi davri – ideografik yozuvdir (yunoncha idea – «tushuncha», graphe – «yozaman»). Bu xil yozuvda har bir yoki bir guruh tushuncha uchun bir xil simvolik (ramziy) shakl olinadi. Masalan, ko'z - , asir - , daraxt - , oy - , tog' - .

Piktografik va ideografik (uning bosqichlari – logografik «so'z yozaman») yozuv ancha murakkab bo'lib, minglab shakllarni chizish, ularning mazmunini bilishni talab etgan. Shuning uchun kishilar yozuvning Yangi bosqichi – fonografik yozuvga – avvalo ayrim bo'g'inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o'tadilar. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya davlati bilan bog'lanadi.

Xalqlar fonetik yozuvning turli shakllarini tanlab olganlar: grek, lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlari va ularning ayrim o'zgargan turlari kabi.

Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog'och, qamish kabi qattiq jismlarga, so'ngra pergament va qog'ozga yozilgan. Yozuv o'ngdan chapga, chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga qarab o'qiladi.

O'rta Osiyo xalqlari o'z tarixiy taraqqiyot jarayonida turli yozuv namunalaridan foydalanganlar. Eng qadimgi turkiy til davrida turkiy xalqlar so'g'd, oromey, qadimgi xorazm, qadimgi turkiy til davrida esa turkiy run, uyg'ur yozuvlaridan, eski turkiy til davrida esa uyg'ur (XVI asrgacha), arab yozuvlaridan foydalanishgan. Arab yozuvining joriy bo'lishi VIII asrda arablarning O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin boshlangan. Qariyb turkiy xalqlar bu yozuvdan 1200 yilcha foydalanganlar. Ayniqsa, eski o'zbek tili davrida o'zbek tili o'zbek xalqining adabiy tili sifatida shakllangandan keyin juda ko'pgina asarlar aynan shu yozuvda bitilgan. Bunda Navoiyning xizmatlari juda katta bo'lgan. Shundan so'ng, ya'ni XX asrning boshlarida lotin alifbosiga o'tish, uni isloh qilish masalalari yuzaga keldi va xalqimiz lotin alifbosi asosidagi yozuvni joriy qildilar. 1940 yildan boshlab esa kirill (rus) alifbosi joriy qilinishi bilan shu yozuvdan foydalanib ish olib borganlar. Shuningdek, ko'pgina O'rta Osiyo xalqlari hozirgi kunda rus (kirill) hamda lotin alifbosi asosidagi yozuvdan keng foydalanishmoqda. Har bir yozuv iste'molda bo'lgan davrlarga oid yozma obidalar mavjud bo'lib, bu manbalar o'sha davr yozuv tizimini sinchiklab o'rganish imkonini beradi.

Arab yozuvi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, juda katta davr mobaynida iste'molda bo'lgan. Arab yozuvi joriy qilingandan buyon juda ko'pgina yozma obidalar shu yozuvda yaratilib, boy ilmiy-adabiy meros yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. Qodirov Q. Eski o'zbek tili va yozuvi. –Toshkent, 2009.

17-mavzu: Eski o'zbek yozuvi alifbosini hosil qiluvchi asosiy shakllar. Arab yozuvining isloh qilinishi

Reja:

1. Eski o'zbek yozuvi alifbosi
2. Arab yozuvining isloh qilinishi

Tarixda arab yozuvi deb nom olgan, asrlar davomida eroniy hamda turkiy xalqlarning madaniy hayotida katta o'rin tutib kelgan arab yozuvi arablarga islom dini qabul qilinishidan oldinroq nabotiy qabilalardan o'tgan, nabotiyalar uni oromiylardan, oromiylar finikiyaliklardan o'zlashtirib olgan edilar.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin o'z dini, tili, madaniyatini o'tkazish bilan birga o'z yozuvlarini ham singdirishga harakat qildilar. Mahalliy xalq arab alifbosini o'rganishga harakat qilsalarda, ancha qiyinchiliklar yuz berardi. Chunki bu alifboni biladigan kishi juda kam sonli edi. Shunday bo'lsada, kishilar arab alifbosida yozish va o'qishni o'rgana boshladilar. Lekin turkiy tildagi ayrim tovushlarni ifodalovchi harflar arab xatida mavjud emas edi. Turkiy tilda ishlatiladigan ayrim

tovushlarni ifodalash ustida ishlar amalga oshirila boshladi. Yani arab alifbosini qayta isloh qilib, o'z tillariga moslashtirish zarur edi.

Arablarining 28 harfli yozuvi bilan mahalliy xalqlar arabcha matnlarni o'qib chiqarishga odatlangan bo'lsalar ham, o'z tillarida fikr ifodalashga qiynaladilar. Bu holat yozuvga yana ba'zi qo'shimchalar kiritishga (پ, ك, چ, ژ harflarini qabul qilishga) majbur etadi. Shunday qilib, isloh etilgan arab alifbosi asosida 32 harfli yozuv shakllanadi. Bular: ا (alif), ب (be), پ (pe), ت (te), ث (se), ج (jim), چ (chim), ح (hoyi huttiy), خ (xe), د (dol), ذ (zol), ر (re), ز (ze), ژ (je), س (sin), ش (shin), ص (sod), ض (zod), ط (to), ظ (zo), ع (ayn), غ (g'ayn), ف (fe), ق (qof), ك (kof), گ (gof), ل (lom), م (mim), ن (nun), و (vov), ه (hoyi havvaz), ي (yo).

Arab alifbosiga diqqat qiladigan bo'lsak, o'zbek tilidagi bir tovushni ifodalash uchun ikki, uch, hatto to'rt harf mavjudligini ko'ramiz: *t*-tovushini ifodalash uchun *te*, *to*; *h*-tovushini ifodalash uchun *hoyi huttiy*, *hoyi havvaz*; *z*-tovushini ifodalash uchun esa *zol*, *ze*, *zod*, *zo* harflari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Qodirov Q. Eski o'zbek tili va yozuvi. –Toshkent, 2009.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

18-mavzu: O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. O'zbek xalqi va tili tarixi. Turkiy tillar tasnifi. O'zbek tili tarixini davrlashtirish.

R E J A:

1. Turkiy tillarning o'rganilishi.
2. Turkiy tillar tasnifini yaratishdagi harakatlar.
3. V.V.Radlov, Korsh, Samoylovich va boshqalar tasniflari haqida.
4. N.A.Baskakov tasnifi-eng mukammal tasnif namunasi.
5. Turkiy tillar tasnifida o'zbek tilining o'rni.
6. Turkiy tillar tasnifining turkiyshunoslikda tutgan ahamiyati.

Turkiy tillarning kelib chiqishi, rivojlanishi va shakllanish tarixi bilan juda ko'p tilshunos olimlar shug'ullanib, bu borada qancha ilmiy ishlar qilinmasin, fanda hozirgi kunda ham bu turkum tillar haqida munozaralar uchrab turadi.

Turkiy tillarning o'rganilishini biz qomuschi olimimiz Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) ning ilmiy faoliyati bilan bog'laymiz. U o'zining «Devonu lug'atit turk» («Turkiy so'zlar devoni») asarida turkiy xalqlarning turmush tarzi, an'ana-yu udumlari, tarixi joylashgan jo'g'rofiy xududi, qolaversa tili va boshqalar haqida juda ko'p manbalar borki, ular to hozirgi davrgacha bir necha fanlar uchun, ayniqsa tilshunoslik uchun qimmatli sanaladi. Asar asrda yaratilgan bo'lib, turkiy xalqlarning tili, adabiyoti, so'z boyligi haqida keng ma'lumot beradi.

Ammo M.Qoshg'ariydan ham oldin turkiy tillar, ularning lingvistik xususiyatlari, turkiy xalqlar fol'klori va adabiyoti haqida ma'lumot beruvchi bir qancha manbalar mavjud. Jumladan, Xitoy manbalari, Vizantiya, arab va fors manbalari bunga misol bo'ladi. Bu manbalarda sistemali ravishda ma'lumot berilmasa ham turkiy tillarning ba'zi xususiyatlari, yozuvi haqida ma'lumotlar mavjud. Bulardan tashqari A.Navoiy va Zamahshariy asarlarida ham turkiyshunoslik haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

XVI-XVII asrlardan boshlab Rossiyada ham turkiy tillarning o'rganilishiga katta e'tibor qaratildi. Biroq bu e'tiborlar zamirida o'zlarining manfaatlari yotardi. Ya'ni, turkiy tillar siyosiy sabablarga ko'ra o'rganila boshlandi. Shunga qaramay, rus olimlarining faoliyati turkiy tillarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Hozirgi kunda ham turkiy tillar, ularning rivojlanishi, bir-biri bilan munosabatlari haqidagi fikrlar, izlanishlar to'xtab qolgani yo'q. Tillar yashar ekan, munozara-yu muhokamalar, o'qib o'rganishlar davom etaveradi.

Turkiy tillarning soni turli adabiyotlarda turlicha ko'rsatiladi. V.Reshetov va Sh.Abdiraxmonovlar turkiy tillarning 22 tirik 5 ta o'lik tilini sanab ko'rsatishda, Q.Paxratdinovning «Turkiy tillar» kitobida 38 turkiy til sanab o'tiladi.

Turkiy tillarning tasnifi masalasi XIX asrdan boshlansada, o'rta asr turkologlari ham bu masalaning ba'zi tomonlarini yoritib o'tishgan. Jumladan, M.Qashqariy «Devonu lugatit turk» asarida maxsus tasnif sxemasini yaratmasa ham, turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra o'xshash va noo'xshashligiga to'xtalib o'tgan. Jamoliddin Ibn Muxanna ham ba'zi fonetik xususiyatlari bilan turkiy tillar bir-biridan fark qilishini ko'rsatib beradi.

Sxematik turda turkiy tillarni tasnif qilish esa XIX asrdan boshlanadi. 1820 yil A.Remyuza birinchi bo'lib turkiy tillar tasnifini yaratdi. U turkiy tillarni 5 guruhga ajratadi:

1. yoqut tili; 2. uyg'ur tili; 3. no'g'ay tili; 4. qirg'iz tili; 5. turk tili.

Materiallarning yaxshi o'rganilmaganligi bu tasnifning muvoffaqiyatsiz chiqishiga sabab bo'ldi. Bu tasnifning tarixiy jihati bilangina ahamiyatli deyish mumkin.

XIX asrning oxirlariga kelib turkiy tillar tasnifi bo'yicha A.Myuller, G.Vinkler, K.Foy kabi olimlar ham shug'ullanishsada, bu masala to'la hal qilinganicha yo'q. Tavsiya qilingan barcha tasniflar xomaki tarzda edi. Turkiy tillarning tasnifi masalasi faqat Rossiyadagina ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqildi. Birinchi bo'lib ilmiy asosda tasnif yaratgan olim V.V.Radlovdir. Fonetik xususiyatlarga asoslangan bu tasnif quyidagicha:

Turkiy tillar fonetik farqliliklariga ko'ra 4 guruhga ajratiladi, biroq yoqut tili bundan mustasno. Akademik V.Radlov tasnifi geografik printsipga asosanib-Sharqiy, G'arbiy, O'rta Osiyo va Janubiy guruhlar deb nomlanadi.

1. Sharqiy guruh. Bunga Sibirdagi turkiy xalqlar kiradi.
2. G'arbiy guruh. Bu guruhga g'arbiy Sibir` tatarlarining tili, qirg'iz, qozoq, bashkir va volga bo'yi tatarlarining tili kiradi.
3. O'rta Osiyo guruhi. Bu guruhga o'zbek va uyg'ur tillari kiritilgan.
4. Janubiy guruh. Bunga turkman, ozarbayjon, turk tillari va qrim- tatarlari tilining ba'zi shevalari kiritilgan.

Akademik Korsh tasnifi. Akademik Korch turkiy tillarni tasniflar ekan, fonetik va morfologik printsiplarga tayanadi va turkiy tillarni 4 guruhga ajratadi:

1. Shimoliy guruh. Bunga oltoy, qirg'iz, qumiqlik, qorachoy, qozoq va no'g'ay tillari kiradi.
2. G'arbiy guruh. Bu guruhga turkman, turk, ozarbayjon, gagauz, qrim tatarlarining ba'zi shevalari kiradi.
3. Sharqiy guruh. Bunga qadimgi urhun, eski chig'atoy, qipchoq, qaragas, salay, solar va boshqa tillar kiradi.
4. Aralash guruh. Bu guruhga yuqoridagi guruhlariga aloqador bo'lmagan yoqut, chuvash va O'rta Osiyodagi ba'zi tillar kiradi.

1920 yillardan boshlab Radlov va Korch tasniflari birlashtirilib o'rganila boshladi.

Akademik A.N.Samaylovich tasnifi. Akademik Samaylovich Radlov va Korch tasniflariga asosanib turkiy tillarni 5 guruhga ajratadi:

1. Janubiy-G'arbiy guruh yoki o'g'uz guruhi. Bu guruhga turkman, ozarbayjon, turk, gagauz tillari va qrim tatarlarining ba'zi shevalari kiritiladi.
2. Janubiy-Sharqiy yoki Chig'atoy guruhi. Bu guruhga hozirgi zamon uyg'ur tili, o'zbek tilining ba'zi shahar shevalari, qumandin tili va o'lik Chig'atoy tili kiritiladi.
3. Shimoliy-G'arbiy yoki Qipchoq guruhi. Bu guruhga tatar, bashqird, ayrod, teleut, no'g'ay, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq va o'zbek tilining ba'zi qipchoq shevalari va qumiqlik, qorachoy hamda tatarlarning ba'zi shevalari kiradi.
4. Shimoliy-Sharqiy yoki Sibir` guruhi. Bu guruhga qadimgi o'rxun, uyg'ur, qarluq yozuv yodgorliklari tili hamda tuva, sariqlik uyg'ur, xaqas, shor, qachin, sag'ay va yoqut tillari kiradi.
5. Chuvash yoki bulgar guruhi. Bu guruhga o'lik bulgar va hozirgi chuvash tili kiradi.

Professor Bogoroditskiy tasnifi. Bogoroditskiy turkiy tillarning 1921 yilda tasnif qildi. Keyinchalik, ya'ni 1934 yilda u o'z tasnifini qayta ko'rib, ba'zi o'zgartishlar kiritdi va 7 guruhga ajratdi:

1. Shimoliy-Sharqiy guruh: yoqut, qaragas va tuva tillari.
2. Xaqas va abakan guruhi: abakan lahjasi va minusin tatarlari tili, sagay, bel'tir, kaybal, qachin, qizil shevalari.
3. Oltoy guruhi. Bu guruh 2 qismga ajratiladi:
 1. Oltoy teleut tillari janubiy qismga;
 2. Kumandin, lebedin, tuva, shor tillari shimoliy qismga ajratiladi.
4. G'arbiy-Sibir` guruhi: kyuer, chulim, barasban, ishim, tyumen, tyuriy tillari.
5. Volga bo'yi Ural` guruhi: tatar va bashkird tillari.
6. O'rta Osiyo guruhi: taranchi yoki uyg'ur dialekti, qozoq, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq tillari.
7. Janubiy-G'arbiy yoki turk guruhi: turk, turkman, ozarbayjon, qorachoy, bolqor, qumiqlik tillari qrim tatarlarining ba'zi dialektlari kiradi.

Professor Bogoroditskiy tasnifi tillarning lingvistik xususiyatlariga emas, ko'proq hududiy yaqinligiga qarab tuzilgan.

Professor S.E.Malov tasnifi. Professor Malov tasnifi turkiy tillarni davrlashtirish bilan bog'liqdir. Bu jihati bilan bu tasnif katta ahamiyatga egadir. Tasnifda turkiy tillarning davrlar bo'yicha rivojlanishi ko'rsatilib o'tiladi.

1. Eng qadimgi turk tillari. Bunga bulg'or tili, uyg'ur tili, chuvash va yoqut tillari kiradi.
2. Qadimgi turk tillari. Bunga o'g'uz, tofalar tili, tuva tili, uyg'ur, xakas tili va shor tili kiradi.
3. Yangi turk tillari. Ozarbayjon tili, gagauz, kumandain, qipchoq, pecheneg, polovets, solar, turk, turkman, uyg'ur, o'zbek, chig'atoy va chulim tillari kiradi.
4. Eng yangi turk tillari. Boshqird tili, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, qumiqlik, nog'ay, tatar, ayrod, chuvash va yoqut tili.

Bu tasnif ham juda ko'plab kamchiliklarga ega. Jumladan, chuvash va yoqut tillari eng qadimgi turkiy tillar qatorida ham sanab o'tiladi. Boshqa adabiyotlarda qipchoq va polovets tillari bitta tilning ikki hil nomlanishi deb kiritilsa, Malov ularni ikki til deb ko'rsatadi. Shuningdek, tillarning paydo bo'lish chegaralarini belgilash hamda shu asosda ularni mos davrga qo'yish masalalarida ham ancha chalkashliklar bor. Jumladan, o'zbek tili bevosita chig'atoy tilidan etishib chiqqan degan fikrlar bu tasnifga umuman to'g'ri kelmaydi. Chunki Malov o'z tasnifida o'zbek va chig'atoy tillarini bir davr ichida ya'ni yangi turk tillari qatorida sanab o'tadi. Shuningdek, bu erda tillarning fonetik, morfologik, umuman, lingvistik xususiyatlariga hech qanday e'tibor berilmaydi.

Bunday fikrlarni Bogoroditskiy tasnifi bo'yicha ham aytish mumkin. Bogoroditskiy ham o'z tasnifida ko'plab kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Unda ham tillarning lingvistik xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan.

A.N.Samoylovich, Korch, V.Radlov va yuqorida sanab o'tilgan boshqa olimlarning tasniflari ham bunday kamchiliklardan holi emas.

N.A.Bogoroditskiy tasnifi. Professor N.A.Baskakov tasnifi boshqa tasniflarga qaraganda birmuncha mukammalroq. Baskakov turkiy tillarni tarixiy rivojlanish jihatidan ikki katta tarmoqqa ajratadi:

1. G'arbiy xun tarmog'i.
2. Sharqiy xun tarmog'i.

Turkiy tillarning g'arbiy xun tarmog'i sharqiy xun tarmog'idan fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari bilan farq qiladi va unga quyidagi til guruhlariga kiradi:

1. Bulg'or tillar guruhi. Bu guruhga kiruvchi tillar bulg'or, xazar va hozirgi chuvash tili.
2. O'g'uz tillari. Bu guruhga kiruvchi tillar 3 qismga bo'linadi:

1. o'g'uz-turkman tillariga o'g'uz tili, turkman tili va Kavkazdagi turkman tillari kiradi.
2. o'g'uz-bulg'or tillariga qadimgi pecheneg, hozirgi gagauz tillari kiradi.
3. o'g'uz-saljuq tillariga o'lik saljuq tili, qadimgi turk tili va hozirgi ozarbayjon tili, hozirgi turk tili kiradi.

3. Qipchoq tillari guruhi. Bu guruh ham 3 qismga ajratiladi:
 - a. qipchoq-bulg'or guruhi unga qadimiy oltin o'rda adabiy tili (g'arbiy), hozirgi tatar, boshqird tillari kiradi.
 - b. qipchoq-o'g'uz guruhi bunga qadimiy polovets (qipchoq) tili, qorayim, qumiqlik tillari kiradi.
 - v. Qipchoq-no'g'ay guruhi: bunga hozirgi no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari kiradi.
4. Qorliq tillari guruhi bu guruh ham 2 qismga ajratiladi:

- a. qorliq-uyg'ur guruhi: bunga qadimiy qoraxoniylar davlati adabiy tili va qoraxoniylardan keyingi adabiy til kiradi.
- b. qorliq-xorazmiy guruhi: bunga qadimgi qoraxoniylar xorazmiy tili, oltin o'rda adabiy tili (sharqiy), eski o'zbek tili, hozirgi tillardan o'zbek tili (qipchoq shevalaridan tashqari), uyg'ur tili.

Sharqiy xun tarmog'i. Bu tarmoqqa kiruvchi tillar quyidagilar:

1. Uyg'ur tillar guruhi. Bu guruh 3 qismga bo'linadi:

a. uyg'ur tubyug tillari: bunga qadimiy lokun enisey yozuvlari tili, qadimiy uyg'ur tili, hozirgi tillardan tuva tili, qoragas tili kiradi.

b. yoqut tili guruhiga hozirgi yoqut tili kiradi.

v. xakas guruhi bunga xakas, tamasin, kyuerin, shor, oltoy tilining shimoliy shevalari va sariqlik uyg'ur tili kiradi.

2. Qirg'iz-qipchoq tillari guruhi bunga qirg'iz tili oltoy tilining, oltoy, temut, telengit shevalari kiradi.

Turkiy tillar tasnifini yaratish ko'rib o'tganimizdek ko'p vaqtlardan beri davom etib kelgan. Bunga tilshunos olimlar mehnati singan. Lekin shunday bo'lsada, ishlab chiqilgan tasniflar orasida N.A.Baskakovniki har tomonlama pishiq ishlaganligi, mukammalligi bilan ajralib turadi.

Bizning ona tilimiz bo'lgan o'zbek tili ham kelib chiqishiga ko'ra turkiy tillar oilasiga mansubdir. Shunday bo'lsada, uning o'ziga xos boshqa turkiy tillardan farkli tomoni bu uning singormanizm hodisasidan uzoqlashgani, ya'ni arab va fors tillari ta'sirining o'zbek tiliga bo'lgan munosabatlari bu tilning boshqa turkiy tillar orasida alohidaligini belgilaydi. O'zbek tili Baskakov tasnifida g'arbiy-xun tarmog'ining qarluq tillar guruhini qarluq-xorazm guruhiga kiritilgan.

Shunday qilib, turkiy tillar, ularning har birining xususiyatlari, ular orasidagi farqlar o'xshashliklar va boshqa belgilari asosida bu turkum tillar ma'lum bir qolipga tushurilgan, ya'ni tasnif qilingan.

Bu shuni Mahmud Qoshg'ariy boshlab bergan bo'lsada, V.Radlov birinchi bo'lib ilmiy tarzda asoslangan. Muvaffaqiyat esa, N.Baskakovning mehnatlari evaziga unga nasib qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Paxratdinov Q. Turkiy tilles xaliqlar. Nukus, 1999.
3. Reshetov V.V., Shoabdiraxma'nov Sh. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 1978.
4. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
5. Turkiy tillarning o'zaro bog'lanishi masalalari. Nukus, 1998. Ilmiy maqolalar to'plami.

19-mavzu: Morfologiya. Eski o'zbek adabiy tili morfologik strukturasining taraqqiyot bosqichlari

Reja:

1. Eski o'zbek adabiy tili morfologik tuzilishi
2. Morfologik strukturaning taraqqiyot bosqichlari

Yozma manbalarining ko'rsatishicha, o'zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotini uchta katta bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqichni XIV asrning oxirlarigacha bo'lgan davr tashkil etadi. Ikkinchi bosqich XIV asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotidagi uchinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda matbuot vujudga keldi va o'zbek tilida gazeta, jurnal, kitoblar nashr etila boshladi.

O'zbek tilining ko'p asrlik taraqqiyoti davomida uning morfologik qurilishi ham rivojlanib, takomillashib keldi: yangi grammatik shakllarning vujudga kelishi natijasida qadimdan faol istemolda bo'lib kelgan shakllarning bir guruhi o'zining mavqeini yo'qota bordi, ayrimlari esa ma'lum davrlarga kelib istemoldan chiqib qoldi; yonma-yon qo'llanib kelgan grammatik shakllar vazifasi jihatdan o'zaro farqlana bordi; ayrim grammatik shakllar shaklan o'zgarib, takomillasha bordi va hokazo.

Adabiy til tarixida ham so'z turkumlari dastavval ikki katta guruhga bo'linadi: *mustaqil so'zlar* va *yordamchi so'zlar*.

Eski o'zbek adabiy tili davrida ham mustaqil so'zlar quyidagi uch guruhga bo'linadi: *ism, fel, ravish*. Ism guruhidagi so'zlar o'z navbatida quyidagi turkumlarga ajratiladi: *ot, sifat, son, olmosh*. Bu turkumlar uchun so'z o'zgartuvchi kategoriyalar (kelishik, egalik va shu kabilar) umumiy bo'lib, bu jihatdan ular bir guruhga – **ism guruhiga** birlashadi. Lekin ularning har biri uchun maxsus so'z yasovchi qo'shimchalari bo'lishi va ma'nosi jihatdan har qaysisi mustaqil so'z turkumini tashkil etadi.

Yordamchi so'zlar sintaktik vazifalariga ko'ra quyidagi uch turkumga bo'linadi: *ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar*. *Undovlarni* ham shartli ravishda yordamchi so'zlar guruhiga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

20-mavzu: So'z turkumlari. Ot, sifat, son, olmosh so'z turkumlari

Reja:

1. Mustaqil so'z turkumlari
2. Ot so'z turkumi
3. Sifat so'z turkumi

4. Son soʻz turkumi
5. Olmosh soʻz turkumi

Eski oʻzbek tilida soʻz turkumlari ikki katta guruhga boʻlinadi: *mustaqil soʻzlar* va *yordamchi soʻzlar*. Mustaqil soʻzlar ism, fel, ravish hisoblanadi. Ism guruhidagi soʻzlar *ot*, *sifat*, *son*, *olmosh* kabi turkumlarga ajratiladi. Quyida *ism* guruhiga kiruvchi soʻz turkumlariga toʻxtalib oʻtamiz.

Eski oʻzbek tilida ham **ot** turkumidagi soʻzlar koʻplik, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega boʻlishi bilan xarakterlanadi. Bu kategoriyalarni ifodalovchi shakllar maxsus affikslar yordamida hosil boʻladi va bu affikslarning qoʻshilishida maʼlum tartib mavjud, yaʼni: ot (oʻzak-negiz)+ koʻplik affiksi + egalik affiksi + kelishik affiksi (ogʻa+lar+im+ni kabi).

Koʻplik, egalik, kelishik affikslari ot turkumiga xos boʻlib, boshqa turkumdagi soʻzlarga qoʻshilganda bu soʻzlar otlashadi (substantivlashadi) va gapda ot vazifasini bajaradi.

Koʻplik shakllari. Otlarda koʻplik shakli asosan *-lar/-lar* affiksi yordamida hosil boʻladi. Eski oʻzbek tilida ham *-lar/-lar* affiksi shaklning asosiy vazifasi grammatik koʻplik maʼnosini ifodalashdan iborat boʻlgan: *dostlarimni kuldurdum* (OʻN). *Koʻzlari koʻnglum alur* (Atoiy). Keltirilgan misollarda *-lar/-lar* affiksli shakl koʻplik maʼnosida qoʻllangan. Ayrim hollarda bu affiks koʻplikdan boshqa maʼnolarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, holatni, mavhum tushunchani bildiradigan otlarga qoʻshilganda kuchaytirish, taʼkidlash maʼnolarini ifodalaydi. Masalan, *Ani qushmanlari koʻp qaygʻular tapti* (OʻN). *Inayatlari qalʼur janana bizga* (MN). *Fitnalar salur ekin lashkariga* (ShN).

-lar/-lar affiksi payt bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilganda harakat yoki holatning davomiyligini, takrorlanib turishini koʻrsatib, ravish maʼnosini ifodalaydi.

-lar/-lar affiksli shakl hurmat maʼnosini ham ifodalaydi. Lekin uning bunday qoʻllanishi ayrim asarlardagina uchraydi: *Dilavar xan alarni tagʻayilari bolgʻay* (BN). *Men alarni atalarini kamina shagirdlaridur-men* (BV).

Eski oʻzbek tiliga oid yozma manbalarning ayrimlarida, jumladan, «Boburnoma»da *-(a)t / - (a)t* affiksi boʻlgan soʻzlar mavjud. Lekin bu soʻzlar grammatik koʻplik maʼnosini emas, jamlik tushunchasini bildiradi. Masalan, *tumanat* (birlik shakli: *tuman* – «oʻn ming»), *mahallat* (birlik shakli: *mahalla*), *bagʻat* (birlik shakli: *bagʻ*), *begat* (birlik shakli: *beg*), *aymaq* (birlik shakli: *aymaq* – urugʻ-qabila nomi).

Eski oʻzbek tilida arab va fors-tojik tillaridan oʻzlashgan koʻplik shaklidagi soʻzlar koʻplik maʼnosida qoʻllangan. Bunday soʻzlarni baʼzan birlik maʼnosida uqilib, ularga *-lar* affiksini qoʻshib ishlatish hollari ham uchraydi: *Akabirlar zaylʼda mazkur bolgʻaylar* (Navoiy, MN). *Majmui yaranlar? birle olturub erdilar* (Gulxaniy).

Egalik shakllari. Otlarda egalik shakllarining hosil boʻlishi boʻyicha eski oʻzbek tili bilan hozirgi oʻzbek tili oʻrtasida deyarli farq yoʻq. Egalik affikslarining turli fonetik shakllarga ega boʻlishi bilan eski oʻzbek tili hozirgi oʻzbek tilidan farqlanadi.

Eski oʻzbek tilida egalik affikslari quyidagi fonetik shakllarda qoʻllangan:

Son	Shaxs	Affikslar	Misollar
Birlik	I shaxs	-m -m / -im -um / -um	ata-m, kishi-m at-m, til-im og'(u)l-um, so'z-um
	II shaxs	-n -n / -in -un / -ün	ata-n, kishi-n at-n, til-in og'(u)l-un, so'z-ün
	III shaxs	-s? / - si -? / -i	ata-s?, kishi-si at-?, til-i og'(u)l-?, so'z-i
Ko'plik	I shaxs	-miz / -miz -miz / -imiz -umiz / -umiz -umuz / -umuz	ata-miz, kishi-miz at-miz, til-imiz og'(u)l-umiz, so'z-umiz og'(u)l-umuz, so'z-umuz
	II shaxs	-niz / -niz -niz / -iniz -uniz / -üniz -unuz / -ünüz	ata-niz, kishi-niz at-niz, til-iniz og'(u)l-uniz, so'z-üniz og'(u)l-unuz, so'z-ünüz
	III shaxs	-lar? / -lari	ata-lar-?, kishi-lar-i at-lar-?, til-lar-i og'(u)l-lar-?, so'z-lar-i

Egalik affiksi shakllaridan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishi bilan bog'liq hodisadir. Unli bilan tugagan so'zlarga undosh bilan boshlanuvchi egalik affiksi shakllari, undosh bilan tugagan so'zlarga unli bilan boshlanuvchi shakllari qo'shilgan: *ata-m*, *at-m* kabi. Lab unlisi bilan tugagan so'zlarga lab uyg'unligi hodisasi asosida lab unlilar qo'shilishi kerak: o'g'lum, o'g'lun kabi. Lekin eski o'zbek tili tarkibida (oxirgi byag'inida) lab unlisi bo'lgan so'zlarga egalik affikslari shakllarining qo'shilishida ma'lum tartib bo'lmagan. Yani, I va II shaxs birlik shaklidagi *o'g'lum*, *o'g'lun* kabi so'zlar ba'zan *o'g'lim*, *o'g'lin* shaklida ham qo'llangan. I va II shaxs ko'plik shaklidagi *o'g'lumuz*, *o'g'lunuz* so'zlari ko'pincha *o'g'lumiz*, *o'g'lunuz* yoki *og'limiz*, *og'lunuz* shaklida ishlatilgan.

Qarashlilik. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida qarashlilik shakli *-niki* affiksi orqali hosil bo'ladi: *meniki*, *seniki*, *uniki*, *bizniki*, *sizniki*, *ularniki*, *Anvarniki* kabi.

Eski o'zbek tilida esa qarashlilik ma'nosi qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalangan. Qarashlilik ma'nosida qo'llangan qaratqich kelishigidagi so'z asosan kesim vazifasida keladi: *Ey tulak, men seni-men (QR)*. *Hukm anin, talib anin, pir anin, rāy anin, sag'aysh-u tadbir anin* (ShN). Keltirilgan misollardagi qaratqich kelishigidagi so'zlar *senikiman*, *uniki* ma'nolarida qo'llangan.

Eski o'zbek tilda qarashlilikning *-ninki* (*-iniki*) shakli ham mavjud bo'lib, kam qo'llangan. Bu affiks XV asrdan keyingi ayrim asarlardagina uchraydi: *Mavarannahr yurti yavnuqi boldi* (Sh.turk.). *Bu tasnif o'zganiniki ermas* (BV).

Qarashlilik affiksining *-niki* shakli ham eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, XV asrdan keyingi ayrim manbalarda uchraydi: *Ko'g'ulda ul erdi kim, ... Shayx Bayazidni Tanbaldin ayirib bizniki bolg'ay* (BN). *Sizlarni o'ziniki qilg'andin son...* (Sh.turk.).

Otlarda turlanish va kesimlik affikslari. Eski o'zbek tilida ham ot va ot turkumidagi so'zlar (sifat, son olmosh) kesim vazifasida kelganda fellar kabi tuslanadi (tor ma'noda), ya'ni shaxs-son affikslarni qabul qiladi.

Eski o'zbek tilida kesim vazifasida kelgan ot va ot turkumidagi so'zlarga shaxs-son affikslarining to'la shakllari *-men*, *-sen*, *-miz* (*-biz*), *-siz* qo'shilgan. Masalan: *uch kun boldi ach-men (QR)*. *Sen meha sultan-sen* (Lutfiy). *Atam ornig'a atam-siz* (Sh.tar.).

Ot va ot turkumidagi so'zlar bilan ifodalangan kesim odatda kesimlik affiksi (bog'lama orqali shakllanadi va bu affiks) shaxs-son affikslaridan oldin keladi. Bunday hollarda kesim vazifasida kelgan ot quyidagi uch morfemadan iborat bo'ladi: *ot + kesimlik affiksi + shaxs-son affiksi*.

Eski o'zbek tilida kesimlik affiksi vazifasini *tur-* (*turmoq*) holat feli yoki *er* (*ermoq*) to'liqsiz feli bajargan. *Tur-* holat feli kesimlik vazifasida *turur*, *durur*, *tur* / *tur*, *dur* / *dur* shakllarida qo'llangan.

Masalan: *Men muxlis turur men (Tafsir). Aniñ kim mal?ko'ptur, qazg'us?bar (XSh). Chechak-sen, banda sayrar bulbulundur (MN).*

Er- to'liqsiz feli kesimlik affiksi vazifasida *erur* (hozirgi-kelasi zamon) shaklida qo'llangan. Masalan: *Bu menim shagirdim erur (Tafsir). Meña dozax erur uchmaq sensiz (MN).*

Otlarda bo'lishsizlik shakli. Ot va ot turkumidagi so'zlar kesim vazifasida qo'llanganda bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda keladi.

Eski o'zbek tilida ham otlarning bo'lishsizligi *er-* to'liqsiz felining bo'lishsiz shakli *ermas // emas (ermaz // emaz)* yordamida ifodalangan: *Biz bu narsalarga muhtaj ermas-biz (QR). Yalg'anch? kishi ermäs va yalg'an aytnaq eranlar ishi emas (Navoiy, MQ). Meniñ ko'ñlumdagi bo'lak adamlarg'a ma'lum emasdur (Furqat).*

Kelishik shakllari. Eski o'zbek tilida quyidagi oltita kelishik amalda bo'lgan: *bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.*

Bosh kelishik. Eski o'zbek tilida ham bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Boshqa kelishik shakllari bosh kelishikka maxsus affikslar qo'shilishi bilan hosil bo'ladi.

Bosh kelishikning asosiy vazifasi gapda ega vazifasida kelishidir: *Ul yigitlar aydilar (QR). Ikki yuz kishimiz bar edi (BN).*

Bosh kelishikdagi so'z kesim vazifasida ham qo'llanadi. Bunday hollarda bosh kelishikdagi so'z shaxs-son affiksi bilan tuslanishi va kesimlik affiksini qabul qilishi mumkin.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi affiksi quyidagi shakllarga ega: *-niñ / -niñ, -nuñ / -niñ, -iñ / -iñ, -uñ / -un.* Bundan tashqari bu kelishikning *-im* shakli ham mavjud bo'lib, uning qo'llanishi *men, biz* olmoshlari bilan chegaralangan: *menim, bizim.*

-niñ / -niñ affiksi: *daryaniñ suvi, yig'achniñ budaqlari, elniñ nazari, elniñ so'zi* kabi.

-nuñ / -niñ shakllari: *yurtnuñ kishisi, quduqnuñ üsti, ko'lnuñ suvi, so'znüñ rast?* kabi.

-iñ / -iñ shakllari ul kishilik olmoshi va kim so'roq olmoshi bilan chegaralangan: *Anuñ ko'zu (O'N). Kimüñ ko'ñli (XSh).*

Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan. Bunday hollarda qaralmishning qaratqichga umumiy xosligi ifodalanadi: *daraxt bargi, Hindustan daryalar?, zaman ahl?* kabi.

Eski o'zbek tilida ham qaratqich kelishigidagi so'z asosan aniqlovchi, ba'zan kesim vazifasida kelgan. Masalan: *Ul qoychiniñ iti bar erdi (Tafsir). Bag'niñ eshikini taparg'a fursat q'lmay (BN).*

Qaratqich kelishigidagi so'z kesim vazifasida kelganda qarashlilik ma'nosini ifodalaydi.

Tushum kelishigi. Eski o'zbek tilida tushum kelishigining *-n? / -ni, -n, -? / -i* affiksli shakllari ishlatilgan. Bular bir affiksning turli ko'rinishlari bo'lib, qo'llanishi jihatdan bir-biridan farqlanadi:

1. *-n? / -ni* affiksli shakl tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichi sifatida eski o'zbek tili tarqqiyotining hamma davrlarida keng istemolda bo'lgan. Bu affiks tushum kelishigida qo'llanuvchi har qanday so'zga qo'shila oladi: *yoln?, tag'n?, suvn?, tamn?, bashn?, yaxsh'n?, yamann?, ko'zni, tilni, kishini, o'zgani, yerni, elchini bitigni* kabi.

2. Tushum kelishigining *-n* affiksli shakli ham eski o'zbek adabiy tilida ancha keng istemolda bo'lgan. Lekin bu affiks faqat III shaxs shaklidagi so'zlarga qo'shilgan: *yol'n (yo'lini), bash'n (boshini), barchas'n (barchasini), tilin (tilini), so'zin (so'zini)* kabi.

3. Tushum kelishigining *-? / -i* affiksli shakli ayrim manbalarda qo'llangan bo'lib, asosan egalik shaklining I shaxs birligidagi so'zlarga qo'shilgan. Misollar: *Salayin o'zumi o'zgä adyara // ko'ñulni bag'lag'ay'n o'zga yara (MN). Men ki tanab'ñg'a ch'ññ-men kelib // xizmatimi yaxshu qılınlar bilib (Muqimiy).*

Tushum kelishigidagi so'z vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, harakatni o'z ustiga olgan manbani ifodalaydi.

Tushum kelishigidagi so'z belgili yoki belgisiz qo'llanishi mumkin. Belgili qo'llanganda aniq manbani ifodalaydi, belgisiz qo'llanganda esa shu turdagi manbani ko'rsatadi. Belgisiz qo'llangan tushum kelishigidagi so'z bo'lib, *nimani? (nimalarni?)* so'rog'iga javob bo'luvchi turdosh otlar boshqaruvchi fel bilan yondosh holatda kelganda belgisiz qo'llanishi mumkin: *Mañä xilat kiyürüb, qosh tutt? (MN). Arz etayin emdi yaz'ñ namalar (Muqimiy).*

Tushum kelishigi shakli boshqa kelishiklar vazifasida ham qo'llanadi, ya'ni qaratqich kelishigi o'rnida: *Agar o'tni urushin ko'rüb, elkini otqa sunsa, ... (QR). Ikki zulfun ko'ñüllärni panah? (MN)* va boshqalar.

Jo'nalish kelishigi. Eski o'zbek tilida jo'nalish kelishigining *-g'a / -ga // -qa / -ka* va *-a / -a* affiksli shakllari qo'llangan.

–g‘a / -ga // -qa / -ka affiksli shakl eski o‘zbek tilida jo‘nalish kelishigining asosiy shaklini tashkil etadi. Masalan: *barchag‘a, uyqug‘a, suvg‘a, ag‘zga, yolg‘a, ulusqa, yurtqa, quyashqa, xalqqa, kemaga, elchiga, so‘zga, tilga, ko‘kka, ishka* kabi.

Jo‘nalish kelishigining –a / -a affiksi quyidagi ikki holatda ishlatiladi: 1) jarangli undosh bilan tugagan so‘z asosiga bevosita qo‘shiladi: *basha (boshga), so‘z+a (so‘zga)*; 2) egalik shaklidagi, asosan, I va II shaxs birlik hamda III shaxs birlik va ko‘plik shaklidagi so‘zlarga qo‘shiladi: *bashm+a (boshimga), bashu+a (boshingga)* kabi. Jo‘nalish kelishigidagi so‘z vositali to‘ldiruvchi yoki hol, ba‘zan kesim vazifasida qo‘llanadi.

O‘rin-payt kelishigi. O‘rin-payt kelishigi affiksi eski o‘zbek adabiy tilida (d) undoshi bilan boshlanuvchi –da/ -da va jarangsiz (t) tovushi bilan boshlanuvchi –ta / -ta shakllarida qo‘llangan. Masalan: *qal‘ada, uyquda, ko‘zguda, suvda, bag‘da, yolda, tunda, bazarda, yurtta, eshikta, qshlaqta, ko‘kta, ishta, ulusda* kabi.

O‘rin-payt kelishigi affiksi III shaxs egalik shaklidagi so‘zlarga qo‘shilganda egalik affiksi bilan kelishik affiksi orasida [n] undoshi orttirilishi mumkin, ya‘ni *qol‘da, yol‘da, so‘zida, ishida* kabi so‘zlar *qol‘nda, yol‘nda, so‘zinda, ishinda* shaklida ham qo‘llanadi. O‘rin-payt kelishigi o‘rin holi, payt holi, vositali to‘ldiruvchi, ba‘zan kesim vazifasida qo‘llanilgan. Masalan: *Men sahrada yalg‘uz qaldm (NF). Faqir bir majlisda... an? ko‘rdum (Navoiy, MN). Bu chashma naxlistannu yonidatur, yan yerdatur (BN).*

Chiqish kelishigi. Eski o‘zbek tilida chiqish kelishigining asosan –dñ / -din –tñ / -tin affiksli shakli qo‘llangan bo‘lib, ayrim manbalarda –dan / -dan // -tan / -tan va –dun / -dun // -tun / -tun affiksli shakllar ham istemolda bo‘lgan.

–dñ / -din –tñ / -tin affiksli shakl chiqish kelishigining asosiy ko‘rsatkichi sifatida eski o‘zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida faol istemolda bo‘lgan. Masalan: *uyqudñ, ko‘zgudin, suvdñ, bag‘dñ, so‘zdin, yoldñ, ko‘ñuldin, yerdin, yurttñ, eshiktin, qshlaqtñ, ko‘ktin, tashtñ, ishtin* kabi.

–dan / -dan // -tan / -tan affiksli shakl XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklardan «O‘g‘uznoma», «Qissasi Rabg‘uziy», «Xusrav va Shirin» tiliga xos bo‘lgan; «Guliston bit-turkiy» asarida asosan shu shakl qo‘llangan. Masalan: *Uch künden soy zindandan chiqardı (QR). Anuñ bashı sog‘uqtan ap-aq turur (O‘N). To‘quz yashından so‘ñ (XSh). Elin ashtan chekib (Saroyi).*

–dun / -dun // -tun / -tun shakllari tarkibida (oxirgi bo‘g‘inida) lab unlisi bo‘lgan so‘zlarga qo‘shiladi. Bu shakl XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklardan «O‘g‘uznoma»da qo‘llangan: *ko‘p toqushg‘udun soy; qırq künden soy; ul jaruqtun... chıqtı; anuñ ko‘zi ko‘ktün ko‘kräk erdi.*

Chiqish kelishigidagi so‘z o‘rin holi, payt holi, vositali to‘ldiruvchi yoki kesim vazifasida keladi. Masalan: *Chñqa kaldı chadırdın nagah ul hur (XSh). Kun tushdın o‘tub erdi (BN). Tili kelmaslikindın ne ayturñ bilmay turur (Sh.tar.). Mashruh bitib, bir kishidin yibargaylar (BN)* kabi.

Ot yasalishi. Eski o‘zbek tilida asosan quyidagi ikki usul bilan ot yasalgan: 1) morfologik usul (affiksatsiya); 2) sintaktik usul (kompozitsiya).

Sintaktik usul bilan ot yasalishi hozirgi o‘zbek tilidan deyarli farqlanmaydi. Masalan: *qarabash, shabchñag‘, almabash, temurqanat, tash ko‘ñul, og‘ul-qñ, ata-ana, ag‘a-ini* kabi.

Eski o‘zbek tilida yasama otlarning asosiy qismini morfologik usul, ya‘ni affiksatsiya yo‘li bilan yasalgan otlar tashkil etadi. Ot yasovchi affikslar qaysi so‘z turkumidan ot yasashiga ko‘ra dastavval quyidagi ikki guruhga bo‘linadi: 1) ismdan ot yasovchi affikslar; 2) fe‘ldan ot yasovchi affikslar. Otlarda kichraytirish, erkalash shaklini yasovchi affikslar ham birinchi guruhga kiradi.

Ismdan ot yasovchi affikslarga –lñ / -lik // -lñ / -lig affikslari va ularning ko‘rinishlari –luq / -luk // -lug‘ / -lug; –chñ / -chi affiksi, –chññ / -chilik affiksi, –dash / -dash (-tash / -tash) affiksi; –duq, –chuq / -chuk, –suq / -sug‘, –kan, –sul kabilan kiradi. Masalan: *Yaxshılıq kla almasañ (Navoiy, MQ). –Yaxshññn? bilmässeñ (Navoiy, MQ). Ko‘p qattññ tarttñ (BN). Temurchi temurni chñard? (NF). Sabab bold? hammamch? qorqqanññ (Muqimiy). Makkada urug‘im, qadashñ bar (NF). Kichik qardash? xaqan bolmññ erdi (Navoiy, FSh). Burunduq? ham dana yinjulardñ tiziklik turur (NF). O‘rumchuk parda tutar (XSh). Ul kemäniñ yelkänini tavakkuldñ qñg‘ñ (NF). Qaraqchññ ne qorqsun yoqsul (XSh).*

Otlarda kichraytirish, erkalash shakllari –chaq / -chak, –(l)aq, –cha / -cha, –chuq, –(e)ch, –g‘ñ / -gina affikslari yordamida hosil qilinadi. Masalan: *tubuchak (Navoiy, ML)-otning kichkinasi); kelinchek (Furqat). Tubuchaq atı beshumär bolub edi (BN). Kiyikniñ og‘laqi (Sakkokiy). Bir qaz keldi, ul bag‘cha ichında qond? (NF). Ul sutemar tilsiz og‘lanchuq faryad qñd? (QR). Ishq ki bolsa yaman-u yaxshññ, ey ko‘ñül // yoq tafavut gar bekäch bolsa va yaxud gar mirak (Navoiy). Bilmädük, qays? parivashg‘ñ manzur erkan (Munis).*

Feldan ot yasovchi affikslarga –q / -g‘ // -k / -g va uning fonetik variantlari: –aq / -ag‘ // -ak / -ag, –ñ / -ññ // -ik / -ig, –uq / -ug‘ // -uk / -ug; –nch (-ñch/-inch/-unch/-unch); –sh (-ñh/-ish/-ush/-ush); –ma / -

ma; -g'u / -gu // -qu / -ku (-qʔ); -g'uchʔ / -guchi // -quchʔ / -kuchi; -g'h / -q'h // -g'un / -qun; -q'xh / -kich // -g'xh / -gich (-quch / -kuch // -g'uch / -guch); -h / -in (-un / -un); -m / -im (-um / -um); -maq / -mak (-muq); -vul; -l kabilar kiradi. Masalan: *Bu yarag' birla yetishti lashkar (ShN). Tilaklar tush bolur are saharda (Atoiy). Qorqunchd'h hech nimarsa ayta bilmadilar (Sh.tar.). Yurush yarag'h?qayda bilgaylar (BN). Qozub sürma ko'ziḡä (XSh). Andag' yaman urushg'u boldʔ (O'N). Bu kitabni oqug'uchʔ va tiḡlägüchi, albatta, türk bolg'ay (Sh.tar.). Yarutmas evni uchgun bolmasa sham (XSh). Qapulug' erdi, achq'xh yoq erdi (O'N). Ich tonig'ı bir tügün tügdi (QR). Baylar o'lümni unutdilar (Sh.tar.). Ko'ḡüldä ishq chaqmaq?chaq'ıdʔ (XSh). Yasavul ki, bir mazlum ishi keynicha barg'ay, ... (Navoiy, MQ). -l affiksi: qabal (qamal), tutqal (xazinachi) kabi. Masalan: Ikki ay kim, qabal erdi anda // az kishi qaldʔqorg'anda (ShN) kabilar.*

Sifat. Eski o'zbek tilidagi sifatlar ham tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) *asliy sifatlar*; 2) *nisbiy sifatlar*.

1. Asliy sifatlar eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi kabi narsaning rangi, tusi, hajmi, shakli singari ma'nolarni bildiradi. Masalan: *qara sach halqasʔ (Lutfiy), sarʔu yuz (Sakkokiy), shirin so'z (Atoiy), chin so'z (Gulxaniy), achchiq til (Navoiy, MQ), yanʔay (Atoiy), eski shal (Atoiy), qarʔ kishi (Sh.tar.)* kabi.

2. Nisbiy sifatlar turli so'zlarga sifat yasovchi maxsus affikslar orttirish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Sifat yasalishi. Eski o'zbek tilida ham sifatlar morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) yo'llar bilan yasalgan.

1. sintaktik usul bilan sifat yasalishi odatdagicha bo'lib, bunday sifatlar qo'shma, juft so'zlar shaklida bo'ladi. Masalan: *qara tamg'alʔ ay (Lutfiy), qa'ra yuzluk bashʔ (Navoiy, MQ), orta boyluq yigit (BN), yaxshʔyaman xizmat (Navoiy, MQ).*

2. Morfologik usul bilan ismlardan va fe'llardan sifat yasaladi.

Ismdan sifat yasovchi affikslarga -lʔ / -lik // -lʔ' / -lig (-luq / -luk // -lug' / -lug); -lʔ-li (-lu -lu); -sʔ / -siz (-suz / -suz); -qʔ / -ki // -g'ʔ / -gi; -daqʔ / -daki // -dag'ʔ / -dagi kiradi. Masalan: *Bashir atlʔ' bir og'lʔ bar erdi (QR). Mazalʔso'zga har qancha qulaq salsa bolur (Gulxaniy). Vafasiz behayalar alarni unutulurlar (Navoiy, MQ). TashqʔEl barcha bu ishni bildi (ShN). AndagʔEl yuzidin ketkandur (ShN).*

Fe'ldan sifat yasovchi affikslar quyidagilar: -g' / -q / -k - (-ḡ' / -ḡ / -ik, -ug' / -uq / -uk): *Yatʔdur bir kesuk bash (Navoiy, MQ). Kammahsul affikslar: -un; -l; -ri: Nedin tolun ay yuzun ila husn talashur (Atoiy). Dunyiniḡ tügül malımı bersāḡ (NF). Egri qaddın fig'anı äyläb ham (Navoiy, SS).*

Sifat darajalari. Eski o'zbek tilida sifat darajalari uch xil ko'rinishga ega: *oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja*. Sifatning oddiy darajasi maxsus morfologik ko'rsatkichga ega bo'lmaydi va bosh shakldagi har qanday sifat oddiy darajani tashkil etadi. Qiyosiy daraja va orttirma daraja shakllari maxsus affikslar yordamida hosil bo'ladi.

Qiyosiy daraja. Sifatlarda qiyosiy daraja ma'nosi quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

Morfologik usul. Bu usul sifatga -raq / -rak affiksini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Bu shakl sifatda ifodalangan belgining kamligini, kuchsizligini ko'rsatadi: *Ul ulug'raq kishi xud Shayx Kamal ermish (Navoiy, MN).*

Sintaktik usul. Bu usul murakkab shakl yo'li bilan ifodalanadi, ya'ni sifatning daraja belgisi boshqa so'z bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Qiyos uchun keltirilgan so'z esa chiqish kelishigi shaklida bo'ladi: *Jandʔ artuq mehribanʔḡa salam (Lutfiy). Mundaḡ yaxshʔat bolmas (Sh.tar.).*

Murakkab usul. Bu usul morfologik va sintaktik usullarning birikuvidan hosil bo'ladi, ya'ni qiyos uchun keltirilgan so'z chiqish kelishigi shaklida bo'ladi, sifatga -raq / -rak affiksi qo'shiladi: *Aniḡ ko'zi ko'ktun ko'krak erdi (O'N). Andʔ qattʔraq hal bardur (Navoiy, MQ).*

Orttirma daraja. Eski o'zbek tilida sifatlardagi orttirma daraja ma'nosi *eḡ, ko'p, asru, behad, bisyar, g'ayat, bag'ayat, heyli* kabi so'zlar yordamida ifodalangan. Masalan: *Eḡ songʔetlar ulub (QR). Ishq behad yʔraq durur andʔ (Navoiy, SS).*

Belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi shakllar. 1. Belgining ortiqligini ifodalovchi shakllar yana intensiv shakllar deb ham ataladi. Bunday shakllarda hozirgi o'zbek tili bilan eski o'zbek tili shakllari orasida deyarli farq yo'q. Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarida bunday shakllarga *ap-apaq, qap-qara, qʔ-qʔʔ, yap-yassi, ap-achug', chup-chukur, ko'm-ko'k, yam-yashil* misollari keltirilgan. Masalan: *Bu yol tup-tuz yoldur (BN).* Bu shakl bir sifatning takrorlanishidan ham hosil bo'ladi: *Qabag'ları keḡ-keḡ, ag'ʔlarʔtar (Navoiy, ML). Yurganda qattʔ-qattʔ avaz qʔur (Sh.turk).*

2. Belgining kamligini ifodalovchi shakllar a) sifatarga -mtul / -mtul yoki -chʔ / -chil affiksini qo'shish orqali: *qaramtul, ag'ʔmtul (aqimtil), yashʔmtul (ML), ko'kumtul (Abushqa), aqchʔ (Sanglah); rangi qaramtul sarʔ' turur (NF).* B) sifatarga -g'ʔa / -gina, -qʔʔa / -kina affiksini qo'shish orqali: *Yaxshʔʔa tab' nasibi bolubtur (Navoiy, MN). Yana birgina uydur, kichikkina uydur (BN).*

Son. Eski o'zbek tilida sonning hozirgi o'zbek tilidagi turlari mavjud bo'lgan: sanoq son, tartib son, jamlovchi son, dona son, chama son, taqsim son, kasr son. Shu bilan birga, bu sonlarning ifodalanish usullari va shakllari bo'yicha eski o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari bor.

Sanoq son. Sanoq son eski o'zbek tilida ham tuzilishiga ko'ra sodda va tarkibli sanoq sonlarni tashkil etadi.

Sodda sanoq sonlar birlik, o'nlik, yuzlik, minglik shakllarga ega bo'lib, ularning umumiy ko'rinishi quyilagicha:

Birliklar	O'nliklar	Yuz, ming va b.
Bir-1	On-10	Yuz-100
Ikki-2	Yigirmi	Ming-1000
U'ch-3	Yigirma-20	Tuman-10000
To'rt-4	Ottuz-30	Lak-100000
Be's-5	Q'iq-40	Yuz tuman-1000000
Alt?-6	Ellik	
Yetti-7	Elli-50	
Sekkiz-8	Altmish-60	
Toqquz-9	Yetmish-70	
	seksa'n-80	
	toqsan-90	

2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o'rtada kelgan [k], [t], [q], [l] undosh tovushlar arab yozuvida bir belgi bilan beriladi: iki (2), yeti (7), sekiz (8), toquz (9), otuz (30), elik (50). 80, 90 sonlari sekiz, toquz sonlariga on sonining qo'shilishi asosida hosil bo'lib (*sekiz on, toquz on*), *seksan, toqsan* shakllari keyingi davrlarda shakllangan. Sekiz on, toquz on shakllari qadimgi turkiy til yodgorliklarida qo'llangan. Eski o'zbek tilida *tuman, lak* sonlari yakka holda qo'llanmagan, bular oldidan albatta kichik miqdordagi son birga keladi: *Bir tuman xalq q'iq'd? bari (ShN)*. *Bir lak afg'an y'ig'ildur (BN)*. *U'ch-to'rt lak alub qoyarlar (BN)*.

Tarkibli sanoq sonlar. Eski o'zbek tilida tarkibli sanoq sonlarning hosil bo'lishida hozirgi o'zbek tilidagi kabi oldin katta son, keyin kichik son keladi: *on besh, yuz ottuz toqquz, ming toqquz yuz olti* kabi.

Eski o'zbek tilida ham *bir* soni ko'p ma'noliligi bilan boshqa sanoq sonlardan farqlanadi. *Bir* soni o'z ma'nosida qo'llanishidan tashqari yana bir qancha vazifalarni ham bajaradi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Noaniqlik ma'nosini bildiradi: *Og'ul bir un q'ild? (QR)*. *Dasht ara Majnunn? ko'rdi bir kishi (Navoiy, LT)*.

2. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: *Bir qiya baqsan zakati husn uchün (Lutfiy)*. *Bir kiyay men ham (Muqimiy)*.

3. *Bir* so'zi juft so'z shaklida takrorlanib qo'llanganda, ikki tomondan bo'lgan ish-harakatning o'zaro munosabati ko'rsatiladi: *Bir-biri birla xush bolsa erdi (XSh)*. *Bir-birlari birla munazara q'ulurlar (Furqat)*.

Noaniq son. Bunday sonlar taxminiy, noaniq miqdorni ko'rsatib, mazmunan sanoq sonlarga yaqin turadi. Noaniq son eski o'zbek tilida asosan *ko'p, az* so'zlari bilan ifodalgan. Bunday so'zlar mazmunan ikki guruhga bo'linadi. Masalan, *ko'p* so'zi shaxs yoki narsaning miqdori ortiqqligini, *az* so'zi esa kamligini ko'rsatadi. Masalan: *Ko'p kishi da'va q'ulur sham'i jamal'm mehrini (Atoiy)*. *Ul yetmagan yer az bolg'ay erdi (Navoiy, MN)*. Eski o'zbek tilida noaniq son ma'nosida forscha *bisyar (ko'p)* so'zi qo'llangan: *Eshitmish-men ki, Banu kardandur // pari paykar dag'bisyar dandur (Navoiy, FSh)*.

Tartib son. Tartib son sanoq songa *-nch?/-nchi (-inch?/-inchi, -unchi / -unchi)* affiksini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Bu affikslarning oxirgi [ʔ], [i] unlisi bo'lmagan shakli ba'zi manbalarda qo'llangan: *Ajacha o'tüb erdi tortütch er (ShN)*. *Ayrim yodgorliklarda -lanch? / -lenchi shakli ham iste'molda bo'lgan: Sansa beg ikkilanchisi (QR)*. *Padshahn beshlanchi og'li? (Sh.turk)*. *alt'anch?bayt (BV)*.

Birinchi va ikkinchi tartib sonlarining ishlatilishi quyidagicha:

1. *Birinchi* tartib soni ma'nosida avvalg' so'zi qo'llangan: *Avvalg'?daftar bash'nda yad q'ild'm'z (Tafsir)*. *Avvalg'?naman?aytur (MN)*.

2. *Ikkinchi* tartib soni XIII-XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda ikindi (ikindu) shaklida ham qo'llangan: *Ikindi nama'g'a tegi (QR)*. *Ikindi namaz'aytur (Tafsir)*.

Jamlovchi son. Bu sonlar sanoq sonlarga *-ag'u / -agu, -ag'un / -agun, -av / -av, -avlan / -avlan, -ala / -ala* affikslarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Bu affikslar etimologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq, ya'ni biri ikkinchisidan rivojlangan. Masalan, *-ala / -ala* affiksi *-avlan / -avlan* affiksining shaklidir (*uchavlan > uchavla > uchala, altavlan > altavla > altala*).

Jamlovchi son shakllarining qo'llanishi quyidagicha:

–ag‘u / –agu, –ag‘un / –agun affikslari: *Shahd-u shakar ikegu yanashib* (XSh). *Biz onag‘u qarindashlar-miz* (QR).

–av / –av, –avlan / –avlan affikslari bilan yasaluvchi jamlovchi sonlarning yozma yodgorliklarda qo'llanishi: *Men va Muhammad ko'kaltash ikav kelduk* (BN). *Shul arzu: ikavlan qalsak ekan tamasha* (Furqat).

Jamlovchi son ma'nosi eski o'zbek tilida sanoq sonlarga egalik affiksini qo'shish yo'li bilan ham ifodalangan: *ikkimiz, ikkiyiz, ikkisi. Oturdilar ikkisi yanashib xush* (XSh).

Dona son va numerativ so'zlar. Dona sonning morfologik yo'l bilan ifodalanishi eski o'zbek tiliga xos bo'lmagan. Eski o'zbek tilida –ta/ –ta affiksi bilan dona son yasalishi asosan bir soni bilan chegaralangan. Bu ham yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi. Masalan: *Birte yarmaqn? ikki bolub, yarmih achka barganni saxiy dey* (Navoiy, MQ). Quyidagi misolda ikki sanoq soniga –ta qo'shilishi bilan hosil bo'lgan *ikita so'zi* fe'lga bog'lanib, dona sonni emas, balki «ikki marta» ma'nosini ifodalaydi: *Kishi o'lganga tig'i kin surmas / bir o'lukni ikita o'lturmas* (Navoiy, SS).

Numerativ so'zlar. Eski o'zbek tilida ham numerativ so'zlar keng iste'molda bo'lgan. Bunday so'zlar sanoq sonlar bilan birga qo'llanib, ma'nosi jihatdan dona sonlarga yaqin turadi.

Numerativlar hamda numerativ vazifasida kelgan so'zlar va ularning qo'llanishiga misollar: *arshun – on arshun tayaq* (Tafsir); *qat – ellik qat ko'k* (QR); *sofra – bir sofa etmak* (QR); *batman – to'rt batman arpa* (NF); *avuch – bir avuch ushaq tash* (Tafsir); *jam – ikki jam may* (Navoiy, FSh); *suruk – bir suruk qoy* (QR); *tegirman – bir tegirman suv* (BN); *bahra – ikki bahra el* (BN); *parcha – bir parcha yer* (BN); *para – bir para chaynam et* (NF); *arg'amch? – bir arg'amch? baland qoya* (BN); *yig'ach – to'rt yig'ach yer* (QR); *qatar – uch-to'rt qatar xachir* (BN); *qism – bir qism tupraq* (Sh.tar.); *ayaq – bir ayaq suv* (Sh.tar.); *bag' – bir bag' otun* (NF); *kesak – bir kesak tarig'* (Tafsir); *tup – bir tup xurma* (Tafsir); *qol – ikki qol altun* (Tafsir); *nafar – on ikki nafar mudarris* (Furqat); *qashig' – bir qashig' qanin* (Furqat); *dana – bir dana almas* (Furqat). Bularni yanada davom ettirish mumkin.

Chama son. Chama son ma'nosi eski o'zbek tilida sanoq songa –cha / –cha affiksini qo'shish yo'li bilan ifodalangan: *On besh yigirmicha kishi terilib yalavach yanhiyerga tegurmadilar* (Tafsir). *Anda kim bar bir ellikcha kishi* (ShN). Chama son ma'nosi *chag'li? (chag'liq/chag'lig')* so'zi bilan ham kam miqdorda qo'llanadi: *Bardi anin birla min chag'li kishi* (ShN). Ikki sanoq sonning juftlashib kelishi chama son ma'nosini ifodalaydi: *uch-to'rt, on-on besh kabi*.

Taqsim son. Taqsim son ma'nosi eski o'zbek tilida quyidagi usullar bilan ifodalangan:

1. Sanoq sonlarga –ar / –ar (–shar / –sher, –rar / rar) affiksi qo'shiladi: *birar (bittadan), ikkishar // ikkirer (ikkitan), uchir (uchtadan), to'rär (to'rttadan), onar (o'ntadan), minar (mingtadan) kabi*. Misol: *Yetishar oltursunlar, teb buyurd?* (NF).

2. Sanoq sonlarga –in / –in (–un / –un) affiksini qo'shish yo'li bilan taqsim son hosil bo'ladi: *birin-birin (bitta-bittadan), birin-ikkin (bitta-ikkitan)*. Masalan: *Ahli majlis birin-ikkin keldilar* (BN).

3. Sanoq sonning hech qanday qo'shimchasiz takrorlanib juft so'z shaklida kelishi bilan ham taqsim son ma'nosi ifodalanadi: *Ko'rguzur san'atin bar? bir-bir* (Navoiy, SS).

Kasr son. Eski o'zbek tilida ham kasr son sintaktik usul bilan ifodalangan bo'lib, oldin butun son chiqish kelishigida, so'ng kasr son kelgan: *Yuz yilda bolmag'ay mihidhi biri kam* (Navoiy, FSh). *An? yuzdin birin ko'z ko'rmagandur* (Furqat). *Yarim so'zi* ham butunning bo'lagini ifodalagan: *Yarim kunda yurdilar* (Tafsir). *Yarim? ipak turur taq? yarim? yip turur* (NF). Uning *yarim, yart?* shakli ham qo'llangan: *Barchas? so'zni butun ayta bilmas, yart? ayturlar* (Sh.tar.).

Olmosh. Eski o'zbek tilida olmoshning hozirgi o'zbek tilidagi turlari amalda bo'lgan: *kishilik olmoshlari, o'zlik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlari, birgalik olmoshlari, belgilash olmoshlari, gumon olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari*. lekin bu olmosh turlarining shakllari turlanishidagi o'zgachaliklari bo'yicha eski o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari bor.

Kishilik olmoshlari. Kishilik olmoshlari quyidagicha ko'rinishda bo'lgan:

I shaxs birligi – *men*. Bu olmosh o'rnida faqir, banda, kamina so'zlari, bu faqir, bu banda, bu kamina birikmalari ham qo'llangan. Masalan: *Faqir an? ko'rubmen, amma she'r ayturim ma'lum qilmaydur erdim* (Navoiy, MN). *Bu faqir aruz fanida vasita bilä Mavlananing shagirdi-men* (Navoiy, MN).

II shaxs birligi – *sen*. Bu o'rinda senlar shakli ham ishlatilgan: *Taq sarig'a senlar barin* (O'N). *Senlar kafirlar tamug' ichinda* (QR).

III shaxs birligi – *ul*. Bu olmoshni ba'zi olimlar *ol*, ba'zilar *ul* tarzida transkripsiya qiladilar.

I shaxs ko'pligi – *biz, bizlar*. Bu olmosh ba'zan 1 shaxs birlik o'rnida qo'llanib, kamtarlik ma'nosini, yakka shaxsni bildiradi: *Bizdin burun tarix aytqanlar arabiy lug'atlarn? qoshub tururlar*

(Sh.tar). Ko'plikni aniq ifodalash uchun ba'zan *-lar* qo'shib ishlatilgan: *Ul tirik bolg'ay erdi, bizlar o'luk* (ShN).

II shaxs ko'pligi – *siz, sizlar*. Siz olmoshi 2 shaxs birlik o'rnida qo'llanib, tinglovchiga nisbatan hurmatni bildiradi: *Sultan Ahmad beg sizni padshah ko'tarur* (BN). Siz olmoshi 2 shaxs birlik o'rnida qo'langani uchun unga *-lar* affiksini qo'shib ko'plik ifodalangan: *Sizlar qayd'ā kela-siz?* (BN).

III shaxs ko'pligi – *ular, alar, anlar*. XIII-XIV asrlarga oid manbalarda asosan *anlar* qo'llangan bo'lib, *alar, ular* shakllarining qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, ayrim manbalardagina uchraydi. XV-XVI asrlarga oid manbalarda asosan *alar* shakli qo'llangan, XVII-XIX asrlarga oid manbalarda esa *alar* bilan birga *anlar, ular* shakllarining qo'llanishi ancha faollashgan. Bunga sabab hududiy farqlanishdir. *Alar, anlar* shakllari asosan, Xorazmda, *ular* shakli esa asosan Qo'qon adabiy muhitida iste'molda bo'lgan. Bu hol adabiy tilda sheva xususiyatlarining aks etishidir. Eski o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan kishilik olmoshlarining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>men</i>	<i>biz, bizler</i>
II shaxs	<i>sen</i>	<i>siz, sizler (senler)</i>
III shaxs	<i>ul</i>	<i>ular, alar, anlar</i>

O'zlik olmoshi. Eski o'zbek tilida o'zlik olmoshi ma'nosida o'z so'zi qo'llangan. Bu olmoshning qo'llanishi, grammatik xususiyatlari bo'yicha hozirgi o'zbek tili bilan eski o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. O'z olmoshi eski o'zbek tilida aniqlovchi vazifasida qo'llanadi, otlar kabi egalik qo'shimchalarini qabul qiladi va kelishiklar bilan turlanadi. Masalan: *O'z elini talab, ... olja q'āurlar* (BN).

O'z olmoshining egalik affiksi bilan qo'llanishi quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>o'zum, o'zim</i>	<i>o'zumiz, o'zimiz</i>
II shaxs	<i>o'zū, o'zi</i>	<i>o'zūiz, o'ziiz</i>
III shaxs	<i>o'zi</i>	<i>o'zla'ri</i>

O'z olmoshiga kelishik qo'shimchalari bevosita emas, balki egalik affikslari orqali qo'shiladi: *o'zūmni // o'zimni, o'zūmni // o'zimni, o'zūmga // o'zimga* kabi.

Ko'rsatish olmoshlari. Eski o'zbek tilida ko'rsatish olmoshlarining asosan *bu, ul (u), ushbu, oshul, oshal, shul* shakllari qo'llangan. Ko'rsatish olmoshlarining bir guruhi tuzilishiga ko'ra sodda, boshqalari murakkab shakllardan iborat. Murakkab shakllar bu yoki ul ko'rsatish olmoshi bilan *ush (osh)* ta'kid yuklamasining birikuvidan tashkil topgan olmoshlardir.

Ush yuklamasi tarixan «mana», «manna shu», «manna bu», «xuddi», «xudi shu», «shunday» kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z sifatida mustaqil qo'llangan. Masalan: *Ush qarindashi Abbas iman keltürdi* (NF). *Ush xush raygan keldi* (Sakkokiy).

Bu ko'rsatish olmoshi nutq paytida mavjud bo'lgan, so'zlovchiga masofa jihatdan yaqin bo'lgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani ko'rsatadi: *Ko'chub bu yerga kelalim* (QR). *Bu baytni oqubdur* (Navoi, MN). Bu olmoshi kelishiklar bilan turlanganda tarkibidagi *b* undoshi *m* ga o'tadi, makon-zamon kelishiklari oldidan *n* undoshi orttiriladi: *bu – muni // munu, muni, muja* kabi. Masalan: *Mun? q'ānamaq kerak* (QR). *Ne q'ādm munda* (ShN).

Bul olmoshi *bu* va *ul* ko'rsatish olmoshlarining birikuvidan tashkil topgan. Ma'no jihatdan *bu* olmoshiga o'xshaydi. *Bul* olmoshining qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, asosan XIX asrga oid manbalarda uchraydi: *Bul so'zni tafsilini «Silsilatuz zahhab»dā tap* (Gulxaniy). *Agar bul tariqa bolsa, ...* (Furqat).

Ul ko'rsatish olmoshi kishilik olmoshining 3 shaxs birligi bilan shaklan o'xshash. *Ul* ko'rsatish olmoshi ma'nosi jihatdan *bu* ko'rsatish olmoshiga qarama-qarshi bo'lib, vaqt va masofa jihatdan so'zlovchidan uzoq bo'lgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani ko'rsatadi: *G'amza birla to'kti qanān ul sanam* (Lutfiy). *Ul kishini og'lanlar?...* (Sh.tar.).

Ushbu, shul, shu, *hamin* ko'rsatish olmoshlari ma'no jihatdan o'xshash. Bular nutq paytida mavjud bo'lgan, so'zlovchiga masofa jihatdan yaqin bo'lgan predmet, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab, alohida ko'rsatishda qo'llanadi. Masalan: *Ayd'ushbu so'zni* (Tafsir). *Shul yigit erdi* (Tafsir). *Shu majlisda hazir-nazir tururlar* (Gulxaniy). *Bale yalg'uz hamin alamda sen-sen* (Lutfiy). *Oshul, oshal, osha, oshu* shakllari ma'no jihatdan bir guruhni tashkil etadi. Bu olmoshlar nutq paytida mavjud bo'lmagan, so'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan yoki masofa jihatdan uzoq bo'lgan narsa, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab, ajratib ko'rsatadi. Masalan: *Oshul kun kim, seni xaliq yaratt?* (MN). *Oshal kun kim, seni yazdan yaratt?* (MN). *Osha üstiında toñ taqı muz bar turur* (O'N). *Kenä Oshu yig'achniñ tübindä turdı* (O'N). *Hamul*

olmoshi oldindan ma'lum narsani shaxsni ta'kidlab, ajratib ko'rsatish ma'nosida qo'llangan: *Menä hamul yigit kerakdur* (BV).

Ko'rsatish olmoshlariga yaqin turuvchi *ana, muna (mana)* so'zlari kam qo'llangan. *Muna aldinizda bara turur* (Sh.turk).

So'roq olmoshlari. Eski o'zbek tilida qo'llangan so'roq olmoshlari katta guruhni tashkil etib, tuzilish jihatdan tub yoki tarkibli so'zlardan iborat. Tub so'roq olmoshlari *kim, ne // na* so'zlaridir. Tarkibli so'roq olmoshlarining bir guruhi *ne // na* so'roq olmoshi asosida paydo bo'lgan: *nega, nedin, nechun, nevchun, nechuk, neluk, netak, nek, negu (nag'u), neshu, necha* kabilar. Qadimgi *qay // qan* so'roq olmoshi *qayu, qaysi, qayda // qanda // qayuda, qaydän // qandän // qayudän (qaydan / qandan)* *qayan, qan, qachan, qancha* tarkibli olmoshlariga asos bo'lgan. Misollar: *Fikr qä, mulkn? kim alg'usädur?* (ShN). *Ne bilur-sen xastalarnıñ nahidin?* (Lutfiy). *Meni nega qäñay-san?* (Sh.turk). *Nechun aytur erdiniz anı kim, qılmaz ermishtiniz?* (Tafis). *Ne uchun erkanin bilmas* (Navoiy, SS). *Yusufn? nechuk bo'rigä yedürdün?* (QR). *Netak* (qanday? Qanday qilib? ma'nosida): *Yazuqsä urmaq netak bolur?* (NF). *Neluk bashäng'a tupraq qoymag'aym?* (XSh). *Chun uch falaqdakän bilur-sen / nek bilmedin, o'z evunda kim bar?* (Saroyi). *Ya qarabash, nag'u hal tushdi?* (Tafsir). *Necha bu ish mazlumlarg'a sanchäg'ay?* (Navoiy, MQ). *Qayu qush havada uchsa, ...* (QR). *Ko'räli, qaysımız yeñär axir* (Lutfiy). *Habil qayda turur?* (QR). *Harmasunlar, qaydän kelurlar?* (Gulxaniy). *Ya Fatima, qan? Hasan, Husayn?* (NF). *Adashgan it kebi, Furqat, qayn barg'um bilmasmen* (Furqat). *Ey adib, qancha barur-sen?* (NF). *Qachan halak qäg'ay?* (QR) kabi.

Birgalik olmoshlari. Eski o'zbek tilida birgalik olmoshi ma'nosida *barcha, bar, barlär, qamug', hamma (hama), jumla, tamam, jam'e, ba'zi* so'zlari ishlatilgan. Eski o'zbek tilida qo'llangan birgalik olmoshlarining bir guruhi asli turkiy, boshqalari forscha yoki arabcha so'zlardan iborat. Masalan: *Barcha tapäur bizga, vale yar tapämas* (Lutfiy). *Barän? basä erdi suran* (ShN). *Shaharn? barlär el berkitadi* (ShN). *Agar qahrıng'a üchräsä, gada bolur qamug' shahlar* (Sakkokiy). *Qatında yer opärlär jumla shahlar* (MN). *Tamamän ulus bashädän qäd? daf* (Navoiy, SI). *Jam'e balag'a ikki yuz yigirma besh sabaq berilür* (Furqat). *Seksän muñnıñ hamması* (BN). *Ba'zi* (butunning, umumning, to'daning qismi ma'nosida) so'zi: *Ba'zi aymäklar* (Tafsir). *Ba'zi shuara ki, ...* (Gulxaniy) kabi.

Belgilash olmoshlari. Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi kabi belgilash olmoshlarining sodda va murakkab shakllari iste'molda bo'lgan. Sodda shakli – *har*. Murakkab shakllari esa *har* so'ziga so'roq olmoshlaridan birini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi: *har nima, har qaysi harna // harna (<har+ne // har+na), tekma* kabi.

Har belgilash olmoshi narsa, shaxs, voqea-hodisani yoki belgini ajratib ko'rsatadi. Masalan: *Har yä an? xazana qäg'aylar* (Navoiy, SS). *Har kishi o'z yerida bold? xan* (ShN). *Tekma* belgilash olmoshi asli turkiy bo'lib, XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklarda ancha keng iste'molda bo'lgan. Bu olmosh ma'no jihatdan *har* olmoshiga o'xshaydi. Masalan: *Anıñ tekma ko'rki bold? elda mashhur* (XSh). *Taq? tekmalari o'jindä birär etmäk qoyd?* (NF).

Har kim, har nima, har qaysi shakllari: *Har kim aña jahd qämäh ersa, ...* (Tafsir). *Har nimaga ehtiyaj bolsa, beglardin tilar edi* (BN). *Har qays? harakat andän sadä olsa, ...* (Gulxaniy).

Harne // harna shakli: *Nazik kishidin harna kelur, yaxsh? ko'runur* (Lutfiy). *Dedilar: harna qäur-siz, qılınız* (ShN).

Har necha, har qancha, har nechuk, har qachan, har qayda, har qayan shakllari ravishga yaqin bo'lib, miqdor, payt yoki o'rin ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatadi: *Har necha sa'y qädälar, atlanduralmadälar* (BN). *Har qancha qalän desa tapäur* (Gulxaniy). *Har nechuk bolsa, quruld? majlis* (ShN). *Har qachan og'ul-ushaqınız ko'p bolsa, ul yerläрни yurt qilib olturun* (Sh.tar.). *Ma'mur bolur adl ila har qayda vilayat, ...* (Lutfiy). *Har qayan xatiri istar, barsun* (ShN).

Gumon olmoshlari. Eski o'zbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari iste'molda bo'lgan: *kimsa, kimsa (kimarsa), nimsa, neersa, biragu, birav, falan*. Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qo'llanadi, ba'zilar *har* ikkala ma'noda ham ishlatiladi. Masalan: *Seniñ birlä kimsä bar-mu?* (Tafsir). *Kimsege anda istiqamat emas* (Navoiy, SS). *Kimsä kim, seña egri ko'ñul tutar bu qadar...* (Sakkokiy). *Birägü yoldän ashayän, teb keldi* (QR). *Rozg'ardın soñ birägüni buldı* (QR). *Biräv undag' dedi, biräv mundag' (Muqimiy).* *Atlar uchun neersalar tapmaydur* (BN). *Meni qoläng'a... g'ayri mukarrar nimarsalar tushdi* (Furqat). *Derlar: falan falang'a ashä bolubtur* (Navoiy, MQ).

Bo'lishsizlik olmoshlari. Eski o'zbek tilida ham bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab shakllardan iborat. Sodda shaklini *hech* so'zi tashkil qiladi. Murakkab shakllari *hech* so'ziga so'roq olmoshlaridan yo gumon olmoshlaridan birining yoki *narsa* so'zining birikishi asosida hosil bo'ladi: *hech kim, hech kimsa, hech kimarsa, hech nimsa, hech narsa, hech qaysi*. Masalan: *Havasınıñ*

hech nisbatı yoqtur (BN). Hech munasib kishi tapmaduq (Sh.turk). Hech kimgä fayda va asar anıñ so'zi qılmag'ay (Navoiy, MQ). Hech kimsägä dunyada anıñ azabı kebi azab yetmägäy (Tafsir). Hech kimärsä ul mushk ichında suvn? ko'rmasa, ...(NF). Hech kimersäniñ seniñ birlä ishi yoq turur (Tafsir). Hech nimaga ixtiyarın yoq turur (Navoiy, MQ). Hech narsan? mushrik qılmasunlar (Tafsir). Men sendin hech nimarsa alg'anın yoq (Furqat). Hech ishka va hech qays? so'zga qarar qıla almaydurlar (BN). Padshah hech qaysıg'a rag'bat qılmas edi (Gulxaniy) kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasrõov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdin jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

21-mavzu: Fe'l. Fe'lning grammatik aspektlari

Reja:

1. Eski o'zbek tilida fe'l.
2. Fe'lning grammatik aspektlari.

Eski o'zbek tilida fe'lning o'ziga xos belgilarini quyidagi grammatik kategoriyalar tashkil etadi: fe'l aspektlari, fe'l darajalari, fe'lning funksional shakllari (harakat nomlari, sifatdash, ravishdash), fe'llarda tuslanish (mayl, zamon, shaxs-son shakllari).

Fe'l aspektlari. Eski o'zbek tilida fe'l turkumidagi so'zlar quyidagi to'rt aspektdan birida qo'llangan: *bo'lishli va bo'lishsizlik, mumkinlik (imkon) va nomumkinlik.*

Fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik aspektlarining ifodalanishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Ya'ni, eski o'zbek tilida ham fe'lning bo'lishli shakli uchun hech qanday qo'shimcha orttirilmaydi: *bar-, keltur-, ko'rsat-* kabi. Bo'lishsizlik aspekti *-ma / -ma* affiksi bilan hosil bo'ladi: *barma-, kelturma-, ko'rsatma-* kabi. Shu bilan birga ayrim fe'l shakllarining bo'lishsizlik aspekti *ermas (emas)* yoki *yoq* so'zi yordamida ham ifodalanadi. Qiyoslang: *barmag'an // barg'an ermas // barg'ani yoq, barmamsh // barmsh ermas // barmsh?yoq.*

Fe'lning mumkinlik aspekti murakkab shakl yo'l bilan, ya'ni asosiy fe'lning *-a / -e (y)* affiksli ravishdash shakliga *al-* fe'li qo'shilishi orqali ifodalanadi: *bara al-, ko'ra al-, ishlay al-* kabi.

Fe'lning nomumkinlik aspekti uchun *al-* va *bil-* fe'llari ishtirokida hosil bo'luvchi murakkab shakllar qo'llangan bo'lib, ularning tuzilishi quyidagicha:

1. Asosiy fe'l *-a/-a(y)* affiksi ravishdash shaklida, *al-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*alma-*) keladi: *Seniñ yayıñni hech kim tarta almas* (Lutfiy).

2. Asosiy fe'l *-a/-a (y)* affiksli ravishdash shaklida, *bil-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*bilme-*) keladi: *Tuta bilman o'zumni (XSh). Sag'ında tura bilmas-men* (QR).

3. Asosiy fe'l *-u/-u (yu/yu)* affiksli ravishdash shaklida, *bil-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*bilma-*) keladi: *Aja qarshu turu bilmädi (QR). Anlar kirü bilmädilär* (NF).

Fe'lning funksional shakllari. Harakat nomlari, sifatdash va ravishdash fe'lning funksional shakllaridir. Fe'lning funksional shakllarida, bir tomondan, fe'lga xos belgilar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari bo'yicha bu shakllar boshqa so'z turkumlariga yaqin turadi. Bunda harakat nomlari otga, sifatdash sifatga, ravishdash ravishga yaqin turadi.

Harakat nomi shakllari. Eski o'zbek tilida harakat nomining *-maq / -mak* va *-sh (-sh / -ish, -ush / -ush)* affikslari bilan hosil bo'luvchi shakllari qo'llangan.

-maq / -mak affiksli shakli harakat nomining asosiy ko'rsatkichi sifatida eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan.

Egalik affiksi va jo'nalish kelishigining *-a/-a* affiksi qo'shilganda *-maq/-mak* affiksi oxiridagi undoshlar o'zgarishga uchraydi: *barmag'ın (barmaq+ın), kelmagim (kelmak+im); barmag'a (barmaq+a), kelmaga (kelmak+a)* kabi.

-maq / -mak affiksining bo'lishsiz shakli fe'lning *-ma/-ma* affiksi bo'lishsiz shakliga *-maq/-mak* qo'shilishi bilan yasaluvchi *barmamaq (bar+ma+maq)* shakli orqali hamda sifatdashning *-mas/-mas* affiksli bo'lishsiz shakliga *-lq/-lik* qo'shilishi bilan yasaluvchi *barmas'lq (bar+mas+lq)* shakli orqali ifodalanadi.

Harakat nomining *-sh* (*-ʒh/-ish, -ush/-ush*) affiksli shakli eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklarda uchraydi. Bu shakl grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifasi jihatdan *-maq/-mak* affiksli harakat nomiga o'xshaydi. Lekin *-sh* affiksli harakat nomida otlik xususiyati kuchliroq. Qiyoslang: *Agar ko'k uzra xud bolsa turushum // malik hukmida bolg'ay olturushum (XSh). Chun alarni kelishini kordim (ShN).*

Sifatdosh shakllari. Sifatdosh shakllarida harakat ma'nosi bilan birga grammatik zamon ma'nosi ham mavjud bo'lib, bu hol sifatdosh shakllarining harakat nomi shakllaridan farqlovchi asosiy belgisini tashkil etadi. Eski o'zbek tilida qo'llangan sifatdosh shakllarini zamon nuqtayi nazaridan quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) o'tgan zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari: *-mʒh/-mish, -duq/-duk// -tuq/-tuk, -g'an/-gan // -qan/-kan, -an/-an*. Misollar: *Og'urlanmʒh gavhar gan-j? buzuld? (XSh). Bu kelmishlari uchun qurla erdi (QR). Bardʒm, ko'rmaduk yerlar ko'rdum (QR). Axʒta aytuqʒmʒn? ham eshitur (Tafsir). Qattʒq aqq'an suv ko'pruklar yʒar (XSh).* 2) hozirgi va kelasi zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari: *-r (ar/-ar// -ur/-r), -g'u/-gu// -qu/-ku, -g'uchʒ/-guchi// -quchʒ/-kuchi, -dachʒ/-dachi// -tachʒ/-tachi, -g'lʒ/-gli, -adurg'an/-adurgan (yidurg'an/yidurgan), -asʒ/-asi, -g'ur/-gur* kabi. Masalan: *Aytur so'znit ayt, aytmas so'zdin qayt (Navoiy, MQ). Maryamni qarni achdi, yegü narsa tiledi (Tafsir). Oshul tag'qazg'uchi Farhadni ko'rsün (XSh). Keldächi gunahlarni avf qilg'ay (Tafsir). Menä rahm qilg'li kishi yoq (QR). Kabul'din küch keladurgan jihatʒʒ Sultang'a qoshula almaydurlar (BN). Kelasi mehnat tashvishi bilan... (Saroyi). Otqa tüşküir bu ko'ñüldür Lutfiyn? xar aylagen (Lutfiy).*

Ravishdosh shakllari. Ravishdosh shaklidagi fe'l boshqa fe'lga, asosan, tuslanuvchi fe'lga bog'lanib keladi va o'zi bog'langan fe'ldan anglashilgan ish-harakatning belgisini, bajarilish holatini bildiradi. Shuning uchun ham ravishdosh shaklidagi fe'l gapda hol vazifasida keladi va o'zi bog'lanib kelgan fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishidagi holat, sabab, payt, maqsad kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ravishdoshning birlamchi (sodda) shakllari ergash gapning kesimi vazifasida ham keladi, fe'l zamonlarini hosil qilishda ishtirok etadi, ko'makchi fe'llar bilan birikib turli ma'nodagi birikmalarni hosil qiladi va hokazo. Ravishdosh shaklini yasovchi affikslar eski o'zbek tilida ham tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) sodda affikslar (birlamchi shakllar): *-b, -a/-a, -u/-u*. Masalan: *Sachʒ qarʒ? qavala, pul ko'tarib istayub mansab (Muqimiy). Ibrahim ko'ra kaldi (QR). Tamasha eylayu bolsun xiramni (Navoiy, FSh).* 2) qo'shma affikslar: *-ban/-ban, -may/-may (-mayʒ/-mayin-madʒ/-madin), -g'alʒ/-gali// -qalʒ/-kali, -g'ach/-gach// -qach/-kach, -g'uncha/-guncha// -quncha/-kuncha, -mʒhcha/-mishcha, -duqcha/-dukcha, -g'anča/-ganča* kabi. Misollar: *Tartiban anı seǵa yetküiräy (Bobur). Aña ag'a bilmädin qazuqlar yand'lar (QR). Ranj chekmayin ganj bolmas (Saroyi). Bard? bermay sharbat vasl'ʒ bu xasta Lutfiyg'a (Lutfiy). Isfandiyar xan yurt alg'al? bir y' bold? (Sh.turk). Yer o'pkach aytu bashlad? javabin (XSh). Ey nava'iy, bil ki, tañ atquncha yig'lar har kechä (Navoiy, G'S). Ta kelgäniñchä äylär bezar, araba qursun (Muqimiy).*

Fe'l tuslanishi. Fe'lning grammatik belgisi tuslanishdir. Tuslanish esa mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalarini o'z ichiga oladi.

Mayl va zamon. Eski o'zbek tilidagi fe'l mayllari quyidagi uch turga bo'linadi: *buyruq-istak mayli, shart mayli, aniqlik mayli.*

Buyruq-istak maylining I shaxs birlik shakllari *-g'ay* affiksli *alg'ay-men* turidagi shakldan rivojlangan. Masalan: *alg'ay-men > alg'ay(m)ʒ > alg'ayʒ > alayʒ > alay* (hoz.o'zb.t.da *olay*). Fe'l mayllari va zamonlari ma'no va shakl jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi kategoriyalar bo'lib, ularning chegaralanishi, fe'l mayllarining mustaqil grammatik kategoriya sifatida shakllanishi turkiy tillar taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlaridan boshlangan va bu jarayon ayrim turkiy tillarda hozir ham davom etmoqda.

Shaxs-son shakllari. Fe'l mayllari va zamonlarining gapdagi vazifasi shaxs-son affikslari orqali reallashadi. Eski o'zbek tilida qo'llangan shaxs-son affikslarini shaklan ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) *shaxs-son affikslarining to'la shakllari*; 2) *shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari*.

1. Shaxs-son affikslarining to'la shakllari (ba'zi farqlar bor):

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-men	-miz, -biz (-muz, -vuz)
II shaxs	-sen	siz (la'r)
III shaxs	-	-lar/-la'r

2. Shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari (hozirgi o'zbek tili bilan o'xshash):

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	-m	-q/-k (-uz/-u'z/=ʒ/-iz)
II shaxs	-	-ʒʒ -ʒiz// -ʒuz/ʒüz (-lar/la'r)

III shaxs (-sʻʻsi -lar/-laʻr (-larʻʻlaʻri))

Buyruq-istak mayli shakllarining har birida ham istak, ham buyruq maʼnolari mavjud. Buyruq-istak mayli affiksleri:

	Birlik	Koʻplik
I shaxs	1.-ayʻʻn/-aʻyin... 2.-ayʻ/-aʻy(-y) 3.-ayʻʻn/-aʻyim 4.-gʻayʻʻn/-gaʻyin 5.-gʻayʻʻn/-gaʻyin	1.-alʻʻaʻli... 2.-alʻʻn/-aʻliʻ 3.-alʻʻn/-aʻlim 4.-gʻalʻʻn/-gaʻlim 5.-gʻalʻʻn/-gaʻliʻ
II shaxs	1.-gʻʻʻ/-gil/-qʻʻ/-kil 2.-gʻʻʻ/-gin/-qʻʻ/-kin 3.(nol koʻrsatkich) 4.-y(-uʻ)	1.-iʻʻ/-iʻʻ 2.-iʻʻz/-iʻʻz 3.-iʻʻlar/-iʻʻlaʻr 4.-iʻʻzlar/-iʻʻzlaʻr
III shaxs	1.-sun/-suʻn...(-sʻʻn/-sin) 2.-dik (-tik)	1.-sunlar/-suʻnlaʻr (-sʻʻlar/-sinlaʻr) 2.-diklaʻr (-tiklaʻr)

Misollar: Men evumga barayʻʻn (QR). Bu baladʻʻn seni qutqaray (Navoiy, MQ). Men seʻʻa anʻ aytmayin (Tafsir). Biz seʻʻa oʻkush mal berʻʻliʻ (Tafsir). Koʻchub bu yerga kelʻʻlim (QR). Har kishi kelsa, koʻrʻʻlik anʻ (ShN). Meni bu baladʻʻn qutqargʻʻl (Tafsir). Salamʻʻizni tark etmay turʻʻ (Muqimiy). Tagʻ qoparʻʻiz yasagʻʻanda mazar (Lutfiy). Alsun, kelsun.

Shart mayli. Bu shakl eski oʻzbek tilida -sa/-sa shaklida qoʻllangan: barsa, kelsa kabi. Masalan: Ne bolgʻʻay, kadxuda bolsʻʻnʻlar (Sh.tar.). Agar on kun oʻgraʻtib oltursa, tili oʻgrulmas (Sh.turk). Yaqʻʻn keldimsa, kuyʻʻrdʻʻn tan-u jan (XSh). Gar jan tilar ersʻʻn, yetʻʻ koʻrgil burun andʻʻn (Lutfiy).

Aniqlik mayli. Eski oʻzbek tilida aniqlik maylida uchala zamon mavjud: oʻtgan zamon, hozirgi zamon (hozirgi-kelasi zamon), kelasi zamon.

Oʻtgan zamon. Bu zamon shakli eski oʻzbek tilida koʻp shaklli boʻlib, ular maʼnosi va qoʻllanishiga koʻra oʻziga xos xususiyatlarga ega. Tuzilishiga koʻra dastlab ikki guruhga boʻlinadi: 1) oʻtgan zamon feʼlining sodda shakllari; 2) oʻtgan zamon feʼlining murakkab shakllari.

1. Oʻtgan zamon feʼlining sodda shakllari. Eski oʻzbek tilida OʻZ feʼlining -dʻʻ-di/-tʻʻ-ti, -mʻʻh/-mish, -gʻʻan/-gan/-qan/-kan, -b (-b/-ib/-ub/-ub) affiksleri bilan hosil boʻluvchi sodda shakllari amalda boʻlgan. Masalan: Elchi bu soʻzlarni barchasini aytdʻʻ (Sh.tar.). Furqatʻʻdʻʻn bolmʻʻsham zar-u zaif (Lutfiy). Tushkanidin xabar etkandurlar (ShN). Mena atam bu balʻʻnʻberib turur (OʻN). Biz kalduk kabi.

2. Oʻtgan zamon feʼlining murakkab shakllari. Eski oʻzbek tilida feʼlining bu shakllari feʼlining zamon maʼnosini anglatuvchi sodda shakllarga toʻliqsiz feʼl qoʻshilishi bilan hosil boʻladi. Toʻliqsiz feʼl eski oʻzbek tilida er- yoki e- shaklida qoʻllangan. Oʻtgan zamon feʼlining EOʻTda qoʻllangan shakllari: -mʻʻh+erdi, -dʻʻ+erdi, -duq+erdi, -gʻʻan+erdi, -b+turur+erdi // -b+dur+erdi // -b+erdi, -a+turur+erdi // -a+dur+erdi // -a+erdi, -r+erdi (mas+erdi), -gʻʻay+erdi. Masalan: bagʻʻ izisi yemish algʻʻalʻkelmish erdi, bularnʻ koʻrdi (QR). Lek mendin ketmish erdi aql-u xush...(Furqat). Telim ranj birla tapdʻʻn erdi ul ganj...(XSh). Madina elin ranjur qʻʻduq erdi, andin bir ogʻʻlannʻanda qoydʻʻ (Tafsir). Hech chapqunda muncha qoy tushmabtur edi (BN). Kozlarimdin aqadur yash // xatirimgʻʻa yaqadur erdi yash (ShN). Ata agʻʻasʻʻnʻumidvarlʻʻ bar jihatʻʻn darang qʻʻur erdi (BN). Xat bolmasa, bolgʻʻay erdi nabud (Munis).

Hozirgi zamon. Hozirgi zamon maʼnosini ifodalovchi shakllar va ularning hosil boʻlish usullari boʻyicha eski oʻzbek tili bilan hozirgi oʻzbek tili oʻrtasida maʼlum oʻzgachaliklar mavjud. Eski oʻzbek tilida hozirgi zamon maʼnosida -a/-a(y) affiksli ravishdosh asosida hosil boʻluvchi shakllar va -r (-mas) affiksli hozirgi-kelasi zamon shakli qoʻllangan. Masalan: Sharbati ichmay turur sahib nazarlar jamʻʻnʻ (Atoiy). Toʻkadiir qanimni har dam koʻzlarini baqib turub (Navoiy, ML). Neche yildin beri siz - xalqni tuzin yeyub yurur men (Sh.turk). Qizilbash vilayatinin ichinda olturub-miz (Sh.turk).

Hozirgi-kelasi zamon. Oʻzbek tilida hozirgi-kelasi zamon feʼli -r (-ar / -ar, -ur / -ur) affiksli sifatosh asosida hosil boʻlgan. Masalan: Ne tilar-sen? (QR). Salsan nazarnʻ oʻzga sanamlar jamalʻʻnʻ (Atoiy).

Kelasi zamon. EOʻTda kelasi zamon feʼlini asosan -gʻʻu / -gu va -gʻʻay / -gay affiksli shakllar tashkil etadi. Shuningdek, -r affiksli alur-men tarzidagi hozirgi-kelasi zamon feʼli, baʻzan ala turur men // aladur-men // ala-men tarzidagi hozirgi zamon shakllari ham qoʻllangan. Bulardan tashqari, ayrim manbalarda kelasi zamon feʼlining -asʻʻ-asi, -ʻʻsar/-isar, -ajaq/-ajak affiksli shakllari ham istemolda boʻlgan. Masalan: Labi laʻli erur dardʻʻn davisʻʻ // bu dardʻʻngʻʻa dava mushkil bolasʻʻ (LN). Minnat koʻturub tirilgan er xar oʻlisar (Saroyi). Gulshani bazmim ara zulfi samana kelajak // agʻʻzʻgʻʻuncha, yuzi gul, qamatʻʻzeba kelajak (Komil Xorazmiy). Bashlagʻʻusʻʻdurur meni tashvish-u gʻʻam sarʻʻ (Atoiy). Har kishi kim, biravga qazgʻʻay chah // tushkay ul chah ara oʻzi naghah (Navoiy, SS).

Fe'l yasalishi. EO'Tda fe'l yasalishining quyidagi ikki usuli amalda bo'lgan: 1) morfologik usul (affiksatsiya); 2) sintaktik usul (kompozitsiya).

1. *Sintaktik usul bilan yasalgan fe'llar* qismlarining qaysi so'z turkumiga aloqador ekanligi, ma'nosi, boglanish yo'llariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Birinchi guruhni ot (yoki ot turkumidagi so'zlar) + yordamchi fe'l tarzidagi qo'shma fe'llar tashkil etadi: *qabul qild?// qabul ett? tamam bold?kabi.*

Ikkinchi guruhni fe'l + fe'l tarzidagi murakab shakllar tashkil etadi. Bunday fe'llar *-b (-b / -ib // -ub / -ub)* affiksli yoki *-a / -a (y), -u / -u (yu/yo)* affiksli ravishdoshga ko'makchi fe'l yoki ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi fe'l qo'shilishi bilan hosil bo'ladi: *kirib keldi, qachb ketti, alb qald?, uzab ald?, ayto berdi, so'zdayu boshlad?, kela boshlad?kabi.*

2. *Morfologik usul* bilan fe'l bo'lmagan so'zlarga maxsus affikslar qo'shilishi bilan yangi fe'llar hosil bo'ladi. **Mahsulдор affikslar:** *-la / -la, -lan / -lan, -lash / -lash, -da / -da (-ta / -ta), -a / -a, -r (-ar / -ar).* Misollar: *Toylad? an?yu mehman qild? (ShN). Atland? (ShN). So'zlashti (BN). Qoldad? va tovbha hidayat?a yoldad? (Navoiy, MQ). Tunadi lashkar anda (ShN). Bashm aqard? (Atoiy). Kammahsul affikslar:* *-ay / -ay, -g'ar / -gar // -qar / -kar, -? / -ik // -uk / -uk, -it / -ut / -at, -s? / -sin // -sun / -sun (-su / -su), -sa / -sa, -al / -al (-ul / -ul), -ra, -g'a, ash. Masalan: Bu og'ul ulg'aydi (NF). Meni bilä...yag'iqmish bolg'aylar (BN). Oshn? berkittilar (BN). Bahas? o'g'simaz, turmshcha artar (XSh). Dilraba, ab? hayyat ernin, üchün jan suvsadi (Lutfiy). Seni ishqinda Xorazmiy yoqaldi (MN).*

Fe'l darajalari. EO'Tda fe'l darajalarining quyidagi turlari mavjud bo'lgan: *bosh daraja, o'zlik daraja, majhul daraja, birgalik daraja, orttirma daraja.*

Fe'lning *bosh darajasi* morfologik ko'rsatkichga ega emas. Boshqa daraja shakllari bosh darajadagi fe'llarga maxsus affikslar orttirilishi bilan hosil bo'ladi.

O'zlik daraja. Ko'rsatkichlari: *-n (-m / -in // -un / -un): Og'uz xang'a baq'hamad? (Sh.tar.).*

Majhul daraja: *-l (-l / -il // -ul / -ul): Urush-toqush boshlandi (O'N).*

Birgalik daraja: *-sh (-sh / -ish // -ush / -ush): Barchas?qol tutushub chiqdilar (ShN).*

Orttirma daraja: *-t (-t / -it // -ut / -ut), -ar / -er // -ur / ur, -tur / -tur // -dur / -dur, -g'ur / -gur // -qur / -kur (-qar / -kar), -g'uz / -guz (-gaz / -kaz), -tar / -ter, -uz / -uz // -z / -iz, -gut / -get, -set: Oxshatt? qamatug'a sanavbarni bag'ban (Navoiy, MN). Shaydal?qa bash chiqarur (Navoiy). Altun uyni tikturdi (Sh.tar.). Muradug'a yetkürsün (MN). Samarqand taxtig'a olturg'uzdilar (BN). Tamizdi, aqizdi, emizdi (Sanglah). Barchani aya ko'rgüteyin (Tafsir). Kemeni nechük yasarin ko'rsetdi (Sh.tar.).*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

22-mavzu: Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Undovlar

Reja:

1. EO'Tda yordamchi so'zlar
2. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning qo'llanishi.
3. Undov so'zlarning ishlatilishi.

Eski o'zbek tilida ham mustaqil so'zlar qatorida yordamchi so'zlar iste'molda bo'lgan. Yordamchi so'zlar gapda so'zlar va kelishiklar bilan birga qo'llanib, ularga qo'shimcha ma'no beradi, ularni birlashtirish yoki bog'lash uchun xizmat qiladi. Eski o'zbek tilida yordamchi so'zlardan ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar qo'llanilgan. Shuningdek, undov so'zlardan ham foydalanilgan.

Turkiy tillarda ko'makchilar mustaqil so'z turkumlaridan rivojlangan. Lekin mustaqil so'zlarning ko'makchilar turkumiga o'tishi uzoq davrlar davomida yuz beradi. Bunday so'zlar dastlab o'z ma'nosida qo'llanishi bilan birga, o'rni bilan ko'makchi vazifasini ham bajaradi. Davrlar o'tishi bilan ular o'zining mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchilar turkumiga o'tadi.

Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan ko'makchilar ham dastavval ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ko'makchilar; 2) funksional ko'makchilar.

Sof ko'makchilar. Sof ko'makchilarni mustaqil so'z turkumlaridan ajrab chiqqan, mustaqil qo'llanishi va leksik ma'nosini yo'qotgan so'zlar tashkil etadi.

Sof ko'makchilar turli kelishikdagi so'zlar bilan birga qo'llanib, kelishik ma'nosini aniqlashtiradi yoki unga qo'shimcha ma'no beradi, ba'zan esa kelishik vazifasini bajaradi. Eski o'zbek tilida ham sof ko'makchilarning ayrimlari bir xil kelishik bilan, ba'zilar esa turli kelishiklar bilan qo'llangan. Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan sof ko'makchilardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *uchun, birla (birlän, bilä, bilän), ilä, kibi // kebi, yanlig' (yanliq), bikin, üzrā (üzä), ichrā, sari, taba, tabaru, tägi, tegru (degru), say?// sayu // say'n kabilar*. Masalan: *Bu hikayat el uchundur bar?(ShN). Qäddär ittifaq ila chara (Navoiy, SS). Anuñ birlä qılır erdim tamasha (Furqat). Qılay majnun kibi ko'ñlümni hali (Navoiy, FSh). Yasanib chıqtı pari yanlig' bat (ShN). Yarattı ay bikin zeba seni haq (MN). Sunbul gul üza saya saläbdur-mu yaxud // har yan achäbdur-mu yuzun uzra qulala? (Munis). Men bu shahar ichra qäurmen manzil // yoqsa filhal chäqar-men hasil (ShN). Qayätär yana ul shahri sar?(XSh). Xan Jahangir taba azm etkach, ...(ShN). Ravan Mashhad tabaru tebradilar (XSh). Uch yäg'a tegru tahsil qäddän (Furqat). Seni ko'rgan say'n «allah» der-men (Lutfiy).*

Funksional ko'makchilar. Ayrim mustaqil so'zlar qo'llanish o'rniga qarab ko'makchi vazifasini ham bajaradi. Bunday so'zlarning ko'pchiligi ot turkumiga, ayrimlari ravish yoki fe'l turkumiga oid.

Funksional ko'makchilar qaysi so'z turkumiga aloqador bo'lishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) ot ko'makchilar; 2) ravish ko'makchilar; 3) fe'l ko'makchilar.

Ot ko'makchilar. Ot ko'makchilar quyidagi umumiy belgilarga ega: egalik affiksini qabul qiladi va zamon-makon kelishiklaridan birida keladi.

Ot ko'makchilarning ayrimlari faqat o'rin-payt kelishigi shaklida (*babäda, haqäda, barasäda, xususäda, vasilasäda* kabi), ba'zilar faqat chiqish kelishigi shaklida (*jihatädn* kabi) keladi, boshqalari zamon-makon kelishiklarining hamma shakllarida qo'llanadi (*aldäy'a // aldäda // aldädn, qashäy'a // qashäda // qashädän* kabi). Ot ko'makchilarining ko'pchiligi 3 shaxs egalik shaklida qo'llanadi, ayrimlari 1 va 2 shaxs egalik shaklida ham keladi. Eski o'zbek tilida qo'llangan ot ko'makchilar quyidagilar: *ald, yan, qash, qat, on, ich, ara, orta, üst, üsk, yüz, tepä (tübä), bash ast, alt, tüb, haq, bab* kabi. Misollar: *Kelmäs ediy bu Adam aldäy'a bilgäniñdä (Muqimiy). Bu Kesh yanında yana bir ko'sh ko'rdüm (NF). Devanın seniñ qashuñg'a keltürüb-biz (Navoiy, MN). Bolmamäh xan qatäda ul maqbul (ShN). Padshah onäda qozutt?(NF). Shah Malik el ichiga keldi (Sh.Tar.). Tushkay aramäda färaq (Navoiy, LT). Besh-alt? aynuñ arasinda tayriniñ inayati bilä ancha kishim boldı (BN). Naz ile kulbam ara kirsän, berür-men jan seğä (Munis). Kel, beniğab chıqqıl uyıñdın tam üstinä (Atoiy). Mussa yalavuch Fir'avn üskündin chıqdı (Tafsir). Xazl yuzudin bu baytn?aytädur (Navoiy, MN). Munar ul tag' tubasinga ashuqub, yuyuyu(XSh). Chah bashäda qoyd?bir kishini (Navoiy, SS). Yetmish-seksan kadxudalar tam astäy'a qaläb o'ldilar (BN). Mallariñız meniñ azaqım altında qaldı (NF). Suv tübindä oynar erdi yashrun (XSh). Ulus haqida mın qurla atadän mehriban (Sakkokiy). Samarqanddän qachä kelgan kishi babäda so'zlar bitilib erdi (Navoiy, Msh).*

Ravish-ko'makchilar. Eski o'zbek tilidagi ravish ko'makchilar chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, asosan payt ma'nosini ifodalaydi. Bunday ko'makchilarning ayrimlari eski o'zbek tilida ma'lum davrlargacha qo'llanib kelgan. Ravish ko'makchilar: *burun // burna, ilgärü // ilgäri, ashnu, o'ñ, keyin (kezin), soñ, soñra, beri (berü), nari (narü), otu, tashqari (tashqaru), ayru, bashqa, o'zgä, azän* kabi. Masalan: *Beglär javab bermäsdin burun og'lan aytdı (Sh.tar.). Jahandın ashnu mın qıldı xalq (MN). Tilämär erdi andın o'ñ yegäsi (XSh). Andın soñra Sultan Abusaid mirza aldi (BN). Bu ma'nidin otu alayhissalamg'a Mustafa at berildi (NF). Atas?yoländän tashqar?chämad?(Sh.tar.). Sendin ayru ne kerak bizga (ShN). Tamashadän azän hech ishlari yoq (XSh).*

Fe'l-ko'makchilar. EO'Tda -a/-a affiksli ravishdosh shaklidagi fe'llar qo'llanish o'rniga qarab ko'makchi vazifasini ham bajargan. Lekin bular juda kam sonli bo'lgan. Bular: *ko'ra (ko'r+a), yarasha (yarash+a), baqa (baq+a)* kabi. Masalan: *Anuñ qiymati javharäy'a ko'ra zahir bolur (Navoiy, ML). Qulläq-u iztirabda aña yarasha keräk bolg'ay (Navoiy, MQ). Tülküsi o'zgä yerniñ tülküsigä baqa yügürük bolur (BN).*

Bog'lovchilar. Bog'lovchilar ham boshqa yordamchi so'zlar kabi tarixan mustaqil so'zlardan rivojlangan. EO'Tdagi bog'lovchilar vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) teng bog'lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar. EO'Tda qo'llangan teng bog'lovchilar vazifasiga ko'ra a) biriktiruvchi bog'lovchilar: *va, -u (yu, -vu), ham, taq?// dag'?, yema, ma: Shahrdän chäq taq?qä xizmati xan (ShN). Bitidim ma yazdän bu bir qach so'zum (XSh); b) ayiruvchi bog'lovchilar*: *ya, gah (gahi), yaxud, xah (xahi): Xojas?ann?ya ul xojasän?azad qäbdur (Navoiy, MN). Gah yäy'lab, gah ahvalämg'a kulmisham asir (Muqimiy). Bilmen, ul maktub erür yaxud alifdur jan ara (Navoiy, Msh). Xah o'lin, xah qalın, bachchag'ar (Muqimiy); d) zidlovchi bog'lovchilar*: *lekin, valekin, lek, valek, vale, amma: Ashkara fitnadur, lekin qäur pinhan bala (Lutfiy). Ko'p jadal qıldım, valekin tapmadım bazmıñg'a yol (Furqat).*

Barcha tapilur bizgä, vale yar tapilmas (Lutfiy). Bizniñ ichimizdä «Og‘uznama» ko‘p turur, amma hech yaxshä?yoq (Sh.tar.). e) inkor bog‘lovchilari: ne...ne: ne keyin yanä, ne ilgari yurub, so‘zni bir yerga qoymay... kelurlar (BN).

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar. Eski o‘zbek tilida ergashtiruvchi bog‘lovchilaridan kim, ki, faol iste’molda bo‘lgan. Kim aslida turkiy bo‘lib, ki eron tillaridan o‘zlashtirilgan. Kim bog‘lovchisi turli ergash gaplarni bosh gap bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi: Ul tag‘larda rasmdur kim, tashlarda abyat...bitib qazurlar (BN). Bu pari so‘zda ko‘zguzur mojiz // kim q‘lur elni nuqtas?ajiz (Navoiy, SS).

Ki bog‘lovchisining yodgorliklarda qo‘llanishi XIII-XIV asrlardan boshlab uchraydi. Ki she’riy asarlarda ko‘proq qo‘llangan. Ki bog‘lovchisi ham ergash gaplarni bosh gap bilan boglash vazifasida qo‘llangan: Atayig‘a inayat q‘l ki, shahlar // sorarlar gahg‘gahi ham gadan?(Atoiy). Shuningdek, agar, agarche, garche, arche, garchand, garchand, harchand (kim), chun, chu, chunkim, chunke, ta, take, teb//deb, nechuk kim // nechuk ke, netek kim, nechun kim, nache kim, nege kim, uyla kim, andaq (andag‘) kim // andaq ke, anıñ üchün (kim), shuniñ üchün (kim), mabada, basharti, vagarna, varna, zerake, chunanchi, bavujudi, bavujudi kim, bavujudi ul kim kabilar ishlatilgan. Masalan: Agar menä baqsan‘z, o‘zünizni aldurur-siz (BN). Harchand daru q‘ld? sihat tapmad?(TN). Umid ul kim, chun darvish kishi erdi, ba’zi mustajab bolg‘ay (Navoiy, MN). Tiladuk kim, bu q‘sh ariyat bergay, ta anda olturub Samarqand vilayat‘g‘a elikdin kelgancha yurushgay-biz (BN). Balke, suvn?pak bolsun deban, eliki birla yuvur (Atoiy). Yalغان so‘z deguchi so‘zin bee’tibar q‘lur, nechun kim ul govharn?xazaf-dek xar q‘lur (Navoiy, MQ). Mast-men bu kecha, saq‘y, luf ilä oltür meni // varna qoysan‘ tanlaga, ranji xumar olt‘g‘us?(Muqimiy).

Yuklamalar. EO‘Tda iste’molda bo‘lgan yuklamalar tuzilishi va qo‘llanishi jihatdan ikki guruhga bo‘linadi: 1) bir guruh yuklamalar tuzilishiga ko‘ra affikslarga o‘xshab so‘zga qo‘shilib keladi va o‘zi qo‘shilib kelgan so‘zga yoki butun gapga qo‘shimcha ma’no yuklaydi; 2) yuklamalarning ikkinchi guruhi so‘z yoki gap oldidan kelib, mustaqil so‘z sifatida qo‘llanadi. Lekin bunday so‘zlar mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmasdan, gap mazmuniga qo‘shimcha ma’no beradi.

So‘zga qo‘shilib keladigan yuklamalar: -mu, -oq, -la, -g‘ha/-gina, -ch? / -chi: Dilraba, seňä kerakmas-mu savab? (Furqat). Toy bashlab keladur-la og‘luñ // g‘amn’tashlab kaladur-la og‘luñ (ShN).

Mustaqil so‘z sifatida qo‘llanadigan yuklamalar: -magar, kashka (kashke), shayad, balki (balkim), goya: Magar eli ani mayparast etkäy // razini anlag‘ay chu mast etkäy (Navoiy, SS). Ey kashkä bolsa erdi meni baxt-u davlat‘m (Muqimiy).

Undovlar. EO‘Tda undovlarning bir guruhi so‘zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, fikrni jalb etish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bular: ey (e), hay, aya, ya, ah, vah, vay, ey vay, ya rabb. Masalan: Barg‘il, ey zahid, seni sevmäs ko‘ñül (Munis). Aya ko‘rk ichra alam padishah?// jahan tutt? senıñ husnuñ sipah?(MN).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O‘rinboev B., Aliev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2008.
3. Nas‘rov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdıñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O‘zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

23-mavzu: Sintaksis. So‘z birikmasi va gap bo‘laklari

Reja:

1. Sintaksis haqida ma’lumot
2. So‘z birikmasi va uning ifodalanishi
3. Gap va gap bo‘laklari

Hozirgi o‘zbek tilining so‘z birikmalari, gap bo‘laklari, gap tuzilishi uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Shunisi muhimki, sintaksisdagi o‘zgarishlar ko‘pincha morfologiya va leksika tarkibida bo‘lgan o‘zgarishlar tufayli ro‘y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste’moldan chiqishi so‘zlarning boshqaruv munosabatini o‘zgartiradi va hol doirasini kengaytiradi. Sintaktik kategoriyalar tarixi o‘rganilar ekan, morfologik kategoriyalar taraqqiyotiga ham ahamiyat berish kerak. Shuningdek, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi yangi so‘z birikmalarini keltirib chiqaradi. Sintaksis taraqqiyotidagi yana bir omil – boshqa tillarning ta’siridir. Tarixda o‘zbek tiliga, ayniqsa, fors-tojik tilining ta’siri sezilarli

bo'lgan. Bu tilning ta'siri bilan yangi so'z birikmalari va ergash gaplar vujudga keladi, bog'lovchilarning qabul qilinishi bilan so'zlarni hamda gaplarni biriktirishning yangi usuli kelib chiqdi.

So'z birikmasi. So'z birikmalari (SB) ikki turli bo'ladi: tobe birikma va teng birikma.

Tobe birikmalar. Tobe birikmani tashkil etgan qismlarning biri tobe, ikkinchisi hokim so'z bo'ladi. Bu xil birikmalar uch xil sintaktik usul bilan tuziladi: bitishuv, boshqaruv, moslashuv.

Bitishuv. Bitishuv munosabatiga kirishgan so'zlar o'zaro hech qanday grammatik vositasiz birikadi. Sifat, son, ko'rsatish olmoshi, sifatdosh bilan ot va ot bilan ot, shuningdek, ravish yoki ravishdosh bilan fe'l va ot yoki olmosh bilan fe'l bitishuv aloqasiga kirishadi. Qadimgi va eski turkiy tilda bir otga bog'langan bitishuv munosabatidagi bo'laklar tarkib jihatdan soda – bir yoki ikki aniqlovchidangina iborat bo'ladi. EO'Tda esa bunday sifatlovchi bo'laklarning soni ham, tarkibi ham murakkablashadi: past *boyluq, bolma saqalliq, qoba yuzluk tanbal kishi* (Nad). Bunday murakkab tarkibli sifatlovchilar badiiy adabiyotda keng qo'llana boshlaydi. Ma'lum so'z shaklining yoki ma'lum shakl vazifasining o'zgarishi ham gap bo'laklari orasida sintaktik munosabatni o'zgartiradi. Masalan, *astu, ustin, keyin, yuqaru, tegra, chahla* kabi so'zlar vosita yoki jo'nalish kelishigi shaklida bo'lib, hokim so'z bilan boshqaruv munosabatlarida bo'lgan. Keyinroq bu kelishik shakllari o'z vazifasini yo'qotgach, hokim so'z bilan bitishuv munosabatiga kirishadi. Bu jarayon mazkur so'zlarda eski turkiy tildayoq ro'y bergan edi.

Boshqaruv. Hokim so'zning talabi bilan tobe so'z biror shaklda bo'lib, shu grammatik vosita orqali tobe so'z hokim so'zga bog'lanadi. Odatda, tobe so'z ot va ot ma'nosidagi so'zlardan, hokim so'z esa fe'l va ba'zan belgi bildiruvchi so'zlar yoki ko'makchilar bilan ifodalanadi. Til taraqqiyoti natijasida ana shu vositalar o'zgaradi, boshqa vositalar bilan almashadi, natijada tobe va hokim so'zning grammatik aloqa xususiyati ham o'zgara boshlaydi. Ko'makchilar orqali boshqarish qadimgi turkiy tilda mavjud edi. Hozirgi kunda ham ko'makchili boshqaruv saqlangan. Kelishikli boshqaruv eng mahsuldor usuldir. Bu usul bilan boshqarish kelishik shakllarining taraqqiyoti va ularni boshqargan so'zlarning ma'no taraqqiyotiga bog'liq. Kelishik affikslari orqali boshqarish usuli taraqqiyotida quyidagi hodisalarni ko'ramiz:

1. Vosita kelishigi *-n // -in // -u // -un // -un* / yordami bilan boshqarish qadimgi va eski turkiy tilda keng iste'molda bo'lib, bu kelishik EO'Tda XV asrning birinchi yarmigacha qo'llangan.

2. O'rta Osiyo turkiy tilda chiqish munosabatini ifodalash uchun maxsus *-dan // -tan, -du // -tu* qo'shimchalari qo'llana boshlaydi, EO'Tda bu vosita yordami bilangina chiqish munosabati ifodalanadi. Shunday qilib, til taraqqiyotida boshqaruv munosabatini ifodalash uchun yangi bir grammatik vosita o'z o'rnini egallaydi.

3. Tushum kelishigidagi so'zning keng vazifasi EO'Tdayoq chegaralanadi.

4. EO'Tga kelib, kelishiklarning qo'llanishi ma'lum darajada qat'iylasha bordi. Ko'p o'rinlarda tushum kelishigi qaratqich kelishigi vazifasini o'tagan: *bizni taba* (MK). Bu hol hozirgi o'zbek shevalariga ham xosdir.

Moslashuv. Shaxsdagi moslik. Ma'lum bir shaxsdagi moslik ega bilan kesim o'rtasida bo'ladi: ega qaysi shaxsda bo'lsa, unga mos holda kesim ham ana shu shaxsni ko'rsatadi. EO'Tda ega va kesimning III shaxs birlikda moslashishi *-k* affiksi orqali bo'ladi. Hozirgi zamon tilida bu shaxs *-(i)miz* shakli orqali moslashish Toshkent shevasida qo'llanadi. EO'Tda shart fe'li muntazam ravishda shaxs qo'shimchalarini oladi va ega bilan shaklan maslashadi.

EO'Tda *ol* III shaxs belgisi sifatida qo'llanmaydi. Ammo ba'zi hoz. zamon turkiy tillarida bu belgi saqlangan: Tatar: *Ul eshig ul*; boshqird: *Xasan yazus? ul*; Tuva; *mal xavuda chor ol* (Mol dalada o'tlayapti); turk: *ol tur ol*.

Ot kesimlarning III shaxs shakli va ravishdosh kesimlar *turur // durur* bog'lamasi orqali ham ega bilan moslashgan: *Sän mäniñ annam turur sän* (Sh.tar.). Sifatdosh kesimlarning ega bilan muntazam ravishda shaklan moslashishi, asosan, eski o'zbek tilidan boshlanadi. EO'Tda egalar *bilan* bog'lovchisi orqali birikib, uyushib kelganda ham, kesim unga mos holda ko'plikda qo'llanadi: *Qachan Adam birla Hava juft boldilar* (QR). Ega bilan kesimning shaklan moslashgan o'rinlarini ham ko'ramiz. Bu hol ko'proq ega shaxslarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda ro'y beradi: *Bizniñ el tayyar emäs ärdilär* (BN).

Turkiy izofa. Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvdir. Bunday munosabatda biror shaxs, predmet yoki tushunchaning boshqa bir shaxs, predmet yoki tushunchaga qarashliligi ko'rsatiladi. Ikki ot orasidagi bunday munosabat maxsus affikslar orqali ifodalanadi: tobe so'zda qaratqich kelishigi qo'shimchasi *-(niy)*, hokim so'zda egalik affikslari *-(i)m, -(i)ng, -(i)si; -(i)miz, -(i)ngiz, -(lar)i* bo'ladi: *sening kitobing, bizning uyimiz*.

Teng birikmalar. Teng birikmali so'z birikmalari va gaplarni teng bog'lovchilar va yuklamalar tashkil etadi.

Teng bog'lovchilarga biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor bog'lovchilari va yuklamalar kiradi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida ba'zi teng bog'lovchilar ishlatilmay qolib ketdi (*taq?, yema, ma, azu*), ma'lum davrlarda adabiy tilda boshqa bog'lovchilar qo'llana boshladi (*va, ham, yo, yoxud, goh* v.b.).

Gap bo'laklari. *Ega* – harakat, holat yoki belgi-xususiyat taalluqli bo'lgan tushunchani ifodalovchi gap bo'lagidir. *Ega* shaklan bosh kelishik shaklida bo'lgan so'zlar orqali ifodalanadi.

Eski va ayniqsa, qadimgi turkiy tilda *ega* jumlada ifodalanmaydi, ammo uning mavjudligi, qanday tushuncha ekanligi jumlaning umumiy mazmunidan bilinib turadi. Eganing qaysi shaxsga taalluqli ekani jumlaning umumiy mazmunidan anglashiladi yoki I yoki II shaxsga oid bo'lganda, kesimning shaxs ko'rsatuvchi shakllari orqali bilinib turadi. Bu xil qurilmalar EO'Tda juda kam uchraydi, hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi.

Ega I va II shaxsda ham ifodalanishi mumkin. Bunda eganing ma'nosi ta'kidlanadi, mantiqiy urg'u oladi.

Ega odatda ot, otlashgan so'z yoki olmosh orqali ifodalandi. Bu xususiyat hozirgi va eski davr tili uchun bir xildir. Eganing harakat nomlari va olmoshlar bilan ifodalanishi kamroq, ammo otlashgan so'zlar bilan ifodalanishi ko'proq uchraydi: *Uchagusu tun sarḡ'a bardīlar* (O'N). EO'Tda eganing aniqlovchili so'z birikmalari bilan kelgan murakkab shakllari ko'p uchraydi. Odatda, bunday murakkab aniqlovchilarni sifatdosh boshqaradi.

Ega odatda, ko'plik va egalik affiksleri bilan kelishi mumkin. Bunday shakllanish qadimgi va eski turkiy tilda kam uchraydi: *ko'b muranlar ko'b o'guzlar bar ardi* – *Ko'p soylar, ko'p daryolar bor edi* (O'N).

Kesim. Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Uning bu xususiyati ayniqsa qadimgi va eski turkiy tilda yaqqol ko'rinadi. Kesim hamma so'z turkumlari orqali ham ifodalanadi. Bu xususiyat har vaqt saqlanib kelgan.

Ot va ot ma'nosidagi so'z turkumlari bilan ifodalangan kesimlar, odatda, boglamalar bilan birikadi. *Arsa* bog'lamasi aniqlik fe'liga qo'shilib keladi: *yaqḥ (yaqinlab) tag'di arsa qadashqa (qarindoshga) barḥ* (QB). Bunday birikma XIX asrga qadar yozma adabiyotda qo'llanib kelgan. Turur bog'lamasi: *Na qḡay day turur san* (Sh.tar.).

Kesim vazifasida bosh kelishikdan boshqa kelishikdagi so'zlar ham kela oladi.

Qaratqich kelishigi bilan kelgan so'zning kesim vazifasida kelishi eski adabiy til uchun muhimdir: *Samarqand eli xud bizniḡdur* (BN).

Fe'l kesimlar fe'lining aniqlik yoki boshqa mayl shakllari orqali ifodalanadi. Ilk eski o'zbek tilida sifatdosh va ravishdosh kesim vazifasida kengroq qo'llanadi. Sifatdoshning turli shakllari kesim vazifasida eski o'zbek tilidayoq qo'llanmaydi. –*gan, -r* shakllari hozir ham ishlatilib kelinmoqda.

To'ldiruvchi. To'ldiruvchining davrlar bo'yicha taraqqiyoti ikki masala bilan – to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'zning shakliy o'zgarishi va bu xil so'zning kesim bilan ma'no munosabatidagi o'zgarishlar bilan bog'langandir.

Ma'lumki, to'ldiruvchi (vositasiz va vositali) ma'lum kelishik qo'shimchasini olgan yoki ko'makchi bilan birikkan ot, olmosh va otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi. EO'Tda vosita kelishigi qo'shimchasi –*n, -in, -un*, tushum kelishigining ayrim shakllari (–*ig*), jo'nalish kelishigining ba'zi shakllari (–*g'aru*) ishlatilmaydi.

Qadimgi turkiy tilda ko'p o'rinlarda ko'makchi qo'llanmaydi, biror kelishik shaklida bo'lib, hech qanday qo'shimcha olmay keladi. Bunday so'zlar eski va hozirgi o'zbek tilida ko'makchi bilan ishlatiladi.

Aniqllovchi. Aniqllovchining har ikki turi (sifatlovchi va qaratqichli) qadimgi yozma yodgorliklarda ham qo'llanadi: *Silik qḡ* (KT) – chiroyli kiz.

Izohlovchi. Qadimgi O'rta Osiyo turkiy tilda bir ot ikkinchisini hech qanday qo'shimchasiz aniqlaydi. Bunday aniqllovchilar izohlovchilarga yaqin turadi: *On oq bodun* (KT) – O'n o'q xalqi.

Qaratqichli aniqllovchi qadimgi davrlardan boshlab qullanib keladi. Qaratqichli aniqllovchining qyashimchasiz shakli qadimgi va ilk eski turki tilida ko'proq qo'llangan va bunday aniqllovchi izohlovchiga yaqin turgan: *qag'an at* (KT) – xoqon oti. Qaratqichli aniqllovchining bunday qo'shimchasiz shakli EO'Tda qo'shimcha oladi. Har ikki qismi belgili bo'lgan aniqllovchili birikma (aniqllovchining qaratqich qo'shimchasini va aniqlanmishning egalik qo'shimchasini olib kelishi) qadimgi turkiy tilda juda kam qo'llanadi. Eski va hozirgi zamon tilida bu xil aniqllovchilar faqat ko'plikning birinchi shaxsida qo'llanadi (bizning maktab).

Hol. Hol turli so'z turkumlari – ravish, ot, ravishdosh orqali ifodalanadi. Davrlar o'tishi bilan hol vazifasida kelgan so'zning shakli va kesim bilan bo'lgan ma'no munosabatida ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Ravishning –*cha* affiksi orqali yasalgan shakli hol vazifasida keng qo'llangan. Bu shaklning ma'no

doirasi hozirgiga nisbatan keng bo'lgan: *Lashkarim bold? ko'zumcha bir-bir* (ShN)- *ko'z oldimda lashkarim tarqalib ketdi*. Bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan hollar eski o'zbek tilida biror qo'shimcha oladi yoki yordamchi so'zlar bilan birikadi. Hozirgi zamon tilida payt anglatuvchi otlar va ba'zan o'rin bildiruvchi atoqli otlar hol vazifasida ham bosh kelishik shaklida qo'llanadi. Bu xususiyat EO'Tda ham mavjud edi: *Hinddin Garm bardingiz* (Bobur). *Buxara bardı* (BN). Ravishdosh hol vazifasida keng qo'llanadi. EO'Tda ravishdoshning *-g'ach* shakli hol vazifasida qo'llangan. Uning *-a (-may)* shakli EO'Tda (ayniqsa, «Boburnoma»da) hol vazifasida keng qo'llanadi. *Meni ko'ra kaldı* (BN). *Izi atih tuta ant ichti Shirin* (XSh).

EO'Tda jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklari bilan kelgan otlar muntazam ravishda hol vazifasida keladi va bu bilan hozirgi zamon tiliga yaqinlashadi. Ko'makchi yoki shu vazifadagi so'z bilan birikkan otlar ham hol vazifasida qo'llanib kelgan. EO'Tda *ald, ast, ust, ich, ara, bari, sayih, sar?, uza, keyin, tagra, uchun, qarsh?, ko'ra, tegi, otru, son, burun, nari* va boshqa ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi otlar hol vazifasida keng qo'llanadi. Umuman, EO'Tda ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zlarning doirasi juda kengayadi. Bu ko'makchilarning ko'pi hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi. Misol: *Ana otru* (Nav.). *Osh sar?baqa* (BN).

Uyushiq bo'laklar. Gap bo'laklarining uyushishi qadimgi yozma yodgorliklar tilida hozirgiga nisbatan kengroq qo'llangan. Ammo bu uyushish, asosan, bog'lovchisiz, faqat ohang yordami bilan bo'lgan. Albatta, bunday mazmunli uyushiq bo'laklar bilan barobar, mazmunan bir turli, ma'nodosh uyushiq bo'laklar ham qo'llangan.

Keyingi davr yodnomalari tilida uyushiq bo'laklarning har biri o'z aniqlovchisi bilan, o'z grammatik belgilari bilan birikib kelishi mumkin; bunday uyushiq bo'laklar ma'no jihatdan bir guruhga kiradi: *Qilich birla bashih kesti, ald?ketdi* (O'N).

EO'Tda *-li?, -li, azu, taq?, yeme* bog'lovchilari qo'llanmaydi, ammo *ham, ya* bog'lovchilari uyushiq bo'laklarni biriktirishda ishtirok etadi. Bulardan tashqari, bu vazifada *va, vale, gah, yaxud, ne, xah* bog'lovchilari keng qo'llanadi: *Ko'prak ulum va funun ham bilur erdi* (Nav., MN). *Xah inan, xah inanma* (Lutfiy).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdin jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son
6. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2008.

24-mavzu: Sodda gap va uning turlari

Reja:

1. Eski o'zbek tilida sodda gaplar
2. Sodda gap turlari

Hozirgi zamon tilida darak, so'roq, buyruq, undov gaplar keng qo'llanadi. Yozma yodgorliklar tilida ham gaplar ana shu turlarga bo'linadi. Qadimgi va O'rta Osiyo turkiy tillarida ko'proq darak gaplar uchraydi, ikkinchi o'rinda so'roq gaplar va buyruq gaplar qo'llanadi: *o'zi yanit?, qag'an? o'lti, bodun? kun qul bolt? (KT) – O'zi (yo'lidan) adashdi, xoqoni o'ldi, xalqi qul bo'ldi. Elta buq yoq (KT) – Elda kamchilik yo'q. Bilga qag'an ermis, alp qag'an ermis (KT) – Bilimdon xoqon ekan, bahodir xoqon ekan*. Darak gaplarning kesimi ko'pincha ot, sifat, son, olmosh, ravish va sifatdosh hamda bazan ravishdosh bilan ifodalangan.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq fe'li bilan ifodalanadi: *Sabimih tugati esitgil (KT) – So'zimni tamom (to'liq) eshiting. Ban yuridan-tayan tegayin, turk sir bodun yarinta idi yorumazun, usar idi yoq-qusalum (Ton) – Men sharqdan hujum qilay, sir turk xalqi yerida xo'jayinlik qilmasin, bu xo'jayinni iloji boricha yo'qotaylik. Ani subug' baralim (Ton) – Ani suvi bo'ylab boraylik*.

So'roq gaplar qadimgi turkiy tilda so'roq olmoshi orqali ifodalanadi: *Qag'anim qan? (KT) – Xoqonim qani?* So'roq yuklamasi orqali tuzilgan so'roq gaplar kam uchraydi: *Bar mu na (Ton) – Shunday bo'lishi mumkinmi?*

25-mavzu: Qo'shma gap va uning turlari. Ko'chirma va o'zlashtirma gap

Reja:

1. Eski o'zbek tilida qo'shma gap va uning turlari.
2. Ko'chirma va o'zlashtirma gap

Qo'shma gaplar ikki xil yo'l bilan kelib chiqadi (A.Riftin):

1) ikki sodda gapning birikish yo'li bilan (bu yo'l bilan *bog'langan qo'shma gap* tuziladi; bunday bog'langan qo'shma gaplardan *ergash gapli qo'shma gaplar* ham ajralib chiqadi);

2) sodda gap tarkibidagi sifat-dosh, ravishdosh yoki shart fe'li boshqargan birikmalar kengayib, alohida gap tashkil etish yo'li bilan. A.Riftinning fikriga ko'ra, flektiv tillar uchun birinchi yo'l asos bo'lsa, agglyutinativ tillar uchun ikkinchi yo'l asosdir. Ayrim olimlar turkiy tillarda qo'shma gaplar sodda gaplarning birikishi yo'li bilan shakllangan desalar (M.Shiraliyev, N.T.Sauranbaev), ayrim olimlar qo'shma gap taraqqiyotining ikkinchi yo'lini tan oladilar (S.Jienbaev, E.A.Grunina). Ko'p olimlar A.Riftinning fikriga shubha bilan qaraydilar va qo'shma gap taraqqiyotida har ikki yo'l ham bo'lishi mumkin ekanini ko'rsatadilar (K.Sartbaev, N.Gajieva).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bu gaplar qo'shma gaplarning ibtidoiy shaklidir. Buning sababi, bog'lovchi ishtirokisiz, faqat ohang yordami bilan bog'lanish qo'shma gap tuzishning eng oddiy usulidir.

Hali teng va tobe bog'lovchilar bo'lmagan yoki juda kam bo'lgan davrlarga oid o'rxun yozuvlari va XI asr yodnomalarida murakkab fikr sodda gaplarni yonma-yon keltirish hamda gaplarni ma'lum ohang va boshqa vositalar bilan biriktirish orqali ifodalangan.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ba'zilar hozirgi bog'langan qo'shma gaplar uchun, ba'zilar hozirgi ergash gaplar uchun asos bo'lgan, ayrimlari esa ma'lum o'zgarishlar bilan hozir ham qo'llanadi. Bog'lovchisiz QG o'z xususiyatlariga, o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan maxsus birikmadir, bu birikma tarixiy taraqqiyot jarayonida yanada takomillashgan va hozirgi zamon tilida qo'shma gapning boshqa turlari bilan barobar qo'llanadi, hatto uning ba'zi turlari keyingi davrda vujudga kelgan.

Qadimgi yodnomalarda bog'lovchisiz QGni tashkil etgan qismlar orasidagi ma'no munosabatlar ham ko'p o'rinlarda, hozirgi zamon tiliga yaqin turadi.

1. Bog'lovchisiz QGni tashkil etgan qismlar ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea, hodisa, xususiyatlarini ifodalaydi.

Ma'lum payt munosabatida bo'lgan qo'shma gap qismlarini bir-biriga bog'lash uchun ayrim leksik unsurlar ishlatilgan. «Qissasi Rabg'uziy» va «Tafsir»da anda, ul vaqtda; emdi, andin keyin, andin so'zra leksik vositalari qo'llanadi: Emdi uchmahqa kirdim (QR). Andin so'zra to'ri ke'zashib quduqqa salur bolub (QR). Keyinchalik qo'shma gap qismlari orasidagi payt munosabatini ko'rsatuvchi yuqoridagi leksik vositalar kengroq ishlatilgan. Ammo hozirgi tilda kam qo'llanadi.

2. Bog'lovchisiz QG qismlaridan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslash orqali voqea, hodisa, predmetlar o'rtasidagi farqlar, ular orasidagi qarama-qarshilik, nomuvofiqlik ochiladi: *Tag' tag'qa qavushmas, kishi kishiga qavushur* (MK). Bunday munosabatni ifodalovchi QGLar keyingi asrlarga oid yodnomalarda keng qo'llanadi va ular yanada aniqlashadi.

3. Ma'no jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'lgan, biri ikkinchi qismini aniqlagan, to'ldirgan QGLar ham qo'llangan. «Qissasi Rabg'uziy» va Navoiy tilida, «Shajarai tarokima»da natija ifodalovchi qism aniq uchun, bu jihatdin, ul sababdin, bu sababdin, ul jihatdin leksik vositalari bilan bog'langanligini ko'ramiz.

Qo'shma gap qismlari o'rtasida shart munosabati ifodalanadi: qo'shma gapning birinchi qismi shartni, ikkinchi qismi shu birinchi shartga bog'liq bo'lgan sababni ifodalaydi: Cherikin bar, kuchun bar (QR). Navoiy tilida shart munosabatini ifodalagan quyidagi birikmalar qo'llangan: Ko'zum uchar, g'bar humayun yuzunni ko'rgay yat (Nav., MQ).

QG qismlaridan biri ikkinchisining mazmunini to'ldiradi. To'ldirish vazifasida bo'lgan qism ikkinchi o'rinda bo'ladi. Bu holda to'ldirish vazifasidagi gap, asosan, ko'chirma gap shaklida bo'ladi: *Aytq! Sarag'a, Hajarg'a kuch q'lasun* (QR). Biror qismi to'ldirish vazifasida bo'lgan qo'shma gaplar so'nggi davr adabiyotlarida ham keng qo'llanadi. Hozirgi tilda biroz o'zgargan shaklda ishlatilmoqda.

Bog'langan qo'shma gaplar. Bog'langan QGni tashkil etishda *teng bog'lovchilar* bilan birga ayrim *yuklamalarning* ham ishtiroki kattadir. HO'ATda teng bog'lovchilarning barcha turlari va yuklamalar keng qo'llanadi. Ammo til taraqqiyotining ilk davrlarida yordamchi so'zlar juda kam bo'lib, borlari ham o'ziga xos vazifaga ega bo'lgan.

Qadimgi yozma yodgorliklarda (birinchi navbatda, o'rxun yodnomalarida) teng bog'lovchilar bo'lmagan. Bu vazifada *yema, yana, taq?, dag'?*kabi leksik unsurlar qo'llangan. Bu unsurlar qo'shma gap

qismlarini bir-biriga mazmunan bog'lagan va bog'langan QGga yaqin, ammo o'z ma'no mustaqilligi ancha kuchli bo'lgan birikmalarni yaratgan. Keyinchalik bu unsurlar o'z leksik ma'nolaridan tobora uzoqlashadi va QG qismlarini biriktiruvchi vositaga aylanadi, shu o'rindagina ular haqiqiy bog'langan QGni tashkil qiladi.

Yema, yana. O'rxun yodnomalarida bog'langan QGni tashkil etishda faqat *yema* yordamchisi uchraydi. *Yema* so'zi *yana*, ham yordamchilariga yaqin vazifada qo'llangan. Uning ham bog'lovchilik, ham yuklamalik vazifasi bo'lgan: *yema* bir-biriga mazmunan qo'shiluvchi voqea, hodisa, xususiyatlarni takidlab ko'rsatadi: *Türk bodun yemä bulg'anch...*, *og'uzi yemä tarqanch...* (Toʻn). – Turk xalqi ham qo'zg'algan, o'g'uz (xalqi) ham tarqalgan.

Yana yordamchisi ham ma'lum ma'no munosabatida bo'lgan gaplarni biriktirib, QG hosil qilishda xizmat qiladi. Bu yordamchi yolg'iz qo'llanadi, QGning ikkinchi qismi boshida keladi va so'nggi qismdan anglashilgan mazmunning oldingi qismdan anglashilgan mazmunga qo'shilishini ko'rsatadi: *yana* yordamchisi «DLT» va «QB»da uchraydi. Qadimgi turkiy tilda uchramaydi. Hozirgi o'zbek tilida *yana* yordamchisining QG tuzishdagi vazifasi chegaralangan.

Taq? (*dag'?*, *tag'?*) unsuri, va bog'lovchisi, ham yordamchisi. Ular asosan eski turkiy til yodgorliklarida va undan keyingi yodnomalarda keng qo'llangan. «Tafsir»da *taq?* elementi ham, hamda yordamchisi vazifasini bajarib, qo'shma gapning ikkinchi qismidan qo'shimcha mazmun anglashilishini ko'rsatadi: Zina qilg'a (n) nuḡ nishanası bolur taqı xamir ichkä(n)nuḡ nishanası bolur (Taf).

Bog'langan qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan bu unsur Navoiyda, «Boburnoma»da va XVII asr yodnomasi «Shajarai tarokima»da ham uchraydi: *Dag'?* dadhah sorarda o'z luk bile mashg'ulluq q'āḡsa (Nav., MN). Bir-ikki giridin so'ḡ men atlanḡ ordug'a keldim. Ul dag' tushken yeriga bard? (BN). Bir altun yay birlan ko'b avn? xan aldḡ'a kelturdilar, uch kichik og'lanlar? taq? uch altun oq birla ko'b avn? kelturdilar (Sh.tar.). *Taq?* unsuri HO'ATda qo'llanmaydi.

Va hamda lekin bog'lovchisining birikkan holda kelishi EO'T va hatto HO'Tda ham uchraydi. «Qissasi Rabg'uziy», navoiy, «Boburnoma»da bu ikki bog'lovchining birikib qisqargan shakli – vale shakli ham uchraydi: *Nazmg'a nisbat berurdin yuqarḡaqdur*, valekin har uslub vash e'rda jahangir erdilar (Nav., MQ). Va bog'lovchisi yolg'iz kelganda, o'zaro ma'lum payt yoki qiyoslash munosabatidagi gaplarni biriktiradi: *Men bilurmen an? kim*, ko'zlayursiz va ann? kim, ashkara q'āḡursḡ (Tafsir). Navoiy davridan boshla va bog'lovchisining vazifasi juda kengayadi: payt, izoh, qiyoslash, sabab-natija va boshqa mazmun munosabatida bo'lgan gaplarni biriktiradi: *aq uyda anjuman asbab? muxayya v aul aq uyda anjuman ahli mujammı* (Nav., MN). Vilayat arası taḡ yavuuq va maqsad yıraq (BN). Mardan tegenni padshah qıldılar va Mardan yıldam yigit erdi (Sh.tar.). andın soḡ Jo'ji xan o'ldi va yurt og'lı Sayı xang'a qald? (Sh.tar.).

Zidlovchi bog'lovchilar: lekin, amma, balki, ya bog'lovchisi, gah (gahi, gahiki, gahikim), *ne* yordamchisi kabilar.

EO'Tda «Tafsir»da *lekin* bog'lovchisi qo'llanib, u asosan va bog'lovchisi bilan birga ishlatiladi. «Qissasi Rabg'uziy»da *amma* bog'lovchisi qo'llangan: *Mal'ın tavar'ın bar, amma og'lan'ın yoq* (QR). Navoiyda *amma* bilan birga *lekin* bog'lovchisi ham qo'llanadi, lekin kamroq ishlatilgan va ko'pincha va bog'lovchisi bilan birga ishl-gan: *Amma bu taifaniḡ sayr? ham agarchi tarab ayni mehnatzudadur, valekin filhaqiqat la'im sirat va gadadurlar* (Nav., MQ). Ann? sizmu bitrur-siz ya biz-mu bitruriz ann? (Taf.). Gahi kim, chag'ıd'ın ch'ḡar edi, yana yigirma-ottuz kun ichmas edi (BN). Ne sha'irana tarkiblari ahsan va ne ashiqana so'zlari shu'la afkan (Nav., MQ).

Ko'chirma gap. 1. ko'chirma gapli qurilmalar qadigi davrdan boshlab tilimizda qo'llanib keladi: 712-716-yili toshga bitilgan Tongyuquq yodnomasida bunday gap turlari 30 foizni tashkil etadi. Odatda, ko'chirma gap muallif gapi bilan birga qo'llanadi. Ko'chirma gapli qurilmalar umumiy bir fikrni ifodalagani uchun qyashma gapning bir turi bo'ladi. Agar muallif gapi kesimi aytdi, dedi, so'radi kabi fe'llar bilan tugallansa, biror xabar mazmuni ifodalanadi. Agar muallif gapi kesimi do'q qildi, shivirladi, to'ng'illadi kabi fe'llar bilan ifodalansa, ko'chirma gap shu fe'llardan anglashilgan ma'noning uslubiy mazmuni ifodalanadi. Demak, ko'chirma gap muallif gapidagi ayrim bo'laklarning ma'nosini ochuvchi uslubiy vositadir.

Uslubiy mazmunni ifodalovchi vositalarning xabar beruvchi turlari qadimgi davrlardan ma'lum bo'lsa-da, uning uslubiy mazmun ifodalovchi vositalari adabiy til tarixining keyingi – XIX asrda dramaturgiya, roman, hikoya, reportaj kabi adabiy janrlarning shakllana boshlashiga bog'liqdir.

2. Muallif gapi bilan ko'chirma gapni bog'lovchi vositalar, qadimgi turkiy tilda tep, teyin, teyu ravishdoshlari ifodalagan bo'lsa, keyingi davrlarda deb, -kim / -ki boglovchilari va muallif gapi tarkibida konnotativ ma'noni ifodalovchi so'zlar qo'llana boshlaydi. Masalan: Daqyunus malikka aydikum (Tf,

XVIII sura). Bir turk debdur kim, dam bu damdur (N., MQ). Dedikim: ʔshq otʔʔn de fasana! Dedi: kuymay kishi topmas nishana (Nav.).

3. ko'chirma gap o'zganing aynan gapi bo'lishi yoki muallifning tilagi, fikri bo'lishi mumkin. Bu turdagi qurilmalar qadimgi davr yozma manbalarida va so'nggi davr yodnomalarida qo'llanadi. Qilishib anda minnatdorlig', Debonkim: «Qildin'izlar g'amxo'rlik'lar» (Furqat).

4. muallif o'ziga fikran murojaat qilganda, muallif gapi va ko'chirma gapni muallif gapiga boglovchi vosita tushib qoladi. Bunday gap qyarilmalari EO'AT davridan boshlab qo'llana boshlagan: Navaiy, o'yla tirilkim, uyatdin o'lmagaysen. Agar Rasul alayhissalom bo'lsa shafe' (Navoiy).

5. Ko'chirma va muallif gapining o'rinlashishi qadim adabiy til davridan erkin bo'lgan va bu hol mA'lum uslubiy mazmun tashigan.

KG MGining o'rtasida, KG MG bilan bo'linadi: Bu'jatur qag'an: yelu ko'r, temis (To'q) – Shunday qilib xoqon: «Yelib ko'r», - debdi.

O'zlashtirma gap. Muallif o'zgalarning gapini keltirmay, o'z so'zi bilan o'zgalar gapi mazmunini beradi. Bunda albatta muallif o'zgalar gapining kesimining shaklini o'zgartiradi: Ayto'ldi o'zi davlat erdukin ayur (QB). Bu xil gap qurilmalari sarlavhalarda qo'llanib, XI asrlarda va keyingi davrga oid adabiy asarlarda uchraydi. Kesim shakli o'zgargan qurilma o'zlashtirma gap bo'lmasligi ham mumkin: Yaqub og'lanlar'ni teo'a birla kelurin ko'rdi (QA).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2008.
2. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
4. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdi' jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
5. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.

26-mavzu: O'zbek adabiy tili tarixi. Adabiy til haqida

Reja:

1. O'zbek adabiy tilining shakllanishi
2. Adabiy til haqida

O'zbek adabiy tili tabiati, o'ziga xosligi va uni tarixiy o'rganish tamoyillariga taalluqli jihatlar o'zaro chambarchas munosabatlarga ega bo'lib, ularni bir-biridan ajragan holda alohida-alohida tadqiq etish adabiy tilning shakllanish, taraqqiy etish dinamikasi haqida obektiv mulohaza yuritishga to'sqinlik qiladi.

O'zbek adabiy tili (O'AT) tarixiga doir dastlabki ilmiy izlanishlar o'tgan asrga tegishli bo'lsa-da, uning o'zbek tilshunosligida muayyan soha yo'nalishi tarzida qaror topish, maqomga ega bo'lish jarayoni hanuz davom etmoqda.

O'zbek adabiy tili tarixini to'la-to'kis yaratish masalasi og'ir va mashaqqatli vazifa hisoblanib, u birinchi navbatda taxminan o'n ucha sr mobaynida ulkan hududda hayot kechirgan ajdodlar idtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlaridan darak beruvchi qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tilida bitilgan barcha qo'lyozma manbalarni atroflicha sinchkovlik bilan tadqiq etishni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, umuman har qanday millat tilining bo'lgani kabi adabiy tilning haqiqiy bunyodkori ham xalq hisoblanadi. Umumxalq so'zlashuv tilining turlari, biron-bir tarixiy taraqqiyot bosqichida xalqni birlashtiruvchi umumlisoniy vositalarni etiborga olmay turib adabiy til tarixi to'g'risida mulohaza yuritish amri mahol. Mubolag'asiz aytish mumkinki, taraqqiyotning yetakchi hamda zaruriy unsurlaridan biri hisoblanmish yozuvning roli ota-bobolarimiz turmushida o'ziga xos lokomotiv vazifasini o'tadi.

Turk-run alifbosida bitilgan O'rxun-Enasoy bitiglari, so'g'd tillaridan qilingan tarjima asarlar VII-X asrlarda o'zbek millati vakillari ajdodlari yashagan ulkan mintaqadagi lisoniy vaziyat xususida, adabiy til va xalq so'zlashuv tili haqida mA'lum xulosaga kelish imkonini yaratadi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'zbek millati til qaror topishining Yangi bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbek milliy tili butun millat uchun mushtarak bo'lgan, me'yorlangan, ko'p vazifali adabiy til hamda nutqning nostandart og'zaki turlarini o'zida namoyon etuvchi murakkab hodisa tarzida

maydonga chiqadi. Adabiy til milliy o'zbek tilining me'yoriy shakli sifatida boy va ko'p qatlamli leksik tizimga ega bo'lgan.

O'zbek adabiy tili taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, kishilar nutqida ishlatilgan va paydo bo'lgan har bir so'z hamda birikma shu xalq tarixi bilan bog'liq bo'lgan tilda o'z aksini topadi.

O'zbek adabiy tili tarixi o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ko'p o'zgarishlarga uchrab, hozirgi kundagi shakliga ega bo'lgan. Bu tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o'zbek tiliga turkiy va turkiy bo'lmagan tillarning ham ta'siri benihoya kattadir. O'zbek adabiy tili taraqqiyot bosqichlari davomida turli davrlardan o'tgan. Shu davrlarda tilning sathlarida turli o'zgarishlar yuz bergan. Shu jihatdan o'zbek adabiy tili tilni tasniflash va tarixiy davrlashtirish bilan ham chambarchas bog'langan. Til tarixi davrlari eng qadimgi turkiy adabiy til, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili davri, hozirgi o'zbek adabiy tilini ko'rastish mumkin.

O'zbek adabiy tili tarixi Oktabr inqilobiga qadar Sharq, g'arb va rus olimlari tomonidan nazariy jihatdan emas, asosan, amaliy jihatdan o'rganildi. Yaratilgan filologik asarlarning ko'chiligi ikki tilli tarjima lug'atlaridan, ayrim grammatik ocherklardan, Navoiy va boshqa shoirlar asarlarida ishlatilgan so'zlarning sharhlaridan iborat edi.

O'zbek tili tarixini haqiqiy ilmiy jihatdan o'rganish yigirmanchi yillardan boshlandi. Bunda o'zbek va rus turkolog olimlarining hissalarini kattadir. Jumladan, Abdurauf Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf. Birinchi kitob" (Samarqand–Toshkent, 1930 yil) nomli asari bilan Q.Ramazon va X.Qayumiylarning "Grammatika. Sarf. I qism, Toshkent, 1937 nomli kitobi o'zbek tilini ilmiy o'rganishning dastlabki namunalari hisoblanadi.

Akademik A.N.Samoylovich o'tgan asrda "Material' dlya chagatayskogo spryajeniya iz Babur-name" (Qozon, 1865) degan ajoyib tadqiqot elon qilgan bo'lsa, 20–yillarga kelib "K istorii literaturnogo sredne-aziatsko-turetskogo yazika" ("Mir–Ali–Shir" degan t'plam, L., 1928, 1–23b.) nomli shamda "O'zbek adabiy tilining qurilish y'llari haqida" (1929), "Chig'atoy adabiy tilida "jo'qchi" dialekti elementlari" (1930), "O'zbek adabiy tilining tashkil topish y'llari haqida" (1932) degan sarmazmun maqolalar yozib, ularda o'zbek adabiy tilining shakllanish manbalari va taraqqiyot etaplariga oid qimmatli fikrlar bayon qildi.

K.K.Yudaxinning "Material' k zvukovomu sostavu chagatayskogo yazika" (1929) nomli maqolasi eski o'zbek tili fonetikasini, xususan, unli-lar sistemasini o'rganishda dastlabki qadam bo'ldi.

O'zbek tili tarixini o'rganishda A.K.Borovkovning xizmatlarini alohida qayd etish lozim. U To'le Imoniy Hiraviyning "Badoe al-lug'at"ini, Fath Alixon Qojariy lug'atini nashr qilish bilan birga eski o'zbek tili fonetikasi va morfologiyasining ayrim masalalariga oid muhim ilmiy tadqiqotlar e'lon qildi.

K.Brockelman XI–XIX asrlarda yaratilgan asarlar materiallari asosida "O'rta Osiyodagi musulmon adabiyoti tilining grammatikasi" degan asarini yozib, unda eski o'zbek tilining yozma manbalari, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisiga oid qimmatli ma'lumotlar berdi (qarang: C.Brockelmann. Ostturkische Grammatik der islamischen Literatur–Sprachen Mittelasiens. Leiden, 1954).

Keyingi 40 yil ichida o'zbek tili tarixini o'rganish yanada kuchayib ketdi. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, leksikasi va fonetikasi masalalarini o'rganish, yozma yodgorliklarni nashr etish va ularning til xususiyatlarini tavsif qilish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib, nashr qilindi. Bunday asarlarni ikki gurushga ajratish mumkin.

I–guruhga Moskva, Peterburg ilmiy markazlarida rus turkolog olimlari tomonidan yaratilgan asarlar kiradi.

O'zbek tili tarixi masalalarini yoritishga bag'ishlangan ilmiy ishlarning II–gurushini o'zbek olimlarining asarlari tashkil qiladi. Bularni sohalar bo'yicha 4 qismga ajratish mumkin:

a) tarixiy fonetikaga oid

F.Abdullaev. A.Navoiy asarlari tilida unli tovushlar uyg'unligiga doir, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1966, 5–son.

Q.Mahmudov. XIII–XIV asr turkiy yozma obidalari tilining fonetik sistemasi, Toshkent, 1990.

K.Mahmudov. Fonologicheskie osobennosti tyurkoyazychnykh pismennykh pamyatnikov VIII–XIV vv., Tashkent, 1992.

H.Ne'matov. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi, Toshkent, 1992, 93 bet.

A.Rustamov. XV asr o'zbek adabiy tilining vokalizmi, "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurnali, 1962, 6-son.

A.Rustamov. Fonetiko-morfologicheskie osobennosti yaz'ka A.Navoi, ADD, Tashkent, 1966.

A.Rustamov. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari, "Navoiy va adabiy ta'sir masalalari" to'plam, Toshkent, 1968, 258-278 betlar.

A.Rustamov. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari, G'.Abdurashmonov, A.Rustamov. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari, Toshkent, 1984, 6-30-betlar.

B.To'ychiev. O'zbek tili tarixiy fonetikasi, Toshkent, 1990, 76 bet.

X.Doniyorov. A.Navoiy va o'zbek adabiy tili, Toshkent. 1972, 76 bet.

E.Umarov. XV asr o'zbek tilida unlilar. "O'zbek tili va adabiyoti", 1982, 6-son, 45-46 betlar.

b) tarixiy morfologiyaga oid

G'.Abdurashmonov, Sh.Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, Toshkent, 1973, 28-240-betlar.

G'.Abdurashmonov, A.Rustamov. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari, Toshkent, 1984.

F.Is'hoqov, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari, Toshkent, 1976, 41-71-betlar.

S.Mutallibov. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk, Toshkent, 1959, 240 bet.

A.Matg'oziev. XIX asr o'zbek tilining morfologiyasi, Toshkent, 1977.

S.Mutallibov. XI asr yozma yodgorliklarida fe'l kategoriyasi, Toshkent, 1955.

X.Nigmatov. Funktsionalnaya morfologiya tyurkoyaz'chnykh pamyatnikov XI-XII vv., Tashkent, 1988, 192 bet.

E.Fozilov. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi, Toshkent, 1965.

E.Fozilov. Fe'l daraja yasovchi affikslarining tarixi, "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurnali, 1962, 5-son.

E.Fozilov. Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili, Toshkent, 1969.

E.I.Faz'lov. Starouzbekskiy yaz'k. Xorezmiyskie pamyatniki XIVv. ADD, Tashkent, 1967, 212 bet.

A.Muxtorov, U.Sanaqulov, O'zbek adabiy tili tarixi, Toshkent, 1995.

Sh.Shukurov. Istoriya razvitiya glagoln'x form v uzbekskom yaz'ke, Toshkent, 1966

Sh.Shukurov. Fe'l tarixidan, Toshkent, 1970.

Sh.Shukurov. O'zbek tilida fe'l zamonlarining taraqqiyoti, Toshkent, 1976.

Sh.Shukurov. O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti, Toshkent, 1980.

Sh.Shukurov. Nakloneniya i vremena glagola v pismenn'x pamyatnikax uzbekskogo yaz'ka v sravnitel'nom osveshenie, ADD, Tashkent, 1974.

XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklarining tili. Morfologiya, Toshkent, 1986, 288 bet.

XV-XIX asrlar o'zbek tili morfologiyasi, Toshkent, 1990, 254 bet.

E.Faz'lov. Material'po istorii uzbekskogo yaz'ka, "Vopros'tyurkologii", degan to'plam, Toshkent, 1965.

T.Jumaev. Umar Boqiy asarlarining morfologik xususiyatlari, Ilmiy-tarixiy qo'llanma, Qarshi, 1994, 32 bet.

Bulardan tashqari o'zbek tili morfologik kategoriyalarining tarixiga oid masalalar F.Abdullaev, A.Ashmedov, Sh.Bektemirov, X.Doniyorov, M.Ziyaeva, Q.Karimov, M.Qodirov, Q.Mahmudov, Q.Muhiddinov, U.Mirzakarimova, H.Ne'matov, N.Rasulova, M.Turobova, E.Umarov, Sh.Fayzullaeva, A.Yunusov, J.Shamdorov, B.Yusufov kabi olimlarning dissertatsiyalari, monografiyalari, ilmiy maqolalarida ham yoritilgan.

v) tarixiy sintaksisga oid

G'.Abdurashmonov, Sh.Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi, Toshkent, 1973, 241–316–betlar.

G'.Abdurashmonov. Tarixiy sintaksis. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi kursi bo'yicha materiallar, Toshkent, 1974.

G.A.Abduraxmanov. Issledovanie po starotyurkskomu sintaksisu (XI vek). Moskva, 1967.

F.Is'hoqov. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari, Toshkent, 1976, 72–83 betlar.

A.M.Sherbak. Grammatika starouzbekskogo yaz'ka, M.–L., 1962, 211–221–betlar.

X.Nazarova. "Zarbulmasal"da qo'llangan ko'chirma gaplar va ularning turlari, "Nizomiy nomida TDPI asarlari", 12–chiqishi, 1959, 87–97 betlar.

X.Nazarova. XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi o'zbek adabiy tili sintaktik qurilishining xususiyatlari, Toshkent, 1979.

g) tarixiy leksikologiyaga oid

A.K.Borovkov. Leksika sredneaziatskogo tefsira XII–XIII vv., M., 1963.

E.Begmatov. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy–tarixiy asoslari, "O'zbek tili leksikologiyasi" (Toshkent, 1981) degan kitobining 41–152–betlari.

H.Dadaboev. Problem?leksiki starouzbekskogo yaz'ka, Tashkent, 1990.

Q.Mashmudov. Ashmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari haqida, Toshkent, 1972.

S.Mutallibov. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk, Toshkent, 1959.

H.Ne'matov, A.R.Ashmatov. O'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi, Buxoro, 1987.

X.Fattoxov. Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan lug'atlar, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1973, 4–son.

E.A.Umarov. Eski o'zbek lug'atlari, Toshkent, 1992.

S.Usmonov. O'zbek tilining lug'at sostavida tojik–forscha va arabcha so'zlar, "Navoiyga armug'on" degan to'plam, Toshkent, 1968, 108–121–betlar.

M.Yusupov. Alisher Navoiy nasriy asarlari tilining leksik qatlamlarini o'rganish tajribasidan, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1979, 2–son.

O.Usmonov, H.Hamidov. O'zbek tili leksikasi tarixidan, Toshkent, 1981.

E.I.Faz'lov. Starouzbekskiy yaz'k. Xorezmskie pamyatniki XIV veka, Tashkent, I–tom–1966, II–tom–1971.

J.Xamdamov. Iz istorii russkix leksicheskix zaimstvovaniy v uzbekskom yaz'ke (vtoraya polovina XIX veka), AKD, Tashkent, 1963.

F.Abdullaev, O.O.Madrahimov. Eski o'zbek leksikasida o'g'uz qatlamini o'rganish masalasi, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1971, 3–son.

X.Nazarova. "Zarbulmasal"ning ba'zi bir leksik xususiyatlari, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1959, 2–son, 66–71.

B.Bafoev. Navoiy asarlari leksikasi, Toshkent, 1983.

1989-yil 21-oktyabrda o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashning o'n birinchi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi Qonunni qabul qiladi.

Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. Shu vaqt mobaynida ko'pgina chetdan kelgan, ayniqsa rus tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbekchaga tarjima qilindi. O'zbek tilining boy imkoniyatlari har sohada ko'zga tashlanmoqda. O'zbek tili turkiy tillar ichida shirador, talaffuzi chiroyli, ravon va aniq, badiiy asarlar yozish uchun eng yaxshi tillar deb bilaman.

O'zbek tilining bundan keyingi boy imkoniyatlarini ochish, ularni xalqimiz ommasiga bekamu-ko'st qilib tanishtirib berish, o'zbek tilining boshqa tillarga aralashtirilmasdan sof holda saqlash shu yurtda yashovchi har bir insonning yuksak burchidir.

Zero, xalkning tirikligi, rivoji, jamiyatning gullab-yashnashi, muloqatimiz go'zalligini ko'rsatib turadigan narsa bu-tildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillarning jazba estetiklari. Toshkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

27-mavzu: O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish. O'zbek xalqi va tilining turkiy xalqlar va tillar orasida tutgan o'rni

REJA:

1. O'zbek tiliga umumiy tasnif.
2. O'zbek tilining grammatik xususiyatlari.
3. Xulosa.

Til insonga va inson jamiyatga xos hodisadir. Til insonlar orasida o'zaro aloqa vositasi bo'lgan quroldir.

Til tizimdir. Uning turli sohalari tovushlari, so'zlari, qo'shimchalari, gap qo'rilishi bir-biri bilan bog'lanib, yagona bir sistemani tashkil etadi.

Tarixda o'z tiliga ega bo'lmagan birorta eng kichik, juda ibtidoiy jamoa ham bo'lmagan.

Taxminiy hisoblarga ko'ra, dunyoda 1300 xalq va elat bo'lgan holda, 3000 ga yaqin til bor.

Olimlar qadimgi davrlardan boshlab dunyo tillari va ularning tarixi bilan qiziqib keladilar. Turli va rang-barang tillar o'rtasidagi yaqinlik va noo'xshashlikni ko'rsatuvchi ko'plab faktlarni yig'adilar. Kuzatishlar natijasida tillarning qiyosiy-tarixiy usul yo'li bilan o'rganish uslubi shakllandi.

Shu asosda dunyo tillarining ikki xil tasnifi berildi:

1. Geneologik tasnif: tillar orasidagi fonetik, leksik, grammatik o'xshashlikka asoslanadi.

2. Morfologik tasnif: tillarning tuzilishiga asoslanadi.

Dunyo tillarini geneologik tasnif bo'yicha 16, ba'zilar esa 20-25 oilaga bo'ladilar. Morfologik tasnifga ko'ra to'rt guruhga bo'ladilar. Bular amorf tillar, aglyutinatativ tillar, flektiv, polisintetik til guruhlaridir. Bizning suhbatda olib boradigan mavzuimiz ham ayni shu tillarning aglyutinatativ tillar guruhiga kiradi. Shuning uchun aglyutinatsiya tushunchasiga bir oz aniqlik kiritsak. Bu tillarning xususiyati shuki, affiksalar bevosita o'zak yoki negizga qo'shiladi, asosan bir grammatik ma'no ifodalaydi, prefiksalar o'rnida ko'makchilar qo'llanadi, grammatik jins kategoriyasi bo'lmaydi va boshqalar.

Bizning ishimiz asosi bo'lgan o'zbek tili turkiy tillar oilasining turkiy tillar oilasiga kiradi.

Turkiy xalqlar ichida o'zbek xalqining shakllanishi muammosi murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bir necha yillar davomida o'z tarixi, madaniyati va tiliga beparvolik va mensinmaslik bilan qarash, hadiksirash va qo'rquv hozirgi paytda muhim milliy masalalarni keskin qo'yilishiga, narozilik va keskinlikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

O'zbek xalqi va tilining genezisidagi murakkab jarayon hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining shakllanishida ham o'z aksini topdi. O'zbek adabiy tili to'rt xil sheva guruhidan tashkil topgan bo'lib, bular Samarqand-Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Xorazm shevalaridan iborat.

O'zbek tilining boshqa turkiy tillar orasidagi o'ziga xos bo'lgan tomonlari va ularning boshqa turkiy tillar orasida farqli tomonlarini ochishni ishimiz mavzusi qilib oldik, bu xususiyatlarni baholi qudrat ochishga harakat qildik.

O'zbek tilining boy imkoniyati, xususiyatlarini uning fonetik tomonini ko'rishdan boshlasak. Avvalo, o'zbek tili boshqa turkiy tillarning boshqalarida uchraydigan singormanizm, ya'ni (ohangdoshlik hodisasi o'zbek tilida uchramaydi). Masalan: *bordim*-so'zida *i* unlisi talaffuz paytida qattiq aytilyapti. Singormanizm hodisasiga ko'ra, *bordim* shaklida bo'lishi kerak. Bu hodisa qozoq tillarda juda yaxshi saqlanib qolgan. *Qoldar*, *qo'lder* kabi. Qoraqalpoq, qirg'iz tillarida ham uchraydi. Aytish joizki, tillarning boshqa oilalarida bunday hodisa uchramaydi. O'zbek tili fonetikasini va grammatikasini bilish ona tili va adabiyoti mutaxassisliklari uchun zarur narsadir.

Unlilar haqida to'xtasak. Eski turkiy tilda 8 ta unli uchraydi. Ular: *a, a, o, u, u, ? e, i*.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar oraliq qattiq-yumshoqlik bilan farqlanmaydigan tovushlardir. Unlilarning qattiq-yumshoqligi hozirgi o'zbek adabiy tilidan boshqa turkiy tillarda, shuningdek eski turkiy tilda ham katta ahamiyatga ega. Bu xususiyat alohida-alohida, ya'ni mustaqil fonemalarni tovush tomonini farklaydi.

Shuni aytish kerakki, boshqa turkiy tillardan *i, u, o', a* unlilari o'zbek tilida uchramaydi. Balki, ayni shu tovushlarning yo'qligi singormanizmning yo'qolishiga sababdir. Ayni mana shu tovushlar bizdagi *u, o', a* tovushlardan yumshok talaffuz qilinishi bilan farqlanadi: o'tken-o'tgan, arman-armon kabi. *I* tovushi ham ishlatilmaydi. Turkiy tillar ichida hozirgi o'zbek adabiy tili lovchi hisoblanadi. Buning sababi shundaki, umumturkiy qattiq *a* hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'pgina hollarda *a* ga o'tadi.

O'zbek tilining morfologik tomoni ham juda boy, ayni paytda boshqa turkiy tillardan ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi.

Turkiy tillarda ot, sifat, olmosh kabi so'z turkumlari bir xil tuslanish xususiyatiga ega. O'zbek tilida 7 ta kelishik emas, 6 ta kelishik bo'lishi bilan farqlanadi. O'zbek tilida boshqa turkiy tillarda uchraydigan vositali kelishik ishlatilmaydi. Og'iz, ko'ngil, burun, singil kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda negizidagi *bir(-i) e(-u)* tovushi tushadi: *o'g'lim, og'zim, ko'nglim* kabi so'zlarga *-a* yoki *-la* qo'shimchalari qo'shilganda, o tovushi *a* tovushiga aylanadi va yuqoridagi so'zlar boshqa so'z turkumlari vazifasidagi so'zlarga aylanib qoladi: *angla-fe'l, ota-fe'l, sana* kabi.

Fe'l nisbatlari yasovchi qo'shimchalari qanday eshitilsa, shunday yoziladi: *kuldir, o'tkaz, tutqaz* kabi. O'zbek tili so'z yasovchi affikslarga boy bo'lib, yangi so'zlar yasash imkoniyati kengdir: *ko'rgazma, tezlat-chi* kabilar.

Har bir tilning boyligi uning so'z boyligidan bilinadi. Hozirgi zamon o'zbek tilida so'zlarning miqdori to'g'risida turli fikrlar bayon qilinadi.

R.Abdurahmanov 80 ming so'z bor desa, E.Ferlov bu miqdorni 100-120 mingga etkazadi. «O'zbekcha-ruscha lugatda» 40 ming, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da 60 ming so'z, «O'zbek tilining imlo lug'ati» esa 65 ming so'z keltiriladi. Bu lug'atlarda asosan adabiy tilda qo'llaniladigan so'zlar keltiriladi. Ammo har bir tilning boyligi so'zlarning miqdori bilangina belgilanmaydi. So'zlarning ko'p ma'noli bo'lishi, yangi so'z yasash imkoniyatlarining kengligi ham tillar boyligidir.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili so'z boyligi ikki qatlamdan tashkil topgan: o'z qatlam va o'zlashma qatlam.

O'zbek tilining o'z qatlami umumturkiy va tub o'zbek so'zlardan tashkil topadi. Umumiyturkiy so'zlarga muz, ona, og'iz, sog', suv, temir, jil, til, tosh kabi so'zlar kirib, bu so'zlar har bir turkiy tilning fonetik xususiyatiga ko'ra, ma'lum darajada o'zgargan holda talaffuz qilinadi.

O'zbek tilining turkiy tillarning ichida o'ziga xos va farqli tomonlaridan biri bu-shevachilik-dialektizmning mavjudligidir deb o'ylayman. Chunki boshqa turkiy tillarda so'zlashuv va adabiy til bilan bir xiddek. O'zbek tiliniki adabiy tillar me'yorlariga yaqin bo'lib, ayni adabiy tildek ishlatilmaydi.

Masalan, narvon so'zini olsak, adabiy tilda narvon, Farg'onada shoti, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yashovchi o'zbeklarda esa zangi so'zi shaklida ishlatiladi. Yoki egat so'zi, birlikda chel tarzida ishlatiladi.

O'zbek tilining har bir shevasi lahjasi o'ziga o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlariga ega bo'ladi. Ana shu sheva xususiyatlardan uslubiy vosita sifatida ayrim yozuvchilar ustalik bilan foydalanidilar.

- Sen bizga xiyonat, qilding, it uvli.

- O'luvdan ham qaytmaysanmi?!-dedi zaxarxanda qilib xon (A.Qodiriy «Mehrobdan chayon»).

Agar shevalardagi juda boy so'zlarni hisobga olinsa, u so'zlardan zarurlari adabiy tilga kiritilsa o'zbek tilidagi so'zlarning umumiy soni 200000 dan kam bo'lmaydi, deya ma'lumotlarni tilshunos olimlarimiz o'z ilmiy tajribalarida ko'rsatib beradi.

O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo'yicha olimlar orasida turlicha qarashlar mavjud. Til tarixini davrlashtirish til tasnifi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Ma'lumki turkiy tillar tasnifini birinchi marta M.Qoshg'ariy boshlab bergan edi. Shundan keyin turkiy tillar tasnifi bo'yicha turkolog olimlarning turlicha tasniflari paydo bo'ldi. Ana shu tasniflar ichida N.A.Baskakovning tasnifi mukammal tasnif sifatida tan olingan edi. Turkiy tillar tasnifiga asoslanib o'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish mumkin bo'ladi va bu ham olimlar tomonidan amalga oshirildi. Lekin til tarixini davrlashtirish bo'yicha hozirda aniq bir to'xtamga kelinmadi. Bizningcha o'zbek adabiy tili tarixini olimlar keltirgan davrlashtirish masalalaridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Eng qadimgi turkiy til davri (VII asrgacha bo'lgan davr tili).
2. Qadimgi turkiy adabiy til davri (VII asrdan X asrgacha bo'lgan davr).
3. O'rta Osiyo adabiy tili (XI-XIV asrlargacha).
4. Eski o'zbek adabiy tili (XIV-XVII asrlargacha).
5. Yangi o'zbek adabiy tili (XVII-XX asr boshlari).
6. Hozirgi o'zbek adabiy til (XX asrning 30-yillaridan h.v.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sanaqulov U. O'zbek tili tarixi. Toshkent, 1998.
2. Abduraxmanov G., Mamajanov S. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1995.
3. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1992 yil, 8-son.
4. Ne'matov. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent, 1996.
5. Irisqulov K. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1985.
6. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek tilshunosligi tarixidan. Toshkent, 1998.

28-mavzu: Qadimgi turkiy til. Uning o'zbek adabiy tili shakllanishidagi roli

Reja:

1. Qadimgi turkiy tilning xususiyatlari
2. Qadimgi turkiy tilning o'zbek adabiy tili shakllanishidagi o'rni

Ma'lumki, X asrga kelib O'rta Osiyo hududida qoraxoniylar davlati vujudga keldi. Bu davrda o'zbek elatining siyosiy tuzumi, ijtimoiy munosabatlari va madaniyatidagina emas, balki etnik hamda lingvistik tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1. Qoraxoniylar davlati hududidagi turli qabila va elatlar birlashib ketdi. Uning tarkibida uyg'urlar, qarluqlar, chigillar, yag'mo, tuxsi, arg'ular, o'g'uzlar va qipchoqlar bor edi.

2. Ko'chmanchi turkiy qabilalarning o'troqlashishi tezlashdi.

3. Turkiy qabilalarning eron tilida so'zlashuvchi so'g'diy qabilalar bilan aralashishi va qo'shilib ketishi ancha kuchaydi.

Yuqoridagi tarixiy sharoit asosida X-XI asrlarga kelib, o'zbek elatining etnik chegarasi aniqlandi, tili va madaniyati barqaror bo'ldi.

O'zbek adabiy tilining shakllanishida qadimgi turkiy tilning ta'siri qanday bo'ldi, degan savol tug'iladi.

O'zbek tili qoraxoniylar davrida Chu daryosi bilan Sirdaryo oralig'idagi keng hududda va qisman Movaraunnahrda yashagan turkiy qabilalarining birlashuvi natijasida qarluq-chigil qabila dialektlari asosida tarkib topdi. Shunday qilib, turkiy tillarning qarluq guruhidan ajralib chiqqan sharqiy qarluq tili dastlabki o'zbek tili uchun asos rolini bajardi.

Ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda X-XIII asrlardagi yozma yodgorliklar uyg'ur tili yodnomalari deb qaraladi. Shunga ko'ra, o'zbek tiliga uyg'ur tili asos bo'lgan, deb talqin qilinadi. Holbuki, M.Qoshg'ariy qadimgi uyg'ur tili bilan koshg'ariy tili, ya'ni qoraxoniylar davridagi tilning bir-biridan farqini ko'rsatib o'tadi. N.A.Baskakov o'zining «Turkiy tillar» kitobida yozganidek, hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari qadimgi turkiy tillar bilan, birinchi navbatda esa, eski o'zbek tili bilan, so'ngra qarluq dialektlari asosida tarkib topgan qoraxoniylar davlatidagi til bilan, undan ham qadimroq genetik jihatdan qadimgi uyg'urlar va tukyular (o'g'uzlar) bilan aloqador bo'lgan qadimgi yag'mo turgash dialektlariga borib bog'lanadi.

Demak, qadimgi uyg'ur tili emas, balki sharqiy qarluq (qarluq-chigil-uyg'ur) tili o'zbek tili uchun o'zak til rolini o'ynagan.

Shunday qilib, turkiy tillarning g'arbiy xunn tarmog'ining sharqiy qarluq turkchasidan o'sib chiqqan o'zbek tilida qadimgi turkiy tilning bir qancha xususiyatlari saqlangan.

Bular dastavval o'zbek tili leksikasida ko'rinadi. Qadimgi turkiy tildagi ko'pchilik so'zlar qadimgi o'zbek tiliga ham qabul qilingan. Ular turmushning turli sohalariga oid so'zlardir: ab (ov), abʼt (tinchitmoq), abʼnchu (quvonch), abuch (hovuch), adash (o'rtoq), adaq (oyoq), azuq (ozuq), azon (daryo), azʼgʼ (milk), ay (oy, aytmoq), altʼ (olti), altmʼsh (oltmish), adʼt (ayir), beglig (beklik), izish (idish), illa' (boshqa), budun (xalq), yarʼn (erta), ya'ma' (yana), yʼt (yiqitmoq) kabi.

Keltirilgan misollardan qadimgi turkiy tildagi leksik unsurlar o'zbek tiliga juda yaqin bo'lganligi ko'rinib turibdi.

Uslubiyat sohasida o'zbek tili qadimgi turkiy tildan bir qancha badiiy tasvir vositalarini, jumladan, epitetlar, o'xshatish, qiyoslash, istiora kabilarni qabul qildi. Chunki badiiy tasvir vositalari qadimgi turkiy til asosida shakllanib, shu tilda ma'lum darajada ishlangan edi. Shuni alohida qayd etish kerakki, o'zbek tilining badiiy tasvir vositalari o'zbek milliy tili asosida rivojlandi. Bular xalq og'zaki ijodida aniq ko'rinadi. Xalq og'zaki ijodidagi badiiy tasvir vositalarining adabiy tilga ta'siri qadimgi davrlardan boshlandi. Bu narsa M.Qoshg'ariyning «Devon»ida, didaktik mavzuda yozilgan dostonlarda, Rabg'uziy va Ali qissalarida ko'rinadi.

Umuman, qadimgi turkiy adabiy til ta'sirida o'zbek tilining lug'at tarkibi, grammatikasi va badiiy tasvir vositalari me'yorlasha bordi. Natijada, o'zbek adabiy tilining o'ziga xos me'yorlari shakllandi.

O'zbek xalqining tili o'z taraqqiyoti davomida turli xil nomlar bilan yuritildi. Bu esa, o'z navbatida, ma'lum adabiy me'yorni belgilash ishiga to'sinlik qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. Toshkent, 1994.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1992 yil, 2-son

29-mavzu: O'zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri va uning xususiyatlari. «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlari tili va uslubi

REJA:

1. «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlari haqida.
2. «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlarining tillar taraqqiyotidagi roli.
3. Bu asarlarning til xususiyatlari va uslubi.

X-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotida katta o'rin egallagan yangi bir bosqich bo'ldi. Bu bosqichda O'rta Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining yirik va markaziy o'choqlaridan biri bo'ldi. O'rta Osiyo olimlari jahon ilm-fanni o'z kashfiyotlari va o'lmas ilmiy asarlari bilan boyitdilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir etdilar.

Bu davrda yana xalqimizning badiiy so'z san'atida ham taraqqiyoti muhim damlar bo'ldi. Ayni vaqtda xalq og'zaki ijodining boy va xilma-xil asarlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, fors-tojik va turkiy adabiy tillar shakllanib, bu tillarda yozma adabiyot vujudga keldi, atoqli so'z san'atkorlari etishdilar va qimmatli asarlar yaratdilar. Yozma adabiyot tarixi turli adabiy yo'nalishlar va ular o'rtasidagi kurash tarixi, adabiy aloqlar, turli adabiy janrlarning yuksalish tarixi bo'ldi.

O'rta Osiyo xalqlarining yozma adabiyoti o'zaro va boshqa xalqlar bilan yaqin adabiyo aloqalar zaminida ravnaq topdi. Ilm-fan ahli boshqa Sharq davlatlaridagi kabi o'z asarlarini deyarli arab tilida yozdilar.

XI asr turkiy adabiy tillarning ravnaq topishida katta bir bosqich bo'ldi. Bu hammadan avval turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, turkman va boshqa xalqlarning shakllanish jarayonining o'sishi bilan, ularning iqtisodiy-siyosiy hayotida hamda madaniyatida keng o'ring egallab, kattaroq rol o'ynashi bilan bog'liqdir. Turkiy qabila va elatlarning O'rta Osiyoga ko'chib kelishi bu davrda yana ko'chayib, turkiy tilda so'zlashuvchi aholining nufuzini oshirdi.

Qabila tillarining mushtarak adabiyo tilga aylanib borishida qabilalar o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar bilan birga badiiy adabiyotning roli katta edi. Jamiyat taraqqiyoti adabiyot va ilm-fan aqlari oldiga adabiy tilni taraqqiy ettirish vazifasini qo'ygan edi. M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusup Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asarlari va boshqalar mana shu vazifalarni bajarish sohasida juda katta qadam bo'ldi.

XI asrda yaratilgan adabiy yodgorliklar, ularning badiiy va til xususiyatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu davrda eski o'zbek adabiy tili rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Davr adabiy yodgorliklarini ko'zdan kechirsak, adabiy tilda quyidagi manzarani ko'ramiz:

1. o'zbek tilining ilk davriga xos shakllarni ko'ramiz;
2. uyg'ur yodnogmalari deb atalgan asarlar ta'sirida qadimgi turkiy shakllarni uchratamiz;
3. u tilning taraqqiyotiga butun O'rta Osiyo olimlari hissa qo'shgan forsiy til unsurlari;
4. arab istilochilarining tazyiqi ostida kirib qolgan arabcha shakllarni uchratamiz.

Shunday murakkab bir sharoitda o'zbek adabiy tilga xos shakllar tarkib topdi. Bu davrda yana kitobiy adabiy til va xalq adabiy tili mavjud edi.

Mahmud ibn al Husayn ibn Muhammadil Qoshg'ariy o'z davrining atoqli olimi sifatida tilshunoslikka oid «Javohir-un-naha fi lug'atit turk» «Devonu lug'atit turk» kabi asarlar yaratgan.

M.Qoshg'ariyning birinchi asari hozirgacha fan olamida noma'lum bo'lib qolmoqda. Ikkinchi asari «Devonu lug'atit turk» 1914 yilda Turkiya'ning Diyorbokir shahrida topilgan.

Bu asar qo'lyozmasini ko'chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqning yozishicha, u nusqani M.Qoshg'ariyning o'z dastxatidan olingan.

«Devonu lug'atit turk» asari 1915-1917 yillarda 3 tomndan iborat qilib Istambulda nashr etiladi. Shu nashr asosida K.Brokel'man asarni 1928 yilda nemischa tarjima qilib nashr etadi.

1939 yilda esa Ankarada Bosim Ataliy tarjimasida usmonli turk tilida bo'ladi. Olim S.Mutallibov «Devonu lug'atit turk» tarjimasi ustida samarali ishlab, 1960-1963 yillar davomi qilib o'zbek tilida nashr ettirdi.

M.Kashg'oriyning «Devonu lug'atit turk» asari muqaddima va lug'at qismidan iboratdir. Muqaddima muallif «Devonu lug'atit turk» yaratish sabablari, o'z ish uslubi, asarning qurilishi, turkcha so'zlarning tuzilishida qo'llaniladigan harflar haqida, kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida, turk tilining xususiyatlari haqida, tilda va lahjalarida bo'lgan farqlar haqida fikr yurimadi.

«Devonu lug'atit turk»ning asosiy qismida olti mingdan ziyodroq so'zlar sakkiz bo'limda izohlanadi. O'sha davrdagi taomilaga ko'ra, turkiy so'zlarga arabcha izoh beriladi.

Shuning uchun ham M.Qoshg'ariy tushinilishi oson bo'lishi uchun asarda arabcha istilohlar qo'lladim deydi.

M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asari oddiy lug'at kitobi bo'lmay, balki o'sha davrdagi turkiy tillarining holatini belgilashda tilshunoslik ilimga qo'shilgan muhim hissadir. Bu asar O'rta Osiyo xalqlari tillarining, shu jumladan, o'zbek tilining tashkil topishda asos bo'lgan qabilalarni aniqlash uchun yordam beruvchi muhim material bo'lib xizmat qiladi.

M.Qoshg'ariy o'z asarida o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarning va bu xalqlarning qadimgi sodda tillarga oid namunalarin mukammal izoh berdi. Buning uchun u mashaqqat chekib, o'sha davrda mavjud bo'lgan qabila tillari namunalarini to'pladi. Bu haqda u shunday yozadi: «Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'moqlar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kechib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim.

Men bu ishlarni tillar bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama nuxtai bir asosda tartibga soldim. M.Qoshg'ariy turkiy tillarda qo'llanuvchi so'zlarni izohlash, har bir turkiy qabilalarning o'ziga xos xususiyatlarini berish uchun alohida bir yo'l tutadi. Bu haqda u shunday yozadi: Men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasaliş xususiyatlarini va qanday qo'llanishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol taraqasida turklarning tilida qo'llanib kelingan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlardan, maqolalaridan keltirdim.

M.Qoshg'ariy yuqorida printsip asosida turkiy xalqlarning jonli tillar namunalarini mukammal izohlab berar ekan, ular «Devonu lug'atit turk» materiallari asosida tillari qaysi qabila tillari qaysi qabila kamolga etganini aniqlay oladilar.

Muallif «Devonu lug'atit turk» asarida o'sha davr tilining fonetikasini, leksikasini, dialektologiyasini juda puxta va to'la ilmiy asosda izohlab berishga harakat qilgan.

M.Qoshg'ariy so'zlarni izohlashda ham o'ziga xos alohida mahorat ko'rsatgan. Uning izohlarida so'zlar ma'nosining kengayishi, mavhumlashishi kabi hodisalar ham ochib berilgan. So'zlar etimologiyasi, so'z yasaliş va har xil so'z turkumi yasovchi affikslar to'g'risida dastlabki qoidalar bayon etilgan. U so'zlarga yangi ma'no yuklash yo'li bilan ham yangi so'zlar yasaliş hodisadan foydalanganligi shu xil yangiliklardan edi.

M.Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk»da chetdan qabul qilingan so'zlarga ikki xil munosabatda bo'ladi. Turmushga doir tur xil narsa va buyumlar borki, ular hayotga singib ketgan, lekin ularning nomi tilimizda yo'q.

Shuning uchun olim ularni o'sha qo'shni tildagi kabi qo'llashin ma'qullaydi.

U mazkur tilda bo'lgan so'zlar o'rnida boshqa tillar so'zlarini qo'llashin zararli deb hisoblaydi. Agar biz M.Qoshg'ariyning ikkinchi fikricha bilga, bitik, urug'ut kabi turkcha so'zlar o'rnida arabcha olim, kitob, ayol kabi so'zlarni qabul qilmasligimiz kerak edi.

M.Qoshg'ariy «Devonu lug'atit turk»da o'sha davr fonetikasiga yo'l-yo'lakay bergan izohlarida turkiy tillar fonetikasiga doir qimmatli fikrlar bayon qilgan. U o'sha davr tilshunosligida fonetikaga xos ko'pgina yangiliklar yaratdi.

Tovush va xarflar o'rtasidagi munosabatni birinchi marta, yozuvda bo'lgan harflar jonli tillar tovushlarni to'la ifodalay olmasligini ko'rsatadi.

Turkiy tillarda qo'llaniladigan asosiy harflar soni o'n sakkizgacha ko'pdir. Bu o'n sakkiz harf etarli emas. Bulardan boshqa tilda bo'lgan tovushlarni berish uchun yana etti harf kerak. Lekin u harflar yo'q.

U etti tovushli ana shu harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi.

M.Qoshg'ariy o'z asarida o'sha davr vokalizm va konsonantizmiga doir o'ziga xos fikrlarin o' aytadi.

Kitobda unlilardagi kenglik va torlik, cho'ziqlik va qisqalik masalasi. Undoshlar sistemasidagi sodda va kambinator undoshlar ulardagi jarangdorlik va jarangsizlik, undoshlarda qamor kelish hodisalari haqida qiziqarli mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari, XI asr fonetikasiga xos bo'lgan fonetik jarayonlar haqida ham dastlabki fikrlar bayon etilgan.

M.Qoshg'ariy o'z davrining buyuk dialektshunos sifatida o'sha davr qabilalari va ularning tillarini mukammal aniqlab berdi u qabilalarni tarixiy asosda yoritdi, ayrim shevalargina xos bo'lgan tillar hodisalarini ham o'z asarida ko'rsatib berdi. Umuman, bu asarda tarixiy dialektologiyaga tegishli qimmatli materiallar berilgan.

Eski o'zbek adabiy tili uning tashkil topishida dastlabki davrlardan boshlab fonetik, leksik va grammatik jihatidan qarluq-chigil va uyg'ur dialekt guruhi negizida shakllangan sharqiy turkiy adabiy tiliga xos barcha asosiy xususiyatlarni o'ziga singdirib oladi. Bu xususiyatlar eski o'zbek adabiy tilida takomilga erishgani holda birqator o'zgarishlarga uchraydi.

O'zbek adabiy tilining shakllanish davrini ko'rsatuvchi asarlardan biri sifatida Yusuf Xos Hojib Bolosog'uniyning «Qutadg'u bilig» asarini ko'rsatish mumkin.

«Qutadg'u bilig» asariy she'riy pandnoma bo'lib, undagi ge'rlar podsho Kuntug'di, dono vaziri Oyto'ldi va uning maslahatchisi O'g'dulmishlar o'rtasidagi so'hbatlar tarzida beriladi.

Asar turkiy tilda yaratilgan birinchi asar bo'lib, katta hajmli falsafiy-didaktik dostonidir. Bu asar O'rta Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining qoraxoniylar davridagi hayotini har tomonlama yoritib berishi bilan muhim bo'lganidayoq, XI asr adabiy til, adabiyoti va tarixining eng nodir yodgorligi sifatida katta ilmiy-tarixiy qimmatga ega. Eski turkiy tilning rivojlanishida, uning leksik-grammatik me'yorlarini tartibga keltirishda, ayniqsa, turkiy tilning adabiy-badiiy uslubini shakllantiradi, bu asarning ahamiyati nihoyatda katta. Qarluq-chigil-o'yg'ur tillar negizida yozilgan bu asar Qoraxoniylar davlati xudida yashagan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo'lgan, shu qabilalarning til xususiyatlarini o'zida mujassailashtirgan. Shunga ko'ra u O'rta Osiyodagi hozirgi barcha turkiy xalqlarning adabiy yodgorligi sifatida ularning umumiy til xususiyatlarini aks ettirdi.

Odob va axloq, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat masalalariga bag'ishlangan «Qutadg'u bilig» xijriy 462 yilda, milodiy 1069-1070 yilda Qoshg'arda yozilgan va Qoraxoniylar hukmdorlardan Tavg'ach Bug'raxlga taqdim qilingan.

Asarning hozirgi vaqtda 3 ta qo'lyozma nusqasi ma'lum. Bular Vena, Qohira va Namangan nuxsalaridir. Ulardan Namangan nuxsasi eng qadimiyrog'i va mukammalrog'i deb taxmin qilindi.

Muallif o'z asarining hammaga tushunarli bo'lishi uchun o'sha davrdagi qabilalar tilida mavjud bo'lgan umumiy va xususiy tomonlarni hisobga olgan holda ularni umumlashtiradi. Til taraqqiyotiga mos ravishda tilga ko'pgina yangi shakllar, yangi iboralar kiritdi. O'z asari tilining sodda, tushunarli, uslub jihatidan ravon, silliq bo'lishiga katta e'tibor berdi. Xalq tilida so'z qo'llash tajribasiga mos ravishda adabiy tilni juda ko'p yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ularni ma'lum me'yorga keltirishga harakat qiladi. Muallif tildagi umumiylikni mustahkamlar ekan, o'sha davr qabilalari tilida farqli talaffuz qilinadigan va turlicha yozilgan so'zlar talaffuzida hamda imlosida bir xillik yaratadi. Masalan, yog'och, uyat kabi bir kancha so'zlar turli qabilalarda turlicha o'qilar va yozilardi.

Asarda ularning imlosida ham, talaffuzida ham bir xillik yuzaga keltirildi.

Til xususiyatlari nuqtai nazaridan «Qutadg'u bilig»da «y» o'rnida «d» qo'llash hodisasi ustun turadi: badug, qadaz, adaq, budun kabi. Adib o'sha davr tilida bo'lgan turli xil morfologik shakllarni yangi so'zlarda qullab, ularni tilda yangi hodisa sifatida tanishishga, umumlashtirishga muvaffuq bo'ldi. Masalan, M.Qoshg'ariy o'zining «Devonu lugatit turk»da –chi affiksining shaxs oti yasash vazifasinigina ko'rsatdi.

Ammo «Qutadg'u bilig» tilida esa –chi, -ch?, -j?, -ji affiksi boshqa vazifalarni ham o'taydi.

Masalan: Tarʻqchi kishilar bolur ilgi kan. Bunda –chi affiksi kasb-hunar egasi ma'nosini anglatgan.

Yana: Ozunchsʻuzungdan yʻroq tut, soqʻn.

Bunda uzun sifatiga qo'shilib, alohida qilikli, ezma odam ma'nosida «ozunchig» so'zini yasagan.

Bundan tashqari –g'u, -gu, -qu, -ku affikslarining vazifasi bu asarda ancha keng ifodalangan.

Masalan: at tushagu boldʻsifatdosh vazifasi.

Bu ash ichku (bu ovqatni eyish, ichish) –mavxum ot, egin bitgu kizim... miqdor ma'nosida; qurol nomi kabi ma'nolarni bildiradi.

Adib o'z asarida leksik unsurlardan ham ustalik bilan foydalangan. Asarda forscha so'zlar bilan birga arabcha so'zlardan ham ken foydalanadi.

Asar tilida hozirgi tilimizda qo'llanuvchi yigit, qulg'oq, yurek, idish, tish kabi otlarni; sar'q, qara, ko'k kabi sifatlarni; men, sen, nacha, mundog' kabi olmoshlarni; ko'r, kez, kir, bil kabi fe'llarni uchratamiz.

Asar tilida hozirgi adabiy tilimizda qo'llanilmaydigan budui, qamug', bayat va boshka so'zlarni ham ko'ramiz.

Til xususiyatlari nuqtai nazardan «Qutadg'u bilig»da y o'onida d qo'llash hodisasi ustun turadi: adaq, qadaz, badug, budun kabi.

So'z oxirlarida kelgan jarangsiz undoshlarning jaranglashishi ancha sezilarli: tirig, bitig, boshig', o'xshash kabi.

Bulardan tashqari bu asarning ko'p xususiyatlarini ko'rsatish mumkin. U shu davrda yaratilgan boshqa asarlardan til xususiyatlari, badiiy qimmatlari jihatidan ustunroqdir.

Xullas, «Qutadg'u bilig» eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi jarayonini o'rganishda muhim manbalardan biri sanaladi. Qadimgi turkiy adabiy tilning X-XII asrlardagi holati shu xususiyatini, uning taraqqiyotini o'rganishda muhim yodgorliklardan biri «Hibatul haqayiq» asaridir. Asar Ahmad Yugnakiy tomonidan yozilgan.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili tarixini ilmiy ravishda chuqur o'rganishda «Hibatul haqayiq» asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. O'sha davrdagi qabila tillarining xususiyatini aniqlash, ularning bir-biriga ta'siri, rivojlanishi, o'zaro qo'shilib ketishi va markazlashishi asosida xalq tillarining, ayniqsa, o'zbek xalq tilining tashkil topishi va shakllanish jarayonini belgilashda bu asarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Asar eski o'zbek tiliga o'tishda ko'prik vazifasini o'tagan.

Asarning fonetik jihatidan qaraydigan bo'lsak, unda – dialekt ustun darajada qo'llanganligi, ya'ni y tovushi o'rnida d tovushi kelganin ko'ramiz: kidim (kiyim), kedingki (keyingi).

Morfologik nuqtai nazardan chikish kelishigi –din, -d'n affikslariga, jo'nalish kelishigi –g'a, -ga affikslariga, tushum kelishigi –g', -ig va –n?, -ni affikslariga egadir. Tushum kelishigi yana –ug', -ug variantlarida ham uchraydi: sozuch-so'zni, bozug-buzni.

Asarda sifatdoshning –tach?, -tachi, -g'li, -gli, -dug', -dug shakllari ancha siyrak, aksincha –g'an, -gan kabi affiksli sifatdoshlardan unumli foydalangan.

«Hibatul haqayiq» asari X-XII asrlarda qo'llangan turkiy adabiy tilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi.

X-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida yangi bir taraqqiyot davri bo'ldi. Bu davrda ilm-fan, badiiy adabiyotda ham ko'pgina yangiliklar, tarixiy qimmatli asarlar yaratildiki, ularning nash'asidan bugungi kungacha bo'lgan avlodlar va asrlarga manzur bo'ladi.

Yuqorida biz ko'rib o'tgan ikki buyuk alloma Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiyning ilm-ma'rifatga, donishmandlikka, odob-axloqlikka chaqiruvchi, shuning bilan birga o'zbek adabiy tilining shakllanishiga katta ta'sir qilgan XI asr tilini badiiy mukammallikda kyarsata olgan o'z davrining va o'zidan keyingi davrning noyob durdonalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B., Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.
4. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, 1995.
5. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976.

30-mavzu: O'zbek tilining XII asrdan keyingi taraqqiyoti. Qarluq-xorazm adabiy tili

REJA:

1. Qarluq-Xorazm adabiy tilining shakllanishi.
2. Qarluq-xorazm adabiy tilining yodgorliklari.
3. Yodgorliklarning til xususiyatlari.
4. Qarluq-xorazm adabiy tilining til taraqqiyotida tutgan o'rni.

X-XII asrlarda o'zbeklarning etnik chegarasi belgilandi, bu esa o'zbek tilining takomilida katta bosqich bo'ldi. O'zbek tilining takomilida o'sha davr, o'sha muhit tarixiy voqealarning o'rni benihoya katta hisoblanadi.

Ma'lumki, mo'g'ul qabilalarining faolligi X asrdanoq ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Dastlabki mo'g'ul qabilalaridan bo'lgan qoraxoniylar Ettiso'vga va XII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga bostirib keladilar. Lekin, ular bir tomondan kuchli davlat bo'lgan Xorazmshohlar bilan kurashsa, ikkinchi tomondan, mo'g'ul urug'laridan naymanlar bilan kurashdi. Xorazmshohlar bu kurashda ko'chmanchi qipchoqlar, o'g'uzlardan foydalandi. Natijada qoraxoniylar O'rta Osiyoni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. Lekin ular o'zbek elati tarkibiga xitoy qabilasini tashlab ketdilar.

O'zbek elati va uning tili tarixida XII asrning boshlari, yangi davr hisoblanadi. O'sha davr adabiy tiliga qoraxoniylar davri tili asos qilib olinib, u tildagi shevali kitob tili an'anasiga aylanib boradi. Chunki keyinchalik Chig'atoy davlati tuzilgan xudiddagi qabilalar tilida «d» belgi dialekt ustunlik qilgan. Chig'atoy davlati turk tilida va eron tilida so'zlashuvchi qabila, elat xalqlar yashovchi O'rta Osiyoning madaniy xududida tuziladi. Bundan tashqari XII-XIV asrlarda Xorazmni ham o'ziga qo'shib olgan Oltin O'rda davlati tuzildi. O'zbek elatining shakllanishi va tilining taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omil bo'lgan xalqning o'troq qismi bilan ko'chmanchi qismi orasida munosabat va aloqa ancha kuchaydi. Bundan tashqari Movarounnaxrning g'arbiy shimoliy-tarbiy va Janubiy Xorazmga o'g'uz qabilalarining ta'siri kuchaydi. Bizga ma'lumki o'g'uzlarda ham asosan «y» belgisi dialekt ishlatilar edi.

Arablar xalifaligining to'g'ridan to'g'ri ustunligi qulagandan keyin, IX-X asrlarda O'rta Osiyoda samoniylar davlati hukm surdi. X-XII asrlarda qoraxoniylar samoniylar davlatini qulatib, o'zlari ustunlik qila boshladi.

O'zbek tilining qarluq-xorazm adabiy tili qoraxoniylar davlati qulagandan keyin Xorazmda rivojlandi. Bu tilda qarluq-uyg'ur va g'arbiy tillarga xos xususiyatlarga ko'zimiz tushadi. Qarluq-xorazm adabiy tili mo'g'ullar istilosidan so'ng bir-biriga yaqin bo'lgan ikki adabiy tilning shakllanishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri Oltin O'rda ya'ni Xorazm adabiy tili bo'lsa, ikkinchisi chig'atoy ulusining tili atamasi bilan shakllandi. A.Yassaviyning «Devoni hikmat» asarini, Rabg'uziyning «Qissai Rabg'o'ziy» asarini va Alining «Qissai Yusuf» dostonlarini qarluq-xorazm adabiy tilining o'lmas yodgorliklari deb hisoblaymiz.

Xo'ja Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» asari. Xo'ja Ahmad Yassaviy XII asrdagi tasavvuf ilmining eng yirik vakillaridan biri sanaladi. U tasavvuf ilmini tartib qiluvchi she'rlar yozish bilan «Devoni hikmat» to'plamini tuzdi. Bu to'plamning 1105 yilda yozilgan eng avvalgi nusqasi Istanbulda saqlangan.

«Devoni hikmat»ning qo'lyozma va bosma nuxsalari bir-biridan farq qiladi. Bu nusqalar hatto tishl va uslub jihatidan ham farq qiladi. «Devoni hikmat» ning birona nusqasining tili XII asr o'zbek tili yodgorligi bo'la olmaydi. Chunki, Yassaviy hikmatlari kitobdan-kitobga, og'izdan-og'izga o'tib o'zining matniy va mazmuniy ixchamligini o'zgartirib yuborgan. «Devoni hikmat»da berilgan she'rlarining hatto kimga tegishli ekanligini aniqlash ishini ham mushkullashtirib yubordi. «Devoni hikmat» tuzilgandan keyin, uzoq vaqtlar davomida unga turli o'zgarishlar kiritilgan. Bu o'zgarishlar o'z navbatida barchasiga, hajmi, tili, uslubi va she'rlar miqdoriga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

«Devoni hikmat»dagi hikmatlar tili va uslubi keyingi davrlarning tiliga muvofiqlanib borgan. Bizga ma'lumki, Yassaviy hikmatlari o'ssavviy tantanasi davrida XV-XVI asrlarda to'plangan.

Kitob 149 hikmatdan iborat. A.Yassaviy hikmatlarini til haqida har xil fikr va mulohazalar mavjud.

A.Barovkov ta'kidlashicha, Yassaviy hikmatlari qarluq-uyg'ur tilda yozilgan bo'lib, «Qutadg'u bilig» tiliga Qo'qon xonligi dialektiga asoslangan deydi. Professor Fuad Ko'prulizoda A.Yassaviyki arg'u urug'idan deb, uning tilida qisman o'g'uz tili ta'siri bor va hikmatlar tili «Qutadg'u bilig» asariga yaqin turuvchi til deb ko'rsatgan.

A.Yassaviy asarining tilida Qoraxoniylar tilidagi adabiy til xususiyatlari va qarluq qavmlarining dialektiga mansub xususiyatlar uchraydi. Turkiston uning ichida Sirdaryoning o'rta bo'yida joylashgan o'troq qipchoq, o'g'uz qavmlarining adabiy tili ham shevalarining grammatik, fonetik belgilari ham ustunlik qiladi.

A.Barovkov Yassaviy hikmatlarining tili haqida gapirar ekan, uni qarluq-o'g'uz tili asosida rivojlangan, deydi. Lekin bu fikrni isbotlash uchun Yassaviyning o'zi yozgan hikmatlarining o'zgarishiga uchragani imkon bermaydi. Ayrim saqlanib qolgan hikmatlarining matnlari bizga quyidagilarni aniqlashga vaziyat to'g'dirib beradi.

Hikmatlar tilini tahlil qilar ekanmiz, ularda mahalliy shevalarning xususiyatlari o'z ifodasini topganligiga ishonch hosil qilamiz. «Devoni hikmat»ni kim, qaysi shevadagi kishi ko'chirgan bo'lsa, o'sha til dialektlari asar tilida aks etgan. Qaratqich va tushum kelishigi uchun –ni shakli faqat jonli o'zbek

shevalariga xos xususiyat hisoblanadi. Bu holni hikmatlarda aniq ko'rish mumkin. Masalan: darya'ni, guharni, karvonni va shu kabilar.

Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birligi –gil, -g'in affikslari orqali yasaladi. Masalan: salg'ā-salg'ān, qālg'ā-qālg'ān. XVI-XVII asrlarga oid ko'pchilik yodgorliklardagi kelishiklarda bir –n tovushi orttiradi, bu umumiy xususiyatdir. Demak bu «Devoni hikmat»da ikki dialektal qutb birlashgan degan xulosaga olib keladi.

«Devoni hikmat» eski turkiy adabiyot va adabiy tilning obidalaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Undagi she'rlarning ko'pchiligi xalq og'zaki ijodida keng yoyilgan qo'shiq shaklidagi to'rtliklardan iborat.

To'rtlik-qo'shiq shaklida yaratilgan she'rlar xalq so'zlashuvtiliga yaqin bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, bu she'rlar, asosan qadimdan mavjud bo'lgan barmoq va aruz vaznida yaratilgan. Shunga ko'ra Yassaviy hikmatlarida umumxalq tiliga xos so'z va shakllar badiiy ta'sir vositalari keng ishlatilgan. Umuman, Yassaviy hikmatlarining tili qarluq-xorazm tili an'anasiga borib taqaladi.

Nasiriddin Burxoniddin o'g'li Rabg'uziy «Qissai Rabg'o'ziy». «Qissai Rabg'o'ziy» asari 1309-1310 yillarda Nasiriddin Burxoniddin o'g'li Rabg'o'ziy tomonidan yozilgan. Rabg'o'ziy Xorazmning Rabot o'g'uz degan joyidan bo'lib, XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida yashagan.

Ma'lumki, mo'g'ullar istilosi diniy ta'sirning kuchayshiga olib keldi. Bu holat badiiy adabiyotga ham ta'sir qildi. Ko'pchilik yozuvchilar diniy aqidalarga berilib, diniy qonunlarni xalqqa tushunarli tilda yoritilishiga harakat qildilar. Bunda ular qissa eanridan keng foydalandilar. Qissalarda so'zlashuv tiliga murojaat qila boshladilar. Natijada xalq tiliga xos unsurlar ayrim diniy afsonaviy syujet asosida asarlar dunyoga kela boshladi.

«Qissai Rabg'o'ziy» asari o'sha davr tilini o'rganish uchun etarlicha ma'lumot beradi, asardagi 72 ta qissani muallif «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujetlar asosida yaratilgan. Rabg'o'ziy islom dinini targ'ib etish maqsadida xalqqa tushunarli bo'lsin deb xalq so'zlashuv tiliga murojaat qiladi. Mazkur asarda xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan qissa va latifalar uslubi ustun darajada o'z ifodasini topadi. U kitobiy til bilan xalq tilini bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

«Qissai Rabg'o'ziy» asarning til xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu asarda fonetik jihatdan o'z dialekti kamayib, «y» dialektining ustunlashganining guvohi bo'lamiz.

Morfologik jihatdan «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili «Tafsir»ga to'g'ri keladi.

Qaratqich kelishigi –ning, -nung yoki –ng, -ung shakllarga egadir. Tushum kelishigi –ni, -n affikslariga ega. Jo'nalish kelishigi –g'a, -ga, -ka, -qa, -a kabi affikslarga ega.

Chiqish kelishigi affiksi –dā, -din tarzida ishlatiladi.

«Qissai Rabg'o'ziy» asari muqadima, qissalar, hikoyalardan, she'riy parchalar va xotimadan iboratdir. Asarning tili sodda va ravon.

«Qissai Rabg'uziy» asarida o'g'uz va qipchoq tillariga xos xususiyatlar ustunlik qiladi, shu bilan birga qarluq-uyg'ur tili unsurlari ham ishlatilganligi ko'rinadi. Asar tilida o'zbek adabiy tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga xos xususiyatlar aniq ko'zga tashlanadi. Ayni vaktida bu asar o'zining til xususiyatlari jihatidan O'rta Osiyodagi turkiy tillarning barchasi uchun barobar ilmiy qimmatga egadir.

«Qissai Yusuf». Alining «Qissai Yusuf» asari XIII asr boshlarida yozilgan bo'lib til xususiyatlari jihatidan unda o'g'uz-qipchoq unsurlari o'z aksini topgan. Ali Yusuf va Zulayxo haqidagi diniy afsonaviy syujetni qayta ishlab unga dunyoviy ruh berishga intilib, asarni o'g'uz dialekti ustun bo'lgan adabiy tilda yozgan.

«Qissai Yusuf» dostoni haqida va uning til xususiyatlari to'g'risida prof. M.Brokkel'man qimmatli fikrlar bildirgan. U qissaning leksik xususiyatlari haqida gapirib, undan 198 ta so'z oladi va shundan 73 tasi turkcha, 63 tasi turkistoncha va o'yg'urcha, 10 tasi tatarcha va boshqa tillardan kirgan so'zlar ekanligini ko'rsatadi.

Muallif «Qissai Yusuf»ni usmonli turk adabiyotining yodgorligi deb ataydi. Bu asarning yozilgan joyi, qaysi xalqqa tegishli ekanligi va til xususiyatlari to'g'risida olimlar tomonidan turlicha fikrlar bayon qilingan. Brokkel'man asarda qo'llangan ko'pincha o'g'uzcha unsurlarga, ayniqsa, leksik unsurlarga asoslanib, uni turk adabiyoti yodgorliklariga ko'shadi. Smaylovich «Qissai Yusuf»ning til xususiyatlarini ko'rib chiqib, uni Oltin O'rda xududida keng tarqalgan qipchoq va o'g'uz dialektlariga bog'laydi.

«Qissai Yusuf» tilidagi ba'zi so'zlarni qiyoslash orqali uning til yodgorligi ekanini bilish mumkin: unjutmoq-g'amxo'r bo'lmoq, unju-notinchlik. «Qissai Yusuf» tilidagi so'zlar bilan turkman tilida uchrovchi so'zlarni qiyoslash asarni usmonli turk tilining yodgorligi emas, balki uning kelib chiqish ildizlarini O'rta Osiyodan axtarish kerak degan xulosaga kelish mumkin. Asarda Sharqiy Turkiston tiliga

oid ba'zi morfologik unsurlar ham buning zo'r isbotidir. Xulosa qilib aytganda, «Qissai Yusuf» asari XIII asr boshlarida O'rta Osiyoda aniqrog'i Oltin O'rdaning sharqiy qismpsi bo'lgan Xorazmda yaratilgan eski o'zbek tiliga xos yodgorlik hisoblanadi. Ma'lumki, ancha ilgari boshlangan qarluq-uyg'ur va o'g'uz-qipchoq yoki sharqiy turkiy va g'arbiy turk tillar an'anasiga ularning o'zaro bir-biriga ta'siri XIII-XIV asrlarga kelib ancha rivojlandi. Iqtisodiy-madaniy aloqalarning ko'chayishi turkiy qabila va elat ittifoqlarining bir-biriga yaqinlashuvi, aralashib ketishi jarayonini tezlashtirgan edi. Demak, bu davrda sharqiy turk va g'arbiy turk tillarining bir-biridan ajralib ketishi va mushtarak adabiy tilga tomon taraqqiyot etib borishi taomili ham kuchaygan edi. Bu holat shu davrlarda maydonga kelgan adabiy yodgorliklarga, jumladan, Alining «Qissai Yusuf» asariga ham ta'sir etmay qolmadi. Bu asar qarluq-xorazm adabiy tilining shakllanishida, rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Umumiy xulosa qilib aytganda, XII asrda keyin o'zbek tilining shakllanishi va takomilini belgilash uchun o'sha davr yodgorliklari muhim ahamiyatga ega. Yodgorliklarning til xususiyatlari qarluq-xorazm tili shakllanishi uchun muhim manba hisoblanadi.

XII-XIII asrlardagi adabiy yodgorliklar. 1. XII-XIII asr O'rta Osiyodagi yaratilgan devon, qissa va dostonlar. 2. Rabg'uziy va uning «Qissasi Rabg'uziy» asari. Asarning til xususiyatlari. 3. Ali va uning «Qissai Yusuf» dostoni, til xususiyatlari.

An'anaga aylanib ketgan «d» dialektida birmuncha o'zgarish yuz berdi. G'arbiy adabiy til an'anasi deb atalgan til ta'sirida yozilgan yozma yodgorliklar tilida «d» tovushining qo'llanishi kamayib, uning o'rniga «y» tovushi ishlatila boshlaydi. Bunday o'zgarishni «O'g'uznoma» afsonasida va Oltin O'rda turkumiga kiruvchi asarlar tilida uchramiz.

Bulardan tashqari, qarluq mushtarak tilining g'arbiy turkiy tillarga ham ta'siri bo'lgan. Bu ta'sir mo'g'ullargacha ancha kuchli bo'lib, ular davridan susayishi bilan, g'arbiy adabiy til, yoki N.A.Baskakov atamasi bilan aytganda «qarluq-xorazm tarmog'» adabiy tilining taraqqiyoti boshlangan. Qarluq-xorazm adabiy tilining yodgorligi sifatida Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»ni va Rabg'o'ziyning «Qissai Rabg'o'ziy» asarini va Alining «Qissai Yusuf» dostonini ko'rsatish mumkin.

Ahmad Yassaviy so'z san'atidan foydalanib, tasavvuf ilmini targ'ib qiluvchi she'rlar yozib, «Devoni hikmat» to'plamini tuzgan.

A.Yassaviyning hikmatlarining tili haqida har xil fikrlar bor. A.K.Borovkov Yassaviy hikmatlari qarluq-uyg'ur tilida yozilgan bo'lib, «Qutadg'u bilig» tiliga yaqinlashmaydi, de ta'kidlasa, G.Vamberi hikmatlar tili Qo'qon xonligi dialektiga asoslangan, deydi. Olim Ko'prulizoda A.Yassaviy arg'u urug'ining vakili deb, uning tilida qisman o'g'uz tilining ta'siri bor va hikmatlar tili «Qutadg'u bilig» asariga yaqin turuvchi til deb ko'rsatadi.

Hikmatlarning tilini tahlil qilar ekanmiz, ularda mahalliy shevalarning xususiyatlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. «Devoni hikmat»ni ko'chirgan kishi qaysi sheva vakili bo'lsa, uning tilida o'sha dialekt xususiyati aks etgan. Jonli o'zbek tili shevalarida qaratqich va tushum kelishigi uchun –ni shakli qo'llanadi. Bu holni hikmatlarda ham uchramiz. Masalan: darya'ni, guharni, karvonni va shu kabilar.

Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birligi –gil, –g'in affikslari orqali yasaladi. Masalan: salg'ā-salg'ā, qālg'ā-qālg'ā.

Lokativ kelishiklarda, xuddi ayrim shevalardagi kabi, bir «n» tovushi orttiriladi. XV asrlarga oid ko'pchilik yodgorliklarda bu holat mavjud bo'lsa ham, ba'zilarida yo'q ekanligini ko'ramiz. Bu esa «hikmatlarda ikki dialektal qutb birlashgan» degan xulosaga olib keladi.

Asarlari yalkinda hikmat ko'ri belinda,

Idzim edi tilinda, ollo degan darveshlar.

Leksika sohasida ham ba'zi dialektal unsurlarni uchramiz: yaqin, yavuuq.

Fors tili uchun xos bo'lgan «u» bog'lovchisi bilan kelgan qurilmalar ham uchraydi: molu mulk, jonu dilim, ichu-tashim kabilar.

Fonetik jihatdan so'zlarning oxirida «g'» tovushining kelish holati uchraydi: tan'g', qamug', tufrug' kabi. Shuningdek, –lug', –l'g' affiksi bilan yasaalgan nisbiy sifatlar ham qo'llaniladi: haqiqatl'g', uyqul'g', o'nglug' kabi. Bu xil xususiyatlar «Qutadg'u bilig», «Qissai Rabg'o'ziy» va XV asr yodgorliklarida ham bor. Lekin keyingi davrlarda «g'» o'rnida ko'pincha «q» tovushi ishlatilgan.

Rabg'o'ziyda «Tafsir»da va qisman XIX asrgacha saqlanib qolgan ravishdoshning eski shakli –yu affiksi hikmatlarda juda siyrak uchraydi.

Masalan: Teyu-deb, sayrayu shaxdin shaxg'a qoiar,

Dostlar, istayu bold?, aning sad'qlar.

bg'o'ziy XIII asrning oxiri va XIV asrning boshlarida yashagan. Uning bizgacha etib kelgan asari «Qissai Rabg'o'ziydir». Bu asar o'sha davr tilini o'rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asardagi qissani muallif «Qur'on» va boshqa diniy kitobdagi syujetlar asosida yaratgan. «Qissai

Rabg'o'ziy» asari fonetik jihatdan o'z dialektini kamayib, va dialektning ustunlashgan davriga to'g'ri keladi. Umuman, har ikkalasi birga qo'llanadi. Masalan, idim-izim (janob, xudo).

Morfologik jihatdan «Qissai Rabg'o'ziy» asarida qaratqich kelishigi -n'ng, -nung yoki -'ng, -ung shakllariga egadir. Masalan, Arabung adati bar. Ul eding evlani.

Tushum kelishigi -ni, -n affikslaridir:

Masalan: Qo'lin uzatdi.

Jo'nalish kelishigi -ga, -g'a, -ka, -qa, -q? -a kabi affikslarga ega: yaziqla, -dalaga, vaz'rina iligina -qo'liga, eviqa, -uyiga, qavmuqa xalqiga, ag'z'g'a-og'ziga kabi.

Chiqish kelishigi affiksi -d'n, -din tarzida ishlatiladi. Lekin uning fonetik variantlari ham mavjud. Masalan: Men send'n narsa tilamasman. «Qissai Rabg'o'ziy»da kishilik olmoshlariga chiqish kelishigi qo'shimchasi qo'shilishdan oldin qaratqich kelishigi qo'shimchasi qo'shiladi: Bizingdin qacht'ng. Sizingdin keding. Jo'nalish kelishigining -g'aru, -garu shakllari uchraydi: tashqaru, qayg'aru, yangaru kabi. -gacha ma'nosini ifodalovchi tegru, tegi, tegin, teginch, teksun kabi so'ng ko'makchilar ishlatiladi: Erning ostiga teginch (erning ostigacha), ko'kka tegincha (osmongacha). So'ng ko'makchilardan uchun, beru, kedzu, qatinda so'zlari ham uchraydi: o'n yil beru, anda kedzin.

Asarda ushul, mundog', andog' kabi ko'rsatish olmoshlari: qayu, qach qayu ersa, kanda kabi so'roq olmoshlari: o'z, qandu kabi o'zlik olmoshlari uchraydi.

Jamlovchi sonlar -agu affiksi bilan (sifatdosh: -duk, -g'; -g'an, -mish) tartib sonlar -ing affiksi bilan yasalgan: ikachu, uchagu, birinch, ikinch kabi.

Ravishdosh -ibin affiksi bilan, sifatdosh: -duk, -g'an, -g', -mish affikslari bilan hosil etilgan. «Turur» gapning kesimi vazifasida kelgan: bo'lgulik ish turur -g'ay, -gay affikslari yordamida kelasi zamon fe'llari yasalgan: bo'lg'ay kabi.

Kelasi zamon aniq fe'li yasash uchun -gusi, -g'usi va -asi affikslari qo'llangan: Mana na jazo bergusidir.

Hozirgi kelasi zamon fe'lining birinchi shaxs ko'plik affiksi -miz orqali tuslanishi bilan birga, o'g'uz tilining unsuri hisoblangan -o'z affiksi bilan ham tuslanadi. Masalan: Bu uch nasina ana arg'uman apparsauz gerek erdi.

O'tgan zamon fe'lining shakllari juda kam qo'llangan. Bu fe'ning birinchi shaxs ko'pligi bir necha o'rindagina mavjud. Masalan: turduq, kelduk, barduq.

«Qissai Yusuf» dostonining til xususiyatlari. Yusuf va Zulayxo haqidagi diniy-afsonaviy syujetni Ali ijodiy qayta ishlagan. Dostonni o'g'uz dialekti xususiyatlari uchun bo'lgan adabiy tilda yozgan. Professor M.Brokell'man dostonning til xususiyatlari haqida gapirib, undan 198 ta so'z oladi va shundan 73 tasi turkcha, 63 tasi turkistoncha va uyg'urcha, 10 tasi tatarcha ekanligini ko'rsatadi.

Brokkel'man «Qissai Yusuf» leksikasini quyidagicha guruhlaydi:

1. Sharqiy Turkiston va uyg'urcha so'zlar.
2. Turkcha va tatarcha so'zlar.
3. Turkcha, tatarcha va qrm-tatarcha so'zlar.
4. Sof turkcha so'zlar.

«Qissai Yusuf»da sof turkcha hisoblangan alq'shla so'zini keltiradi. Bu so'z boshqa turkiy tillarda ham bor: turkmancha alq'shlamoq, ozaboyjoncha al chaya'l'q'shlamoq, o'zbekcha olq'shlamoq, uyg'urcha alq's kabi. «Qissai Yusuf» tilidagi uchrovchi so'zlarni qiyoslash asosida, «Qissai Yusuf» usmonli turk tilining yodgorligi emas, balki uning kelib chiqish tarixi ildizlarini O'rta Osiyodan axtarish kerak degan xulosaga olib keladi. Doston tilidagi Sharqiy Turkiston tiliga xos morfologik unsurlar ham bu fikrni isbotlaydi. «Qissai Yusuf» da qurol-vosita kelishigi qo'shimchasi -n (al'n-qo'lini) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga, -a: qaratq'ch kelishigi qo'shimchasi -ning (-ning, -ing), -in tarzida uchraydi. Ravishdosh -a, -u, -o', -i affikslari orqali yasaladi: seva vergil, acha vergil, yashnayu kabi. -u affiksi bilan yasalgan ravishdoshdan inkor shaklini hosil qilish mumkin: kelumadi (kela olmadi).

Umuman XII-XIII asr yozma yodgorliklari hisoblangan yuqoridagi devon, qissa va dostonlar o'z davridagi eski o'zbek tilining taraqqiyotini o'rganishimizda muhim manbalar hisoblanadi. A.Yassaviyning «Devoni hikmat»ning tili qarluq-xorazm adabiy an'anasiga borib taqaladi.

«Qissai Yusuf» afsonasi tilida mavjud bo'lgan janubiy-g'arbiy yoki o'g'uz-turkman tili unsurlari uni O'rta Osiyo xalqlarining yodgorligi deyishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Tursunov., B.O'rinboev., A.Aliev. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. A.Muxtorov., U.Sanaqulov. O'zbek adabiy til tarixi. Toshkent, 1995.
3. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. Turkiy tillerdiñ jazba estelikleri. Tashkent, 1996.

4. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. H.Ne'matov. 1992. №2. A.Yassaviy hayotiga oid ba'zi fikrlar.

31-mavzu: O'zbek tilining XIV asr oxiri XVII asrgacha bo'lgan taraqqiyoti. A.Navoiy o'zbek adabiy tili asoschisi

REJA:

1. XIV-XVII asrlardagi o'zbek adabiy tili.
2. Bu davrlar tilining taraqqiyot bosqichlari.
3. Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Navoiy kabi allomalarning til taraqqiyotidagi roli.
4. Bu davr tilining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari.
5. Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi
6. A.Navoiy o'zbek adabiy tili asoschisi

O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida, jumladan, o'zbek xalqi madaniyati, adabiyoti va adabiy tilining rivojlanishida XIV-XVII asrlar alohida bir bosqich bo'lib kiradi. Bu davrda xalq ommasining mo'g'ullar istibdodiga qarshi ozodlik kurashi-sarbadorlar harakati kuchayib ketdi. Shahar hunarmandlari kosiblar va dehqonlardan tashkil topgan sarbodorlar harakatining kengayishi natijasida mo'g'illar hukmronligi kuchsizlanadi. Movorounnahr mahalliy feodal arestokratlar orasida xokimiyat uchun qizg'in kurash boshlanib ketdi. O'sha davrda Chig'atoy ulusiga qarashli Movorounnahr mayda feodal davlatlarga bo'lingan bo'lib, ular o'rtasida tinimsiz urush janjallar davom etardi. Uzoq davom etgan qattiq kurashlardan so'ng Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir xokimiyatni qo'lga oldi. Amir Temur dastlab Movorounnahrni birlashtirish, Chig'atoy ulusi o'rniga mustaqil kuchli davlat tuzish, mamlakatni tushkunlik va xarakatdan qutqarish yo'lida kurash olib bordi. Natijada shaharlar obod bo'ldi, yangi-yangi bog'lar, karvonsaroylar, irrigatsiya inshootlari qadabiy ko'tardi. Bu davrda me'morchilik, nasviriynaqkoshlik san'ati, fan va madaniyat taraqqiyo qildi. Adabiyot va o'zbek adabiy tili rivojlandi.

Umumxalq o'zbek adabiy tilining tashkil topishi jarayonining tugallanishi XIV-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Xuddi mana shu davrlarda adabiy yodgorliklar tiliga oid grammatik xususiyatlar o'zaro farqlar bilan bir qatorda, adabiy tilda va badiiy adabiyot tilida nutq birliklarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos yagona morfologik qurilishi, zamonaviy grammatik shakllar tizimi tarkib topdi. Shu davrda doston, g'azal, noma, munozara, muammo kabi janr va uslublarda yaratilgan asarlarning tili bunga aniq guvohlik beradi.

Bor edi ko'ngulda burundin bu azm,

Turki tili birlamu qilsam nazm.

Kabi misralar hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining rivojlanishida badiiy adabiyot tili etakchi o'rinni egallaydi. Adabiy-badiiy asarlarning matnlarida umumxalqning ikki ko'rinishi-adabiy til va jonli so'zlashuv tili xususiyatlari ochiq namoyon bo'ladi, uning barcha imkoniyatlari yuzaga chikadi. Bu davrda o'zbek badiiy adabiyot tilining shakllanishida, so'zlashuv adabiy tili me'yorlarini ishlab chikish hamda adabiy tilni jonli xalq tiliga yaqinlashtirishda Durbek, Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy va ayniqsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari so'z san'atkorlarining o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlarida jonli xalq tili vositalarining adabiy til unsurlari bilan qo'shib borganligini ochiq ko'rish mumkin. Bu esa ular yaratgan asarlarning til va uslub jihatidan sodda, ravon bo'lishiga, ancha oson tushunilishiga olib keldi.

Eski o'zbek adabiy tili tashkil topgan dastlabki davrlardan boshlab, fonetik, leksik va grammatik jihatdan Qoraxoniylar davrida qarluq-chigil-uyg'ur dialekt guruhi asosida shakllangan sharqiy turkiy adabiy tilga xos barcha asosiy xususiyatlarni o'ziga singdirib olgan edi. Ayni vaqtda bu xususiyatlar esa o'zbek tilida takomilga erishgan, bir qator o'zgarishlarga ham uchragan. Bu o'zgarishlar avvalo adabiy tilda so'z qo'llash jarayonida ochiq ko'rindi. Jonli xalq tiliga xos juda ko'p so'z va iboralar adabiy tilga kirib qoldi, ular asosida ko'plab yangi so'z va yangi tasviriyy vositalar yaratildi. Adabiy-badiiy asarlarda tilning soddaligiga, uning ixcham va ravonligiga katta e'tibor berish bilan birga xalq tiliga xos quyma iboralar maqol va hikmatli so'zlardan keng foydalanish asosida obrazlikka, badiiy pishqlikka erishildi. O'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan o'zaro munosabati yana ham rivojlandi. Shu asosda o'zbek adabiy tilining umumxalq xususiyati kuchayib bordi.

Bu davrda eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan eng muhim yodgorliklarga «O'g'uznoma», «Qissai Rabg'o'ziy», «Tafsir», «Yusuf va Zulayxo», «Muxabbatnoma» ta'sirida yaratilgan «Latofatnoma» kabi asarlarini kiritish mumkin. Asarlar tilida o'zbek adabiy tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga

xos xususiyatlar ochiq ko'zga tashlanadi. Ular o'zbek adabiy tili taraqqiyotining ilk davrlariga tegishli yodgorlik hisoblanadi.

Ma'lumki, o'zbek tili uzoq yozuv traditsiyasiga va boy yozma yodgorliklarga ega bo'lgan tillardan biri sanaladi. Uning fonetik va leksik sistemasi hamda grammatik qurilishida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash uchun har bir davrga oid yozma manbalar tilini sinchiklab o'rganish, so'ngra ularning eng muhim xususiyatlarini bir-biriga qiyoslash zarur. Ana shunday tadqiqotlar orqaligina o'zbek tilining ko'p asrlik taraqqiyot tarixini to'g'ri va aniq yoritish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda O'zFA til va adabiyot institutining bir guruh olimlari tomonidan yaratilgan yirik monografiya muhim ahamiyatga egadir. Monografiyada XIII-XIV asrlar davomida O'rta Osiyo va Oltin O'rda xududida yaratilgan yirik asarlar tekshirish ob'ekti qilib olingan. Olimlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, bu yodgorliklar, birinchi navbatda, o'zbek tiliga aloqador bo'lsa ham, lekin ularning til jihatdan faqat o'zbek xalqigagina yozilgan, deb aytilishi bir tomonlama hukm chiqarish bo'ladi, albatta. Shuni hisobga olgan holda ular mazkur asarlarni «turkiy adabiy yodgorliklar»dan degan nom bilan ataydilar hamda «turkiy» so'zini o'sha davrda O'rta Osiyo va Oltin O'rda xududida ish ko'rgan va keyinchalik, birinchi navbatda, o'zbek adabiy tilining shakllanishiga asos bo'lgan adabiy til tushunchasi o'rnida qo'llanganliklarini qayd qilib o'tadilar.

O'zR FA Til va adabiyot institutining bir qator olimlari tomonidan yaratilgan yirik monografiyada XIII-XIV asrlar yozma yodgorliklarining morfologik xususiyatlari keng va atroflicha yoritilgan. Bunda shu davr ochib berilishi bilan birga, har qaysi manba tiliga xos o'zgachaliklar ham alohida qayd qilib o'tilgan. So'ngra tavsif qilingan faktlar O'rxun-Enisey, qadimgi uyg'ur hamda XI-XII asrlar yodgorliklari faktlariga ham qiyoslab o'tilgan. Shunday qilib, ishda sinxronik tadqiqot metodi bilan dioxronik va qiyosiy metodlar bilan birgalikda qo'llanganki, bu tadqiqotning ilmiy qiymatini yanada oshirgan. Eng katta so'z turkumlari bo'lgan «Ot» va «Fe'l» filologiya fanlari doktori Sh.Shukurov tomonidan yozilgan. Avtor otlarga ko'plik, egalik va kelishik formalarini keng tahlil qilish bilan birga, otlarning tuslanishi, predikativ affiksleri va bo'lishsizlik formalariga ham alohida to'xtalib o'tgan. Ayniqsa, kelishik formalari, ularning ma'no va funktsiyalari juda yaxshi yoritilgan. Ma'lum bo'ladiki, qadimgi vosita kelishigi (-h/-in) bu davrda ham ancha faol bo'lgan va XV asrdan keyingina iste'moldan chiqqan. «Ot yasalishi» bobida ismdan ot yasovchi va fe'ldan ot yasovchi affiksalar alohida keltirilib har bir yasovchi affiksning ma'no xussuvtlari ochib berilgan. Biroq sintaktik usul bilan ot yasalishi tekshirilmagan.

Fe'lning grammatik funktsional shakllari, har qaysi shaklni hosil qiluvchi affiksalar va ularning semantik, funktsional xususiyatlari chuqur va sistemali yoritilgan. Muallifning yozishicha, o'sha davr tilida harakat nomining -maq/-mak affiksli shakli faol qo'llangan bo'lib, -sh affiksli shakli asosan «Xusrav va Shirin»da uchraydi, xolos. Aksincha, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida keyingi shaklning qo'llanish doirasi ancha kengaygan.

Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, XIII-XIV asrlarda sifatdosh yasovchi affiksalar nisbatan ko'p va xilma xil bo'lgan. Ulardan -duk/-duk, -mish/-mish, -g'u/-gu, -dachʻ/-dachi, -gʻlʻ-gli kabi affikslarning ko'pi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi, ayrimlarining iste'mol doirasi ancha toraygan. Shu narsa diqqatga sazovarki, sifatdoshlarning otlashuvi o'sha davridayoq ko'p uchraydigan hodisa bo'lgan. Aniklanishiga aloqador bo'lgan egalik affiksining sifatdoshga qo'shilib kelishi ham o'sha davr tiliga xos xarakterli xususiyatlardan biridir.

Yodnomalar tilida qo'llangan ravishdoshlar ham xilma xil shakllarga ega bo'lgan. Ishda ularning ma'no va funktsiyalari atroflicha bayon qilingan. Muallif -g'alʻ-gali haqida to'xtalib, «bu shaklning asosiy funktsiyasi maqsad ma'nosini ifodalashdan iborat» deydi.

Monografiyada fe'l tuslanish masalasi mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalari bilan o'zaro aloqadorlikda tekshirilgan. Shu narsa ma'lum bo'ladiki, XIII-XIV asrlarga oid yozma yodgorliklar tilidagi shaxs-son formallari hozirgi o'zbek tilidan deyarli farq qilmasa ham, mayl va zamon formallarining qo'llanishida anchagina o'zgachaliklar ko'rinadi. Avvalo, mazkur kategoriyalarga xos affiksalar va ularning fonetik variantlari ko'p va xilma-xil bo'lgan. Masalan, buyruq-istak maylining birinchi shaxs formallarining o'zi 14 xildir. Ikkinchidan, ularning manbalar tilida qo'llanishi ham bir xil emas. Bu bobda fe'lning to'liqsiz fe'l, fe'l darajalari ham alohida tahlil qilingan. Muallifning tekshirishlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, yodnomalar tilida qayd qilingan fe'l darajalarining turlari va ularning ko'rsatkichlari hozirgi-o'zbek tilidan deyarli farqlanmaydi.

Son bobida (f.f.n. Q.Mahmudov) uning barcha ma'no turlari qisqacha bayon qilingan. Ma'lum bo'lishicha, o'sha davr tilida hozirgi sanoq birliklarining deyarli barchasi iste'molda bo'lgan. Buni sodda sanoq sonlarga oid jadvaldan ochiq ko'rish mumkin. Biroq negadir unda 60 soni berilmagan. Sanoq sonlarning qo'llanishiga xos bir qator xarakterli xususiyatlar qayd qilib o'tilgan. Masalan, o'g'uz tillariga oid manbalarda uch otuz on, on otiz on (310) kabi qirrali sanoq sistemasi qo'llangan. Shuningdek, «Qissai Rabg'o'ziy» tilida yuz min yigirma to'rt min kabi sanoq sonlarni ham uchrashni ta'kidlangan.

Ayrim adabiyotlarda ko'p, oz kabi miqdor ma'nosini ifodolovchi so'zlar «noaniq son» deb beriladi. Barcha, bari, hamma, behad, kechagicha kabi yuzlab so'zlarni ham son deyishga to'g'ri keladi, chunki bunday so'zlar ham noaniq miqdor tushunchasini anglatadi.

«Olmosh» bobini Q.Mahmudov va Sh.Shukurovlar hamkorlikda yozganlar.

Unda manbalar tilida qo'llangan barcha olmoshlar semantik va grammatik jihatdan qisqacha taxlil qilingan. Kishilik va o'zlik olmoshlarining turlanishiga doir jadvallar juda o'rinli. Manbalarda uchraydigan etoz, kandu o'zlik olmoshlari, qamug' birgalik olmoshi, taxma belgilash olmoshi o'sha davr tiliga xos leksemalar bo'lib, keyingi davrlarda ularning qo'llanish doirasi torayib borgan va asta sekin iste'moldan chiqqan. Aksincha, mualliflar kuzatishidan ma'lum bo'ladiki, manbalar tilida alla –va-dir elementlari yordamida hosil bo'ladigan gumon olmoshlari uchramaydi.

Ko'makchilar (f.f.n. T.Rustamov) dastlab ikki katta guruhga ajratilgan: sof ko'makchilar va funktsional ko'makchilar. Keyingilari, o'z navbatida, yana ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar kabi turlarga bo'lingan.

Bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi kabi ikki turga ajratilgan. Teng bog'lovchilar traditsion klassifikatsiyasiga asosan yana to'rt gruppaga bo'lingan: biriktiruvchi, ayiruvchi, zidlovchi, inkor bog'lovchilari.

Buxoro hujjatlarida xo'jalik, dehqonchilik va irrigatsiyaga tegishli atamalarni uchratamiz. Bu hujjatlar til xususiyatlari nuqtai nazaridan kitobiy adabiy tilda yozilgan. Turkiy so'zlarga nisbatan arabcha, forscha so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: amiri ob, sadri jahon, rud, mulki xos, afdaq kabi. Ba'zan ayrim narsalar nomi arabcha, forscha va turkcha beriladi. Masalan: pora, kasaba, ko'shk kabi so'zlar qishloq, joy ma'nosida ishlatiladi.

Yuqorida aytilganlar asosida XI-XIV asrlardagi hujjatlar tilining o'zbek tili taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'siri bo'lgan.

Bu davr o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri. Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostonidir. Durbek sharq xalqlari orasida keng tarqalgan Yusuf va Zulayho haqidagi qissa asosida mustaqil badiiy asar yaratdi hamda o'zbek adabiyoti, o'zbek adabiy tilining rivojiga katta hissa qo'shdi. «Yusuf va Zulayho» dostoni eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan mukammal yirik badiiy asarlardan hisoblanadi. Asar bevosita eski o'zbek tilining sharqiy guruh dialektlari asosida yozilgan. Uning leksik, fonetik va morfologik qarluq-chigil va uyg'ur tili xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga g'arbiy o'g'uz va kipchoq tiliga xos shakllar ham uchraydi: jo'nalishkelishigi affiksining –arab, -na ko'rinishi (Band ila zindon ichina soldilar. Urdu oyog'ini ham teshasi) buyruq istak mayli birinchi shaxs ko'pligining –li, -ling affikslari bilan berilishi. (Joni aziz aylali senga nisor. Suxbatli xosi tutaling ushbu ro'z).

Hozirgi kelasi zamon fe'li birinchi shaxs birligining qisqargan tarzda –man shaklida kelishi (Oy yuzingni ko'ra olmam, netay) kabilardir. Asar tilida fors-tojik tiliga xos bir kator so'z va birikmalarni ko'rishingiz mumkin. XIV asr oxiri XV asr boshlaridagi jonli xalq tiliga yaqinligini ko'rsatadi. XIV-XI asrlarda o'zbek adabiy tilining taraqqiyo etishi, uning nakomilga erishuvida o'zbek adabiyotida noma janrida yaratilgan adabiy-badiiy yodgorliklar ham eng muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XIV-XI asrlarda maydonga kelgan «Muxabbatnoma», «Latofatnoma», «Taashuhnoma», «Dahnoma» kabilar o'zbek adabiyotida she'riy noma janrida yozilgan asarlar kiradi. Bu yodgorliklarning til xususiyatlarini o'rganish Qarohoniylar davrida shakllanib, keng qo'llangan eski turkiy adabiy til an'anasi bilan keyingi davrlarda, ayniqsa, XIII-XV asrlarda shu til asosida tashkil topib rivojlangan eski o'zbek adabiy tili hamda uning sharqiy-turkiy va g'arbiy turkiy tillarga bo'lgan o'zaro munosabatini belgilashda juda muhim rol o'ynaydi. A.M.CHerbak ko'rsatishicha, bu adabiy tillarning xarakterini, uning muayan davrlarda qo'llangan adabiy til an'analari bilan hamda turli markazlarda shakllangan adabiy tillarning etnik til olimlari bilan bog'liqligini aniqlashda ham bu asarlar katta qimmatga ega.

Bu davrda o'zbek adabiyotida munozara janrida yozilgan asarlar ham maydonga keldi. «Bang va Chog'ir» munozarasi, Yaqiniyning «O'q va yoy» munozarasi, Axxmadistning «Sozlar munozarasi» kabi asarlar shular jumlasidandur. Xalq xajviyalari asosida yozilgan bu munozaralarning tili sodda va tushunarli, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari jihatidan o'sha davr xalq tiliga juda yaqin turadi.

Fonetik jihatdan tovushlar uyg'unligi xodisasi (ham lab uyg'unligi, ham tanglay uyg'unligiga) rioya qilinadi. Nogoh bir yashil xirqaliq sufi va bir gulgun to'ngluq yigit munozara va mubohazaga mashg'ul bo'ldilar. Grammatik jixatdan vositali kelishik affikslardan oldin bir i tovushi qo'shish (Turkiston tarafindek), qaratqich kelishigi –ing, -nung shakllari, o'rin-payt kelishigi –da, -ta shaklida, jo'nalish kelishigi –a, -na shakllarida keladi. Shoirning qit'asi so'zning rostligina go'edir. Sifatdoshning –g'uchi, -gan shakllari, tur (dur-durur) bog'lamasi ko'p uchraydi.

Mening turur erim darveshlar taqlsidurur

Saning ortuqlug'ing yilo'q turur.

Umuman, munozara janrida yaratilgan bu asarlarning tili engil tushuniladi, uslubi ravon, o'sha davr o'zbek adabiy tili va so'zlashuv tili xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu davrlarda o'zbek adabiy tili va adabiyoti uchun katta xissa qo'shgan adabiyotlardan Atoiy, Sakkokiy, Navoiy kabilalarning xizmatlari beqiyosdir. Atoiy o'z g'azallarida adabiy til jonli xalq tilining turlicha badiiy-tasviriy vositalarini mohirlik bilan qo'llash asosida sifatdoshlar, mubolag'a va o'xshatishlar yaratadi. Atoiy asarlarida eski turkiy adabiyotga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar juda kam uchraydi. Ba'zan –duk affiksli sifatdosh, qaratqich kelishigi shaklining kesim vazifasida kelishi ham ko'zga tashlanadi. Tilning rivojlanishi uchun katta xissa qo'shgan adiblardan yana biri Sakkokiydir. Sakkokiy asarlarida affikslarda jarangsizlanishi xodisasi sezilarli ekanligi (kechting, tutti, aningtek) kabi. Fonetik jihatdan unlilar va undoshlar ohangdoshligi saqlangan, tuttuq, ezuqum, jog'a kabi. Jo'nalish kelishigining –a, -na shaklida kelishi va boshqa affiksdan oldin bir ijod tovushi orttirishi (eshigingdek) kabilar uchraydi. Hozirgi kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli –man, -mon orqali beriladi, ne qilg'usi bilmom bu makkora kabi.

XIV-XVII asr adabiy tilida tilning soddaligi, hammaga tushunarli bo'lishi uchun kurash ketar edi. Turkiy tilning fors tili bilan teng huquqligi va soddaligi uchun kurash asari Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida o'z ifodasini topdi.

V.V.Radlov, A.M.CHerbak, A.Bahodirxon ta'kidlaganidek, Chig'atoy tili sun'iy tildir.

Adabiy tilga jonli tildan ko'plab yangi unsurlar kirib bordi. Lekin adabiy til bilan jonli til bir-biriga teng xodisa emas.

Eski o'zbek tili bilan Sharqiy Turkiston adabiy tilidagi o'xshash va farqli tomonlar quydagilardan iborat.

1. Fonetik xususiyatlari: Sharqiy Turkiston adabiy tili yodgorliklari tilidagi so'zlarda d (dz) tovushi kelsa, eski o'zbek adabiy ijodda bu tovush «yil» bilan beriladi.

Shart maylidagi fe'llarning oxirida «r» tovushi kelsa, eski o'zbek adabiy tilida bu tovush yo'qolgan.

So'z boshida keluvchi «b» tovushi «morfologik» tovushiga o'tadi: ben-men, bengu-mengu.

2. Morfologik xususiyatlari: kelishiklar soni bir xil emas. Ba'zi kelishiklar boshqa-boshqa nomlanadi. Sharqiy Turkiston adabiy tilida bosh, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish, chegara kelishiklari bor.

Sharqiy Turkiston adabiy tilida ko'plik –lar, -an, -at affikslari bilan hosil qilinsa, eski o'zbek adabiy tilida asosan –lar bilan hosil qilinadi. Sifatdosh yasovchi shakllar eski o'zbek tilida ikki baravar qisqaradi va faqat –ar, -gan, -mish, -gu kabi to'rt affiks saqlanib qoladi.

O'zbek adabiy tilining ravnaq topishi, uning madaniy hayotda kengroq o'rin egallab borishi, o'zbek kitobxonlarining ehtiyoji va talabi fors-tojik tilidagi asarlari bilan shuhrat topgan Xorazmiyning o'z ona tilida o'zbek tilida ham ijod etishga bu tilda «Muxabbatnoma»dek katta badiiy asar yaratishga ilhomlantirdi: u o'zbek mumtoz adabiyotida ilk zullisonayn shoir bo'lib etishdi. «Muxabbatnoma» asari 1353-1354 yillarda Xorazm xududida Sirdaryo atroflarida yozilgan.

Hozirgi paytda fanda «Muxabbatnoma» asarining uyg'ur va arab yozuvlarida ko'chirilgan ikkita qo'lyozma nusqasi ma'lum bo'lib, ular Britaniya muzeyida saqlanadi.

Til xususiyatlari jihatidan «Muxabbatnoma» asarida aralash unsurlarni, ya'ni ham sharqiy turkiy, ham janubiy-g'arbiy tillarning xususiyatlarini uchratish mumkin. Bu xodisalar asarning har ikkala qo'lyozmalarida ham uchraydi. «Muxabbatnoma» asarining tilini ta'riflashda asosiy rol o'ynovchi narsa uning leksik tarkibidir. Uning leksik tarkibida quyidagi so'zlarni uchratamiz: ko'rkaboy (ko'rkam), chimgan, edzu, asru (juda), tapuq (xizmat).

Pari ruxsorlarning ko'rkaboyi,

Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi.

Meng-xol: ol-qizil

Yangoqingqa-yonoq, yuz.

Adoqing-oyog'ing.

Qaro menga ol yangoqingqa yarashur,

Boshim doyimadoqingqa yaroshur...

Zebo, sanam, la'l, qadr, visol, vafo, jamol, chehra, dilbar, mehr kabi ko'pgina arabcha, fors-tojikcha lug'aviy birliklar ham keng qo'llangan.

Morfologik jihatdan: tushum kelishigi affiksining –ni, -n? va –i, -? turlari muvoziy holda qo'llangan. Ko'ngul iki jahonni ko'zga ilmas-Bag'ishla qonumi sultonsan oxir.

Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi –na, -a tarzida keladi. Masalan: ellina (qo'liga), gavharina (gavhariga)..

Buyruq-istak maylining I shaxs ko'pligi –ali va alint shakllarida keladi: Qilali ayshu ishrang sochaling. Hozirgi kelasi zamon fe'lining inkor shakli qisqargan holda keladi: yavutman (yaqinlashmayman), unutmán (unutmayman)..

Ayiruv sonlar –ar affiksi bilan yasalgan: birar, inkirar, uchar. Ila yuklamasi qurol-vosita ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan husn ila kabi. Hozirgi kelasi zamon fe'li -isar unidan so'ng esa –yur shaklida I shaxs ko'pligining bo'lishsizi –mon tarzida keladi.

Ichali badani gullar so'lisar,
Saning ishqingda sayrayur Xorazmiy,
Eshikning to'prokindin bosh ko'tarman.

Ravishdoshlar –gach, -g'ach affikslari bilan: eshitgach. Boshqa yozma yodgorliklarda ham uchragan –ban affiksi bilan yasalgan ravishdoshlar «Muxabbatnoma»da ko'p qo'llanadi: oquban kabi. «Muxabbatnoma»ning fonetik jihatdan o'ziga xos tomoni shundaki, ot va sifatlarda qisqa unli tovushlardan so'ng til orqa undoshlari ishlatilmaydi: ko'rkli (go'zal), tatlu (shirin), ay yuzlu (oy yuzli).

Asar tilida ba'zan so'zning oxirida ayrim hollarda ikki unli o'rtasida til orqa jarangsiz undoshlar uchraydi: butaq?, qalluq, topnoq, toprag' kabi. Bunday holat hozirgi janubiy Xorazm shevalarida ham uchraydi.

«Muxabbatnoma» til xususiyatlari jihatidan XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xorazmda rivojlangan va keng qo'llangan kitobiy adabiy til an'alarini, ya'ni eski o'zbek adabiy tilini aks ettiradi. Asar XIV asr o'zbek tiliga xos ko'pgina yodgorliklar bilan umumiylikka ega. «Muxabbatnoma» o'zbek adabiy tili va o'zbek adabiyotining XIV asrdagi taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi hamda o'zbek adabiy tili va adabiyotining XV asrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tarilishiga zamin tayyorladi.

Shu bilan bira qatorda bu davrlarda o'zbek tilida yaratilgan «Xusrav va Shirin», «Guliston» singari tarjima asarlar eski o'zbek tilining mushtarak adabiy til sifatida rivojlanishiga, adabiy tilning jonli xalq tiliga yaqinlashishiga munosib hissa qo'shgan. O'rta Osiyoda turkiy adabiy tillarning taraqqiy etishdagi 2 asosiy an'ana sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur hamda o'g'uz-qipchoq tillari an'anasining mo'g'ul istilosi davrida ham, undan keyin XIII-XV asrlargacha ham, ya'ni eski o'zbek adabiy tili to'la shakllanib rivojlangan davrlargacha davom etadi. Uning yana ham takomillashishi, taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilishi esa A.Navoiy davriga to'g'ri keladi.

O'zbek adabiy tili tarixida XV asrning ikkinchi yarmi bevosita buyuk o'zbek shoiri va mutaffakiri A.Navoiyning ijodiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan bog'liqdir. Navoiy ijodida, uning barcha asarlarida adabiy tilning yagona umumxalq me'yorlari, umumiy qoidalari to'la shakllandi va qat'iy tarzda belgilandi. Tildagi barcha mantiqiy-uslubiy va ijtimoiy-tarixiy qatlamlar umumxalq xususiyatiga ega bo'lib bordi, yagona bir butunlikka birlashdi. Navoiy ona tilini himoya qilish uchun kurash bayroqdori, ona tilining boyligi ham safligi uchun tolmas kurashchi sifatida maydonga chiqdi. Navoiy o'zining ona tili uchun olib borgan kurashini uch yo'nalishda, ya'ni buyuk shoir va yozuvchi sifatida, oliy martabali yirik davlat arbobi hamda ulug' mutafakkir tilshunos sifatida davom ettirdi.

Turk-o'zbek adabiy tilini ijtimoiy, siyosiy jihatdan himoya qilishning ona tili uchun olib borgan kurashining ikkinchi yo'nalishini tashkil qiladi. Navoiy ko'p yillar davomida Xusayn Bayqaro saroyida muhrdor, vaziri a'zam, amari kabir singari mas'uliyatli lavozimlarni egallab turgan, saroyda, devon va mahkamalarda rasmiy ish yuritish sohalariga rahbarlik qilgan. Podshohlikning amiri kabiri sifatida davlat devonxonalarida rasmiy ish yuritishda fors-tojik tili bilan birga o'zbek tilini ham keng qo'llash, uni davlat tili darajasiga ko'tarish uchun juda ko'p kuch g'ayrat sarfladi. «Xalq bilan xalq tilida syazlashish kerak» degan aqidaga amal qilgan Navoiy ayniqsa, Husayn Bayqaro va shahzodalarga yozgan maktublarida, hokimlar, darug'a va devonbegilarga, turli amaldorlar va do'stlariga yo'llagan noma va xatlarida ona tilini yoqlaydi, tag'ib qiladi.

Ulug' mutafakkir olim A.Navoiyning ona tili va mustaqilligi uchun olib borgan kurashining yana bir muhim tomoni uning til haqidagi ilmiy nazariy kurashlari hisoblanadi. U etuk tilshunos olim sifatida o'zining mashhur «Muhokamat ul-lug'atayn» asarini yozdi. Bu kitobda o'zining adabiy tilini asoslash, o'zbek adabiyotini yaratish, uni rivojlantirish, ko'p yillik mehnatlari va boy tajribalarini umumlashtirdi, chuqur ilmiy –nazariy xulosalar chikardi. A.Navoiyning adabiy tili, uning jonli so'zlashuv tili va o'zbek adabiy tiliga munosabati masalalar ancha murakkab bo'lib, bu haqida olimlar tomonidan turlicha fikrlar bayon qilingan.

XIV-XVI asrlar o'zbek adabiy tilida, demak, Navoiyda ham unlilar ohangdoshligining qattiq yumshoqlik va lab ohangdoshligi hodisasi saqlanganligini qo'rish mumkin: barduq (bordug), kelduk (kelduk), yog'a (yyalga), bo'ldunguz (bo'ldunguz) kabi.

Navoiy tili uchun xos undoshlarning qo'llanishida mustaqil lab-tish tovushi f ajralib turadi. Bu undosh aslida turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili uchun xos tovush emas. U o'zbek tiliga fors-tojik tili

orqali arab tilidan kirib kelgan. Navoiy asarlarida f fonemasining qo'llanilishi, uning n tovushiga o'tmasligi va p tovushi o'rnida f undoshining kelishi kabilar o'zbek tilining Samarqand, Buxoro ijodidagi shevalarga yaqinlashib XIV-XVI asr adabiy tiliga nisbatan «Chig'atoy tili» atamasini ishlatadilar.

Kitobiy adabiy til haqida fikrlar yuritilganda «Chig'atoy tili» atamasini xalqning jonli so'zlashuv asosida tarkib topgan adabiy til haqida fikr yuritganida eski o'zbek tili atamasini qo'llaganlar. Haqiqatda esa Chig'atoy tilining qachon, qaerda va kanday dialektal asosida vujudga kelganligini aniqlash qiyindir. Bundan tashqari Chig'atoy tilining adabiy me'yorini belgilash bilan hech kim qiziqmadi. Chunki Chig'atoy tili deb atalgan tilda fors, arab vav uyg'ur tili elementlari ustun darajada edi.

A.Navoiy o'z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilib chiqdi. U umrining oxirigacha ona tili uchun kurashchi bo'lib qoldi.

O'zbek badiiy adabiyot tilining tashkil topishida, so'zlashuv adabiy tili me'yorlarini ishlab chiqish va tartibga keltirish yaqinlashtirish jarayonida Xorazmiy, Durbek, Amiriy kabi adiblarning asarlari orqali zamin tayyorlangan bo'lsa, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy she'riyatida bu jarayon yana ham taraqqiy ettirildi. So'zlashuv tiliga xos til vositalari adabiy til unsurlari bilan qo'shilib ketadi, uning tarkibiy qismiga aylanadi. Navoiy ijodida, uning asarlarida hamma adabiy tilning taraqqiyoti, takomillashib borishi uchun barcha zaruriy vositalar xalq tili boyliklari bilan uyg'unlashib ketgan.

XIII-XV asrlarda ko'pchilik Sharq mamlakatlari qatori O'rta Osiyoda ham ilm-fan va diniy sohada arab tili kuchli mavqega ega edi. Bu sohalarda faqat arab tilida ijod qilish an'anaga aylangan edi. Samoniylar davridan boshlab esa davlat tili sifatida madaniy hayotda, badiiy adabiyotda «dariy» yoki «forsiy» til keng o'rin egallagandi. Navoiygacha bo'lgan davrda forsiy tilni bilish va shu tilda syazlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo'lgan imtiyoz va bilimdonlik belgisiga aylangandi. Ana shunday murakkab bir davrda A.Navoiy o'z ona tilini mavqeni ko'tarish uchun kurashga otlandi. Navoiyning turkiy tilni himoyalashdagi faoliyatini uch yo'nalishda ko'rsatish mumkin.

1. Buyuk shoir va yozuvchi sifatida: U o'zining nazm durdonalari bo'lgan «Xazayin-ul-maoniy» devonini, durdonalari hisoblangan adabiyot va falsafa, musiqa va san'atga bag'ishlangan asarlarini ham o'z ona tilida yozib turkiy tilining qudratini, uning boy tasviriy vosita va imkoniyatlarga ega ekanligini amaliy tarzda isbotlab berdi.

2. Yetuk davlat arbobi sifatida: Navoiy Bayqaro saroyida ko'p yillar davomida muhdorlik, bosh vazir, hokim kabi oliy martabali lavozimlarda ishlab keldi. U o'z faoliyati davomida turkiy tilni ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomondan himoya qilib berdi. Saroyda, devon va mahkamalarda rasmiy ish qog'ozlarini turkiy tilda olib borishni talab qildi va nazorat olib bordi. Noma, farmon va buyruqlarni tayyorlashda bevosita ishtirok etdi. «Xalq bilan xalq tilida gaplashish lozim» degan aqidaga amal qildi. Shu tariqa u o'z ona tilini ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomonidan muhofaza qildi.

3. Ulug' mutaffakkir olim sifatida: Navoiy ona tilining boyligini, jozibadorligini va imkoniyatlarini chuqur ilmiy, asoslar asosida o'zining «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida ko'rsatib berdi. Navoiy bu asarida rad qilib bo'lmas dalillar bilan o'z tilining boy imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab kyarsatdi.

Umrining oxirgi yillarida yaratgan «Lison-ut-tayr» asarida qiyin va sharaflı ishni bajarganligini faxr bilan olib shunday deydi:

Turk nazmida chu tartib men alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Navoiy asos solgan adabiy til Kavkazdan Sibirgacha, O'rta Osiyodan Hindistongacha bo'lgan keng xududga tarqaldi va shu erdagi xalqlar uchun mushtarak, adabiy tilga aylandi. Bu tilda ijod qiluvchilar soni yildan-yilga oshib bordi. Hatto forsiy shoirlar orasida ham turkiy go'ydik an'anasi paydo bo'ldi. Ana shu xizmatlarini hisobga olib A.Navoiyni xaqli ravishda eski o'zbek adabiy tilining asoschisi deya olamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eski o'zbek adabiy tili hozirgi adabiy tilning rivojlanishi, taraqqiyotida munosib o'rin egalladi, poydevori vazifasini bajardi desak ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Muxtorov., U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. U.Tursunov., B.O'rinboev. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1982.
3. Aliev A., Sadiqov Q. O'zbek adabiy til tarixidan. Toshkent, 1994.
4. XII-XIV asrlardagi yozma yodgorliklar. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1998. №1.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1981. № 2.
6. U.Tursunov., B.O'rinboev., A.Aliev. O'zbek adabiy til tarixi. Toshkent, 1995.
7. N.M.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1992.

32-mavzu: XVII-XIX asrlar va XX asr boshlarida o'zbek adabiy tili. Til va uslub masalasi

REJA:

1. XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy hodisalarning o'zbek adabiy tiliga ta'siri.
2. Til va uslub.
3. O'zbek tilining amaliy grammatikasini yaratish borasidagi dastlabki urinishlar.
4. Abdurauf Fitrat o'zbek milliy grammatikasining asoschisi.
5. XVII-XIX asrlarda yaratilgan lug'atlar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr adabiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning til va uslubi masalalarida muhim yangiliklar maydonga kelganini ko'ramiz. Bunga o'zbek xalqi xatida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar sababdir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya'ning O'rta Osiyoni istilo qilishi boshlandi.

O'zbek xalqi hayotida tarix va jamiyat ro'y bergan xodisalar o'sha davrdagi o'zbek adabiy tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Rossiya va O'rta Osiyoda inqilobiy harakatning o'sishi natijasida yangicha siyosiy leksika va atamashunoslik vujudga keldi, rus tili ta'sirida yangicha grammatik qurilmalar paydo bo'ldi.

Ma'lumki, adabiy til taraqqiyotining darajasi uning xalq tili bilan aloqasida unga sayqal berib rivojlanishida ko'rinadi. Adabiy til xalq tili boyliklarini egallash, unga muntazam tus berish asosida uni yuqori pog'onaga ko'tarish demakdir. XIX asrning ikkinchi yarmida ilg'or demokratik adabiyot vakillari va ma'rifatparvarlari o'zbek adabiy tilida burilish yasadilar. Bu narsa avvalo, tilimiz leksikasida ko'zga tashlanadi.

O'zbek tili leksikasi o'sha davrda uch manba asosida boyib bordi. Ular quyidagilardan iborat:

O'zbek tili o'z ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari zaminida yaratilgan so'zlar hisobiga boyidi. Jamiyatda paydo bo'lgan yangi tushunchalar yangi so'zlarni yaratish uchun turtki bo'ldi.

Rus tili nasirida kirib kelgan yangi narsa va xodisalarni o'zbek tilida berishda ikkita usuldan foydalanildi.

1. Rus so'z va tushunchalarning ma'nosini berish uchun o'zbek tilida avvaldan bo'lgan so'zlar moslashtiriladi. Masalan: bosmaxona-tipografiya, tabib-vrach, muallif-avtor kabilar.

2. Rus tilidagi atamalarni kal'ka yo'li bilan o'zbek tiliga tarjima qilish orqali. Tarjimada bir so'zni bir so'z ilan ayrimlarini ikki so'z bilan berish hollari uchraydi. Masalan: ruscha fizicheskiy kabinet so'zlarini hikmatxona deb berish, povestka-chakiruv qog'ozi kabi. Ayrim so'zlarni tarjima qilganda ularning bir necha nomlari berilgan. Masalan, t'yurma so'zi ma'nosida turma, turmaxona, hibsxona kabi so'zlar ishlatilgan.

3. Xalq jonli tili adabiy tilining boyishida muhim manba bo'ldi. Bu davr so'z san'atkorlari XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan Maxmud Munis, Gulxaniy an'anasini davom ettirib, «avamcha» hisoblangan xalq tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar va yangi tushunchalarni ifodalaydilar.

4. O'zbek adabiy tilining o'sha davrdagi taraqqiyotida uchinchi manba rus tili bo'ldi. O'sha davr matbuotida «Turkiston viloyatining gazetasi», «Xurshid» va boshqa gazetalar chiqa boshladi. Bu gazetalarda ziyolilarning vakillari ham qatnasha boshladi.

Gazeta sahifalarida rus tilidan tarjimam qilingan ayrim asarlar va maqolalar nashr etildi. Hatto o'zbek xalqi ba'zi ijodkorlarning ruschaga tarjima qilingan asarlari bosib chiqarildi. Bundan tashqari, madaniy hayotda bo'lgan boshqa o'zgarishlar o'zbek adabiy tilini rus tili leksikasi hisobiga boyitdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy sohalarga doir atamalar, kundalik turmushda zarur bo'lgan, ust bosh kiyimlarning nomlari o'zbek tiliga qabul qilindi. Masalan: soldat, shtraf, vagon, kalyaska, konvert kabilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan o'zbek tiliga so'z qabul qilindi ba'zan o'sha so'zga ehtiyoj hisobga olinsa, ba'zan ehtiyojsiz ham qabul qilinardi. O'zbek tilida harbiy, qonun, shahar kabi so'zlar bo'lgani holda o'sha davr matbuot gazetalari voenn'y, zakon, gorod so'zlari uchraydi.

Bu davrda rus tilidan o'zbek tiliga so'z qabul qilishning asosiy sababi shundan iboratki, madaniy turmushda bir qancha yangiliklar paydo bo'ldi. Bunday yangi tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilida so'zlar yo'q edi. Shuning uchun bu so'zlar rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi.

Ular asosan san'at, transport, pochta, telegraf, maorif kabi sohalarga tegishli so'zlardir.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus tilidan qabul qilingan bir qismi so'zlar aslida turkiy so'zlardir. Ular yangicha ma'no va fonetik o'zgarish bilan o'zbek tiliga qayta qabul qilingan.

Masalan: tovar (tovar), istikom (stakan), karandash (karandash) va boshqalar. O'sha davrda rus tilidan qabul qilingan so'zlarning asosiy qismi o'zbek tiliga so'zlashuv nutqi orqali va mahalliy matbuot hamda yozuvchilarning asarlari orqali kirib kelgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoga Rossiya bostirib kirgandan so'ng tilidagi qilinadigan asarlar soni ko'paydi. Bunga asosiy sabab rus tilining madaniy hayotidagi roli va ahamiyati oshganligi edi. Rus tilidan diplomatik hujjatlar, rasmiy yozishmalar, gazeta-axborot materiallari qishloq xo'jaligiga oid asarlar, ilmiy, tabiiy va texnikaviy asarlari va boshqa xil asarlar tarjima qilindi. Ular «Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida nashr etilardi. «Turkiston viloyatining gazetasi» XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek madaniyati, xususan, adabiy tili tarixida ma'lum rol o'ynaydi. Bu narsa Muqimiy, Furqat, Sattarxon, Fitratlarning adabiy faoliyatlarida yaqqol ko'rindi.

Taraqqiyotning umumiy ruhi shu davr adabiy tilida o'z izini qoldirdi. 1905-1917 yillardagi o'zbek adabiy tili, A.K.Borovkov fikricha «aralash til» edi. Adabiyotda she'riy uslub nasriy uslub hukmronlik qilar edi. Turli xil ta'sirlar adabiy tilda o'tkinchi, shaklsiz va aralash g'oyalarni tug'diradi va u o'zbek adabiy tilining holatiga ta'sir qildi.

O'rta Osiyo Rossiyaga majburan qo'shib olingandan keyin mayor M.A.Torent'evning grammatikasi va xrestomatiyasi nashr etildi. Bu asardan keyin Fitratning milliy grammatikasiga doir asaridan tashqari hech bir ilmiy qiymatga ega bo'lmagan, faqat amaliy maqsadni ko'zda tutuvchi ma'lumotnomalar va mustaqil o'rganish uchun qo'llanmalar chiqa boshladi. Jumladan A.Starnevskiy, V.A.Alekseev va Vishnegorskiylar qo'llanmalari nashr etildi.

XX asr boshlarida o'zbek tili fonetikasida tubdan o'zgarishlar bo'ldi, bu esa ma'lum darajada yozuvni takomillashtirishni taqozo etardi. Madaniy qaloqlikni tugatish va barcha xalqlarni sotsialistik qurilishga jalb etish zarurligi yozuv bilan bog'liq masalalarni tez hal qilishni talab qildi. Inqilobning dastlabki yillarida boshqa yozuvga o'tishga ommaviy zaruriyat tug'ilmagan edi. Shunday bo'lsada, 1922 yilda tilning xususiyatlarini hisobga olgan holda arab yozuvini takomillashtirish, soddalashtirish maqsadida birinchi qadam quyildi. Bu tadbir o'zbek xalqining madaniy jihatdan yuksalishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sho'ro ijtimoiy va davlat tuzumi sharoitida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tezda mavjud yozuvni takomillashtirish yozuv masalasini hal etmaslikni va lotin yozuviga o'tish zarurligini ko'rsatdi. 1929 yilda lotin yozuviga o'tildi. Lotin yozuviga o'tish madaniy inqilobni tayyorlash va amalga oshirishda muayyan rol o'ynaydi. 1929 yilda 9 unli tizim asosida olingan yozuvga, 1934 yilda jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. Ayrim unli harflar qisqartirildi va imlo qoydalari yangidan tuzildi. Bularning barchasi rus grafikasi asosidagi yozuvga o'tish uchun sharoit yaratib berdi. Natijada 1940 yilning may oyidan boshlab o'zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasiga asoslangan yangi yozuvga o'tildi. Sho'ro hukumati bu o'zgarishlarning barchasi o'zbek xalqi madaniyatini tezroq «yuksaltirishga», «ravnaq topishiga» yordam beradi deb hisoblaydi. Biroq bu tadbir orqasida sho'ro tuzumining qanday maqsadi yashiringani keyinroq ma'lum bo'ladi. O'zbek yozuvining qisqa davr ichida uch marotaba o'zgarib turishi xalq savodining pasayishiga olib keldi. Arab yozuvida bitilgan asarlarni uqiy oladigan kishilarga lotin yozuviga ko'nikishi ancha og'ir bo'ldi. Lotin yozuvini o'rgana boshlagan kishilar kutilmaganda (kirill) rus grafikasiga asoslangan yangi yozuv tizimiga o'tishi ancha murakkab bo'ldi.

Inqilobning dastlabki yillarida ya'ni 1920 yillarda o'zbek tilining grammatikasini yaratishga urinishlar bo'ldi. Dastlab bu ishni Fitrat boshlab berdi. O'zbek tilining milliy grammatikasini tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqorida aytib o'tilgan yozuv o'zgaruvchanligidan saqlanish edi.

Fitrat tilshunosligining turli bo'limlari bilan qiziqdi. Uning eng katta xizmatlaridan biri o'zbek tilining milliy grammatikasiga asos solganligidir. Olim birinchilardan bo'lib o'zbek tilininig grammatik qoidalarini ishlab chiqdi. Uning «Sarf» va «Naha» asarlari 20-yillardagi o'zbek tilshunosligining noyob namunalaridir.

Fitrat arab yozuvini isloh qildi, yozuvga milliy ruh berdi. Uning sa'y-harakatlari natijasida arab yozuvi o'zbek tilining talaffuz me'yorlariga, qonuniyatlariga moslashtirildi. Ma'lumki, har bir tilda uning o'zigagina xos maxsus tovushlari bor. Fitrat o'zbek tilidagi ana shunday tovushlarni arab yozuvida ifodalash yo'llarini izlab topdi. 20-yillarda ayrim gazeta va jurnallar Fitrat ishlab chiqqan ana shu imlo qoidalarini asosida ish ko'rgan.

Fitratning tilshunoslik me'rosi 20-yillar o'zbek tilshunosligiga fanining qiyofasini bog'lovchi va shu bilan birga hozirgi til ilmidagi mavjud fikrlar silsilasini o'tmishdagi o'lmas manbalar bilan bog'lab turuvchi bir ko'prikdir. Bu me'rosni o'rganish va uning umrboqiy fikrlarini keng turda tadqiq qilish g'oyatda savob ishdir. Fitratning bu ulkan me'rosi nafaqat o'zbek tilshunosligi tarixi uchun balki hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun, turkiy dunyo tillari uchun ham benihoya qimmatlidir. Abdurauf Fitrat butun umri davomida o'zbek tilining, o'zbek millatining taqdiri uchun qayg'urib yashadi. U 1921 yil til va imlo

qurultoyida soʻzlagan «Tilimizning adabiyligi oʻzidadir» nutqida oʻzbek tilining bebaho qirralarini ochib berdi.

Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixninig oldidan oʻtganda bugungi ovrano adabiyoti ham shapkasini olib salom berib oʻtadi. Shunga oʻzini majbur koʻradi.

Sharq tarixi adabiyotida ikkinchi oʻrin tutgan turk adabiyotining eng muhimi, eng koʻpi, eng qimmatlisi chigʻatoy shevasidagi adabiyotdir.

Chigʻatoy tarix adabiyoti xalq adabiyotigagina bogʻlanib qolmagan. Unda yuksak, oliy sanʼatkor adabiyot bor. Chigʻatoy tarix adabiyotida Boyqaro, Navoiy, Lutfiy, Umarxon, Fazliy kabi sanʼat dunyosida moʻjiza koʻrsatib, toʻponlar qilgʻon qahramonlarga koʻp uchraymiz. Soʻzning qisqasi, chigʻatoy adabiyotida turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak eng muhim oʻrin tutgandir. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga oʻxshashliklari, buning shogirdliklari bilan maqtanib yurarlar.

Til bizning soʻzda boyligimizni koʻrsatmoq uchun eskidan beri vujudga chiqarilgan «Muhokamat-ul lugʻatayn», «Lugʻati Navoiy», «Lugʻati Xorazmshohiy» kabi milliy xazinalarimiz bor. Bulardan tashqari turk tili, turk adabiyoti toʻgʻrisida yozilgan asarlarning har birini oʻqiganda «chigʻatoy adabiyoti-turk tillari va turk adabiyotininig onasi, bobosidir» degan soʻzlarga uchramoq mumkindir.

Adib: «adabiyotimizning turk adabiyotlar orasida eng yuqori oʻrinda turganini tilimizning turk tillari orasida yuqori bir mavqega egaligidadir» deb koʻrsatgan edi. Bundan ikkinchi masala toʻgʻiladur: adabiyotimiz arab, fors adabiyotiga qaraganda ikkinchi sirada ekan, tilimiz arab, fors tillariga qaraganda ikkinchi siradami qolur?

Bunga javob beramiz: «Yoʻq! Tilimizdagi soʻz boyligi, ishtihoh kengligi, qoida tuganligi, sarf nahv ishlari boshqa sharq tillaridan qolishmas, bu toʻgʻrilarda fors tilini butunlay keyinga qoldiradur.

Shunday ekan adabiyotimizning keyinda qolishiga sabab shoirlar va yozuvchilarimizning anglashilmas holat ruhiyalaridir.

Yozuvchilar oʻz asarlarini butunlay arabcha yozganlar. Shoirlarimizninig koʻpchiliklari oʻz sheʼrlarini forscha yozganlar. Turkiston turklaridan Abu Ali Ibn Sino butun asarlarini arabcha yozgan ekan, umrida birgina sheʼr yozga u ham boʻlsa eroncha.

Fors adabiyotida moʻjizalar koʻrsatgan bir shoir Zahriddin Farobiydir! Turkistonlikdir».

A.Fitrat bu ikkala Turkistonlik turk allomalarini koʻrsatib ularning tili turk, millati turk lekin yaratgan asarlari oʻzga tilda ekanligiga qaratib tilimizninig nima sababdan ikkinchi oʻrinda boʻlishini koʻrsatadi.

«Yana bir oz vaqt bersangiz tilimizning boshiga kelganlarni ham arz etib oʻtayin: mana shunday boʻlib Umarxon davri adabiyasidan keyin adabiyotimizninig janozasi oʻqilgach tilimiz gʻarib boʻlib qoldi, til qoidalarini bilmaganlar qoʻliga tushdi.

Mana shu paytlarda edikim, fikrlarimiz uygʻona boshladi. Boshga turk olimlari tomonidan chiqarilgan gazetalar va kitoblarni oʻqidik. Usuli jadid maktablari ham ochdik. Ilgariroq bosib gazet ham chikardik. Maktab uchun, gazeta uchun tilimiz kerak boʻlib qoldi.

Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursida esa ona tili degan narsa kirgizilmadi. 18 yildagi Maorif shoʻrosining bir majlisida ham oʻtgan yildagi muallimlarning quriltoyida shunday bir karar berilgan edi: «Maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili oʻzbekcha oʻqitilsin, undan soʻng adabiy umumiy turk tili oʻqitilsin! Bularning adabiy umumiy turk tili deganlari arabcha qatnashgan usmonlicha edi».

Tilning adabiyoligi uchun arabiyligi shart, gapi qabul qilindi. Men shunday qilishlarini taniymanki, «yozuvimizni nechun arabcha bilan toʻldirilsin!» deganimda arabiy boʻlgani yaxshi emasmi? Deganlar.

Mana shularning hammasi tilimizni tahqir etish, tilimizga hurmatsizlik koʻrsatish edi. Bularning hammasi tilda adabiyotimizni yaxshigina tanimasligimizdan kelgan edi. Mana shularning barchasi bilan kurashmoq uchun yosh va kuch maydonga keldi. Bu chigʻatoy guruhi edi. Chigʻatoy guruhi atrofida toʻplangan kishilarning ilgari surgan fikrlari shunday edi:

- tilimizning yot (yot) soʻzlardan qoʻldan kelganicha tozalash;

- adabiyotimizni yuksaltirmoq uchun bugunga sanʼatkor shoirlarimizni oʻlmagan va oʻlmas narsalardan foydalanmoq ham taraqqiy qilgan uluslar tomonidan oraga solishgan umumiy asoslarga ergashmak;

- tilimizning qoidalarini tatarcha yoki usmonligicha qoida kitoblardan emas tilimizning oʻzidan olmoq kerak. Tilimizninig qoidalarini tuzmak eski adabiyotimizdan foydalanmoq uchun ulugʻ adiblarimiz asarlaridan va xalqimizdan foydalanmogʻimiz kerakligini koʻrsatib oʻtgan.

Gazeta-publitsistika uslubining paydo boʻlish davri va shakllanishi. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi turli xil iqtisodiy va madaniy aloqalarning maʼlum darajada rivojlanishiga sabab

bo'ldi. Rossiya'ning chekka o'lkalariga adabiy va madaniy harakat islom dinini isloh qilish, uni burjuaziyaga moslashtirish yo'li bilan olib borildi. Natijada milliy burjuaziya mafkurasi vujudga keldi.

Turli tamoil va manfaatlar ta'sirida Rossiya'ning chekka o'lkalarida «umumiy turk tili» to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokrat-ma'rifat parvarlar esa o'zbek tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar.

Bular XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan nashriyot va vaqli matbuot o'z ifodasini topdi. 70-yillardan boshlab Turkistonda vaqtli matbuot nashr etila boshlandi. U rus tilida nashr etilgan «Turkiston vedomosti» gazetasidir. 1871 yildan boshlab dastlab shu gazetaga ilova tarzida, keyinchalik mustaqil holda o'zbek tilida «Turkiston viloyatining gazetisi» chiqa boshladi. Shu davrdan boshlab o'zbek adabiy tilida gazeta-publitsistika uslubi paydo bo'ldi va shakllandi. Gazeta-publitsistika til uslubining paydo bo'lishida rus tili ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, O'rta Osiyoga Rossiya bostirib kirgandan so'ng rus tilidan qilinadigan tarjima asarlari soni ko'paydi. Bunga asosiy sabab rus tilining madaniy hastdagi roli va ahamiyati oshganligi edi.

Gazeta-publitsistika uslubining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan adiblar.

Shunday qilib, «Turkiston viloyatining gazetisi» XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek madaniyati, xususan adabiy tili tarixida ma'lum rol o'ynaydi. Bu narsa Furqat, Sattarxon, Ishoqxonlarning adabiy va publitsistik faoliyatlarida yaqqol ko'rindi. Ular shoir, olim, tarixchi bo'lish bilan birga, publitsist sifatida gazeta-publitsistika til uslubining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Furqat «Turkiston viloyatining gazetisi»da faol ishtirok etdi. Dastlab gazetaga «E'lonnoma» deb qaragan Furqat, keyinchalik uning ijtimoiy-siyosiy ma'nosini tushunib, gazetada o'z materiallari bilan faol ishtirok etdi. Ishoqxon ham davr o'zgarishlari haqidagi fikrlari bilan gazetada qatnashib turdi. Sattarxon «Turkiston viloyatining gazetisi»da muharrir yordamchisi va tarjimon bo'lib ishladi.

Ular demokratik ma'rifatparvarlar sifatida gazetada o'z asarlari, publitsistik maqolalari bilan qatnashib, undan ezilgan ommaning fikr-to'yg'ularin ifoda etish uchun foydalandilar.

Ular rus tili va fanini o'rganishni tarqib qildilar.

Umuman, Furqat, Sattarxon, Ishoqxonlar o'zbek tilining lug'at tarkibini rivojlantirish, gazeta-publitsistika uslubini yangi so'z, iboralar, atamalar hisobiga boyitish uchun kurash olib bordilar. Shu sababli ularning tili ravon, aniq va boydir. Shunday qilib, demokratik-ma'rifatparvarlar gazeta-publitsistika til va uslubning shakllanishiga munosib hissa qo'shdilar.

O'zbek vaqtli matbuoti tilining ayrim leksik-semantik xususiyatlari:

a. qadimgi tarixiy so'zlar.

B. boshqa tillardan o'tib qolgan leksik qatlam.

V. polisemiya.

G. Kal'ka masalasi.

O'zbek vaqtli matbuoti tili leksikasi bevosita adabiy tili leksikasining o'ziga xos bir tarmoqdir. Shu boisdan, o'zbek tili leksikasining taraqqiyotini belgilovchi asosiy va etakchi omillardan biridir. Tilning leksikasi uchun asosiy ob'ekt so'z va uning ma'no valentliklaridir. Chunki so'z tilining real ma'no ifodolovchi asosiy belgisi sanaladi. «Leksika esa ko'p sonli so'zlar, ular o'rtasidagi ma'naviy aloqalar sistemasidir». Demak, leksika tilning lug'at fondidagi barcha so'zlarning oddiy yig'indisi bo'lmay, balki so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatlarning faktori hamdir.

XX asrning boshida O'zbekistonda «Osiyoning umr guzorligi» (1905), «Xurshid» (1906), «Taraqqiy» (1906), «Ulug' Turkiston» kabi gazetalar nashr qilingan edi.

Oktyabr to'ntarishining birinchi yillardan boshlab, avval, «Intirokinoi» keyin «Qizil bayroq», so'ngra, «Turkiston» 1924 yilning 5-dekabrda boshlab «Qizil O'zbekiston» nomi bilan markaziy gazeta chiqarila boshlangan edi. Joylarda esa xududiy gazetalar nashr etilgan. Demak, O'zbekistonda vaqtli matbuotning yuzaga kelishi bir tomondan, xalqning madaniy, siyosiy, xo'jalik va ijtimoiy hayotida katta voqea sanalsa, ikkinchi tomondan o'zbek adabiy tili leksikasining boyishiga katta yordam berdi. XX asrning birinchi yarmi o'zbek vaqtli matbuoti tilining leksik-semantik xususiyatlarini tadbiq qilishda quyidagi sohalarini tanladik:

1. Qadimgi tarixiy so'zlar. Istalgan tillar leksikasida shu tilga xos qadimgi tarixiy so'zlar katta o'rin tutadi. Uzoq o'tmishda paydo bo'lgan va turli tuman leksik ma'nolarni ifoda etgan tarixiy so'zlar qatlamida o'ziga xos o'rin egallagan. Gazeta leksikasida qo'llanilgan qadimgi so'zlarni tekshirish va o'rganish hozirgi kun uchun katta ahamiyatga ega. Chunki «leksika tarixini o'rganish umuman tillar tarixini o'rganish uchun ham muhimdir».

XX asrning birinchi yarmiga aloqadar o'zbek vaqtli matbuoti tilida ishlatilgan tarixiy leksik qatlamni diaxronik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin.

Tamg'a, so'qir, balx, baqir, bitik, so'g'on kabi so'zlar eng qadimgi davrga xos leksik qatlamni tashkil etadi.

Kent, botmon, nag'ma, ulus, mezon kabi so'zlar esa XIV-XV asr o'zbek tili leksik qatlamini eslatadi.

Yuqoridagi so'zlarni bunday guruhlashda biz tegishli filologik lug'atlarga, boshqa asarlarda berilgan fikrlarga suya'nish mumkin.

Gazeta leksikasida ishlatilgan urdu, limon, toboq, pud va shunga o'xshash so'zlar o'zbek tili leksikasining keyingi davri taxminan XVII-XX asrlarga xos bo'lib tarixiy filologik lug'atlardan bu so'zlar o'rin olmagan.

Jamiyat taraqqiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlar o'z ifodasini tilda topadi, avvalo tilning so'z boyligi, uning leksik qatlami nazarda tutiladi. Shuning uchun ham tilning so'z boyligi tilning tovush sistemasi, grammatik qurlishiga nisbatan tez o'zgaradi, davr talabiga tez moslashadi.

Xalqlar va millatlar o'rtasidagi doimiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy vloqalar so'zsiz ularning tillarga, tilning lug'at boyligiga doimo ta'sir etib turadi, bir tildan ikkinchisiga ko'plab so'zlarning o'tib turishiga sabab bo'ladi.

O'zbek vaqtli matbuoti tilida boshqa tillardan kirgan so'zlarning qo'llanilganligi gazeta materiallaridan olingan faktlar asosida quyidagicha ko'rsatish mumkin: Tatarcha leksik qatlam, Ozarboyjoncha-turkcha so'zlar. Ruscha leksik qatlam. XX asr boshidan nashr qilingan bir qator o'zbekcha gazetalar tilida ishlatilgan tatarcha leksik qatlamning paydo bo'lishiga 3 sabab bor.

Birinchidan, XX asr boshida, 1905 yildan boshlab, turkiy xalqlar o'rtasida «Umumiyturkiy adabiy tillar yaratish» g'oyasi keng tarqalgan edi. Bu g'oyaga ko'ra O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Krim, Ozarboyjon, Ural, Volga bo'yi va boshqa joylarda yashovchi turkiy xalqlar uchun yagona bir tillar yaratish maktablarning yuqori sinflarda bu tilni o'z ona tili o'rnida majburiy o'kitish talab qilindi.

Ikkinchidan, 1917 yilning 25 apreldan boshlab Toshkentda «Ulug' Turkiston» gazetasi chiqarila boshladi. Bu gazetaning birinchi sonida bosilgan «Maslik va maqsad» sarlavhali maqolida quyidagi fikr bayon etilgan:

«Ulug' Turkiston» isminda turk-tatar tilida bir gazeta chiqarurg'a va bu gazetaga bosh muharrir etib Nunburug'da chiqaturg'on mu'tabar «Vaqt» gazetasining xay'at thiririya og'alaridan Kabir afandi Bakirni chaqirurg'a qaror qilingan edi. Kabir afandi ham asos e'tibori ila taklifimizni qabul etdi». Ko'rindiki, umumturkiy adabiy tillar yaratishning ta'siri bilan «Ulug' Turkiston» gazetasi turk-tatar tilida nashr etilishi vaqtli matbuot tilida tatarcha leksik qatlamning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Uchinchidan, XX asr boshida, mavjud bo'lgan o'sha sharoitda, to'la savodli, jurnalistika ishi bo'yicha tajribali o'zbek ziyolilari hali etishmas edi.

Bunday sharoitda gazeta nashriyotlarida bor bo'lgan o'zbeklar bilan bir qatorda tatar ziyolilaridan ham foydalanishga ehtiyoj sezilar edi.

Ozarbayjoncha-turkcha so'zlar.

Faktlar shundan dalolat beradiki, XX asr boshidagi o'zbek vaqtli matbuoti tilida ishlatilgan ozarbayjoncha-turkcha leksik qatlamning namoyon bo'lishi ham ma'lum ob'ektiv sabablar bilan bog'likdir. Bunga sabab qilib, birinchi navbatda, yuqoridagidek, umumiy turkiy tillar adabiy tillar yaratish g'oyasining ta'sirini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari Ozarbayjoncha ham Turkiyada o'sha yillarda nashr qilingan gazeta va jurnallarning O'rta Osiyoga jumladan, O'zbekistonga tarqalishini ham ozarbayjoncha-turkcha so'zlarning o'zbek vaqtli matbuoti tiliga kirib kelishi uchun sabab bo'ldi.

Arabizmlar. O'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan, arabizmlarning tarixi arablarning O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston xududiga bostirib kirishlari, VII-VIII asr tarixiy davri bilan bog'likdir. O'zbek tilida mavjud bo'lgan arabizmlarni, ular ifoda etgan ma'noga ko'ra, bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Halim-Halima, Karim-Karima, Kamil-Kamila kabi kishilar nomlari.

2. Qozi, mufti, amir, so'fi, hokim, hukumat kabi adminstrativ soha bilan bog'lik ma'noni ifodolovchi so'zlar.

3. Xat, xabar, maktab, kotib kabi madaniyat sohasi bilan bog'lik so'zlar.

4. Savtiya, sarf, nahv, xandasa kabi ko'plab ilm-fanga doir so'zlar.

5. Mamnun, fano, sir, zikr, farz, qudrat kabi abstrakt tushunchani ifodolovchi so'zlar va boshqalar.

Polisemiya. Polisemiya lingvistik xodisa bo'lib, u yoki bu so'zning bosh ma'nosi zaminida shu ma'no bilan bog'lik bo'lgan boshqa ma'nolarning yuzaga kelishigi ifoda etadi.

So'z va uning leksik ma'nolar bilan bog'lik bo'lgan masalalarni tekshirish, o'rganish tom ma'nosi jihatidan semasiologiya'ning ob'ekti bo'lishi bilan birga, polisemiya aloqadordir. So'z ma'nosida yuz beradigan polisemantik o'zgarish albatta jamiyat taraqqiyoti, davr xususiyati bilan bevosita bog'lanadi.

Kal`ka masalasi. Tilshunoslikda kal`ka aslida ma'no o'zlashtirish, ma'no qabul qilish demakdir. Lingvistik jihatdan kal`kani uch xil nom bilan ko'rsatish mumkin:

1. Til faktlarida so'zma-so'z tarjima qilish yali bilan hosil qilingan so'zlar leksik kal`ka deyiladi.
2. Boshqa tilda mavjud bo'lgan ko'chma ma'noli so'zlar.

3. U yoki bu tilda boshqa tillar ta'siri oqibatida hosil qilingan sintaktik modellar sintaktik kal`kaga kiradi. XX asrning birinchi yarmiga taaluqli o'zbek vaqtli matbuoti tilida bu 3 xil kal`ka uchraydi.

XX asrning birinchi yarmi, ayniqsa, birinchi choragi ijtimoiy va sotsial jihatdan murakkab davr edi. O'sha davr o'zbek adabiy tili, o'zbek vaqtli matbuoti tili o'zida so'zsiz ana shu davr xodisalari bilan bog'lik bo'lgan turli tuman tushunchalarni aks ettirdi.

Shuning uchun ham bu davr o'zbek adabiy tili leksik-semantik va stilistik jihatdan o'ziga xos bir kator belgilarga ega.

Bu belgilar ishlangan, keltirilgan ma'lumotlarda ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov U., O'rinboev B. Aliev A. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O'rinboev B. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1982.
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T`oshkent, O'qituvchi, 1995.
4. Abdullaev V.A. O'zbek adabiyti tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1967.